

ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR:

DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
IYUN
№41



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.1, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.tadqiqot.uz

www.conferences.uz



**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
10-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-10**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-10**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 41-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 июнь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 138 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илғор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1. Ҳуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б., ю.ф.н. Юсувалиева Рахима (Жахон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2. Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна (Фарғона давлат университети)

3. Тарих саҳифаларидаги изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4. Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

5. Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги ҳузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

6. Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна (Андижон давлат университети)

7. Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Ҳамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Рахматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Вохидова Мехри Хасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброхимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобохонов Олтибой Рахмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Муסיқа ва ҳаёт

Доцент Чариев Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқайом Раҳимбердиевич (Наманган муҳандислик-қурилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманган муҳандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаххоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22. Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

23. Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24. Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўктам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25. География

Йўлдошев Лазиз Толибович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ
ИННОВАЦИЯЛАР

1. Санонова Жамила Кулбашевна МУСТАҚИЛ ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМНИНГ ЯНГИ НОАНЪА- НАВИЙ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА	10
2. Jumayeva Zuhra Abdusattorovna NUTQ O`STIRISH MASHG`ULOTLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O`RNI VA AHAMIYATI.....	12
3. Shakhnoza Murakayeva, Isomiddinov Sultonbek Nizomiddin o`gli, Safarov Xondamir Muzaffar o`gli, Tursunov Sohijon Rahim o`gli, Baxtiyorov Diyor Ixtiyor o`gli IMPLEMENTATION OF INTERACTIVE LATEST IT TECHNOLOGIES FOR ENGLISH LEARNING PROJECTS EXPERIMENTAL GROUP	14
4. Qolandarova Gulshan, Qalandarova Lobar KITOBXONLIK - MA`NAVIYAT SARCHASHMASIDIR	17
5. Rahimbayeva Guli MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA.....	19
6. Xidirova Laylo Choriyevna MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI	21
7. Zikirova Baxtigul Navro`z qizi</b> MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA HUQUQIY TARBIYANING O`ZIGA XOS JIHATLARI.....	23
8. Камбаров Дилдора Иброхимовна ИНГЛИЗ ТИЛИ ГРАММАТИКАСИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ.....	25
9. Mamanova Sevinch Masrur qizi O`QUV FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI, UNING O`Z-O`ZINI NAZORAT QILISHNI SHAKLLANTIRISHDAGI O`RNI	27
10. Mamanova Sevinch Masrur qizi MAKTABGACHA TARBIYA YOSHDAGI BOLALARDA NUTQ FUNKSIYASI VA SHAKLLARINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI	30
11. Mamanova Sevinch Masrur qizi O`SMIRLIK DAVRI XARAKTERISTIKASI VA AKSENTUATSIYA XUSUSIYATLARI	33
12. Mamanova Sevinch Masrur qizi O`SMIRLIK DAVRI PSIXIKASIDA "MEN" TUSHUNCHASINING XUSUSIYATLARI	36
13. Mamanova Sevinch Masrur qizi O`QUVCHILARDA BILIM, KO`NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI	39
14. Norqobilova Muyiba Alisherovna MANTIQUIY FIKRLASHGA O`RGATISH ORQALI O`QUVCHILAR MA`NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH	42
15. Abdullaev Rustam Ubaydullaevich, MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH	44
16. Abdunazarov Ahad Chori o`g`li JISMONIY TARBIYA FANINING O`QUVCHILAR HAYOTIDAGI O`RNI VA ROLI.....	44
17. Abilova Marxabo Umaraliyevna BOSHLANG`ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASHNING O`QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI	48

18. Abilova Shaxnoza Manazorovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARNI YECHISH ORQALI O'QUVCHILARNING QOBILIYATLARINI ANIQLASH	49
19. Artiqova Dilduzaxon Meliqo'ziyevna ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	50
20. Bazarbayeva Maxsuda Toshtemirovna BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARNI INNOVATSION METODLAR ORQALI O'QITISH	52
21. Xalima Maksatovna BUGUNGI TO'G'RI TANLANGAN KASB – ERTANGI KELAJAK POYDEVORI.....	54
22. Daniyeva Zulfumor Ishbayeva, Daniyeva Saodat Ishbayeva BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR	56
23. Hamroyeva Nigora Saidqulovna BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	58
24. Jumanova Marhabo Qadambayeva, Sharipova Xolida Yuldasheva TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYA FANINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI.....	60
25. Kukanova Sevara Pardaboy qizi BOLA TARBIYASI BORASIDA PSIXOLOGDAN FOYDALI TAVSIYALAR	62
26. Kukanova Sevara Pardaboy qizi O'SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR PSIXOLOGIYASI VA PSIXOKORREKSIYASI	63
27. Kurbanbayeva Dilduz Eralovna TIL-MILLAT RUHI	64
28. Matlova Maxfuza Usmonaliyeva BOSHLANG'ICH SINFI MATEMATIKA DARSLARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN O'YIN TEXNOLOGIYALARI.....	65
29. Meliqulova Chinixol BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHDA MUVAFFAQIYATLI OMILLAR.....	67
30. Rakhimova Dilduz Masharip qizi ISSUES ON INFORMATION SECURITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	69
31. Samatov Elyor Shonazarovich, Omonov Zavqiddin Uchqunovich GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH YO'LLARI	71
32. Sattarova Gulbaxor Baratovna ATMOSFERA VA UNI IFLOSLANTIRUVCHI OMILLAR.....	73
33. Smaylova Gulmari Yuldashovna BARKAMOL SHAXS SHAKLLANISHIDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI	74
34. To'rayeva Minojatxon YOZMA NUTQ KISHILARNING ALOQA QILISHIDAGI ENG MUHIM VOSITADIR	76
35. Vafoyeva Zamira Karimovna, Alloyorova Maftuna Omonboy qizi UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH.....	78
36. Xudayberganova Shoiri Nurimmatovna, Sodiqova Hilola Baxtiyor qizi O'QUVCHILARNING BIOLOGIK BILIMLARINI MUSTAHKAMLASHDA EKSKURSIYALARNING AHAMIYATI	80
37. Xudiyeva Dilafro'z Jumanazarovna KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERFAOL USULLAR	82
38. Tursunova Gulchexra Shoaxrorovna EGOSENTRIZM XUSUSIYATINING O'SMIR XULQ ATVORIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK ASOSLARI.....	83

39. Кодиров Шахбоз Умиджон угли, Наркулова Индира Рустам кизи РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИИ ВОЕННОГО ЭКОНОМИСТА.....	84
40. Дилноза Охунова, Сарвиноз Хакимова ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАЛАБАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ МОЎЖИЯТИ.....	86
41. Дилноза Охунова Қаххоржонова, Орзигул Сотволдиева ТАЛАБА ҚИЗЛАР ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ГЕНДР ХУСУСИЯТЛАРИ.	88
42. Хаитова Дилафруз Учқуновна БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ	90
43. Юлдашова Нилуфар Мухитдиновна ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЁЗМА ДИСКУРС КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАШҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ	92
44. Avezmuratova Zumrad Shamurotovna TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	95
45. Bekbenbetova Bayan Risbayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA ILG'OR PEDTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO'YICHA USLUBIY TAVSIYALAR	97
46. Berdibekova Araylim Salauatovna BOSHLANG'ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA UNDOVCHI MANTIQUIY MASALALAR.....	99
47. Eshbayeva Olmos Abdullayevna BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA O'RGATISH USUL VA VOSITALARI	101
48. Eshonxo'jayeva Zahro Habibullayevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	103
49. G'affarberganova Shohida MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNI BOG'LANISHLI NUTQQA O'RGATISH	105
50. Jaqsibayeva Janna Manatovna BOSHLANG'ICH SINF MATMATIKA DARSLARIDA QO'LLANADIGAN O'YINLAR	107
51. Maxmudova Gulchehra Xoldarovna O'QUVCHILARGA SHE'R O'QITISH METODIKASI.....	109
52. Maxsudova Dilafruz Namozovna MUSIQA O'QITISH METODLARI.....	111
53. Otaboyeva Oysha Baxodirovna KOMIL INSON SHAKLLANISHIDA OILADAGI AXLOQIY TARBIYANING O'RNI.....	112
54. Safarova Gavxar Bozarovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARGA MASAL O'QITISH METODIKASI.....	114
55. Xalillayeva Matluba Muhammadsharifovna, Kurambayeva Mavluda Egamberganovna BOSHLANG'ICH TA'LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	116
56. Xidiraliev Husain Rozmatovich CHET TILINI O'RGANISHDA "INTERFERENTSIYA" TUSHUNCHASING O'RNI	118
57. Xo'jayeva Nilufar Quramboyevna O'QUVCHILARDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLI VAZIYATLARNI BARVAQT ANIQLASH VA KORREKSION ISHLARNI TASHKIL QILISH	120
58. Yuldasheva Chinora Yuldash qizi, Jumanova Salomat Baltaboyevna BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN TABIIY FANLARNI O'QITISH	122

59. Yusupova Shahnoza Shonazarovna, Normatova Shirin Qadirovna TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH	124
60. Yusupova Nazakat Gayibnazarovna, Atabayeva Chamangul Kurambayevna TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH.....	126
61. Kurbanov E.E UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI: MUAMMO, ISLOHOT VA NATIJALAR	128
62. Қодиров Сардор Бахромович ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ – МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИНГ МУҲИМ СИФАТЛАРИДАН БИРИ	130
63. Hamdam Toshpulatov, Qamarov Nurmuhammad MAKTAB INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANIDA O'QUVCHILARDA ALGORITMIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH	132
64. Азимова Наргиза Турсунпўлатовна ТАЪЛИМДА МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН Фойдаланиш.....	134
65. Астанов Шахзод Шойимович, Наркулова Индира Рустам кизи РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СТРАН СНГ	136



ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

МУСТАҚИЛ ТАФАККУРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТАЪЛИМНИНГ ЯНГИ НОАНЪАНАВИЙ УСУЛЛАРИ ҲАҚИДА .

СанONOва Жамила Кулбашевна
Сурхондарё в. Термиз ш. 1-мактаб.
Бошланғич синф ўқитувчиси

Аннотация: Ушбу мақолада таълим жараёнида ноанъанавий методлар ҳақида, ўқувчи шахсининг ҳар томонлама камол топишига ўқитувчининг ўрни ҳақида фикр юритилган.

Калит сўзлар: ноанъанавий методлар, мустақил фикр юритиш, билим, ўқувчи, ўқитувчи

Ўқитувчининг бош вазифаси ўқувчиларда мустақил фикр юритиш кўникмаларини ҳосил қилишдан иборатлигини кўпинча яхши тушунамиз, лекин афсуски, амалда, тажрибамизда унга риоя қилмаймиз. Демократик жамиятда болалар, умуман ҳар бир инсон эркин фикрлайдиган этиб тарбияланади. Агар болалар эркин фикрлашни ўрганмаса, берилган таълим самараси паст бўлиши муқаррар. Албатта, билим керак, аммо, билим ўз йўлига. Мустақил фикрлаш ҳам катта бойлик.

Ҳозирги замон ўқув муасасаларининг вазифаси ёш авлодни мустақил фикрлашга ўргатишдир. Албатта фикрлашда ҳам индивидуал фарқлар мавжуд. Фикрлашни билиш – бу инсоннинг ақлидир. Бугунги кунда ривожланган мамлакатларда ўқувчиларнинг ўқув ва ижодий фаолликларини оширувчи, таълим-тарбия жараёнининг самарадорлигини кафолатловчи педагогик технологияларни қўллашга доир катта тажриба тўпланган бўлиб, бу тажриба асосини интерфаол методлар ташкил этмоқда. Анъанавий таълимда ҳам табиий равишда суҳбат асосини ахборот ташкил этади. Аммо ахборот узатишнинг асосий манбаи ўқитувчининг тажрибаси бўлиб, бу жараёнда у етакчилик, доминантлик қилади, яъни у дарснинг асосий вақтида билимларни оғзаки тарзида ўқувчиларга етказиб беришга интилади. Фаоллик кўрсатиш ўқитувчигагина хос бўлиб, ўқувчилар бу вазиятда суҳбат тингловчи бўлиб қолади. Уларнинг асосий вазифаси ўқитувчини тинглаш, зарур ўринларда ёзиш, саволлар билан мурожаат қилинганида жавоб қайтариш, кам ҳолатларда руҳсат этилганидагина сўзлашдан иборатдир. Ўқувчи асосан, ўзи ўзлаштирган билимларни намойиш этади, ўқитувчи эса унинг фикрларини тинглайди, зарур ўринларда ўқитувчи – ўқувчи анъанавий таълимдаги суҳбат иштирокчилари саволлар билан мурожаат қилади. Ўқувчилар гуруҳи (жамоаси) бу вазиятда бутунлай суҳбат иштирокчи, тингловчи бўлиб қолади. Бир қарашда ўқувчи ёки ўқитувчи томонидан узатилаётган ахборотларнинг қабул қилиниши ўқувчилар гуруҳи (жамоаси) учун билимларни ўзлаштириш имкониятини яратаётгандек таассурот уйғотади. Бироқ, психологик тадқиқот натижаларининг кўрсатишича, шу тарзда қабул қилинган билим (маълумот)лар жуда тез унутилади. Хусусан, америкалик психолог олимлар Р. Карникау ва Ф. Макэлроунинг ўрганишларига кўра шахснинг табиий физиологик – психологик имкониятлари муайян шаклларда ўзлаштирилган билимларни турли даражада сақлаб қолиш имконини беради.

Замонавий таълимни ташкил этишга қўйиладиган муҳим талаблардан бири ортиқча руҳий ва жисмоний куч сарф этмай, қисқа вақт ичида юксак натижаларга эришишдир. Қисқа вақт орасида муайян назарий билимларни ўқувчиларга етказиб бериш асосида маълум фаолият кўникма ва малакаларни шакллантириш, фаолиятини назорат қилиш, улар томонидан эгалланган назарий ва амалий билимлар даражасини баҳолаш ўқитувчидан юксак педагогик маҳоратни, таълим жараёнига нисбатан янгича ёндашувни талаб этади. Педагогик технологияларни қўйидаги таркибий қисмларга бўлиш мумкин: - таълим - тарбия иштирокчилари шахсига қўйиладиган ижтимоий талаблар; - ҳамкорлик фаолияти аъзоларининг касбий тайёргарлиги; - таълим жараёнининг мақсади, мазмуни, моҳияти, амалга



ошириш воситалари; - таълим жараёнини дифференцилаштириш; - ижодийлик Яъни шахс: манбани ўзи ўқиганида 10 %; маълумотни эшитганида 20 %; содир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараёни кўрганида 30 %; содир бўлган воқеа, ҳодиса ёки жараёни кўриб, улар туғрисидаги маълумотларни эшитганида 50 %; маълумот (ахборот)ларни ўзи узатганида (сўзлаганида, билимларини намойиш этганида) 80 %; ўзлаштирилган билим (маълумот, ахборот)ларни ўз фаолиятига татбиқ этганида 90 % ҳажмдаги маълумотларни ёдда сақлаш имкониятига эга. Ўқувчиларда мантикий тафаккурни ривожлантириш учун фикрлаш хусусиятларини шакллантириш зарур. Фикрлаш операциялари асосида дарс жараёни фаоллаштирилади. Бу ўқитувчининг: нима учун?, қандай мақсадда?, сабабалари қандай?, натижа нима учун шундай бўлди? сингари саволларнинг муҳокамаси орқали амалга оширилиши мумкин.

Таълим олувчиларнинг таълим фаолиятига кўра таълимнинг қуйидагича методлари ажратилади:

1. Тушунтирув кўрсатмалилик методи – бу метод репродуктив метод бўлиб унда фаолият ўқитувчи томонидан олиб борилади. Ўқувчилар таълим жараёнида билим оладилар, танишадилар. Бу метод жуда кенг тарқалган методлардан бири бўлиб, уни албатта такомиллаштирилган усуллари мавжуд. Бу дастурлаштирилган таълимдир.

2. Репродуктив метод – бу методда ўқувчи фаолият кўрсатиб, унда ўқувчи берилаётган билимни қайта хотирада тиклаб, олинган билимни нусха сифатида қабул қилади.

3. Муаммоли таълим методи – ўқитувчи томонидан ташкил этилиб, у продуктив характерга эгадир. Ушбу метод орқали ўқувчи билим ва малакаларини шакллантиради. Ушбу методнинг такомиллаштириш йўлларида бири ишчан ўйинларни ташкил этишдан иборатдир.

4. Қисман изланиш методи – ўқитувчи назорати остида ташкил этиладиган метод бўлиб, у ҳам продуктив характерга эга бўлиб, бунда ўқувчи ижод қилади.

5. Тадқиқот методи – ўқитувчи илм ёрдамисиз ташкил этиладиган таълим методи бўлиб, у ўқувчининг мустақил изланиш, фикрлаш ва билимлар трансформациясини талаб этади.

Юқорида айтиб ўтилган барча сифатлар ёш ўзгарган сари ўзгариб боради. Ижодий ишда фикрлашнинг мустақиллиги ва танқидийлиги зарур бўлиб, у ақлий фаолиятнинг продуктивлигини таъминлайди. Таълим жараёнида ноанъанавий методлар ўқувчи шахсининг ҳар томонлама камол топишига замин ҳозирлайди.

Адабиётлар рўйхати:

1. И.А.Каримов. Юксак маънавият – енгилмас куч.– Т.: Маънавият, 2008.
2. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. –Т.: ТДПУ, 2006.
3. Ишмухамедов Р.Ж. Таълимда инновацион технологиялар.–Т.: Истедод, 2008.
4. Худойкулов Х.Ж. Замонавий педагогик технология таълим самарадорлигининг асосидир. Тошкент, Навруз. 2013 й.



NUTQ O`STIRISH MASHG`ULOTLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARNING O`RNI VA AHAMIYATI

Jumayeva Zuhra Abdusattorovna

Surxondaryo v. Denov tumani 40 -DMTT direktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o`stirish mashg`ulotlarida innovatsion texnologiyalarning ahamiyati haqida so`z yuritilgan.

**Kalit so`zlar:** mashg`ulot, nutq o`stirish, innovatsiya, maktabgacha yosh

Mustaqil O`zbekistonimizning ravnaqi bugungi yosh yangi avlodning har tomonlama to`laqonli, barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko`p jihatdan bog`liqdir. Chunki davlat mustaqil fikrlaydigan, ruhi komil, dili pok insonlar tomonidan quriladi va mustahkamlanadi. Mamlakatimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo`nalishidir. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi yosh avlod uzluksiz ta'lim va tarbiyasining butun jarayonini qamrab oluvchi yagona ta'lim majmui hisoblanadi. Uning dastlabkisi – maktabgacha ta'lim bosqichidir.

«Ta'lim to`g`risida» gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablaridan kelib chiqqan holda ta'limning mazmuni va vositalarini yangidan ishlab chiqishni hayotning o`zi talab qilmoqda. Ana shu tashkiliy-pedagogik jarayonda ta'lim qonuniyatlari va tamoyillariga mos holda yangi tamoyillarga amal qilish, ta'lim metodlarining paydo bo`lishi, ta'lim vositalarining takomillashuvi, ayniqsa ta'limni tashkil etishda tarbiyachi mahoratining noan'anaviy shakllari keng ko`lamda joriy etilishi kuzatilmoqda.

Ushbu o`zgarishlarning ma'lum qismi mavjud didaktik yondashuvlarning tarkibi sifatida chiqqan bo`lsa, yana bir qismi dunyodagi ta'lim tizimi rivojlangan mamlakatlar olimlarining pedagogik tajribalariga suyangan holda paydo bo`ladi. Innovatsion pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lim sohasiga kirib kelishi alohida e'tibor qaratadigan yo`nalishlardan biri ekanligini qayd etish zarur.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o`quv jarayoniga qo`llashga bo`lgan qiziqish, e'tibor kundan - kunga kuchayib bormoqda, buning sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda ta'lim oluvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o`rgatilgan bo`lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o`zlari qidirib topishlariga, mustaqil o`rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o`zlari keltirib chiqarishlariga o`rgatadi. Tarbiyachi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan ta'lim jarayonida shaxs asosiy ishtirokchiga aylanadi.

Zamonaviy tarbiyachi – kelajak bunyodkori, yangi pedagogik texnologiyalar muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ`ibotchisidir. Zamonaviy tarbiyachi tomonidan o`quv jarayonining tashkil etilishi jarayonida mashg`ulot mazmunidagi asosiy ma'lumotlar va o`quv materiali shunday taqdim etilishi kerakki, u bolaning vizual idrok qilish qobiliyatini osonlashtirsin.

Ta'lim tarbiya jarayonidagi innovatsiyalar, ilg`or pedagogik texnologiyalar, yangiliklar, mashg`ulot o`tishning interfaol usullari o`z-o`zidan ta'limga kirib kelmaydi. Demak tarbiyachidan bilim, ijodiy mexnat va kasb maxorati talab qilinadi. Chunki tarbiyachi faoliyati yangilanmasa ta'lim-tarbiyada samaradorlikka erishib bo`lmaydi.

Tarbiyachi tomonidan mashg`ulotlarda bolalarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo`naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to`g`ri tanlanishi, tasviriyl faoliyat mashg`ulotlarining qiziqarli, baxs-munozaralarga boy bo`lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu xolatdagina bolalar tashabbusni o`z qo`llariga oladilar, tarbiyachining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo`nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qilish, murakkab vaziyatlarda yo`l-yo`riq ko`rsatish, maslaxatlar berish hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qo`yiladi.

Berilayotgan bilim oddiygina xotira yordamida emas balki, bolaning o`z fikrlash sa'y-harakatlari bilan egallangandagina mustahkamlanadi. Bolaning erkin fikrlash, ayniqsa tasavvur etish, faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirish, ko`nikma va malakalarni vujudga keltirish muxim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir tarbiyachi o`z mashg`ulotlarida bolalarga chuqur bilim berishi uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Nutq



oʻstirish mashgʻulotlarini oʻtishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qoʻllashda, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanishda yuqori natijalarga erishiladi.

Maktabgachayoshdagi bolalar uchun nutq oʻstirish mashgʻulotlari innovatsion texnologiyalardan, faol oʻqitish usullaridan, oʻyinli texnologiyalardan keng va samarali foydalangan holda amalga oshirilsa, bolalarda faol va mantiqiy fikrlash qobiliyati, diqqati, mantiqiy xotirasi, aqliy qobiliyati rivojlanadi.

Ta'lim tizimidagi islohotlar va davlat tili to'g'risidagi qonun bolalar nutqini shakllantirish, xususan, maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini oʻstirish metodikasi va amaliyotida oʻzgarishlar boʻlishini taqozo etadi. Hozirgi paytda maktabgacha katta yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishga yanada yuqoriroq talablar qoʻyilmoqda. Bu talablarga javob berish nutqni rivojlantirishga oid yangi izlanishlarni taqozo etadi.

Demak, nutq oʻstirish mashgʻulotlari jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda, bolalarda bilim, aql, his-tuygʻu, iroda, ishonch, ong, tafakkur kabilarni shakllantirishda, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 206 b.
2. Fabermen L.B. Ilgor pedagogik texnologiyalar. GulDU. -1999. yil
3. Fayzullaeva M., Raximova Z., Rustamova M., Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini oʻstirish. (tayyorlov guruhi uchun mashgʻulotlar ishlanmasi). T., 2011 y.



IMPLEMENTATION OF INTERACTIVE LATEST IT TECHNOLOGIES FOR ENGLISH LEARNING PROJECTS EXPERIMENTAL GROUP

Teacher: Shakhnoza Murakayeva

sh.murakayeva @ mgjxu.uz

University of Public Security of the Republic of Uzbekistan

Cadets: Isakov Azamat Xusanovich

Isomiddinov Sultonbek Nizomiddin o'gli

Safarov Xondamir Muzaffar o'gli

Tursunov Sohijjon Rahim o'gli

Baxtiyorov Diyor Ixtiyor o'gli

Annotation: The article discusses the world and national experience in the implementation of IT technology in remote project-based interactive teaching of the English language and the protection of copyright of these projects. Some innovative interactive methods and techniques for digital storytelling Digital storytelling and TED Talks speaking are given.

Key words: innovation, IT technologies, distance learning, project work, world experience, national experience, interactive method, interaction, English, digital storytelling Digital storytelling and TED Talks and authentic materials.

The new brave world, so that new innovative problems, that is high time for new technological solutions with a high-tech innovative and fast remote ways. Education in our country is continuous so that the process should not be interrupted; people want to continue study despite of Gamma, Delta, Epsilon or Zeta Covids.

1. study online English materials for ESL students
2. practicing English anytime with mobile apps
3. taking a Massive Open Online Courses
4. connecting with other English learners
5. speaking with native English conversation partners (with wearers of TL
6. following educational websites in English
7. joining the digital storytelling projects around the world and creating your own

According to J. Allak, “through education, culture is transmitted and transformed, social functions and statuses are reproduced and created”. Developed countries emphasize more than once that education plays a strategic role in the national economy. Distance learning is the most effective way out and tool for quarantine measures and not only when it is necessary to quickly unite the states of the world in one joint project, improve globalization processes and related cooperation and commonwealths with one common goal. In the concept of creating distance learning in teaching English of all specialties we use Digital storytelling.

Based on our experience, we recommend this Digital Storytelling technology, which contributes to faster and better assimilation of materials by cadets and increase their academic performance, and due to the interest in digital technologies through which the teacher translates English. In the course of work on digital stories, the level of IT literacy is growing. This is connected with visual and auditory perception working at the same time with perception in general and with the reaction of students - everything is connected and synchronized.

According to our experience of using through Erasmus+ program at the National University of Uzbekistan together with Finland, India, Turkey and the Commonwealth of Independent States countries – we created the Cultural Diversity Education project, we completed a lot of tasks online.

CALD –cultural and language diversity is an action in order to define students enrolled in educational programs who are non-English-proficient (NEP)

When working and learning with people from a variety of backgrounds as with uzbek - tatar, kazakh, karakalpak and kirgiz, so we mean CIS countries as we have in the classroom, students gain a more comprehensive understanding of the subject matter. It also teaches students how to use their own strengths and points of view to contribute in a diverse working environment.

In order to improve diversity in your practical classes you can use authentic materials.

Authentic materials are print, video, and audio materials students encounter in their daily lives, such as change-of- address forms, job applications, menus, and voice mail messages, radio pro-



grams, connected only with culture of TL.

Authentic materials help motivate learners learn the language by making them feel that they are learning the 'real' language /In other words, students learn the language better when we as teachers use authentic materials as a teaching aid.

Some keys to successful adaptation of authentic materials include: converting them into workshop activities. Adjusting the length of the materials.

Simplifying or explaining key language elements. Converting authentic materials into a variety of exercise types. How can they help? TED talks can help English language learners in a variety of ways: ... The talks feature content that can add to your English language knowledge and teach you more about linguistics in general. How do you use TED talks in English class?

Six Ways to Use TED Talks Effectively in Your Classroom:

1. Teach the Value of a Trait.
2. Classroom Inspiration.
3. Teach a Skill.
4. Demonstrate the Value of a Subject.
5. For Teachers: Professional Development.
6. Teach a Subject/Topic

Since the 1990s, digital stories of people belonging to a wide variety of age, social and professional groups, have become the basis of many projects, with a strong social value. Sometimes such projects are initiated public organizations, museums or libraries; in other cases, they are not related to this or that organizations and are more general in nature. When people are given the opportunity to create content for the public, they, as a rule, readily take part in such activities. Development of information and communication technologies led to the same revolutionary changes in the field of transfer and dissemination of knowledge, ideas and culture, as well as once the appearance of educational process around the world. Suffice it to say that content uploaded by users on YouTube is only in six months, exceeds in volume the entire array of programs created by the largest TV companies for all the years of the existence of television. Prior to the launch of this program in Uzbekistan

So, one of the pioneers in this area was the Welsh editorial office of the BBC with the project

Capture Wales – “Let's Capture Wales”. Digital stories created as part of the project, are audio or video stories from Welsh residents about their lives, accompanied by photographs from the family archive.

Everyone has a story to tell. All over Wales, people are making Digital Stories about real-life experiences and each story is as individual as the person who made it. Each Digital Story is made by the storyteller themselves, using his or her own photos, words and voice.

Capture Wales is the BBC's award-winning Digital Storytelling project which came out of a partnership formed in 2001 between BBC Wales and Cardiff University.

BBC Capture Wales ran monthly workshops from 2001 - February 2008, facilitating people in the making of their digital stories. In this project you can watch the wealth of stories that were created on workshops during that period.

S. Morra proposes to consider Digital Storytelling as the art of telling stories in the 21st century: digital technologies have made it possible for everyone to tell their story and share it with the whole world. The main product of the application of this technology is a digital story – that is a multimedia work that may contain photographs and other graphic images, video and audio recordings, music, text, voice accompaniment. So we should use IT programs and Internet resources. For example- The Voice Library – here we can simply capture life experiences and testimonials through the power of voice, story + pictures, secured in your own private online library. People are using TVL in their Lives in many ways: Personal • Business • Health & Wellness • Education Record & share the voices in their life as an audio book on any device, anywhere, anytime. That's great positive and innovative side of Digital projects.

Conclusion: Projects help us to live on and believe in ourselves and in the unity of thoughts and goals of a whole group of people of the same direction. I am the author of the article - I lost my daughter 3 years ago due to a serious illness, and I was able to tell many people about this with the help of social distance projects. Life must go on - no matter how hard it is. People like me shared their loss and pain, and as a result, by combining our minds and efforts in a reasonable society, we created a remote project for disabled children who cannot walk, run and jump to school, but are



forced to sit on wheelchairs at home.

Literature

1. Baklenova, S. A. Professional development of future military specialists based on foreign-language video materials. - 2014. - No. 12-4. –822s.
2. Dobrynina D.V. Innovative methods of teaching university students as a means of implementing an interactive learning model D.V. Dobrynina Bulletin of the Buryat State University.-2010.-№5.-172 p.
3. Myasoed T. A. Interactive learning technologies: spec. seminar for teachers. - M. 2004.-75 p.
4. Stupina S.B. Interactive learning technologies in higher education: a teaching aid - Saratov, 2009.- 52p.
5. Suvorova N. Interactive learning: new approaches. - M., 2005-110p.



KITOBXONLIK - MA'NAVIYAT SARCHASHMASIDIR

Qolandarova Gulshan,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998331198731

Qolandarova Lobar,

Xorazm viloyati Bog'ot tumani
27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998975630204

Annotatsiya: Ushbu maqolada Inson ma'naviyatining sarchashmasi bo'lmish kitob hamda kitobxonlik, aholi orasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida fikr mulohazalar bildiriladi.

Kalit so'zlar: Kitobxonlik madaniyati, Alisher Navoiy, Shavkat Mirziyoev, PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”, intellektual saviya.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida”gi farmoyishi ta'bir joiz bo'lsa, hayotimiz, tafakkurimiz va ma'naviyatimizda g'oyat ulkan voqea bo'ldi. Ushbu sa'y-harakat milliy adabiyotimiz va ma'naviyatimiz ravnaqida katta siljishlarning debochasi bo'lishiga astoydil ishonib turibmiz. Ayniqsa, bu o'rinda xorij tajribasini o'rganish, yoshlar o'rtasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o'stirishga xizmat qiladigan kitoblarga talabni o'rganish kabi masalalarning ko'tarilgani g'oyatda tahsinga loyiqdir. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma'naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai”. Xalqimiz tilida kitob o'qib bilim va munosib tarbiya olish, kasb-hunar o'rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko'p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Bilim – aql chirog'i”, “Go'zallik – ilmu ma'rifatda”. Bunday hikmatli naqlarni yana uzoq davom ettirish mumkin. Necha ming yillardan buyon insonlarga to'g'ri yo'lni ko'rsatib kelayotgan, ularning bilimli, tarbiyasi, kasbhunarli va albatta baxtli bo'lishining muhim omili – bu kitobga do'st bo'lish, va kitob o'qishni kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning hayotida kitobning alohida o'rni bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezgulikka undaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentyabr kuni qabul qilingan PQ-3271 sonli “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutoalasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi qarorining qabul qilinishi ham ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlarning dalilidir desak, aslo, xato bo'lmas edi. Ushbu qarorga muvofiq, qabul qilingan dastur bosqichma-bosqich amalga oshiriladi:

I bosqich – 2020–2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;

II bosqich – 2022–2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;

III bosqich – 2024–2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash.

“Ayni paytda, - deydi Shavkat Miromonovich, - axborot-kommunikatsiya sohasidagi oxirgi yutuqlarni o'zlashtirish bilan birga, yoshlarning kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirishga, ularni kitob bilan do'st bo'lishga, aholining kitobxonlik saviyasini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Buning uchun, avvalo, milliy adabiyotimiz va jahon adabiyotining eng sara namunalarini ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish va ularni keng targ'ib qilishga alohida e'tibor berishimiz muhim ahamiyat kasb etadi”. Mamlakatimiz rahbarining kitob, kitobxonlik madaniyatini yaxshilash to'g'risida kuyunib gapirayotganliklarining chuqur falsafasi bor. Birinchidan, yuqorida qayd etilgani kabi, kitob insonni yerdan ko'kka ko'taruvchi, uning ma'naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuch hisoblanadi. Ikkinchidan, kitob insoniyatning tarixiy xotirasi, barchamizni o'z ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy zaminimizni mustahkamlovchi, kelajakni



yorqin ko'rsatib borishga qodir mash'ala hisoblanadi. Shuning uchun ham bizning yurtimizda ilm olish, kitob yozish, ijod qilish har doim ham millatning mavjudligi va u nimaga qodir ekanligini ko'rsatuvchi muqaddas tushunchalar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, Boladagi barcha tarbiyaviy hislatlar dastlab oilada shakllanadi, demak kitobxonlik ham o'z oilasi a'zolari ko'magi va ta'sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning yaxshi yoki sust rivojlanishida oiladagi boshqa a'zolarning kitobga, o'qishga munosabati katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan kitobga munosabatva uni o'qishda ham bolalariga o'rnak bo'lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o'qish va ularni muhokama qilish; ota-onaning boladan har bir javob haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so'rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishni o'rganish (aniqrog'i o'rganish) muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" (2017 yil 12 yanvar)gi farmoyish
2. <https://www.standart.uz/news/view?id=1627>



MAQOLLAR - INSONNI TARBIYALAYDIGAN VOSITA

Rahimbayeva Guli, Xorazm viloyati

Bog'ot tumani 13-maktab
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Telefon: +998938683797

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq og'zaki ijodi turi hisoblanmish maqollar va ularning ibratli tomoni, maqollarning turi, kelib chiqishi, mavzusi, inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, maqol, tarbiya, ibratli saboq, so'z ko'rki.

Xalq og'zaki ijodida tarbiyaviyligi bilan maqollarning o'rni beqiyosdir. Maqollar odamlarning hayoti va turmush jarayonida to'plagan tajribalari, dunyoqarashi, o'zi yashab turgan ijtimoiy hayotga bo'lgan munosabati, o'tmish hayoti va uning ibratli saboqlarini, umid va orzularini ifodalaydi. So'z san'atining mahsuli sifatida maqollar ifodalanadi.

Alisher Navoiy o'zining ijodiy faoliyatida xalq og'zaki ijodini o'rganib, kishilar hayotida maqolning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligi haqida to'xtalib shunday baytni yozadi:

Kishiga necha mushkul hol, Kimki bilay desang maqolin angla, Hikmatu aql anga erur halol. Asli bilay desang oni angla.

Maqol ota-bobolarimizning uzoq yillar davomida ko'rgan-kechirganlari, tajribalari asosida yuzaga kelgan xulosalaridir. Masalan, “Ona yurtning omon bo'lsa, rangi ro'ying somon bo'lmas”, – deymiz. Bu so'zlar zahirida vatanidan ayrilib, musofirlikning achchiq alamlarini tortgan kishining, begona yurtlarda, notanish odamlar orasida vatansizlikdan rangi ro'yi somon bo'lgan kishining iztiroblari yotibdi. Yo bo'lmasa, “O'zgalar yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtida cho'pon bo'l”, – degan maqolni oling. Bu so'zlar zahirida ham katta hayotiy tajribalar mujassam. Beixtiyor shoh va shoir bobomiz Bobur Mirzo esga tushadi. Hindistondan katta mamlakatga podshohlik qilgan kishi yurtdoshlari Andijondan qovun olib borganlarida yig'lagan edi. Haqiqatan ham, Vatan mehridan kuchli narsa dunyoda yo'q.

Ko'plab maqollarda ichki qofiya bo'ladi. Masalan, yuqoridagi ikki misolning birinchisida “omon” bilan “somon”, ikkinchisida “sulton” bilan “cho'pon” o'zaro ohangdosh, ya'ni qofiyadoshdir. Shu jihatdan ular topishmoqlarga o'xshab ketadi. Masalan, “Pak-pakana bo'yi bor, yetti qavat to'ni bor”, – desak, bu yerda ham “bo'yi” va “to'ni” so'zlari qofiyadosh. Shunga qaramay, u maqol emas. Chunki unda xulosa yo'q. Hukm yo'q. Unda sirlilik bor. Unda hamma so'zlar bir narsani bekitishga qaratilgan. U narsaning belgilari berilyapti, xolos. Maqolda esa, aksincha, xulosa beriladi. Maqol inson nutqini bezaydi (xalqimizni “So'z ko'rki – maqol”, deb bejiz aytilmagan), uning ta'sir kuchini oshiradi.

Maqolda mazmun aniq, xulosa tugal, ifoda ravon bo'lib, unda ibratli fikr aytiladi. bu fikr rad etib bo'lmaydigan hokim shaklida keltiriladi. Masalan, “Ona yurtning – oltin beshiging”, “Olim bo'lsang, olam seniki!” kabi maqollarni hech bir e'tirozsiz qabul qilamiz.

“Maqol so'zi arab tilidan olingan bo'lib, “so'z” degan ma'noni bildiradi. Uni otalar so'zi ham deyidilar. Maqol she'riy shaklda ham bo'lishi mumkin. Masalan:

Oltovlon ola bo'lsa, Og'zidagin oldirar.

To'rtovlon tugal bo'lsa, Tepadagin endirar.

Bu maqol birlik, o'zaro ittifoqlik haqida. Bir kishining olti o'g'li bo'lsa-yu, ular bir-birlari bilan ahil bo'lmasa, og'zidagilarini oldiradi. Ular istagan odam xafa qilaverishi mumkin. To'rt aka-uka ahil bo'lsa, ular ko'p ish qila oladi. Ya'ni, ahillik bo'lsa, oz odam bilan ham katta ishlar qilishi mumkin. Ahillik bo'lmasa, ko'p ish bilan ham hech ish qila olmaysan. Bu – ma'nosi.

Ifodaga kelsak, “oltovlon”, ko'pchilikni, “to'rtovlon” ozchilikni anglatyapti. “Ola bo'lmoq” noahillik, “tugal bo'lmoq” ahillikni bildirmoqda. “Og'zidagin oldirmoq” bor narsalarni boy deb berib qo'ymoq, “tepadagini endirmoq” qiyin, murakkab ishlarni ham osongina hal qilmoq ma'nolarini anglatyapti.

Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lishi mumkin. Masalan, do'stlik, vatan, mehnat, ilm-hunar egallash, botirlik, saxovat, adolat va hokazo. Aziz farzand, xalq maqollari – boyligimiz. Ota- 11 Ноябрь 2021 8-қисм Тошкент bobolarimizning siz bilan qoldirgan xazinalaridan biridir. Ularni izlab toping, sevib o'rganing. Kerak o'rinlarda foydalanishni odat qiling. Shunda ular



butun umringiz davomida hamrohingiz bo`ladi. Har gapingizning salmog`i oshadi. Sermazmun, ta`sirchan, keskir bo`ladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro`yxati:

1. O`zbek xalq maqollari. Toshkent. 2003-yil.
2. S. Ahmedov, R. Qo`chqorov. Adabiyot. 5-sinf darsligi. Toshkent. 2020
3. Internet ma`lumotlari.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MATEMATIK TASAVVURLARINI SHAKLLANTIRISHNINIG NAZARIY ASOSLARI

Xidirova Laylo Choriyevna
Surxondaryo v. Denov tumani
6 -DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ilmiy maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni matematik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish yoritib berilgan.

Kalit soʻzlar: maktabgacha taʼlim, elementar matematika, rivojlanish, taʼlim tarbiya

Maktabgacha taʼlim yoshdagi bolalarni sogʻlom va barkamol qilib tarbiyalashda jismoniy jihatdan tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Bolalarni jismoniy jihatdan tarbiyalash taʼlim tarbiya tizimida alohida oʻringa ega boʻlib, u bolani sihat-salomatlikka, toʻgʻri jismoniy rivojlanishiga, yuksak madaniyatga maktabgacha taʼlim tizimida beriladigan bilimlarni chuqur oʻzlashtirishga zamin tayyorlaydi.

Maktabgacha taʼlimda jismoniy mashqlarning asosiy mazmuni badan tarbiya, harakatli oʻyinlar va sport oʻyinlari, sport mashqlari, oddiy turizmdir. Maʼlumki, bolalar jismoniy tarbiya mashqlari, oʻyinlarni bajarganda 1,2,3,4,5,6,7,8,9,10 gacha sanash, yaqin, uzoq, baland, past, chamalash, doira, aylana, toʻgʻri chiziq, toʻgʻri turish, uchburchak, toʻrtburchak, kabi soʻzlarni eshitadi va soʻzlaydi, bu soʻzlar maktabgacha yoshdagi bolalarga elementar matematik tasavvurlarini shakllantirishda ham ishlatiladi. Demak, maktabgacha taʼlim muassasalarida kichik, oʻrta, katta va tayyorlov guruhlarida oʻrgatiladigan elementar matematika tasavvurlarini shakllantirish boʻyicha naʼmunaviy dasturda berilgan elementar matematik bilimlarni bolalarga oʻrgatish jarayonini bilim va koʻnikmalarini samarali boʻlishini, bolalar ongida yanada mustahkam boʻlishini taʼminlashda, oʻyinlarni bajarish davomida quyidagi elementar matematik tasavvurlarni: son, sanoq, toʻplam haqida, miqdor, shakl, miqdorviy tasavvur, vaqt haqida olgan bilim va koʻnikmalarini mustahkamlash hozirgi kunda dolzarb va ahamiyatga molik boʻlib, maktabgacha taʼlimda fanlar aro aloqadorlik bolalarni u yoki bu fandan olgan bilimlarini samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Maktabgacha taʼlim muassasalarida elementar matematik tasavvurlarni rivojlantirish boʻyicha umum metodik nazariy asoslari namunaviy dasturlari yaratilgan boʻlib, bu masala boʻyicha koʻplab tadqiqotlar olib borilmoqda.

Maktabgacha tayyorlov guruhida bolalarda baʼzi bir yashirin muhim matematik aloqalarni, munosabatlarni, “teng”, “katta”, “kichik”, “butun va boʻlak” kattaliklar orasidagi bogʻlanishlarni, oʻlchov kattaliklari bilan son oʻrtasidagi bogʻlanishlarni aniqlay bilish koʻnikmasini rivojlantirishga alohida eʼtibor beriladi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning matematik tasavvurini shakllantirish mantiqiy tafakkurining yangi bosqichga koʻtarilishiga va ularning umuman aqliy faoliyati rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Bolalarni koʻz bilan hamda ichida sanashga oʻrgatib boriladi. Ularning koʻz bilan chamalash, shaklni tezda farq qila bilish qobiliyati rivojlanadi.

Bu yoshda aqliy qobiliyatni, mustaqil fikr yuritishni, analiz, sintez, taqqoslash kabi jihatlarini, muhokama qilish, xulosa chiqarish qobiliyatini, miqdorviy tasavvurni rivojlantirish ham katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tayyorlov guruhining elementar matematik tasavvurini rivojlantirish boʻyicha dasturi bolalarning oldingi guruhlarda olgan bilimlarini umumlashtirish, bir tizimga keltirish, kengaytirish va chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

Maktabga tayyorlov guruhida matematika boʻyicha haftasiga 2 ta mashgʻulot, yil davomida 72 ta mashgʻulot oʻtkaziladi.

Mashgʻulotlarning davom etish muddati: birinchisi – 30 daqiqa, ikkinchisi – 20-25 daqiqa.

Har bir mashgʻulot tuzilishi uning mazmuni bilan aniqlanadi. U yangi materialni oʻrganish, oʻtilganlarni takrorlash va mustahkamlash, bolalarning egallagan bilimlarini tekshirishga xizmat qiladi. Tayyorlov guruhida oʻtkaziladigan matematik mashgʻulotda didaktik koʻrsatma materiallaridan keng foydalanilishi xarakterlidir. Amaliy ishlar, koʻrgazma tashkil qilish bilan bogʻliq boʻlgan topshiriqlar ham namuna sifatida qaralishi mumkin. Pedagog – tarbiyachi ularga oʻzida boʻlgan koʻrsatma-qoʻllanmalarni hisobga olib tuzatishlar kiritishi mumkin.

Bolalarga matematikadan taʼlim berish va maktabgacha taʼlimdagi oʻquv-tarbiya jarayonini takomillashtirishning maqsadlaridan biri — bu bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirishdir.

Bolalardagi matematik bilim hayotdan ajralmagan holda dunyoni chuqurroq, toʻlaroq



o'rganishga imkon yaratadi. Matematik masalalarni yechish jarayoni o'zining mohiyati bo'yicha mustaqil fikrlashni talab qiladi, matonat shakllanadi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanadi. Matematik tushunchalarni rivojlantirish darajasi turli insonlarda turlicha bo'ladi. Uning shakllanishi doimiy mashq qilishni talab qiladi. Bu mashqlar oila va maktabgacha ta'limdan boshlanadi. Oilada ota-ona bo'lsa, maktabgacha ta'limda albatta tarbiyachi-pedagog bo'ladi.

Shuning uchun har bir pedagog bolaga matematik tasavvurlarni shakllantirar ekan, pedagogikaning nazariyasi va o'qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari (interfaol metodlar, individual yondashish, mustaqil shig'ullanishga o'rgatis va hk) hamda milliy istiqlol g'oyalari bilan qurollangan bo'lishlari kerak. Nazariy jihatdan to'la asoslangan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va zamonaviy axborot texnologiyalarni bugungi kunda ta'lim jarayoniga qo'llash eng dolzarb masalaga aylangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.U.Bekboeva, U.S.Aliyeva Elementar matematik tushunchalarni rivojlantirish bo'yicha ta'lim mazmuni. "Maktabgacha ta'lim" jurnali №12, Toshkent 2000 y.
2. N.U.Bekboeva, Z.I.Ibrohimova, H.I.Qosimova "Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish" Toshkent. O'qituvchi. 1995 yil.
3. M.E.Jumayev "Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi" Toshkent. Ilm ziyo. 2010 yil.



МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA HUQUQIY TARBIYANING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Zikirova Baxtigul Navro'z qizi

Surxondaryo v. Denov tumani

6-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakda huquqiy tarbiya jihatdan yetuk bo'lishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani bolalarga singdirish masalasi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: huquqiy tarbiya, maktabgacha yosh, tarbiyachi, huquqiy ong

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelajakda huquqiy tarbiya jihatdan yetuk bo'lishi uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida huquqiy tarbiyani bolalarga singdirish masalasi bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligi hamda huquqiy tarbiyani bolalikdan o'rganib borish lozimligi boshlang'ich tarbiya maskanlarida bolalarga huquqiy tarbiyani shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Demak, tarbiyachi maktabgacha yoshdagi bolalarga huquqiy tarbiyani o'rgatib borishi hamda ta'limning turli usullaridan munosib foydalanishi kerak. Bolalarga huquqiy tarbiya haqida tushuncha berishda tarbiyachidan yangi innovatsion texnologiyalardan hamda kasbiy malakasidan unumli foydalanib tushunchalar berib borishi talab etiladi. Yosh avlodning huquqiy ong va madaniyatini shakllantirish hozirgi davrning dolzarb masalalaridan biri sanaladi. Chunki huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish g'oyasi yosh avlodda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirishni taqozo etadi. Ma'lumki, mustaqillikka erishgan kunimizdan boshlab yurtimizda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Zero, demokratik huquqiy davlat yuksak darajada rivojlangan huquqiy ong va huquqiy madaniyatga tayanadi.

Bolalarda huquqiy madaniyatni yuzaga chiqarish uchun, avvalo, huquqiy ongni shakllantirish zarur. Huquqiy ong shaxsning barcha kechinmalari, fikr, g'oya va qarashlarini tashkil etadi. Bu esa o'z navbatida ikki tarkibiy qismdan iborat. Birinchisi, huquqiy ruhiyat – inson ongiga hissiy hodisalar bilan ta'sir ko'rsatuvchi tuyg'ular, kechinma va holatlar. Ikkinchisi, huquqiy mafkura – huquqiy borliq to'g'risida nisbatan shakllangan qarashlar, tushunchalar, e'tiqod, konsepsiyalar va nazariyalardir. Huquqiy ong, dastavval, oila va maktabgacha ta'lim muassasalarida rivojlantirib boriladi. Oilada burch, mas'uliyat va hurmat hissi tarbiyalab borilsa, maktabgacha ta'lim muassasalarida burch, mas'uliyat bilan birga Konstitutsiyaning ilk saboqlari ham beriladi.

Huquqiy ta'lim va tarbiya o'zaro bog'liqlik, uzviylik, aloqadorlik hamda dialektik xarakterga ega bo'lib, shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish garovi hisoblanadi. Zero, huquqiy ta'lim bolalarga huquqiy me'yorlar, qonunlar hamda ijtimoiy-huquqiy munosabatlar mohiyati to'g'risida tizimlangan bilimlarni berish, ularda huquqiy bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltirish, huquqiy ongni shakllantirish jarayoni bo'lib, u izchil, uzluksiz, tizimli tarzda tashkil etilishi lozim.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ilk huquqiy ta'lim tarbiya berishda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olinadi. Huquqiy qoidalarni bayon qilib berishda o'yin usullaridan foydalanish tavsiya qilinadi. Bolalarga ilk huquqiy tushunchalarni berish orqali ularning shu davrdagi yoshiga mos qonun-qoidalarga rioya qilish maqsadi qo'yiladi va mashg'ulotlar tufayli ijobiy natijalarga erishiladi. Huquqiy ta'lim mashg'ulot tarzida bolalarga tevarak atrof, tabiat bilan tanishish, badiiy adabiyot, odobnoma mashg'ulotlarini mujassamlashtirib, har bir yo'nalishni bir-biriga moslab, uzviy ravishda olib boriladi.

Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzalarida ham qonun ustuvorligiga bejizga e'tiborni qaratgani yo'q. Sababi, qonun ustuvor bo'lgan joyda o'sish va taraqqiyot borligi rivojlangan davlatlar tajribalaridan ma'lum. Shu bois, farzandlarimizda kichik yoshidanoq huquqiy madaniyatni shakllantirib borsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Aniqrog'i, bolalarimiz kichikligidanoq o'z haq-huquqlarini topib, kattalar oldida burch va mas'uliyatlarini to'g'ri aniqlab, ma'nan va jismonan barkamol avlod bo'lib, shakllanishlari lozim.

Dunyoda bolalardan ko'ra himoyaga muhtojroq insonlar yo'q. Bir og'iz iliq so'zdan ularning ko'ngli tog'dek ko'tarilib, salgina dildijillikdan ko'ngillari vayron bo'ladi. Ba'zan kattalar



e'tiborsizlik qilib kichkintoylarni noo'rin ranjitib qo'yadilar. Arzimas sho'xliklari uchun qattiqqo'llik bilan jazolaydilar.

To'g'ri, farzand tarbiyasi uchun ota-ona, tarbiyachilar javobgardir. Biroq, kerak bo'lganda qo'llaniladigan jazo choralari me'yoridan oshib ketmasligi lozim. Aks holda yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.

BMTning “Inson huquqlari umumjahon deklarasiyasi”da bolalar alohida g'amxo'rlik va yordam bilan ta'minlangan huquqiga ega ekanliklari alohida bandlarda yozilgan. BMT Nizomida e'lon qilingan g'oyalar – tinchlik, qadr-qimmat, sabr-toqat, erkinlik, tinchlik ruhida tarbiyalashlari lozimligini ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tolipov O'.Q., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2005. – 206 b.
2. Fabermen L.B. Ilgor pedagogik texnologiyalar. GulDU. -1999. yil
3. Fayzullaeva M., Raximova Z., Rustamova M., Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish. (tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi). T., 2011 y.



ИНГЛИЗ ТИЛИ ГРАММАТИКАСИНИ ЎҚИТИШДА АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

Фарду докторант **Камбарова Дилдора Иброхимовна**
ЎЗДЖТУФФ иқтидорли талабаси Ярмадова Зиёда

Annotation: This article highlights the different methods of teaching grammar and the role and importance of the media in teaching grammar, and also the use of media resources as an innovative method, and how this method helps students learn grammar in context and in an authentic environment to be analyzed.

Key words and expressions: different methods of teaching grammar, the role and importance of the media, the use of media resources, students, learn grammar, grammar in context, authentic environment, innovative method.

Маълумки, инглиз тили грамматикасини ўрганишда тил соҳиблари ҳам, ўзга тил соҳиблари ҳам қийинчиликка дучор бўладилар. Бунда нозик жиҳатлар, тушунарсиз қоидалар ва мустасноликлар кўп бўлганлиги учун ўқитувчилар ўқувчи ва саводхон инглиз ёзувчиларини тайёрлашларида ҳам грамматикани ўқитишга нисбатан турли ёндашувларни қўллаганликлари бежиз бўлмаган.

Ўтмишда такрорлашга асосланган хотирага олиш методлари ўрнини, аста-секин янада ижодийроқ даражали методлар эгаллади. Бугун биз саводхонликни юқори кадрлайдиган ва грамматикани ўқитишда энг яхши натижаларга эришиш учун янада самаралироқ методларга мослашишга тайёр бўлган жамиятда яшамокдамиз. Грамматикани ўқитишнинг кўплаб методлари олдиндан мавжуд бўлиб, улар ўқувчиларни самарали мулоқот қилишга ва инглиз тилидан қандай фойдаланишни ўргатишдек ягона мақсадда тўлдирилган, рад этилган ёки бирлаштирилган эди. Грамматикани ўқитишда методлар булар диаграммалар орқали ўқитиш, хат орқали ўқитиш, индуктив ўқитиш, интерфаол ўйинлардан фойдаланиш методи.

Инглиз тилининг грамматик жиҳатдан мураккаблиги туфайли ҳар бир методнинг афзал ва салбий томонлари мавжуддир. Баъзи дарсларнинг хотирада қолиши эҳтимоллиги камроқ, шу билан бирга айримлари янада чуқурроқ тушунтиришни ва амалиётни талаб қилиши мумкин. Грамматиканинг қандай ўқитилишидан қатъий назар, инглиз тили грамматикасини ҳар томонлама тушуниш ўқувчиларнинг коммуникатив компетенцияларини ривожлантиришнинг энг муҳим омилдир.

Грамматикани ўқитишда медиа-манбаларидан фойдаланиш ўқитувчиларга ўз дарсларида турли методлардан фойдаланишларига ёрдам бериши мумкин. Медиа ёрдамида ўқитувчилар барча лисоний кўникмаларни қўллашлари мумкин: яъни тинглашдан, сўзлашдан, ўқишдан, хат ёзишдан фойдаланишлари мумкин. Бутун жаҳон бўйлаб инглиз тили дарсларида оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш қўллаб-қувватлаётган кўплаб тадқиқотлар мавжуд. Модомики оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш шунчалик даражада кўп тарқалган экан, чет тили ўқитувчилари ресурсларни гарчи билсалар ҳам, оммавий ахборот воситаларига мувофиқ келадиган ўз материалларини яратиш учун оммавий ахборот воситалардан қандай қилиб фойдаланиш кераклигини баъзан тушунмайдилар. Инглиз тили ўқитувчилари учун грамматикани ўқитиш учун оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишнинг энди кўп имкониятлари мавжуд бўлиб, лекин айрим ўқитувчилар оммавий ахборот воситаларидан фойдаланмайдилар, чунки улар грамматикани медиа ресурслар ёрдамида ўқитишда медиа саводхонлиги эҳтимол йўқлиги, оммавий ахборот воситаларидан фойдаланишларида қийинчиликларга дучор бўлмоқдалар.

Грамматика тилшуносликнинг мураккаб тармоғи бўлиб, мақсадли тилни (target language) эгаллаш учун зарурий қоидаларни тушунишни осонлаштирадиган хилма хил фаолият турларини талаб қилади. Масалан, ўқитувчилар грамматика бўйича медиа-дарсларни туза оладилар, ўқувчиларга қизиқарли мавзулар бўйича видеороликларни намойиш қила оладилар ва аудио-, видеоёзувни босма нашрлар қилиши мумкин ва шунда ўқувчилар отни таъкидлаш ва феълни ажратишни таклиф қиладилар. Бу фақат битта мисол, лекин ўқитувчилар контекстга асосланган ёндашувдан фойдаланишда грамматикани ўқитиш учун яратишлари мумкин бўлган методиканинг кўп турлари мавжуд. Чет тили ўқитувчилари



учун турли хил оммавий ахборот воситалари ёрдамида синфда ҳам, уйга вазифа бериб ҳам грамматикани контекстда қандай ўқитиш кераклигини билиш ғоят муҳим. Замонавий педагоглар ва ўқитувчиларнинг кўпчилиги ўқувчиларга грамматикани тушунишлари учун оммавий ахборот воситалари қандай қилиб ёрдам беришини биладилар. Ҳозирги вақтда ўқитувчиларга мўлжалланган анъанавий дарсларга қўшимча тарзда грамматикани ўқитишнинг бошқа методлари ҳам мавжуд.

Грамматикани ўқитишда биз оммавий ахборот воситаларидан қандай қилиб ва нима учун фойдаланамиз? Бизнинг фикримиз бўйича, грамматика қоидалари мураккаб ва уларни турли контекстларда ҳамда фаолият турларида тушунтириш зарур, бу ўқувчиларимизнинг инглиз тили қандай иш беришини тушунишларига ёрдам беради. Оммавий ахборот воситаларидан фойдаланиш мобайнида ўқитувчилар ўқувчиларни тил ўрганишларида турли услубларини инобатга олишлари мумкин бўлади.

Янада инновацион ва салоҳиятли интерфаол метод сифатида, мультимедиа технологиялари ўқувчиларга грамматика қоидаларини, уларнинг контекстида тушунишларига ва бошқа тил кўникмалари ўқиш, сўзлаш, тинглаб тушуниш ва кўздан кечириш (томоша қилиш) амалиёти билан мужассамлаштиришга ёрдам беради¹.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Harmer, Jeremy. (2006). How to Teach Grammar. London: Longman.
2. Thornbury.S. (1999). How To Teach Grammar. England: Pearson Education Limited (Longman).
3. Stephen D Krashen. Principles and Practice in second language acquisition. University of southern California. Internet edition 2009. p 113

¹ Gail Tompkins. Teaching Writing: Balancing Process and Product. 7 edition



O'QUV FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI, UNING O'Z-O'ZINI NAZORAT QILISHNI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI

Mamanova Sevinch Masrur qizi

Guliston davlat universiteti-Qozon

Federal universiteti qo'shma dasturi talabasi

+99899 460 13 03 mamanova2001@list.ru

Annotatsiya: Maqolada o'quv faoliyati xususiyatlari haqida so'z boradi. O'quv faoliyatining shallantirish va o'z-o'zini nazorat qilishni shakllantirish ta'lim tizimida muhim jarayon ekanligi ochib beriladi. O'quv faoliyatining ahamiyati va uning o'rni haqida yanada kengroq tushuncha hosil qilish uchun ushbu maqola yordam beradi.

Kalit so'zlar: O'qish, Davidov, tafakkur, nutq, o'quvchi, o'qituvchi, ta'lim, Suxomlinskiy, kichik maktab yoshi.

O'qish faoliyati kichik maktab davridagi bolalar psixikasi rivojidagi o'zgarishlarni belgilab beradi. Maktabga birinchi bor kelgan bola o'z faoliyatining tub mohiyati va vazifasini to'la tushunib etmaydi, balki hamma maktabga bor ishi kerak deb biladi. Kattalarning ko'rsatmalariga amal qilib, tirishqoqlik bilan mashg'ulotlarga kirishib ketadi. Oradan ma'lum vaqt o'tgach, shodiyona lahzalarning taassuroti kamayishi bilan maktabning tashqi belgilari o'z ahamiyatini yo'qota boradi va bola o'qishni kundalik aqliy mehnat ekanligini anglaydi. Shunda bola aqliy mehnat ko'nikmasiga ega bo'lmasa uning o'qishdan ko'ngli soviydi, unda umidsizlik hissi vujudga keladi, o'qituvchi esa bunday holning oldini olish uchun bolaga ta'limning o'yindan farqi, qiziqarliligi haqida ma'lumotlar berishi va uni shu faoliyatga tayyorlashi kerak. O'qish faoliyati davomida tarkib topgan xususiyatlar bolaning kelgusi rivoji uchun zamin bo'lib xizmat qiladi. Maktabdagi o'qish bolalarning bilish ehtiyojlarini tez rivojlanishi va sifatli tarkib topishi, ularning atrof hayotga faol qiziqishlarini yuzaga keltirib, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashlari uchun sharoit yaratadi. Bola asta-sekinlik bilan o'z psixik jarayonlariga egalik qilib, idrok, diqqat va xotirasini boshqara olishga o'rgana boshlaydi. Kichik maktab Yoshidagi bola o'qituvchisi bilan yaxshi emotsional munosabatda bo'ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o'zlashtirib kelgan bo'lsa, endi o'z xohish irodasi bilan zarur ma'lumotlar to'plashga, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning ana shu faolligi xotirasining muayayn darajada rivojlanganligini bildiradi. Oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur Yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Bu Yoshdagi bola boshqa davrlarga nisbatan ko'proq narsani o'zlashtiradi. Maktab ta'limi o'quvchining turmush tarzini, ijtimoiy mavqeini, sinf jamoasi va oila muhitidagi o'rnini o'zgartiradi.

Uning vazifasi o'qishdan, bilim olish, ko'nikma va malakalar ni egallash, o'zlashtirishdan iborat bo'lib qoladi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatlari murakkab bo'lgan ko'p darajali motivlar tizimi bilan boshqariladi. O'quv faoliyati motivlari o'quvchilar nima uchun o'qiyotganlarini ko'rsatib beradi. Maktabning birinchi sinfiga kelgan bolalarda ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi. Bu motivlar atrofdegilar orasida yangi mavqeni egallash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan va baholaniladigan faoliyat bilan bog'liq bo'lgan motivlardir. Lekin birinchi sinfning oxirlariga borib, ko'pchilik o'quvchilar o'z maktab majburiyatlariga ma'suliyatsizlik bilan qaray boshlaydilar. Bu bir qancha sabablar bilan bog'liq: 1) Bola endi o'quvchi bo'ldi, o'quvchi bo'lish istagi qondirildi. Bu maqomni ushlab turish uchun hech narsa qilmasa ham bo'ladi. 2) o'quvchining ijtimoiy mavqei maktabda ularga beriladigan o'quv faoliyati mazmuni bilan belgilanmaydi. Yangi dasturlar ta'lim mazmuni va uni tashkil etishga mutlaqo yangicha yondashuv asosida tuzilgan bo'lib, kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning Yosh imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, bolalarda qat'iy o'quv motivlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta'limning mazmuni o'quvchining bilimlarni egallashga qiziqishi, o'z aqliy mehnati natijasidan qanoatlanish hissi bilan uzviy bog'liqdir. Bu his o'qituvchining rag'batlantirishi bilan yuzaga keladi va o'quvchida samaraliroq ishlash mayli, istak va ishtiyoqini shakllantiradi. Bolada paydo bo'lgan faxrlanish, o'z kuchiga ishonch hislari bilimlarni o'zlashtirish va malakalarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Kichik maktab Yoshidagi bolalarni o'qitish jarayoni, o'quv faoliyatining asosiy komponentlari: o'quv masalalari, o'quv vaziyatlari, o'quv harakatlari, nazorat etish va baholash bilan (V. V. Davidov bo'yicha) tanishtirishdan boshlanadi. Bu borada barcha predmetli harakatlar aqliy rivojlantirishga qulay bo'lgan shar oitda amalga oshir ilishi juda muhim. O'quvchining o'quv faoliyatini o'zlashtirishi o'quv masalalari tizimini echish jarayonida amalga oshiriladi. O'qishning boshida kichik maktab



Yoshidagi o'quvchilar mustaqil ravishda o'quv masalalarini qo'yish va echishni bilmaydilar. Bu vazifani boshida o'qituvchi bajaradi. Astasekinlik bilan o'quvchilarning o'zlari ham o'quv masalalarini qo'yish va echish uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalarni egallay boshlaydilar. Bu mustaqil o'quv faoliyati shakllanishining muhim bosqichidir. O'quv masalalarini ajratib olish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham har bir darsning so'ngida o'qituvchi o'quvchilari aniq bir topshiriqlarni bajarishning ma'nosini qanday tushunganliklarini aniqlash uchun vaqt ajratishi kerak. “Biz bugun darsda nimalarni o'rgandik?” tarzidagi savol bolalarga shunchaki daftarda chiziqchalarni chizib, doirachalarni bo'yashni emas, balki sanashni, qo'shishni yoki ayirishni o'rganganlarini tushunishlarida yordam beradi. Agar bola o'quv harakatlarini noto'g'ri bajarsa, bu uning o'quv harakatlarini yo nazorat va baholash bilan bog'liq harakatlarni bilmasligi, yoki ularni yaxshi egallamaganligidan dalolat beradi. Bolaning mustaqil ravishda bajargan harakatlari natijalarini o'z xatti-harakatlarining xususiyatlari bilan taqqoslay olishlari unda o'z-o'zini nazorat etish layoqati ma'lum darajada shakllanganidan dalolat beradi. Kichik maktab davrida etakchi faoliyat doirasida refleksiya avvalo o'quv harakatlari, nazorat va baholash bilan bog'lik bo'ladi. Bu harakatlarning interiozatsiyasi o'quvchiga mustaqil ravishda o'zlashtirilayotgan ko'nikma va layoqatlarga mustaqil ravishda yondashish imkoniyatini beradi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyatini jamoa faoliyati sifatida tashkil etilishiga ko'p vaqt unchalik e'tibor berilmadi. Bilimlarni o'zlashtirish jarayoni individual jarayon deb hisoblangan. Buning natijasida pedagogik psixologiyada o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va mustaqil faoliyati ishning individual shakllaridagina ro'yobga chiqishi mumkin deb hisoblangan. Lekin so'nggi yillarda sobiq ittifoq davlatlarida, Shuningdek, Polsha, Germaniya kabi mamlakatlardagi ilg'or o'qituvchilarning ishlarida guruhiiy bilish faoliyati har bir o'quvchiga darsda maksimal faollik va mustaqillikni ta'minlanishi zarurligi tasdiqlangan. So'nggi yillardagi olib borilgan tadqiqotlar tafakkur mustaqilligini faoliyat sifatida an'anaviy tushunishga jiddiy tuzatishlar kiritdi.

O'quvchilarning o'zaro nazorati va javobgarligiga asoslangan guruhiiy o'quv faoliyati tafakkur mustaqilligini rivojlanishi uchun qulay sharoitlar yaratishi aniqlangan. Taniqli psixolog va pedagoglarning ilmiy asarlarida kichik maktab Yoshidagi o'quvchining o'quv faoliyatidagi mustaqilligi uchun shart- sharoitlarni yaratish nihoyatda ahamiyatli ekanligi haqida fikrlar mavjud. SHunday shart-sharoitlardan biri boshlang'ich davrda o'quv faoliyatini jamoaviy faoliyat sifatida tashkil etilishidir. Quyidagi belgilar mavjud bo'lgan taqdirdagina ishni jamoaviy deb hisoblash mumkin.

1. O'qituvchi tomonidan berilgan o'quv vazifasi yoki alohida bir mikrogruppa tomonidan baravar bajarish qabul qilinsa.

2. Vazifalarni o'zaro taqsimlagan holda birgalikda biron-bir ish bajarilsa.

3. O'zaro nazorat va ma'suliyat mavjudligi.

4. Ishlarni taqsimlashni tashkil etish va uning kechishini o'quvchilarning o'zlari nazorat etishlari.

Frontal ishda (ma'ruza, hikoya qilib berish, frontal so'rovnomma va h.k...) o'qituvchi butun sinfga teng ravishda ta'sir ko'rsatishga harakat qiladi. Bunday holatda o'quvchi bilan muloqot o'qituvchining tashabbusi bilan lekin, juda kam miqdorda amalga oshiriladi. Individual ishda (darslik bilan mustaqil ishlash, misol, masala echish, mashqlarni bajarish va h.) o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot yo'q. Bunday holda ko'pincha o'quvchi-o'quvchi, ya'ni sinfdoshi bilan muloqotga yo'l qo'yilmaydi yoki cheklanadi. Darsdagi jamoaviy faoliyat o'quvchining to'liq mustaqilligi va faolligini rivojlantirishda katta ahamiyatga egadir. Bunda o'quvchilar astasekinlik bilan o'quv faoliyatining sub'ekti sifatida yangi imkoniyatlarini o'zlari uchun ochib boradilar. Bu jarayonda o'quvchi faoliyati samaraliroq bo'lishi uchun o'zini o'zi nazorat etishga harakat qiladi. O'quv vaziyatlarida bolalar ayrim turdagi masalalarni echish yo'llari bilan tanishadilar va ular ni egallagan zahoti aniq bir masalalar ni echishda amaliy foydalanadilar.

O'quv faoliyatida nazorat va o'z-o'zini nazorat etish kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda o'quv harakatlarini mustaqil ravishda bajarish ishi va bajarishni shakllanishida juda muhimdir. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, boshlang'ich sinf o'quvchilarning masalalarini echishdagi ayrim yo'l va tushunchalarni etarlicha egallamaganligi bu tushuncha va yo'llarni shakllantirishda bolalar barcha kerakli o'quv harakatlarini bajarishga o'rgatilmaganligining natijasidir.

Bolalar tafakkuri va nutqining rivojlanishida ovoz chiqarib mulohaza yuritishning va bu uslubdan o'quv jarayonida foydalanishning ahamiyati katta. Ovoz chiqarib mulohaza yuritish va o'z echimini asoslab berish aqliy sifatlarni o'sishiga xizmat qilib, kishi o'z mulohazalari va xatti-harakatini tahlil etishi va anglashini rivojlantiradi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarda aqliy



va o'quv materialini o'zlashtirish imkoniyatlari ancha

yuqori hisoblanadi. To'g'ri tashkil etilgan ta'limda bu Yoshdagi bolalar o'rta maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlarga nisbatan ko'proq bilimlarni tushinishlari va o'zlashtirishlari mumkin. Kichik maktab Yoshidagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xos xususiyatlaridan yana bir i shundaki, shu davrdan boshlab, o'quv materialini o'zlashtirmaslikning dastlabki belgilari ko'zga tashlanadi. Kichik maktab yoshida past o'zlashtirish sabablari va o'qishdagi qiyinchiliklar quyidagilar bilan bog'liqdir:

- 1) neyrofiziologik sabablar;
- 2) bilish jarayonlarining etarli darajada rivojlanmaganligi;
- 3) erkin va mustaqil harakat qilish darajasining pastligi; 4) motivatsion sohalarining etarli rivojlanmaganligi;
- 5) oila tarbiyasidagi, oilaviy munosabatlardagi kamchiliklar;
- 6) maktab ta'limi va tarbiyasidagi kamchiliklar; 7) o'zaro muloqot va munosabatdagi kamchiliklar;

8) shaxs xususiyatlardagi og'ishishlar. Kichik maktab Yoshidagi bolalar o'qishdagi qiyinchiliklar bola shaxsining barcha shaxsiy, bilish, motivatsion va hissiy va irodaviy sohalarida aks etadi.

Bu qiyinchiliklar o'zaro bir - bir i bilan bog'liq. Bir qiyinchilikni bartaraf etilishi ikkinchi qiyinchilikni ham kamayishiga olib keladi. O'qishga nisbatan ijobiy munosabat kichik maktab davrining oxirlariga kelib, birmuncha pasayish ko'zga tashlanadi. O'quv faoliyatiga qiziqish – 1-2 sinflarda ko'tarilib, 3-4 sinflarda pasayadi. O'quv faoliyatiga qiziqishning pasayishida o'qituvchining tayyor materialni bayon etishi va o'quvchilarning yodlab olishlari ustanovkasi ustunlik qiladi va o'quvchilarning faolliklari taqlid qilish xarakterida bo'ladi. 3-4 sinf o'quvchilari odatda o'qilganlarni qayta hikoya qilib berishni, doskada yozilgan mashqni ko'chirib yozishni, qoidalar va she'rlarni yodlashni yoqtirmaydilar va aksincha, misol va masalalarni mustaqil ravishda echishni, tabiat hodisalarini kuzatishni, rasm chizish va plastilin va loydan narsalar yasash ishlarini yaxshi ko'radilar. Boshqacha aytganda, kichik maktab Yoshidagi o'quvchilar tashabbus va mustaqillik imkoniyati bor bo'lgan ishlarga ko'proq qiziqish bildiradilar. Kichik maktab Yoshida o'qishga qiziqishning pasayish sabablaridan biri sifatida V.A.Suxomlinskiy o'qituvchi tomonidan past bahoning ko'p qo'yilishi, bu esa bolada o'qishga nisbatan qiziqishning pasayishi va o'z imkoniyatlariga nisbatan bo'lgan ishonchning pasayishida deb biladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyatining hamma elementlarini shakllantirilganligi va mustaqil bajara olinishi etakchi faoliyat sifatidagi o'qish o'z vazifasini bajarganligini anglatadi. Kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati o'z tarkibiga quyidagilarni kiritadi: - masalalar echimlarining umumiy yo'llarini mustaqil ravishda topish ko'nikmalari; -o'quv vazifalarini ajrata olish, topish va o'zlashtirish; -o'zini va o'z faoliyatini adekvat baholay olish va nazorat qila olish; -faoliyatda o'zini-o'zi boshqara olish; - mantiqiy fikrlash qoidalaridan foydalana olish; umumlashtirishning turli shakllarini egallash va ulardan foydalana olish; jamoaviy faoliyatlarda ishtirok eta olish; yuqori darajada mustaqil ijodiy faollikka ega bo'lish. Lekin aksariyat hollarda kichik maktab Yoshidagi o'quvchilarning o'quv faoliyati maktab amaliyotida birinchi o'ringa bolalarni amaliy ko'nikmalarga, o'qish, yozish, sanash malakalariga o'rgatish muammosi turadi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, boshlang'ich sinf o'quv faoliyatining asosiy vazifasi - bu o'quvchilarni “o'qish”ga, bilim olishga o'rgatishdir. Kichik maktab Yoshidagi bolalarning psixik rivojlanishida ta'limning ta'sirida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Bu o'zgarishlar ularni hayotlarining ma'suliyatli davri bo'lmish o'smirlik davriga o'tish uchun tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxujaeva N.N. Pedagogicheskie texnologiya v podgotovke uchite-lya. Tashkent, 2000 yil.
2. Alnasrov I.A. Didakticheskie osnovu aktivnogo obucheniya upravlenchenskim dissiplinam. - Tashkent: Fan, 1994.
3. Besnalko V.P. Pedagogika i progressivno'e texnologiy obucheniya. M, 1995.
4. Bepalko V.P. Slagaemue pedagogicheskoy texnologiy. - M., 1989.
5. Bordovskiy G.A., Izvozchikov V.A. Novo'e texnologiy obucheniya: Vo-proso`terminologii Pedagogika. - 1993.-№5.
6. Galperin P. K teorii programmirovannogo obucheniya. - M., 1967.



МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQ FUNKSIYASI VA SHAKLLARINI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Mamanova Sevinch Masrur qizi

Guliston davlat universiteti-Qozon

Federal universiteti qo'shma dasturi talabasi

+99899 460 13 03 mamanova2001@list.ru

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqini rivojlantirish hamda nutq funksiyalari va shakllarini rivojlanish xususiyatlarini yoritib berish. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar nutqidagi bo'ladigan o'zgarishlar va ularning o'ziga xos bo'lgan tominlarini ochib berish. Bolalardagi nutq rivojlanishi ahamiyati va uning bola rivojidagi o'rni haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Nutq, talaffuz, tarbiyachi, egosentrik nutq, ovoz tembiri, tafakkur, Elkonin, ko'rgazmali obraz, B.C. Muxina, mantiqiy tafakkur,

Bolalarda nutqning rivojlanishi: Bola bog'cha yoshiga yetgach, so'z boyligining ancha ortishi bilan birga ayrim jummalarni grammatik jihatdan to'g'ri ishlata boshlaydi, so'z zaxirasi juda tez ortadi.

So'z boyligi miqdor jihatidan bog'cha yoshidagi bolalarning hammasida bir xil bo'lmaydi. Bog'cha yoshidagi bolalar so'z zaxirasining miqdori asosan bola tarbiyalanib o'sayotgan oilaning madaniyatiga, ma'naviyatiga bog'liqdir. Bir xil oilalarda bola nutqining o'sishi bilan maxsus ravishda shug'ullaniladi. Boshqa bir oilalarda esa bola nutqining o'sishi bilan mutlaqo shug'ullanmaydilar. Ana shuning natijasida bog'cha yoshidagi bolalar so'z zaxirasi o'rtasida sezilarli farq yuzaga keladi.

Shuning uchun ular o'z ona tillarining grammatik tuzilishini ham faqat og'zaki tarzda o'zlashtiradilar. Bolalarning o'z ona tillari grammatikasining ayrim tomonlarini o'zlashtirishlari maktab bolalarining o'zlashtirishlaridan batamom farq qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalar grammatik qoidalarini o'rganib yodlarida saqlab qolmaydilar. Ular ot, fe'l, sifat, olmosh, suffiks, kelishik kabi grammatik kategoriyalarning borligini ham, nima ekanligini ham bilmaydilar.

Bola yoshi	1 yosh	2 yosh	3 yosh	4 – 5 yosh	6 – 7 yosh
So'z boyligi	8 - 12	25 - 400	25 - 400 1200 - 1300	2500 - 3000	4000 - 5000

Shuning uchun ular grammatikaning juda ko'p qo'llaniladigan eng sodda qoidalarini kattalarning nutqlari orqali mazmunli o'yinlarda taqlidiy yo'llar bilan amaliy ravishda o'zlashtira boradilar. Ma'lumki, nutqning o'sishi jarayonida bolalar so'z turkumlaridan otlarni tez o'zlashtiradilar. Bunga asosiy sabab shundaki, bolalar narsalarning nomlarini, otlarini o'z nutqlarida ko'proq ishlatadilar. O'rta va katta yoshdagi bog'cha bolalari otlarni ko'plik, birlik, bo'lishli, bo'lishsiz shakllarda va turli kelishiklarda to'g'ri ishlata oladigan bo'ladilar. Katta guruh bolalari so'zlarni to'g'ri talaffuz eta oladilar. Shuning uchun ular o'zlaridan kichik yoshdagi bolalar so'zlaganlarida, «bunaqa deb bo'lmaydi» deb ularning nutqlarini to'g'rilaydigan bo'ladilar. Otlardan so'ng bolalar so'z turkumlaridan fe'llarni va sifatlar ni o'zlashtira boshlaydilar. Fe'llarning shaxs qo'shimchalarini osonlik bilan egallasalar ham, lekin fe'llarning zamonga qarab o'zgarishini o'zlashtira olmaydilar. Kichik guruh bolalarida turmush tajribasi juda oz bo'lganligi tufayli ularda o'tgan va kelasi zamon tushunchalar hali shakllanmagan bo'ladi. Shuning uchun ular o'z nutqlarida fe'llarning zamon qo'shimchalarini almashtirib yuboradilar. O'rta va katta guruh bolalari fe'lning zamonga qarab o'zgarib borishini to'g'ri ishlatadigan bo'ladilar.

Nutq faqat boshqa odamlar bilan amalga oshiriladigan aloqa vositasigina bo'lib qolmay, balki u bolalar uchun xulq-atvorni boshqarish vositasi hamdir.

Turli yoshdagi bog'cha bolalari o'z xulq-atvorlarini, ya'ni ma'lum ijtimoiy sharoitdao'zlarini qanday tutishlarini tafakkur orqali o'ylab idora qiladilar. Bunda nutq birinchi darajali ahamiyatga egadir. Odatda kichik yoshdagi bog'cha bolalarining nutqlari ikkinchi bir odamga emas, balki o'zlariga qaratilgan bo'ladi. Masalan: «Anvar uxlaydi», «Anvarning qorni ochdi» deb gapiradilar. Bolalarning ana shunday o'zlariga qaratilgan nutqi **egostentrik nutq** deb yuritiladi. Katta yoshli



bog'cha bolalarida egostentrik, ya'ni o'z-o'ziga qaratilgan nutq tugallanib normal holga keladi. Shunday qilib, asosiy aloqa vositasi bo'lgan nutq bola psixikasining taraqqiyotida benihoya katta rol o'ynaydi. Bog'chada va oilada to'g'ri yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya va xususan, bog'chada ona tilidan o'tkaziladigan maxsus mashg'ulotlar tufayli bola nutqini normal o'stirish mumkin. Bola bog'cha yoshining oxirgi bosqichiga kelganda og'zaki nutqning hamma turlaridan erkin foydalana oladigan bo'ladi. Bola nutqining bundan keyingi taraqqiyoti maktabda, o'qish jarayonida amalga oshiriladi.

Tarbiyachining nutqi nutq talablariga rioya qilingan holda bo'lishi kerak. Ya'ni nutqning tushunarliqligi, soddaligi, ta'sirchanligi, boyligi, ravonligi, sofligi, ifodaliligi, mazmundorligi, aniqligi, chiroyliligi, to'g'riligi bilan ajralib turishi kerak. Ba'zi tarbiyachilarning nutqi juda ta'sirchan bo'ladi. Bunday tarbiyachilar nutqi his-tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lib, ular o'zlari gapirayotgan gaplardan o'zlari ta'sirlanadilar, ana shundagina bolalarga ham muayyan kayfiyatni «yuqtiradilar». O'tkazmoqchi bo'lgan mashg'ulotga tarbiyachining o'zi qiziqishi va uning o'zida ham samimiy his-tuyg'u hosil bo'lishi shart. Tajribali bir pedagog yosh tarbiyachilarga shunday deydi: «Bolalarga hikoyani shunday so'zlab beringki, go'yo o'sha voqealarda o'zingiz ham qatnashgandek bo'ling...». Lekin hamma tarbiyachilar ham obrazga kirib hikoya yoki ertakni aytib bera olmaydilar. Ba'zi tarbiyachilarda esa nutq ancha ohista, ta'sirsiz, kam ifodali, qat'iy izchillikka rioya qilingan holda, dalilli va mantiqiy bo'ladi. Bunday nutq biroz zerikarli bo'lib bolalarni mashg'ulotga diqqatini jamlab olishi qiyinroq kechadi. Bunday nutq yo'naltirilgan yoki boshqacha aytganda undalma nutqdan iboratdir.

Yana shunday tarbiyachilar ham borki, ularning nutqi emotsional ham, mulohazali ham emas, ammo bolalar ular nutqini yaxshi o'zlashtiradilar.

D.B.Elkonin rahbarligida nutqning rivojlanishi va bog'cha davrida o'yinning etakchi faoliyat turi sifatidagi roli aniqlandi. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar bolalar uchun ta'lim va tarbiya dasturlarini tuzishda asos bolib xizmat qildi.

Tafakkurning bolalarda rivojlanishi: Tafakkur bolaning bog'cha yoshidagi davrida juda tez rivojlana boshlaydi. Bolalarda turmush tajribasining ko'payishi, ikkinchidan, nutqning nisbatan o'sganligi, bolalarining juda ko'p erkin va mustaqil harakatlar qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari bunga sabab bo'ladi. Bolalar o'zlarining mustaqil harakatlari davomida atrofidagi turli xil narsalar bilan bevosita taqqoslash, analiz qilish va, nihoyat, umumlashtirish kabi fikr qilish jarayonlarini vujudga keltiradi va takomillashtiradi.

3 yoshdan oshgan bolalarning tafakkurlari **ko'rgazmali-obrazli** xarakterga ega bo'ladi. Ular o'zlarining mulohazalarida mavhum tushunchalarga emas, balki ko'z o'ngidagi aniq narsalarga asoslanadilar. Ko'rgazmali-obrazli tafakkur ko'rgazmali-harakat tafakkuriga qaraganda nutq bilan ko'proq bog'liq bo'ladi. Bu davrda ham bolalarning turli faoliyatlarida aniq obrazli tafakkur bilan nutq birga, ya'ni ketma-ket amalga oshiriladi. Bolalar ko'z o'ngidagi turli narsalar haqida mulohaza yuritganlarida bu narsalarning nomlarini ataydilar.

4–5 yoshli bolalar nutqni jadallik bilan o'zlashtiradilar. Bu yoshdagi bolalar sodda tarzda umumlashtirish, guruhlash qobiliyatiga ega bo'la boshlaydilar. Bu davrni mantiqiy tafakkurni egallashga tayyorgarlik davri deyish mumkin.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda **mantiqiy tafakkur** rivojlana boshlaydi. 6–7 yoshdagi bolalarda mantiqiy tafakkur taraqqiyotining barcha imkoniyatlari yuzaga kelgan bo'ladi. Birinchidan, bu yoshdagi bolalarda nutq yetarli darajada rivojlangan, ikkinchidan, tushunchalar tarkib topa boshlagan. Bolalar obrazlardan, tasavvurlardan foydalanmay, mustaqil ravishda so'zlar orqali tafakkur qila olishlari uchun ular voqelikdagi narsa va hodisalarning eng muhim xususiyatlarini aks ettiradigan tushunchalarni o'zlashtirishlari kerak. Bolalarda avval so'zlar bilan ifodalanadigan tasavvurlar tarkib topadi. Lekin bu tasavvurlar o'z-o'zidan tushunchaga aylanib qolmaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning beradigan savollaridan ular tafakkurining aniq obrazli xarakterga ega ekanligi ham ko'rinib turadi. Masalan, katta bog'cha yoshidagi bolalar quyidagi savollarni berishlari mumkin: Bulutlar nega yuradi? Osmon kattami, yer kattami? Yulduzlar nechta? Osmondagi yulduzlar nima uchun kunduzi ko'rinmaydi? Daraxtlar nima yeb o'sadi? Qorbobo odammi? Hozir qorbobo qaerda? Nima uchun qorbobo yozda kelmaydi? Elektr toki qayerdan keladi? Nega simda olov ko'rinmaydi? Bolalarni tabiat va jamiyatdagi narsalarning sababiy bog'liqligi hamda ichki taraqqiyot qonunlari emas, balki shu narsalarning o'zi qiziqtiradi. Ular hamma narsani bilishga intiladilar. Katta guruh bolalarining gaplariga diqqat qilsak, ular shunday hodisalar haqida mulohaza yurgizishayotganining guvohi bo'lamiz. «Temir og'ir narsa bo'lgani



uchun suvda cho‘kadi, yog‘och yengil, shuning uchun u oqadi», «Ichi bo‘sh banka yengil, shuning uchun u cho‘kmaydi», «Urug‘ni yerga eksa, ko‘karib chiqadi» va shu kabilar.

Ayrim bolalar haddan tashqari ko‘p savol beradilar, boshqa bir bolalar esa deyarli hech savol bermaydilar. Bolalarning juda ko‘plab savollar berishlari ijobiy xarakterga ega bo‘lib, bu ularning qiziquvchanligi, faolligi va mustaqilligidan darak beradi. Bog‘cha yoshidagi bolalar tafakkurining xarakterli xususiyatlaridan biri ular tafakkurining hamon obrazli bo‘lishidir. Ular o‘zlarining muhohazalarida mavhum tushunchalarga emas, balki aniq faktlarga asoslanadilar. Shuning uchun ular mavhum tusda berilgan oddiy vazifalarni hal qila olmaydilar. Biroq, katta guruh bolalarida, ayrim narsa va hodisalarning muhim belgilariga qarab, umumlashtirish qobiliyati yuzaga kela boshlaydi. Masalan, bola olma, o‘rik, nok, olcha, olxo‘ri, uzum, anor, behi va anjirlarning rasmlarini to‘plab, meva deb ataydi. Ular endi meva degan umumiy tushunchadan o‘z nutqlarida erkin foydalana oladigan bo‘ladilar. Bolalar xilma-xil rasimli lotolar bilan o‘ynash jarayonida ana shunday umumlashtirishga o‘rgana boshlaydilar. Bunday o‘yinlarda ba‘zan tarbiyachining aralashuvi va bolalarga umumlashtirish yuzasidan (masalan, hayvonlar, hasharotlar, gullar, qushlar, o‘yinchoqlar va hokazolar) berilgan topshiriqlarni bajarilishiga yordam beradi.

Bola narsalarni bir-biriga taqqoslab, o‘xshash va farq tomonlarini ajrata boshlaydi. Masalan: «Kvadrat va to‘rtburchakni taqqoslab, kvadrat va to‘rtburchakni to‘rt tomoni bor, shuning uchun ular o‘xshash. Lekin farqi shundaki, kvadratni to‘rtala tomoni va to‘rt burchagi teng, to‘rtburchakning esa qarama-qarshi tomonlari teng». Bolalarning oddiy masalalarni yechish haqida fikr yuritishga va u haqida so‘zlab berishga imkoni bo‘ladi. To‘rt-besh yoshli bola masalani amaliy harakat bilan yechadi va u haqida nutqi orqali so‘zlab beradi. Masalan: 4 yoshli bola kuch bilan quvurga ilinib qolgan bayroqchali tayoqchani tortadi, lekin chiqara olmaydi. Shunda bola quvur ichiga yuqoridan qarab tayoqchani ehtiyotkorlik bilan aylantiradi va bayroqchani chiqarib oladi. Masala hal etildi. Demak, kichik guruh bolalari masalani amaliy harakat orqali yechadilar va bajarilgan ishga nutqlari bilan yakun yasaydilar. 5–6 yoshli bolalar oldiga qo‘yilgan masalani oldindan o‘ylab, uning rejasini tuzib oladilar. Bu ichki, ovozsiz nutq orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rivojlanish Psixologiyasi. Pedagogik Psixologiya “O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati”- Toshkent-2008
2. Umumiy psixologiya O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Tosh – 2008
3. Rubenshteyn S.L. “Osnovi obshey psixologii. Moskva. 1989g
4. Эриксон Э. Идентичность: юность, кризис. — М., 1996.
5. Stipanskiy.V.I. “O motivatsii dostijenie uspeha i izbejanie ne udachi”. – boprosi psixologii 1981g.No 6
6. Chesnokova. I.I. “problema samosoznanie v psixologii” Moskva .Nauka 1977



О‘SMIRLIK DAVRI XARAKTERISTIKASI VA AKSENTUATSIYA XUSUSIYATLARI

Mamanova Sevinch Masrur qizi

Guliston davlat universiteti-Qozon

Federal universiteti qo‘shma dasturi talabasi

+99899 460 13 03 mamanova2001@list.ru

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bolishi haqidagi qarashlarning ilmiyligini ochib beriladi. O‘smir yoshidagi bolalar bo‘ladigan o‘zgarishlar va ularning o‘ziga xos bo‘lgan tominlarini ochib berish va o‘smirlik davridagi bolalardagi yangiliklar tahlil qilinadi. Maqolada o‘smirlik davridagi kattalar bilan va boshqalar bilan bo‘ladigan muloqotning xususiyatlari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: O‘smir, ijtimoiy omillar, kognitiv, xulq-atvor, muloqot, idrok, xotira, mantiqiy operatsiyalar, tafakkur, ijtimoiy ro‘l.

O‘smirlik yoshida psixologik jihatdan eng muhim xislat voyaga yetish yoki kattalik hissining paydo bolishi alohida ahamiyatga ega. Kattalik hissi ijtimoiy-axloqiy sohada, aqliy faoliyatda, qiziqishda, munosabatda, xulq-atvorning tashqi shakllarida o‘z ifodasini topadi. O‘smirlik yoshiga xos bolgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yollarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta’sirini tushunish mumkin. Jinsiy yetilish o‘smirning bu yoshdagi xulq-atvoriga asosiy biologik vosita sifatida ta’sir o‘tkazadi. Lekin bu bevosita ta’sirdir. Kichik o‘smir psixologik «mexanizmi» sxematik ravishda quyidagicha baholanadi. Endokrin garmonlarining paydo bolishi va ularning markaziy nerv sistemasiga ta’sir qilishi bilan bogliq bolgan jinsiy yetilishning boshlanishi bolalar faolligining jismoniy va psixologik imkoniyatlarini oshiradi hamda ularning o‘zlarini kattalardek his etish, mustaqil bolish tuyg‘ularini tuyushlari uchun qulay shart-sharoitlarni olib keladi. Biroq, psixik rivojlanishning bu bosqichida ham bola hali mustaqil harakat qilishga to‘la tayyor bolmaydi. Ijtimoiy omillar esa quyidagilardir: kichik maktab yoshidan o‘rta maktabga olish, ya’ni yakka o‘qituvchi rahbarligidan ko‘pchilik o‘qituvchilar tasarrufiga olish va muloqotdagi o‘zgarishlar ijtimoiy foydali ishlarni kengaytirib borish, mustaqil va amaliy ishlarni ko‘proq bajarish, shu bilan birga bolaning oiladagi o‘rnining ham o‘zgarishidir. Katta o‘smirlarga nisbatan kichik o‘smirlarda paydo boladigan kelisha olmaslikni ulardagi jinsiy yetilish bilan emas, balki atrofdagi shart-sharoitlar, oiladagi ota-ona, aka-ukalarning unga munosabati, mahalla-ko‘y, ya’ni ijtimoiy sharoitlar ta’siri bilan boglash zarur. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni ulardagi psixologik iqlimni o‘zgartirish yoli bilan o‘smirlarning xulq-atvoriga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir kolsatish, yomon xulq-atvor, o‘jarlik, kamchiliklarini tan olmaslik kabi salbiy xislatlarning oldini olishi mumkin. Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan holatda bo‘ladi. O‘smir o‘zining qobiliyati va kuchini to‘g‘ri baholamay turib, murakkab hayotiy masalalarni hal qilishga urinadi, ammo fikr yuritish qobiliyati yuzaki bo‘lganligi sababli kundalik hayotida qator kamchiliklarga yo‘l qo‘yadi. Lekin u o‘z xatosini tan olishdan ko‘ra kattalar bilan bahslashishni afzal ko‘radi. Tanqid qilgan kishilarni yoqtirmaydi, har bir tanqid go‘yoki uni mensimaslik belgisi, atayin qilinayotgan ish bo‘lib ko‘rinadi. U mustaqil, o‘zboshimchalik bilan ish tutishga urinadi, kattalarning maslahatiga e’tibor bermaydi. Ayrim o‘smirlar o‘zining kattalar safiga qo‘shilganligini namoyish qilish uchun turli xil salbiy odatlarga o‘rgana boshlaydilar. O‘smir xulqidagi bunday o‘zgarishlar o‘qituvchi va ota-onalarni qattiq tashvishga soladi. Ularni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun esa kattalardan psixologik bilim va tajribani talab etadi. Bu yoshda kattalar o‘smirlarni bilib-bilmay qo‘yayotgan kamchilik va xatolarini ko‘pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik yo‘l bilan yondashgan holda yordam berish uni «katta bo‘lib qolganlik» tuyg‘usini so‘ndirib emas, balki katta odam qanday bolishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur. Kichik o‘smir davrida bilish faolligi, bilishga bolgan qiziqish kuchayadi (11—12 yosh). O‘smirlik davrida tafakkur, tushunchalarni hosil qilish funksiyasi shakllanadi. Fan asoslarini, umumlashtirilgan bilimlarni o‘zlashtirish hisobiga psixik funksiyalar ixtiyoriy boshqariladigan jarayonlarga qayta quriladi. Kognitiv sohada o‘zgarishlar o‘smirning tevarak-atrofga munosabatini, umuman shaxs sifatida shakllanishini o‘zgartiradi. Idrok tanlovchan, maqsadga yo‘naltirilgan analitik-sintetik faoliyatga aylanadi. Xotira mantiqiy operatsiyalar bilan ichdan bogliq boladi. Nazariy diskursiv



tafakkur tushunchalarga tayanilgan holda, ular o‘zaro taqqoslanadi, bir fikrdan boshqa bir fikrga o‘lish ro‘y beradi.

O‘smirlarni o‘z shaxslari haqidagi fikrlar ko‘proq qiziqtiradi, ular o‘zlarini bilishga, maqsadli rivojlantirishga, tarbiyalashga harakat qiladilar. U kattalar huquqini cheklaydi, o‘zinikini esa kengaytiradi, kattalarning o‘z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da‘vo qiladi, ya‘ni kattalar bilan ma‘lum tenghuquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. O‘smirlik davrida ichki erkinlikning o‘shida, o‘z-o‘zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o‘zgarishlari yuz beradi. Bunday o‘zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o‘smirning erkin harakat qilish quroli, shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig‘i bolib hisoblanadi.

O‘z-o‘zini anglash hissining tarkib topishi, o‘ziga nisbatan go‘yo alohida mustaqil shaxs sifatidagi munosabatning vujudga kelishi bu davrdagi har ikki jinsdagi va istagan temperament tipidagi o‘smirlar uchun muhim xususiyatlardir. O‘smir o‘gil-qizlar shaxsining kamol topishida, o‘zini anglash jarayonida o‘ziga baho berish mayli va istagi o‘zini boshqa shaxslar bilan taqqoslash, o‘ziga bino qo‘yish ehtiyoji paydo boladi. Bular esa o‘smirning psixik dunyosiga aqliy faoliyatiga, tevarak-atrofga munosabatning shakllanishiga ta‘sir qiladi. Ilk o‘smirlik davrida ko‘pchilik o‘smirlar o‘zlariga salbiy shaxsiy xarakteristika beradilar. Katta bolgan sari o‘smirning o‘z-o‘ziga bergan bahosi differensial xarakter (xulq-atvoriga, ijtimoiy vaziyatlarda o‘zini tutishga va ayrim xatti-harakatlari)da namoyon bo‘la boshlaydi.

O‘g‘il bolalar va qiz bolalarning ijtimoiy rollari turlicha bo‘lishi to‘g‘risidagi jamiyatda tarkib topgan tushunchalar bilan bolalar tomonidan o‘zlashtirilgan tasavvurlar o‘smir yoshidagi shaxsning shakllanish yo‘llarini belgilab beradi. O‘smir o‘z kuchi va quvvati, chidamliligi ortayotganini, bilim saviyasi kengayayotganini anglay boshlaydi.

O‘smirlar ustanovkalari muhim funksional ahamiyatga ega bolib, uning ma‘lum bir faoliyatni samarali bajarishga tayyorligi sifatida namoyon boladi. Uning asosiy vazifalari: 1) faoliyat amalga oshirilishining qat‘iy xarakterini belgilab beradi; 2) o‘smir shaxsini standart vaziyatlardagi faoliyatlar kechishini erkin holda nazorat qilish va qaror chiqarishdan ozod qiladi.

O‘smirlik davri xususiyatlarini talqin qilgan olimlarning ta‘kidlashicha, o‘g‘il va qizlarning bu yoshda o‘rtoqlari bilan munosabatlarga intilishi, tengdoshlari jamoasining hayotiga qiziqishi yorqin namoyon boladi. Ushbu o‘zgarishlar ta‘sirida bolalar jismoniy va aqliy imkoniyatlarini o‘zib borish munosabati bilan o‘zlariga ko‘proq ishona boshlaydilar, ular endi oilaviy muammolar muhokamasida ham ishtirok eta boshlaydilar.

O‘smirlar uchun o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bo‘lishi g‘oyat katta ahamiyatga egadir. U endi salbiy va ijobiy tomonlariga alohida bir urg‘u bermagan holda o‘zi xohlagan kishisi bilan do‘st bo‘lish huquqini talab etadi. O‘smirlar orasida sodiqlik va to‘g‘rilik kabi xislatlar yuqori baholanib, sotqinlik, o‘z so‘ziga bevafoqlik, egoizm, qizg‘anchilik qattiq qoralanadi va qattiq jazolanadi. Bu jazo u bilan urishish, kaltaklash, unga qarshi baykot e‘lon qilish va uni yolg‘izlatib qo‘yish shaklida bo‘lishi mumkin. O‘smirlar o‘zini hurmat qilishini, o‘z fikrini va qiziqishini himoya qilishni bilmagan tengdoshlariga juda past baho beradilar. 5—6-sinf o‘quvchilariga sinfdagi o‘zi egallagan mavqeiga katta e‘tibor berish xususiyati xos. Ayniqsa, 6-sinfdan boshlab, o‘quvchilar o‘z tashqi ko‘rinishlariga, shuningdek qarama-qarshi jinsdagi bolalar va ular bilan o‘zaro munosabatlari e‘tibor bera boshlaydilar. 7-sinf o‘quvchilarida esa o‘z layoqatlarini rivojlantirishga xos qiziqish yuzaga keladi. 8-sinf o‘quvchilari esa mustaqillik, o‘ziga xoslik, do‘stlik va o‘rtoqlik bilan bogliq bo‘ladigan shaxsiy xislatlar paydo boladi. Ma‘lumki, har bir bolaning munosabatlari aniq ishlarda ko‘rinadi, mustahkamlanadi va qayd etiladi. Bola o‘zidagi mustaqillikni shakllantirish uchun o‘zi mustaqil ishlarni bajarishga to‘g‘ri keladi. Lekin, ikkinchi tomondan bir marta mustaqil ish bajarish uchun mavjud shart-sharoitlardan xoli bo‘lishga harakat qiladi. Bola boshqa mexanizmlarga ega emas. Bular o‘smirning o‘z kuchiga ichki bir ishonchni mavjud emasligini bildiradi. Bu belgilar mana shu yoshda kishini mustaqil harakat qilishga qodir bo‘lishga, ayni hollarda tevarak-atrofdagi kishilarga qarshi borib, o‘zini haq ekanligini qattiq turib himoya qilishga, boshqa hollarda esa vaziyatni vazminlik bilan qabul qilishga da‘vat etadi. Mustaqil ishlar qilishga uringan o‘smir shunday qilishga haqqi borligiga o‘zini o‘zi ishonitiradi, chunki men endi «katta bolib qoldim» deb o‘ylaydi. Shuning uchun ham psixologlar «katta bolib qolganlik tuyg‘usi» shaxsning o‘smirlik yoshidagi eng asosiy yangilik sifatida talqin qiladilar. Bu yoshda kattalar o‘smirlarni bilib-bilmay qo‘yayotgan kamchilik va xatolarini ko‘pchilik ichida uyaltirib, kamsitib, qoralab emas, balki psixologik



yo‘l bilan yondashgan holda yordam berish uni «katta bolib qolganlik» tuyg‘usini so‘ndirib emas, balki katta odam qanday bolishi va qanday talablarga javob berishi kerakligini anglatishi zarur. Demak, bu o‘smirni tolaqonli psixik rivojlanishi uchun zarur bolgan hayotiy bir xislat ekanligini bilgan holda shu bilan bogliq salbiy ishlarni psixologik tabiatini to‘g‘ri tushunm o‘g‘l va bolalarni o‘zlarini katta tutishlariga to‘sqinlik qilmaslik, aksincha ularning bunday xatti-harakatlarini ijobiy baholashga intilishi kerak. O‘smirlarning o‘z tengdoshlari bilan muloqotda bolishi g‘oyat katta ahamiyatga egadir.

O‘smirlik yoshida, taxminan 13—14 yoshlarda, bolalarni emotsional kechinmalarida katta o‘zgarishlar boshlanadi. Shu yoshdagi bolalarda ta‘lim ta‘siri ostida abstrakt-mantiqiy va tanqidiy tafakkur ancha o‘sadi. O‘smirlar dunyoqarashlari bilan bog‘liq bo‘lgan masalalar bilan qiziq boshlaydilar, ularning kamalak va yoshlar ittifoqida ishtirok etishlari bunday qiziqishlarning o‘rishiga ko‘p jihatdan yordam beradi. Mana shularning hammasi xilma-xil intellektual va axloqiy hislarni o‘rishi uchun manba bolib qoladi. O‘smirlarda xayol kuchli ravishda o‘rishi. Hislarning o‘zi xayolning o‘rishiga yordam beradi va xayolning o‘zi ham xilma-xil chuqur emotsional kechinmalarining manbayi bolib qoladi. Kelajak to‘g‘risidagi orzular, qahramonlik, romantika shularning hammasi emotsional kechinmalarining manbayidir. Bu yoshda o‘z-o‘ziga baho berish hissi kuchli ravishda o‘rishi. O‘smir yoshidagi bolalarning aloqa doirasining kengayishi va ularda ijtimoiy-siyosiy masalalarga qiziqish o‘rishi tufayli axloqiy hislar o‘smirlar hayotida katta o‘rin oladigan bo‘lib qoladi, ularda vatanparvarlik hissi yorqin namoyon bo‘ladi. Shu yoshda organizmda fiziologik o‘zgarishlar sodir bo‘lishi sababli emotsional qo‘zg‘alishlarning xarakterida ham o‘zgarish ro‘y beradi. Hislar kuchli ravishda namoyon bo‘laveradi, lekin ko‘pincha bu hislar barqaror bo‘lmaydi. Boshqa yoshdagi bolalarga qaraganda o‘smirlarda inijlik va arazlash ko‘p bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti. “O‘AJBNT” markazi, 2002.
2. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya hamda mamlakatimiz va horijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari.
3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To‘laganova SH. Psixodiagnostika. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent, 2008.
4. Davletshin M.G., To‘ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2002.
5. Jalilova S. “Shaxs va shaxslararo munosabatlarni o‘rganishning proektiv metodikalari”, Toshkent, Nizomiy nomli TDPU, 2006.
6. Kamilova N.G. Muammoli o‘smir: tashxis, tadqiqot metodlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.



O'SMIRLIK DAVRI PSIXIKASIDA “MEN” TUSHUNCHASINING XUSUSIYATLARI

Mamanova Sevinch Masrur qizi

Guliston davlat universiteti-Qozon
Federal universiteti qo'shma dasturi talabasi
+99899 460 13 03 mamonova2001@list.ru

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik yoshida “Men” siymosining ilmiy asosi va uning xususiyatlari haqida so'z boladi. Maqola o'smirlarda o'tish davrida yuz beradigan o'zgarishlar va ularning o'smir xulq atvoriga ta'sir etish darajalari haqida ilmiy farazlarga asoslangan. O'smir shaxsini shakllanishi va uning atrofdagilar bilan muloqot jarayonida tutgan o'rnini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: O'smir, ijtimoiy omillar, fiziologik o'zgarish, “Men” siymosi, xulq-atvor, muloqot, inqiroz, xotira, mantiqiy operatsiyalar, tafakkur, ijtimoiy ro'l.

O'smirlik 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi va o'sishi, hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir.

Organizmdagi o'zgarishlar bevosita o'smir endokrin sistemasining o'zgarishlari bilan bog'liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to'qimalarining o'sishi va muhim ichki sekretiya bezlarining (qalkonsimon bez, buyrak o'sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo'y ushish tezlashadi, jinsiy balog'atga etish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikkilamchi jinsiy bezlarning paydo bo'lishi) amalga oshadi.

O'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga harakat qiladilar. Ular o'zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma'lum darajada o'rtoqlari va o'qituvchilariga ko'rsatishga intiladilar. Bu holatni oddiy ko'zatish yo'li bilan ham osongina ko'rish mumkin. O'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni o'rgana turib, o'smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolotga erishish yo'llarini va unga ta'sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta'sirini tushunish mumkin. Bu davrda o'smir baxtli bolalik bilan xayrlashgan, lekin kattalar hayotida hali o'z o'rnini topa olmagan holatda bo'ladi, O'smirlik yoshida ularning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi. Jinsiy yetilish o'smir xulq-atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta'sir ko'rsatib, bu ta'sir bevosita emas, balki ko'proq bilvositadir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos.

Kattalarga nisbatan yovo'z munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari jinsiy yetilish tufayli paydo bo'ladigan belgilar bo'lmay, balki ular bilvosita ta'sir ko'rsatadigan, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqei tufayli, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin. O'smirlar nihoyatda taqlidchan bo'lib, ularda hali aniq bir fikr, dunyoqarash shakllanmagan bo'ladi. Ular tashqi ta'sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo'ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantilik ham xosdir. Tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik o'smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo'ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning, shuningdek, ustozlarning to'g'ri yo'lni ko'rsatishlariga qaramay, o'z fikrlarini o'tkazishga harakat qiladilar. Juda ko'p o'smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qizikib qoladilar. Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rollarda o'zini qo'lay xis qiladi. O'smirlik davrida yetakchi faoliyat - bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir, o'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi - bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi.



O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan haq-huquqlarini cheklashlariga, qarshilik va e'tirozlariga qattiq qayg'uradilar. Lekin shunga qaramasdan, u muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smirlarga kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala munosabatiga qattiq norozilik bildiradi. O'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi, o'smirlik davriga kimningdir hatti-harakatini qilish xosdir. Ko'pincha ular o'zlariga tanish va yoqadigan kattalarning hatti-harakatlariga taqlidchanlik qiladilar.

Qayd etib o'tilgan yo'nalganlik, albatta, kattalarning ham muloqot va munosabatida mavjud, lekin ular kattalarnikidan o'z emotsionalligi bilan farqlanadi. Tengdoshlari, shuningdek, sinfdoshlari guruhida o'smir o'zining kelishuvchanlik xususiyati bilan namoyon bo'ladi. O'smir o'z guruhiga bog'liq va qaram bo'lgani holda shu guruhning umumiy fikriga qo'shilishiga va uning qarorini doimo bajarishga tayyor bo'ladi. Guruh ko'pincha o'smirda «Biz» hissining shakllanishiga yordam beradi va uning ichki holatini mustahkamlaydi.

O'smir yoshidagi bola uchun do'st tanlash juda katta ahamiyatga ega. O'smirlik davrida do'st juda qadrlil hisoblanadi. Do'stlar doimiy ravishda ruhan, qalban yaqin bo'lishga ehtiyoj sezadilar. Bu ehtiyoj o'smir do'stlarning hol-ahvol so'rashishi va ko'rishishlarida (qo'l berib, quchoq ochib ko'rishish) birga o'tirish va birga yurishga harakat qilishlarida ko'rinadi. Ko'pgina ana shunday juda yaqin munosabatlar, o'smirlarning shaxs bo'lib shakllanishida, hamkorlikdagi harakatlarining izi inson qalbida va xotirasida bir umrga saqlanib qoladi.

O'smirlar kattalarning ularga bildiradigan ishonchlariga katta ehtiyoj sezadilar. Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qo'lay sharoit - bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishidir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa, katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushunadigan va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatni ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi oilalarda uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotida mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatning o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyinroq. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar.

O'smirlik davrida bolalarning atrofdagi odamlar bilan shaxsiy va ish yuzasidan bo'ladigan munosabatlaridagi mavqei o'zgaradi. Endi o'smirlar o'yin hamda damga kamroq vaqtlarini ajratgan, holda ko'prok jiddiy ishlar bilan shug'ullana boshlaydilar va ularda bilish jarayonlari jadal rivojlana boshlaydi. O'qish o'smirlar hayotida katta o'rinni egallaydi. O'smirlar o'qishidagi asosiy motiv: bu ularning ulg'ayayotganlikligini his ettiradigan, anglatadigan o'qish turlariga tayyorlanishlaridir. Ular uchun mashg'ulotlarning mustaqil shakllari yoqadi. Boshqa davr bolalariga nisbatan o'smirlarning fanlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlari, qiziqishlarini orttirishlari o'qituvchining o'quv materialini tushuntira olish mahoratiga bog'liq. Bilim o'rganish ehtiyojlari asosida asta-sekinlik bilan o'quv fanlariga nisbatan qat'iy ijobiy munosabat shakllanadi. Bu davrda o'qishning yangi motivlari yo'zaga keladi. Bu motivlar o'smirning hayotiy rejalar, kelajak kasbi va ideali bilan bog'liq bo'ladi. Aynan o'smirlik davridan boshlab, bolalar hayotiy ilmiy, badiiy bilimlarni kengaytirishga alohida ehtiyoj sezadilar va bunga harakat qiladilar. Bilimli bola tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'smirlarga alohida bir quvonch bag'ishlaydi va uning tafakkur qilish layokatini rivojlantiradi. O'smirlarning o'quv materiallarini faqat mexanik xotiraga asoslanishlari halaqit berishlari mumkin. Bu davrda o'quvchilarga beriladigan o'quv materialining hajmi katta bo'lgani uchun ham uni eslab qolishi yoki bir necha marta takrorlash yo'li bilan o'zlashtirishi qiyin. Buning uchun o'quvchi o'quv materialining mazmunini tahlil qilishi, undagi mantiqiy tuzilishni bilishi muhim. Bu davrda bolalarning idroki, diqqati va tasavvurlari o'zgaradi. Lekin bu o'zgarish bolaning o'ziga va atrofdagilarga sezilmagan holda kechadi. Shu bilan birga bu davrda bolaning xotirasi, nutqi, tafakkur jarayonlari ham jadal rivojlanadi. Bu o'zgarishlar atrofdagilarga sezilarli darajada bo'ladi.

O'smirlik davrida bolani anglashi va o'z-o'zini anglash darajasi kengayadi va unda boshqa



odamlar, olam haqidagi bilimlari chuqurlashadi, o`yin faoliyati asta-sekin kamayib, yangi faoliyatlar yo`zaga kela boshlaydi. Psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. O`smirlik davrida o`z faoliyatini nazorat etish rivojlana boshlaydi va o`zini-o`zi boshqarishga intilishi kuchayadi. Bir so`z bilan aytganda, o`smirlik davri psixik rivojlanishda keskin burilish davri hisoblanadi. Butun endokrin sistemasining, xususan gipofizning aktivlashishi tufayli o`smir organizmida sifat jihatdan o`zgarishlar yuz beradi. Bu holat qizlarda 11-13, o`g`illarda 13-15 yoshda bo`lib, ikkilamchi jinsiy belgilar paydo bo`ladi, o`smirning tashqi ko`rinishi o`zgaradi. Muskullar massasi va muskul kuchi o`sadi, bu holat jinsiy etilish davrining oxiriga borib tezlashadi. Ichki organlar, xususan yurak o`sadi. Ba`zan yurak qon-tomir sistemasida patologik o`zgarishlar yuz beradi.

“Men” – konsepsiya – individning o`z shaxsi haqidagi nisbatan turg`un, anglangan, boshqalar bilan munosabatlarni tashkil etishga asos bo`ladigan tasavvurlari. U o`smir davrida turli, rang-barang ko`rinishli va intensiv shakllanish davrini boshdan kechiradi. eng muhim psixologik xususiyati – o`z ichki dunyosini kashf etadilar. Ular o`zlarining kuchli va zaif tomonlarini anglaydilar, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini qiyosiy baholay oladilar. Ularning yana bir xususiyati murakkab shaxslararo munosabatlarda aks etuvchi burch vijdon hissi, o`z qadr-qimmatini sezish kabi xislatlardir. Umuman, o`z-o`zini anglash - quvonchli, hayajonli hodisadir. Ayni vaqtda bu his dramatik xavotirli kechinmalarga ham sabab bo`lishi mumkin. O`smir kechinmalarida asosiy o`rinni kelayak haqidagi o`ylar egallaydi. O`smirlar uchun yana bir muhim kechinma o`zining tashqi ko`rinishi haqidagi o`ylardir. Umuman, refleksiyaning o`sishi, o`z “men”ga qiziqishning ortishi barcha o`spirinlarga xos xususiyat. Lekin bu kechinmalar shaxs rivojlanishining qiyinchiliklari bo`lib, o`tkinchi xarakterga ega, umuman olganda o`spirinlik juda baxtli davr sifatida esda qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimova V. Psixologiya. O`quv qo`llanma. Toshkent, A.Qodiriy nomidagi halq merosi nashriyoti. “O`AJBNT” markazi, 2002.
2. Yosh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya hamda mamlakatimiz va horijiy mamlakatlar olimlarining mavzuga oid adabiyotlarda ilgari surilgan qarashlari.
3. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S., To`laganova SH. Psixodiagnostika. O`quv qo`llanma. -Toshkent, 2008.
4. Davletshin M.G., To`ychiyeva S.M. Umumiy psixologiya, Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti, 2002.
5. Jalilova S. “Shaxs va shaxslararo munosabatlarni o`rganishning proektiv metodikalari”, Toshkent, Nizomiy nomli TDPU, 2006.
6. Kamilova N.G. Muammoli o`smir: tashxis, tadqiqot metodlari. O`quv qo`llanma. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2004.



O'QUVCHILARDA BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Mamanova Sevinch Masrur qizi

Guliston davlat universiteti- Qozon

Federal universiteti qo'shma dasturi talabasi

+99899 460 13 03 mamanova2001@list.ru

Annotatsiya: Maqolada o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish haqida tushuncha va uning asoslari haqida gap ketadi. O'quvchilarning hozirgi bilim, ko'nikma va malakalarini baholash va ularga qo'yiladigan talablarning mazmunini ochib berish maqolaning asosiy maqsadi. Maqolada bilim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini kengroq yoritib berishga e'tibor berilgan.

Kalit so'zlar: Bilim, ko'nikma, malaka, harakat ko'nikma, sensor ko'nikma, aqliy ko'nikma, perseptiv, interferensiya, voqelik.

Bilim – kishilarning tabiat va jamiyat hodisalari haqida hosil qilgan ma'lumotlari; voqelikning inson tafakkurida aks etishi. Kundalik tasavvurimizda nimaning nima ekanligiga ishonsak va bu ishonchimiz biz odatlangan voqea va hodisalarga (qoidalarga) zid kelmasa bunday ishonch Bilim hisoblanadi. Voqelik haqidagi bilgan ma'lumotlarimiz Bilim darajasiga ko'tarilishi uchun quyidagi shartlarni qanoatlantirishi lozim: birinchidan, bu ma'lumotlarning voqelikka mutanosibli; ikkinchidan, yetarli darajada ishonarli bo'lishi; uchinchidan, bu ma'lumotlar dalillar bilan asoslangan bo'lishi lozim. Uchala shart birgalikda mavjud ma'lumotlarni Bilim darajasiga olib chiqadi. Inson ijtimoiy taraqqiyot jarayonida bilmasliqdan bilishga, mavhum Bilim lardan mukammal va aniq Bilimlar hosil qilish tomon boradi. Kishining moddiy dunyo to'g'risidagi Bilimi nisbiydir, u doimo rivojlanib boradi. Bilim kundalik tajriba, kuzatish orqali to'planadi. Bilimlarni tadqiq etuvchi ta'limot — epistemologiyada perseptiv (hissiy), hayotiy — kundalik (sog'lom akl) va ilmiy Bilim shakllari ajratib ko'rsatiladi. Ilmiy adabiyotlarda Bilim larning ilmiy va ilmdan tashqari shakllari ham farq qilinadi. Ilmdan tashqari Bilim larga madaniyat, adabiyot, san'at, mifologiya, din va sh. k. sohalarga oid Bilimlar kiradi. Odatdagi fan sohasida tadqiq etiladigan Bilimlar ekzoterik (ko'zga tashlanuvchan) Bilimlar deb atalsa, astrologiya, va sh. k. sohalarga oid bilimlar ezoterik (pinhoni) bilimlar deyiladi. Ekzoterik bilimlar ilmfan qoidalariga zid kelmaydigan bo'lsa, ezoterik bilimlar bunday qoidalarga zid kelishi mumkin.

Ko'nikma – mashq qilish natijasida yuzaga kelgan xatti – harkatlarning avtomatlashgan usuli. Fiziologik jihatdan ko'nikma bosh miyaning katta yarim sharlari po'stlog'ida hosil bo'lib, vaqtinchalik nerv bog'lanishlarning barqaror tizimining funksiyasini ta'minlaydi. Dinamik–streotiplarni yaratish sharoitlari bir vaqtning o'zida avtomatlashgan akt bilan murakkab analitik – sintetik faoliyatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida nafaqat ko'nikmalar, balki malakalar ham yuzaga keladi.

Malaka–oldinga qo'yilgan maqsad va xatti–harakat sharoitidan kelib chiqadigan muvaffaqiyatli harakatlar usulidir.

Malakalar xatti–harkatning maqsad va konkret shart–sharoitlariga tegishli bo'lgan holda doimo suyanadi. Odam ishni qanchalik yaxshi bilsa, uni shunchalik malakli amalga oshiradi va undan foydalanadi. Ko'nikma va malakalar xatti–harkat uslubi bo'la turib, ma'lum faoliyat turiga qarab ishlab chiqarish, o'quv, ijtimoiy, sport, tashkiliy, texnik faoliyat, ilmiy faoliyat, san'at sohasidagi ko'nikmalar va boshqalar bo'lishi mumkin. Lekin, barcha faoliyat turlarida qo'llaniladigan ko'nikma va malakalar mavjud: bular harkat, sensor, aqliy ko'nikma va malakalardir.

Harakat ko'nikmalarga jismoniy mehnat, sport va o'quv ko'nikmalari (xat yozish, tez o'qish va hokozo) kiradi.

Sensor ko'nikma va malakalarga o'lchov, yorug'lik, ovoz va simvolik ma'lumotlarni tez va to'g'ri qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan va boshqarish markazlarida takrorlab borishlar kiradi.

Aqliy ko'nikma va malakalarga–kuzatish usullari, malakalarni rivojlantirish, og'zaki va yozma hisob–kitobni ishlab chiqarish, harkatlarga yo'naltirish, ilmiy tajriba o'tkazish va hokozo, ko'nikmalar mashq natijasida yuzaga keladi, ya'ni bunda maqsad sari yo'naltirilgan (doimiy) qaytarish mustahkamlashga olib keladi va samarali usullar asosida qayta-qayta qaytarilishi amalga oshiriladi.



Inson tomonidan egallangan ko'nikma va malakalar yangi ko'nikmalarni shakllantirishga ta'sir ko'rsatadigan qonuniyatlar:

1. Ko'nikmaning hosil bo'lishining notekis jarayoni. Bu mashqlarning egri grafigida namoyon bo'ladi. Yuqorida keltirilgan rasmda buni ko'rish mumkin.

Ko'nikmalarning ko'chishi. Ijobiy ko'nikmalarning yangilarini shakllanishiga ta'sir ko'chish deyiladi. Ko'nikmalarning yangilarini shakllanishiga ta'sir esa interferensiya deb ataladi, bunda eski ko'nikma yangisining shakllanishiga xalaqit beradi.

Ko'nikmani progressiv va regressiv–ko'nikma uzoq va tarbiya miqdorida xizmat qilishi uchun undan foydalanish lozim. Aks holda deavtomatlashtirish yuzaga kelib, zarur harakatlar o'z tezligi, yangilig, aniqligi va avtomatlashtirilgan harakatlarni ta'minlovchi xususiyatlarini yo'qotadi. Odatlar – bu shunday xatti–harakatlarki, ular o'z-o'zidan, avtomatik tarzda yuz beradi. Odatlarni insonning madaniy va aloqaviy xulqida ahamiyati katta. O'quv faoliyatini boshqarish. Boshqaruv bu shunday yo'naltiriluvchi kuchki, u insonlardagi ijodiy potensial imkoniyatlarini oladigan sharoitlarni yuzaga chiqarishni maqsad qilib qo'yadi. Shunday ekan, o'qituvchining ta'lim–tarbiya jarayonini to'g'ri va oqilona boshqara olishi o'quvchi shaxsi kamolotida nihoyatda kattadir. Faoliyatdan kutiladigan natija psixologiyada maqsad deyiladi. O'quv jarayonining boshqarilishi ikkita asosiy maqsadni ko'zda tutadi. Ulardan birinchisi, o'quv jarayonini to'g'ri tashkil eta olish, ikkinchisi esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini ikkinchisi esa o'quvchilarning shaxsiy qiziqish va ehtiyojlarini qondirishdir. Anu shu maqsadlar boshqarishning vazifalarini belgilab beradi. Demak, o'quv jarayonini boshqarishning: **birinchi vazifasi** tashkiliy bo'lib, o'quvchilarning ta'lim va tarbiyasi bo'yicha ijtimoiy buyurtmalarni qondirish; **ikkinchi vazifasi** - bevosita o'quvchining qiziqish va talablarini qondirishga yo'naltirilgan holatdagi ijtimoiy vazifadir. Shuningdek, bu vazifa o'quvchilarning ko'tarinkilik, yaxshi kayfiyat va o'quv jarayonidagi ishchanlikni yuzaga keltirishni ham o'z ichiga oladi. Afsuski, ko'p yillar davomida boshqarishning nashu ijtimoiy vasifasiga juda kam e'tibor berilgan.

Boshqaruvning ikkinchi vazifasi bu ijtimoiy–psixologikdir. Bu vazifa o'quvchilarda samarali faoliyat uchun zarur bo'lgan ijtimoiy– psixologik holat va xususiyatlarni rivojlantirishga qaratilgandir.

Bu holat va xusuiyatlar o'quvchilarni o'zaro jipslashtirish, nazorat; o'z-o'zini boshqarish, shuningdek, mustaqil ta'lim olishlarini rivojlantirishdan iboratdir.

O'quv jarayonini boshqarish uchun quyidagi tarkibiy qismlarni egallashlari lozim:					
Berilgan o'quv topshirig'ini yechish uchun vositalar tanlash.	Topshiriqlarni yechish jarayonlarida o'z- o'zini nazorat qilish.	O'zlashtirilgan bilimlar malakalar, ko'nikmalar sifatini baholash.	O'quv topshiriqlarini bajarilganligini tekshirish.	O'z oldiga maqsad qo'ya olish	Turli belgilar bilan predmetning ichki munosabat-lari muvofiqligini ko'ra olish

O'qitishning ikkita usuli mavjud. Biri an'naviy o'qitish usuli- bunda o'qituvchi muammoni belgilaydi, vazifalarni aniqlanadi va muammoni yechib beradi. O'quvchi esa masalani yechish yo'llarini eslab qoladi va uni yechishni mashq qiladi. Bunda o'quvchilarda reproduktiv tafakkur shakllanadi.

Rivojlantiruvchi ta'lim o'qitishning muammoli usulida o'qituvchi o'quvchilarning bilish jarayonlarini boshqaradi, uni tashkil etadi va nazorat qiladi. O'quvchi esa muammoni tushunadi. Uni yechish yo'llarini qidiradi va uni yechadi. Bunday hollarda o'quvchi tafakurining maxsuldorligi oshadi va uning mustaqilligi rivojlanadi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko'rsatish, o'quvchiing o'quv faoligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o'yinlardan kengfoydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo'lavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, qat'iylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir.



O'quvchining o'qishga bo'lgan qiziqishini rivojlantirish uchun o'qituvchi quyidagi qoidalarga tayanishi lozim:	
1	O'quv jarayonini shunday tashkil etish lozimki, bunda o'quvchi faol harakat qilishi, mustaqil izlanishi, yangi bilimlarni o'zi kashf etishi va muammoli xarakteridagi masalalarni yechish uchun sharoit izlashi kerak.
2	O'quvchilarga bir xil o'qitish usullari va bir turdagi ma'lumotlarni <u>berishdan qochish kerak</u>
3	O'rgatilayotgan fanga nisbatan qiziqishning namoyon bo'lishi uchun ayni shu fan yoki bilim, o'quvchining o'zi uchun qanchalik ahamiyatli va muhim ekanligini bilish kerak
4	Yangi material qanchalar o'quvchi tomonidan avval o'zlashtirilgan bilimlar bilan bog'liq bo'lsa, u o'quvchi uchun shunchalik qiziqarli bo'ladi
5	Haddan ziyod qiyin materiallar o'quvchida qiziqish uyg'otmaydi. Berilayotgan bilimlar o'quvchining kuchi yetadigan darajada bo'lish kerak

O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu yoki bilimining ahamiyatini ko'rsatish, o'quvchiing o'quv faolligini oshirish uchun qiziqarli misollar, aqliy o'yinlardan kengfoydalanishi lozim. Lekin, ta'limdagi har bir beriladigan bilim yorqin, qiziqarli bo'lavermaydi, shuning uchun o'quvchilarda iroda, qat'iylik, mehnatsevarlik kabi xislatlarning kamol toptirilishi nihoyatda zarurdir. Ana shu xislatlar o'quvchining kelgusida o'z-o'zini nazorat qilishga, o'z-o'zini baholashga va mustaqil ta'lim olishga asos bo'lish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxujayeva N.N. Pedagogicheskie texnologiya v podgotovke uchitelya. Tashkent, 2000 yil.
2. Alnasrov I.A. Didakticheskie osnovu aktivnogo obucheniya upravlenchenskim dissiplinam. - Tashkent: Fan, 1994.
3. Besnalko V.P. Pedagogika i progressivno`e texnologiy obucheniya. M, 1995.
4. Bepalko V.P. Slagaemue pedagogicheskoy texnologiy. - M., 1989



MANTIQUIY FIKRLASHGA O'RGATISH ORQALI O'QUVCHILAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISH

Norqobilova Muyiba Alisherovna

Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani
85-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'quvchi-yoshlarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi ilmiy metodik g'oyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar. Mantiqiylik, mantiqiy qobiliyat, mantiqiy fikrlash, umumlashtirish qobiliyati.

Davlat mustaqilligini mustahkamlashning eng asosiy shartlardan biri mustaqil shaxsni shakllantirishdir. Mustaqil fikrlash, ishlash va yashash madaniyatiga ega bo'lgan fuqarolar soni qancha ko'p bo'lsa, davlatimiz qudrati shuncha tez mustahkamlanadi. Inson aqli insoniyat yaratgan turli bilimlarni o'rgatish, uni o'zlashtirish asosida doimo rivojlanib boradi. Aqlni yanada rivojlantirmoq uchun inson to'g'ri fikr-mulohaza yuritmoq'i darkor. Buning uchun esa aqliy bilish, xususan, mantiqiy bilish usullariga suyanmoq'i lozim. "Mantiq-deb yozadi Ibn Sino-insonga shunday bir qoida berdiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi". Mantiqiy bilish yordamida inson haqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va noma'lum narsalarni o'rganadi. Turli mantiqiy usullarni ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, ayniqsa, isbotlash tufayli insonning aqliy qobiliyati borgan sari rivojlanib boraveradi.

Mantiqiylik, pedagogik tushuncha sifatida ta'limning maqsadi va vositasiga birdek tegishlidir. Ya'ni ta'limdan maqsad, avvalo, mantiqiy fikrlaydigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ta'limning vositasi sifatida u o'quvchilarga taqdim etilayotgan bilimlarning mantiqiy jihatdan izchilligini ifodalaydi.

Mantiq- o'ylashga, fikrlashga o'rgatadi. Fikrlash – o'qish, yozish, so'zlash va eshitishga o'xshash jarayon. U faol, muvofiqlashtiruvchi jarayon bo'lib, o'zida biror haqiqat to'g'risidagi fikrlarni qamrab oladi. Fikr yuritish ma'lum muammoli vaziyatda vujudga keladi. Muammoni yechish vaqtida bosh miyada chuqur tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, hukm va xulosa chiqarish sodir bo'ladi.

Boshlang'ich sinflardan o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, ularni izlanuvchanlik, ijodkorlikni o'stirish bugungi kunda har bir o'qituvchi oldida turgan muhim vazifalardan biri ekan, o'qitish kattadan bilimlarni oddiy uzatilishiga keltirmasligi kerak. O'qituvchi birinchi navbatda bolalarning qiziqishlarini, mantiqiy qobiliyat - mantiqiy fikrlash, umumlashtirish qobiliyatini, mavhumlashga, tasavvur va hokazolarni, shuningdek, bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil egallash va qo'llay olish insonni rivojlantirishi kerak.

Mantiqiy fikrlash rivojlantirish oson ish emas. Uning shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o'quv sharoitlarini hisobga olish kerak. Buning uchun: o'quvchilarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish; turli-tuman fikr va g'oyalarni qabul qilish; o'quvchilarning o'quv jarayonida faolligini ta'minlash; har bir o'quvchilarning mantiqiy fikr yuritishga qodir ekanligiga o'zlarida ishonch hissini uyg'otish; ijodiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlashi lozim.

O'quvchi ijodiy faoliyatning o'sishida o'quv topshiriqlari muhim kasb etadi.

Masalan, Boborahim Omonovning "Oilada matematika: Ota-onalar uchun" risolasida berilgan topshiriqlar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Shulardan biri "9 ga oid topshiriqlar" mashqi;

1. 9 gacha bo'lgan raqamlar yig'indisini nechaga bo'lsa, 9 chiqadi?
2. 9 gacha bo'lgan raqamlarni shunday ikkitadan qilib yozingki, ularning yig'indisidan nuqul 9 hosil bo'laversin.
3. 9 gacha bo'lgan raqamlardan shunday sonlar hosil qilingki, ularni 9 ga bo'lganda 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 chiqsin.
4. 9 ga shunday sonni ko'paytirinki, ko'paytma 9 bo'lsin.
5. Shunday sonni topingki, o'z-o'zida ko'paytmasi 9 bo'lsin.
6. Qaysi songa 10 ni qo'shgach, 10 ga bo'lsa 9 chiqadi.
7. Maktablarda 9-oydan boshlanadigan o'quv yili necha oy davom etadi?
8. Qaysi songa 9 ni qo'shsak, yig'indi 9 ga teng bo'linadi?
9. Qaysi sondan 19 ni ayirib, 9 ga bo'lsa, 9 chiqadi?



O'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ularni aqliy faoliyatni shakllantirishga yo'naltirilgan. O'quvchilar matematik qonuniyatlar va munosabatlarni anglashga o'rganadilar, o'zaro muomalaga kirishadilar, xulosa chiqaradilar. Bundan o'quvchining aqli o'tkirlashadi, topqirligi va ziyrakligi ortadi, fikrlash tartibli, isbotli, mantiqli, nutqi esa aniq, ishonchli bo'ladi.

Boshqa darslarda mantiqiy topishmoqlardan han o'quvchilarga berib ko'rish mumkin, masalan; “Anhor bo'yida uch qarag'ay o'sadi. Ularning har birida uchtdan yo'g'on shohi bor. Har bir novdada yetti donadan olma bo'lsa, hammasi bo'lib nechta ona olma bor?” Javobi; Bitta ham olma yo'q, sababi qarag'ayda olma bo'lmaydi.

“Uchta traktorchining Ahmad ismli akasi bor. Lekin Ahmad akaning ukalari. Bu qanday bo'ladi?” Javobi; traktorchilar – ayollar. Ahmad akaning singillari.

O'yin orqali o'quvchilarda nafaqat mantiqiy fikrlash ko'nikmasi shakllanadi, balki ularda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, olgan bilimlari kengayadi, chuqurlashadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Irisov Abu Ali ibn Sino hayoti va ijodiy merosi.-T.1990, 177-bet.)
2. Boborahim Omonov “Oilada matematika: Ota-onalar uchun” T.2002.



MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLLIGINI OSHIRISH

Abdullaev Rustam Ubaydullaevich

Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq ta'limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini oshirish
Hududiy markazi, kafedra mudiri

Annotatsiya: Maqolada musiqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshirilishi, o'quvchilar diqqatini qo'shiqqa jalb etish, qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi, qo'shiqni tahlil qilish, qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish, qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish haqida aytilgan

Kalit so'zlar: Musiqa san'ati, musiqa madaniyati, o'quvchi, o'qituvchi, musiqiy qobiliyat

Musiqa san'ati jamiyat ma'naviy taraqqiyotida san'atning boshqa turlariga nisbatan global ta'sir etish xususiyatiga ega. Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng muhimi, bugungi kunda musiqa san'ati navqiron avlodimiz bilan birga imkoniyati cheklangan bolalarni ham yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishlarida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda musiqa darslarini tashkil etish, o'quvchilarda unga bo'lgan qiziqishlarini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilarning qanday shaklda texnologik xarita tuzishi uning tajribasiga, mashg'ulotda ta'lim tarbiyaviy maqsadlarni to'g'ri belgilay olishiga, har bir darsga kreativ yondashishiga bog'liqdir. O'quvchilarni musiqiy qobiliyatini ijodiy rivojlantirishda ayniqsa qo'shiq kuylash amaliyotining ahamiyati katta. Jumladan, Musiqa madaniyati darslarida qo'shiq o'rgatish bir necha bosqich jarayonida amalga oshiriladi.

- o'quvchilar diqqatini qo'shiqqa jalb etish;
- qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi;
- qo'shiqni tahlil qilish;
- qo'shiqni musiqiy jummalarga bo'lib o'rgatish;
- qo'shiqni badiiy ijrosiga erishish;

“Oldinga o'tib ketish va orqaga qaytish” metodi. Qo'shiqni oldingi darslarda bolalarga eshittirib o'rganishga tayyorlab boriladi, so'ngra ma'lum vaqt o'tkazib qo'shiq o'rgatiladi. Bu vaqt-vaqt bilan qo'llanib boriladi.

Og'zaki metodlar. Hikoya, suhbat orqali o'quvchilarni qo'shiq ko'ylashga qiziqtirish.

Ko'rgazmali metod. Qo'shiqni ifodali qilib ijro etish, rasmlar, grafik chiziqlar, plakatlari, texnik vositalaridan foydalanish.

Amaliy metod. Vokal va xor malakalarini shakllantirish, musiqiy ifoda vositalaridan ongli ravishda foydalanish tahlil qilish uchun qo'llaniladi.

O'yin metodi. Qo'shiqni o'quvchilar hotirasida uzoq saqlanib qolishiga erishish, ritmni his etish uchun qadam tashlash, chapak chalish, turli raqs harakatlari, o'yinlar bajarilib, olingan bilim va malakalar mustahkamlanadi.

Zamonaviy darsga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda ajratish mumkin:

- tarbiyaviy talablar,
- psixologik talablar,
- gigiena talablari,
- didaktik talablar.

Musiqa – insonlarni ezguliklar olamiga etaklovchi ma'naviy vosita

hisoblanadi. Inson hayotida qo'shiqning xamisha o'z o'rni, o'z vazifasi mavjud, u ermakka to'qilmagan, havasga aytilmagan, bekorchilikdan eshitilmagan: qo'shiq kishlarni yashayshga, kurashga chorlagan, mehnatga, muhabbatga ruhlantirgan, dardu qayg'usiga malham, baxtu quvonchiga sherik bo'lgan. [1]

Qo'shiqning halq orzu-armonlarining ifodasi, halq ruhiyatining ko'zgusi xisoblanishi shundan. Musiqa tinglash va kuylash jarayonida xar bir o'quvchida namoyon bo'ladigan yuqoridagi xarakter xususiyatlardan samarali foydalanib, idrokning yaxlitligiga erishishi mumkin.

Uchunchidan, o'qituvchi shaxsi va uning musiqa darsini kay darajada tashkil kilishi xamda o'quvchining sinfdosh, maktabdosh do'stlari, oila a'zolarining musiqaga munosabati musiqiy



idrok kilishida o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Masalan; tinglanadigan musiqa vokal yoki dasturli cholg'u asari bulsa, uni idrok qilish ma'lum yoki dastur asosida amalga oshiriladi. Agar bulsa, tinglovchidan ma'lum tasavvur, tafakkur va badiy-estetik tajribani talab qiladi.

Musiqa o'qituvchilariga o'quvchilarda musikiy idrokni shakllantirishga xizmat –qiluvchi quyidagi maslahatlarni beramiz:

- dars davomida musiqiy faoliyatni amalga oshirish uchun qulay psixologik iqlim yaratish;
- o'quvchilar bilimini baholashda qobiliyati emas, balki ijodiy faoliyatini nazarda tutish;
- qulay paytida o'quvchilarning individual-psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, shu asosda tegishli faoliyatda jalb qilish;
- O'quvchilarda yuksak badiy talablar darajasidagi musiqa asarlarini tinglashga ehtiyojni doimiy tarbiyalab borish;
- darsda turli xarakter va mazmundagi musiqalarni tinglash orkali. O'quvchilarni muloqatga jalb etib, fikrlarni eshitish;
- turli psixologik-pedagogik ta'sir metodlaridan foydalanib, O'quvchilarni musiqiy faoliyatga qiziqtirish;
- mashg'ulotda o'zbek cholg'u asboblariidan keng foydalanish orqali milliy musiqaga ijobiy munosabatni shakllantirish;

Xulosa qilib aytganda, musiqa madaniyati darslarida o'qituvchi ko'zlangan maqsadga erishish uchun, o'quvchilarning ijodiy faolligini oshirishga intilishi, ularning musiqiy didi hamda musiqiy ehtiyojini ham o'stirib tarbiyalab borishi zarur. Xalq musiqa san'ati o'zining g'oyaviy-badiiy mazmuni bilan xalqimizning o'tmishi va bugungi hayotimizni teran anglash, milliy qadriyatlarimizni qadrlash va hurmat qilishga o'rgatishda muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Razzoqov H., Mirzaev T., Sobirov O., Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. O'quv qo'llanma. –T.: O'qituvchi. 1980.



JISMONIY TARBIYA FANINING O'QUVCHILAR HAYOTIDAGI O'RNI VA ROLI

Abdunazarov Ahad Chori o'g'li

Mirishkor tumani 1-idum jismoniy tarbiya o'qituvchisi

EMAIL: abdunazarovahad@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada jismoniy mashqlarning inson hayotidagi roli to'g'risida ma'lumotlar beriladi.

Jismoniy mashqlar - kishi ning jismoniy taraqqiyot darajasini oshirish uchun maxsus tanlangan harakatlar. Muntazam va izchil bajariladigan Jismoniy mashqlar. jismoniy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Jismoniy tarbiya amaliyotida tarkib topgan jismoniy mashqlar (odamning mehnat, turmush, harbiy faoliyatidan olingan harakat va amallar asosida — yugurish, sakrash, irg'itish, tosh ko'tarish, suvda suzish va b.) gimnastika, yengil atletika, og'ir atletika, harakatli va sport o'yinlari, sport turizmi va h.k.ni keltirib chiqardi. Ilmiy asosda tanlangan jismoniy mashqlar barcha harakat organlarining faoliyatini yaxshilaydi, mehnat qobiliyatini oshiradi. jismoniy mashqlar turlari to'g'ri va aniq tasnif qilinishni taqozo etadi. Shunda ulardan ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

Jismoniy mashqlarmashqulotlarining shakli va mazmuning boqliqligi:

hamma yoshdagi odamlar bilan jismoniy mashqlarmashqulotlarini tashkil qilishning ahamiyati juda katta va zarur. Jismoniy mashqlar jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligini, sifatini oshirishga mashqulotlarni to'g'ri tashkil qilinishiga ko'maklashadi. Umuman gapirganda jismoniy mashqlarmashqulotlari mazmuni bo'yicha ko'pqirralidir va turlicha: sayirlar, ertalabki badan tarbiya, sport musobaqalari, jismoniy tarbiya darslari va boshqalar. Lekin, jismoniy mashqlarmashqulotlarining shakllari va mazmuni pedagogik nuqtai nazardan haraganda chambarchas boqliqligini aniq tasavvur qilish lozim. Amaliy faoliyat jismonan takomillashuviga faol yo'naltirilgan mashqulotlar maxsus mazmuni bo'lib qisoblanadi. Ular, nisbatan bir qator mustaqil elementlardan iborat: jismoniy mashqlarning o'zi, ularni bajarishga tayyorgarlik ko'rish, faol dam olish va q.k.

Ushbu mustaqil elementlarni yo'nlashtirish usullari mashqulotlarning shakli bo'lib qisoblanadi. (ularga quydagilar - mashqlarni bajarish ketma-ketligi, shuqullanuvchilarni tashkil qilish metodlari, dars qismlarning o'zaro boqliqligi, munosabati va shu kabilar). Har qanday holda jismoniy mashqlarmashqulotlarining shakli uning mazmuniga mos bo'lishi kerak.

Masalan: agarda mashg'ulot mazmuni jismoniy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, unda jismoniy sifatlarini xususiyatlarini qisobga olgan holda tarbiyalash uchun jismoniy mashqlarni maxsus qat'iy tartibga solish zarur (masalan: shuqullanuvchilarni tashkil qilish usullari, jismoniy yuklanish va dam olishni boshharish xarakteri va q.k.).

Mashqulotlar shakli uning mazmuniga faol ta'sir ko'rsatadi. Bir xil bo'lgan mashqulotlar shaklidan muntazam foydalanganda shuqullanuvchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashuvi to'xtaydi. Jismoniy tarbiya vazifalarini samarali xal qilishida turli-tuman mashqulotlar yaratadi (masalan: engil atletika darsi, umumiy rivojlantiruvchi mashqlar; maxsus tayyorlashga yo'naltirilgan mashqlar, darsni tashkil qilish usullari dars oldida qo'yilgan vazifalarga mos bo'lishi kerak).

Jismoniy mashqlarmashqulotlarini va shaklini turkumlarga bo'lish.

Har bir jismoniy tarbiya darsi uch qismdan iborat (tayyorlov, asosiy, yakuniy qismlari). Nima uchun shundayq Darsning bunday tuzilishi birinchi navbatda odam organizmini ishga moslashishi(kirishi), shuqullanuvchilarning ishchanligini oshirishga haratilgandir.

Ko'pincha odam ishchanligini uning ko'rinishidan-terlashi, qizarishi, nafas olishning tezligi, uning mimikasi va q.k.-lardan qo'llanadi. Shuqullanuvchining holatiga va qon tomir urilish tezligiga aloqida e'tibor beriladi. Amaliyotda, qon-tomir urilish tezligini o'lchaganda keng qo'llanadigan oddiy palpator metodidan foydalaniladi. Oldin tinch holatda 10 soniya davomida, so'ng dars jarayonida va oxirida o'lchash olinadi. Lekin, har bir o'lchash oraligi 3 daqiqadan oshmasligi shart. Charchash jarayonini ko'rish uchun fiziologik egri chiziqli tuziladi. Bu egri chiziqli jismoniy yuklanish va dam olish xarakterini hamda shuqullanuvchilar ishchanligi darajasini nisbatan aniqlaydi. Umuman, aniq ma'lumotlar olish uchun instrumental metodlar qo'llaniladi (kardiograf, va q.k.).

Agarda, fiziologik egri chiziqli orqali turli mashqlar(engil atletika darsi, gimnastika darsi, qo'l to'pi darsi va q.k.) taxlili o'tkazilsa, uning farkini ko'rsa bo'ladi.



Bulardan tashhari maxsus adabiyotlardan fiziologik egri chiziq asosida 4 ta “zona” ajratiladi: “Ishni boshlashdan oldingi holat-dastlabki holat- I zona; kirishish-II zona; nisbatan mustaqkam holat -III zona; ishchanligini pasayishi-IV zona.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. <https://avitsenna.uz/jishmoniy-mashq-davolovchi-kuch/>



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATN USTIDA ISHLASHNING O‘QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDAGI ROLI

Abilova Marxabo Umaraliyevna

Toshkent viloyati Angren shahar 30-umumiy
o‘rta ta’lim maktabi I-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Tel: +99899 831 54 78

Elektron pochta: umaraliyevnamarhabo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich sinf, o‘qish darsi, matn ustida ishlash, so‘z boyligi.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, islohotlar, mamlakatimiz iqtisodiy qudrati oshib borish natijasida jamiyat ijtimoiy sohasining markaziy bo‘g‘ini hisoblangan xalq ta’limida ham tub islohotlar ro‘y bermoqda. Zero, "...Xalq ta’limini tubdan isloh qilish, mazkur dasturni amalga oshirish bizdan nihoyatda katta kuch, mablag‘ va imkoniyat talab qilmoqda. Lekin, istiqbolimiz, istiqbolimiz ko‘zi bilan qaraganda, ham iqtisod, ham siyosat, ham ma’naviyat nuqtai nazaridan bu sarf-xarajatlarga nazar tashlasak, undan keladigan manfaat har qanday xarajatlarni qoplashi va oqlashi muqarrar". Bunda boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan o‘qish fani muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘qish darslarida o‘quvchilar nutqini o‘stirish vositalaridan biri to‘g‘ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir va uning to‘liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. O‘quvchi o‘qilgan asar mazmunini o‘qituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni o‘zaro bog‘laydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi.

O‘quvchi asarda qatnashuvchilarning xatti-harakatini qanchalik aniq ko‘z oldiga keltira olsa, u hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi. Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarida va unga ma’lum bir o‘zgartirishlar kiritishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini shakllantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi. O‘qish dasturlarida badiiy asarni tahlil qilishga ko‘proq ahamiyat berilib, matn ustida ishlash yuzasidan xilma-xil topshiriqlar turlaridan, texnika vositalaridan foydalanishga ko‘proq e’tibor berildi. Badiiy asar quyidagi muhim metodik qoidalar asosida tahlil qilinadi: Asar mazmunini tahlil qilish va to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakasini shakllantirish bir jarayonda boradi. Asarning g‘oyaviy-tematik asoslarini uning obrazlari, sujet chizig‘i, qurilish va tasviriy vositalarini tushuntirish o‘quvchilarning shaxs sifatida umumiy kamol topishiga, bog‘lanishli nutqning o‘sishini ta’minlaydi. O‘quvchilarning hayotiy tajribasiga tayanish asar mazmunini ongli idrok etishning asosi va uni tahlil qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

O‘qish o‘quvchilarning bilish faoliyatini aktivlashtirish va atrof muhit haqidagi bilimlarni kengaytirish vositasi hisoblanadi. Turli janrdagi badiiy asarlar qurilishi, uslubi jihatidan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning o‘quvchilarga ta’siri ham har xil bo‘ladi. Tabiiyki, har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she’riy asarlar matni hikoya matnidan, ertak matni she’r matnidan, ilmiy-ommabop maqola matni masal janriga taaluqli asarlar matnidan tubdan farq qiladi. Shunga ko‘ra, turli janrdagi badiiy asarlarni o‘qishda o‘qituvchidan unga mos usullar tanlash talab etiladi. Bu qoidalar asar ustida ishlashning asosiy yo‘nalishini belgilaydi, shuningdek, matnni tahlil qilish jarayonida o‘quvchilar bajaradigan topshiriqlarni va muhokama qilish uchun ularga beriladigan savollarning harakterini aniqlab olishga yordam beradi Asar tahlili jarayonida matn ustida ishlashning turli xil metodlaridan foydalaniladi: o‘qishdan oldin, o‘qish jarayonida va o‘qishdan keyin.

Shunday qilib, badiiy asar matnini tahlil qilishda, umuman, badiiy asarlarni o‘rganishda o‘quvchi shaxsiga kuchli ta’sir qiluvchi, ularning saviyasiga mos, bilimlarning o‘zlashtirilishini ta’minlovchi metod va usullardan, tahlil turlaridan foydalanish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mardanov D. Maktabda kasbga yo‘naltirish ishlari. -Nukus. 2013.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MATEMATIK MASALALARNI YECHISH ORQALI O‘QUVCHILARNING QOBILIYATLARINI ANIQLASH

Abilova Shaxnoza Manazorovna

Toshkent viloyati Angren shahar 30-umumiy
o‘rta ta’lim maktabining II-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon raqami: +99899 818 63 25

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish predmeti va masalalar yechish usullari orqali bolalarni fikrlash qobiliyatlarini o‘stirish metodlari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: O‘qitish vositalarini, darsliklar, didaktik materiallar, ko‘rsatma - qo‘llanmalar va texnik vositalar.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini har tomonlama rivojlantirish pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismidir. O‘quvchilarga ularning qobiliyatlarini namoyon qilishga imkon berish, mustaqilligini va ijodiy potentsialini rivojlantirish boshlang‘ich maktabning asosiy vazifasidir. Bu masalalarni muvoffaqiyatli hal qilish uchun ko‘p tomondan o‘quvchilarda bilim olishga bo‘lgan qiziqishning shakllantirilganligiga bog‘liq.

O‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlarini rivojlantirishda tafakkur asosiy rol o‘ynaydi. Tafakkur bilan bir vaqtda va uning bilan bog‘liq ravishda barcha bilim olish jarayonlari rivojlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matematikani muvaffiqiyat bilan o‘qitish uchun mehnat faoliyatini boshlovchi o‘qituvchi matematika o‘qitishning ishlab chiqilgan tizimini, ya’ni boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasini egallagan bo‘lishi va shu asosda mustaqil ravishda ijodiy ishga kirishishi kerak.

Tafakkurning rivojlanishi bilan birgalikda “fikran, sodda ishlarni rejalashtirish”, o‘zining harakatlarini baholash xususiyatlari rivojlana boradi. Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilarning aqliy va jismoniy faoliyatini tashkil qilishda didaktik o‘yinlar alohida ahamiyatga ega. Matematika darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilar zehni o‘stirish, tez hisoblash ko‘nikmalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Matematika tafakkurni rivojlantirish uchun asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi. Tafakkurni rivojlantirishning konkret usullari mavjud emas. Biz o‘quvchilar tafakkurini umumiy o‘stiramiz, matematika o‘rgatish va h.k lar orqali.

Dastlabki matematik bilimlarni o‘quvchilar o‘zlarining oldingi bilimlariga mos ravishda bir-biri bilan bog‘liq holda o‘zlashtiradilar. Bunda ular tafakkurning ular bilimlarga mos darajasidagi amallari: analiz, sintez, taqqoslash, abstraktlashtirish, konkretlashtirish, induksiya va deduksiya dan foydalanishadi, mulohazalar yuritishadi. Matematik bilimlarni o‘zlashtirish o‘quvchilarning fikrlashini rivojlantiradi. Tafakkur amallarini bilib olish esa o‘z navbatida yangi bilimlarni o‘zlashtirishni yengillashtiradi.

Real dunyo predmetlari va hodisalarni o‘rganish uchun biz ularni hayolan (fikran) kichik qismlarga ajratamiz, ya’ni analiz qilamiz; qismlar yoki predmetlar va hodisalar orasidagi bog‘lanishni o‘rganamiz, ya’ni sintez qilamiz. Tafakkurning bu amallari o‘zaro bog‘liqdir. Analiz va sintez amallari arifmetikani o‘rganishda ham, mashqlar bajarilganda ham, masalalar yechilganda ham ishlatiladi. Birinchi sinfdayoq o‘quvchi to‘plam elementlarini real ko‘rinishda qismlarga ajratadi, o‘rganadi va ularni birlashtiradi. Keyinchalik esa u xayolda, fikran analiz va sintez amallarini bajara boshlaydi.

Matematikani har qanday bo‘limini o‘rgatishda ham analiz va sintez amallaridan keng foydalaniladi. Bu amallar matnli masalalarni yechishda ham ishlatiladi.

O‘qituvchi rahbarligida o‘quvchi masalaning mazmunini analiz qiladi, uni sonli ma’lumotlarga ajratadi, berilgan qism va topilishi kerak bo‘lgan noma’lumlarni aniqlaydi. Murakkabroq arifmetik masalalarni yechishda murakkab hamda nozik analiz va sintez usullari ishlatiladi.

Boshlang‘ich matematikani o‘rgatishda taqqoslash usulidan ham foydalaniladi. Bunda berilgan arifmetik masalalardagi ob’ektlar va ularning qismlari o‘zaro taqqoslanadi, o‘xshash va o‘xshash bo‘lmagan xususiyatlar aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Matematika o‘qitish metodikasi” S.Alixonov . Toshkent 2011
2. “Matematika analiz” 1-qism t.Azlarov . Mansrov Toshkent “O‘qituvchi-1994”



ADABIYOT DARSLARIDA KO'RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Artiqova Dilfuzaxon Meliqo'ziyevna

Farg'ona viloyati Dang'ara tumani
19-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada adabiyot darslarida o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda ko'rgazmali qurollarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlari: ko'rgazmalilik, adabiy ta'lim, mumtoz adabiyoti, portret.

Ta'limning ko'rgazmali vositalari ma'lum bir fandan bilimlarni o'rganish va o'zlashtirish xarakterini belgilaydi. Ta'limning bunday metodlaridan foydalanilganda o'quvchilarning darslardan olgan bilimlari ko'rgazmali vositalar yordamida shakllanadigan yoki esga tushiradigan hissiy obrazlarga, tasavvurlarga bog'liq bo'ladi.

Adabiy ta'lim jarayonida o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Adabiyot o'qitishning o'zak nuqtasini adabiyot darslari tashkil etadi. Ayni mana shu jarayonda o'qituvchi va o'quvchi muloqotlarining oliy nuqtasi ko'zga tashlanadi. Adabiyot darslarini yuqori tashkil qilishda ko'rgazmalilikning ahamiyati nihoyatda katta.

Ko'rgazmali qurollar turlicha ahamiyatga ega bo'ladi. Ular bir holda faqat namoyish qilinadi. Ikkinchi holda esa abstraktsiyani shakllantirish jarayonini yengillashtiradi. Ko'rgazmali qurollar yordamida vujudga keltiriladigan aniq hissiy obrazlarga tayanish abstrakt qoidalarni o'zlashtirish jarayonini yengillashtiradi, bilimlarning tushunarliklik darajasini oshiradi.

Ko'rgazmalilikning ikki turi: tashqi ko'rgazmalilik va ichki ko'rgazmalilik mavjud. Ichki ko'rgazmalilik matnning mazmunini idrok qilishdir. Tashqi ko'rgazmalilik o'qituvchining nutqi, ifodali o'qishi, tasviriy san'at asarlaridan foydalanish, turli jadvallar, xaritalar, darsda qo'llanilgan texnik vositalar (kino apparatlar, magnitofon, radiopriyomnik, televizor, videomagnitofon, kompyuter)dan foydalanish.

Bugun an'anaviy ko'rgazmalar qatoriga virtual ko'rgazmalar tizimi ham kelib qo'shilmoqda, Masalan, adabiyot darsida bir ijodkorning hayoti, ijodi, uning asarlari o'rganilmoqda. Internet tarmog'ida hozir ayrim yozuvchilarning saytlari paydo bo'ldi. Ayrim ijodkorlar haqida internetda anchagina ma'lumotlar jamlandi. Zero, ko'rish va eshitish bilan bog'liq bo'lgan ko'rgazmalilik o'quvchidagi ijodiy tasavvurni faollashtirish bilan omuxtalashib sinfdagi adabiy asar tahliliga jiddiy ijobiy ta'sir ko'rsata oladi. Buning natijasida esa o'quvchi o'zi o'qigan narsasiga mustaqil munosabatining shakllanish jarayonini tezlashtiradi hamda bu sohadagi bilimlarini mustahkamlaydi. Xususan, Ogahiyning g'azallari o'rganilmoqda. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini shoirning nuroniy qiyofasiga jalb qiladi. Buyuk shoirning ma'naviy dunyosi rassomlar tomonidan qanday ishlangani haqida suhbat boshlaydi. Bu yerda tasviriy san'at hamda musiqa yordamga kelishi mumkin. Ogahiy portretidan, Xivaning qadimiy va zamonaviy rang-tasvirda aks etgan manzalaridan, Ogahiy she'rlarining qo'shiq qilib aytiladigan variantlarini audio-video vositalar yordamida eshitish, uning rangli tasvirlarini ko'rish o'quvchining hayotiy tajribasini boyitadi, uning ruhiyatiga kuchli emotsional-hissiy ta'sir o'tkazadi. Yozuvchi hayoti va ijodini o'rganishda o'quvchilarga namoyish qilinadigan asosiy narsa uning tug'ilgan va vafot etgan yillarini ko'rsatuvchi sanalardir.

Badiiy asarni o'rganishning barcha bosqichlarida ko'rgazmali vositalardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Bundan tashqari, yozuvchi hayoti, ijodi yoki obzor materiallarini mumtoz adabiyot bilan bog'liq ravishda o'rganish (arxitektura, tasviriy san'at) usullari ham bor. Masalan, maqom kuylari, Samarqand, Xiva, Buxoro me'morchilik yodgorliklari, o'zbek rassomlari va xattotlari (Behzod, Sulton Ali) ning ijodlari haqida suhbat o'tkazish va bu san'at namunalarini adabiyot materiali bilan bog'lash estetik va milliy iftixor tuyg'ularini o'stirish jihatidan katta ahamiyatga ega.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, ko'rgazmalilik prinsipini amalga oshirish orqali



o‘quvchilarning qayta xotiralandi asoslangan faoliyatini ham, qisman izlanuvchanlik faoliyatini ham, ijodiy faoliyatni ham uyushtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: 1996
2. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – T.: 2012
3. Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: 2010
4. Nabiyeva D.A., Nurmonova S.D. СОВРЕМЕННОЕ ЖАНРОВЕДЕНИЕ ИЛИ ГЕНРИСТИКА: ТЕОРИИ, МЕТОДЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ // Theoretical & Applied Science. 2020/4. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44843224>



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI INNOVATSION METODLAR ORQALI O'QITISH

Bazarbayeva Maxsuda Toshtemirovna

Toshkent viloyati Angren shahar 30- umumiy
o'rta ta'lim maktabining 1- toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi
Tel: +99899 479 48 71

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki tushunchalarni o'rgatishda innovatsion metodlar va vositalaridan foydalanish masalalari yoritilgan

Kalit so'zlar: innovatsiya, pedagogik texnologiyalar, fidokor o'qituvchi.

O'quvchiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Ruhshunoslarning aniqlashicha, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, o'qituvchining oddiy tushuntirishi orqali egallab olgan ma'lumotlarga qaraganda turli xil ruhiy kechinmalar orqali o'zlari mulohaza yuritib, mustaqil bajargan ishlari vositasida o'zlashtirilgan bilimlarini uzoq esda saqlab qoladilar. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi.

Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma - bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi. Bugungi Davlat ta'lim standarti va ta'lim tizimi biz boshlang'ich sinf o'qituvchilari oldiga o'ta mas'uliyatli vazifalar yuklamoqda.

O'qituvchi har bir o'tilayotgan darsga ijodiy yondashishi, mashg'ulotlarni ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida qurishi, darsning har bir minutidan unumli foydalanishi zarur. Mashg'ulotlarni shunday tashkil etish kerakki, o'quvchi har bir dars davomida egallashi lozim bo'lgan bilimlar hajmini, o'zida hosil qiladigan ko'nikma va malakalarni oldindan belgilab olishi lozim. Bu o'z navbatida o'quvchining mashg'ulotlarga aniq maqsad bilan qatnashishini taqozo qiladi. Chunki o'quvchi darsning oxirida belgilangan maqsadga erishganligini bilish imkoniyatiga ega bo'lishi zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchisiga bilim berish, har bir dars mazmunini boyitish, qiziqarli mashg'ulotlarni dars jarayoniga singdirishni talab qiladi. Bunda o'qituvchining dars uchun oldindan puxta tayyorgarlik ko'rishi va darsda foydalanadigan usullar bolalarning mustaqil ishlashiga qaratilishi zarurdir. Chunki o'quvchi mustaqil mashqlarni bajarishda faoliyat ko'rsatib, ilgari olgan bilimlariga tayangan holda ko'plab o'quv materiallarini hayolidan o'tkazadi. O'xshash hodisalarni taqqoslaydi. O'zicha mulohaza yuritib mustaqil hukm chiqaradi. O'qituvchilarning tayyor holda bergan ma'lumotida esa o'quvchi fikrlash faoliyati to'la ishga kirishmasdan to'g'ri javobni o'zlashtirib oladi. O'xshash hodisalarga duch kelishi bilan o'qituvchi bergan bilimni amaliyotga taqbiq qilishda qiynalib qoladi.

Davlat ta'lim standarti va amaldagi maktab dasturlarida o'quvchi egallashi lozim bo'lgan materiallar ancha murakkab bo'lib, bolalarning bu bilimlarni bosqichma-bosqich egallab olishlarini, kengaytirib va rivojlantirib borishlarini taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyalar asosida darslarning tashkil etilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'zi bajarayotgan mashg'ulotga nisbatan ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchi har bir mashg'ulot jarayonida ixtiyoriy diqqatini ishga soladi, darsda ilg'orlikka, g'alaba qozonishga intiladi. Shu davrda u atrof-muhit, jamiyat va kishilar mehnati, maktab-maorif haqidagi bilimlarni egallaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, davlatimiz tomonidan ta'lim tizimini takomillashtirishga bo'lgan e'tibor, bu ulug' xalqimiz, kelajagimiz va ertangi kunimizga bo'lgan e'tibordir. Kelajagimiz vorislari bo'lgan yosh avlodning mustahkam bilim olishlari, olgan bilimlarini kundalik faoliyatda qo'llay olishlariga, komil insonlar bo'lib voyaga yetishlariga imkoniyatlar yaratishimiz, ta'lim



tizimiga bo'lgan e'tiborning yaqqol namunasidir. Bu esa buyuk kelajagimizga bo'lgan ishonch garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchi mahrati: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. Jizzax 2017.
2. Xalq ta'limi tizimida axborot-kommunikatsion muhitni yaratish: asosiy maqsad va vazifalar. Xalq ta'limi 2016 y 3-son Sh.Ergashev, A.Kolantarov.



BUGUNGI TO'G'RI TANLANGAN KASB – ERTANGI KELAJAK POYDEVORI

Xalima Maksatovna

O'zbekiston Respublikasi

Ichki ishlar vazirligi Surxondaryo akademik

litseyi psixologi Bekmuratova

+998915410818

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida kuzatilishicha kasb tanlashda bolaning qiziqishlariga birinchi navbatda e'tibor berilmoqda, Mazkur maqola mamlakatimizda o'quvchi-yoshlarning kasb tanlashda ularga to'g'ri ko'rsatish va uning psixologik jihatdan ahamiyatini ochib beradi.

KALIT SO'ZLAR: Qobiliyat, layoqat, diqqat, xotira, bilim, ko'nikma, kasb tanlash, shaxs kamoloti, davlat va jamiyat, rivojlanish, muvaffaqiyat.

Shaxs va uning kamoloti nafaqat jamiyat, balki davlat, millat ravnaqiga rivoj olib keladigan masalalardan biridir.

Bugun mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, o'sib kelayotgan farzandlarimizga zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, ta'lim berish borasida ijobiy natijalarga erishib kelinmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan mamlakatimiz ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan ishlar o'zining yorqin samaralarini berib kelmoqda. Shu bilan birga, ertangi kunimizni yanada yuksaltirishga mustahkam zamin yaratish, biz boshlagan buyuk ishlarni davom ettirishga, qurbi-qudrati yetadigan, hech kimdan kam bo'lmasdan hayotga kirib kelayotgan yetuk va barkamol, mustahkam fikrlaydigan yangi avlodni kamol topdirish, bugun erkin fikrlaydigan, ongli yashaydigan, siyosiy, huquqiy va ma'naviy saviyasi tobora o'sib borayotgan, o'z kelajagini kim uchun va nima uchun mehnat qilayotganini o'ziga aniq tasavvur etayotgan barkamol avlodni tarbiyalashni davr taqozo etadi.

Bugungi kunda davlat va jamiyatning ma'lum bir muhim qismi hisoblangan o'smir o'quvchi-yoshlarning o'z layoqati va qiziqishidan kelib chiqqan holda kasb-hunarni tanlashi yurt rivojlanishi uchun muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Bu esa ertangi bilimli iqtidorli, qolaversa o'z ustida tinimsiz izlanadigan va malakali mutaxassis, shuningdek, mamlakat iqtisodiyotini yuqori bosqichga ko'taradigan tadbirkorlar yetishib chiqadi. Ya'ni, har bir inson u qaysi kasb bo'lishidan qat'iy nazar shu tanlagan kasbini zo'r qiziqish bilan o'rgansa, bajarsa bunda o'zgarishlar bo'ladi yangiliklar qilinadi. Hayotda har qaysi insonning biror qiziqishi yoki biror shug'ullanadigan mashg'uloti bo'ladi (xobbiysi) bu jarayon kasb-hunarni to'g'ri tanlashda o'quvchi - yoshlarning kelajakdagi muvaffaqiyatini belgilab beradi. Shu tanlagan kasbiga qiziqishi yanada ko'payada, yangiliklar qilishga intiladi, o'z ustida izlanadi, bu esa shaxsning kamolotga erishishiga, yangi pog'onalariga ko'tarilishiga, qolaversa davlatning rivojlanishiga xizmat qiladi, shuningdek, to'g'ri kasb tanlanishi natijasida insonda tushkunlik holatlari past darajada bo'ladi buning natijasida bir qancha muammo va depressiv holatlarning oldini olingan bo'ladi, zero ki har bir sog'lom fikrli, jismoniy va aqliy layoqatga ega bo'lgan millati va dinidan qat'iy nazar shu jamiyat a'zosi bo'lgan shaxs nafaqat o'zining moddiy va ma'naviy kamoloti uchun, balki davlat va jamiyatning taraqqiyoti uchun ham faoliyat ko'rsatishi lozim bo'ladi. Bu nuqtayi nazardan har bir o'quvchi-yoshning kasb tanlashi jarayonida ularga quyidagi talablarga javob berishi lozim deb qo'ysak kasb-hunar ta'limining yanada rivojlanishiga va bilim tajribasi oshishiga erishgan bo'lamiz hamda ishlab chiqarishimiz yanada takomillashadi, yangi loyihalarni ishlab chiqish imkoniyati tug'iladi.

Bu talablar quyidagilar:

- Har bir o'quvchi –yoshlar o'z qiziqishidan kelib chiqib kasb tanlashi kerakligi;
- Kasb tanlash jarayonida ota-onasi yoki yaqinlarining maslahati bilan tanlamasligi;
- Kasbni o'quv yurtining ijtimoiy mavqeiga qarab tanlamasligi;
- Kasbni tanlayotganda ishonch bilan tanlashi va shu kasb bo'yicha kelajakni ko'ra olishi lozim;
- Kasbni ota-onaning majburiyiligi bilan tanlamasligi;
- Kasbni tanlash jarayonida maktabda amaliyotchi psixologning olgan test natijalariga yoki o'zining qiziqishiga qarab belgilanishi;
- Agar, kasb tanlash jarayonida bir qancha muammolarga uchrasa bu muammolarni bir o'zi



emas, o'zaro maslahat bilan yechimini topishi;

· Agar, tanlagan kasbi amaliy jihatdan yondashilsa o'zi ishlab chiqqan loyihalari bo'lsa ularni taqdim etishi;

· Kasbni tanlashda shaxsiy fikrga ega bo'lishi, ya'ni, o'zining bilim va ko'nikmalariga tayangan holda, tanlashi lozim bo'ladi.

Zeroki, kasb-hunar shunchaki tanlanmaydi yoki birov uchun hech kim kasb-hunarni tanlamaydi, bu jarayon shaxsning ichki motivlari asosida nimaga qiziqishi layoqatiga qarab yo'naltirilishi mumkin. Bu jarayonni esa ko'proq maktablarda faoliyat ko'rsatayotgan amaliyotchi psixologlar tashkil qiladilar. Bizga psixologiyadan ma'lumki o'smir shaxsi o'zgaruvchan xususiyatlarga ham ega ekanligi, shu nuqtayi nazardan amaliyotchi psixologlarning maslahati va xizmati katta ahamiyatga ega. Amaliyotchi psixolog olgan test natijalariga tayangan holda, o'quvchi-yoshlarning dunyo-qarashini, bilim va ko'nikmalarini oshirishi, yangicha fikrleydigan g'oyalar berishi natijasida o'quvchi-yoshlarning ongi, saviyasi yanada oshadi, o'zi qiziqqan kasbni tanlashda o'ziga nisbatan ishonch yanada ortadi. Buning natijasida to'g'ri tanlangan kasb ertangi mehnat faoliyatida kasbiy malakalarini rivojlantirish, takomillashtirish, ishlab chiqarishda undan maqsadga muvofiq ravishda foydalanish ro'yobi ko'rinadi, Shaxsda o'zidan mamnunlik hayotga qiziqish bilan boqish, mustahkam kelajak poydevori quriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoyev – “Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” – O'zbekiston 2016.

2. Sh.M.Mirziyoyev – “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz” – O'zbekiston 2017.

3. [www. tdpu. uz](http://www.tdpu.uz)

4. [www. psycholigy. uz](http://www.psycholigy.uz)

5. [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA O'QISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

Daniyoroza Zulxumor Ishbayevna

Jarqo'rg'on tumani 18- sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Daniyoroza Saodat Ishbayevna

Jarqo'rg'on tumani 18- sonli
umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada boshlang'ich sinflarda o'qish darslarining vazifalari, o'quvchilarning o'qish malakasini takomillashtirish va o'qish samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan metod va usullari haqida yoritilib ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Motivlar, metod, reproduktiv, voqea, so'z, ibora, o'qish, didaktika, tasavvur, nutq va tafakkur.

Davlatimiz rahbari prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda innovatsion va kreativ fikrlaydigan, zamonaviy kadrlar tayyorlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalash, shu maqsadda ta'lim tizimini takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelmoqda. Haqiqatan ham, jahondagi rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar avvalo ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

Insonning shakllanishi va ma'naviy yuksalishida ona tili va o'qishning o'rni beqiyosdir. Barcha bilim va tajribalar ushbu fanlar orqali shakllantiriladi. Shuning uchun ham birinchi sinfdanoq ona tili va o'qish fanlarini o'qitilishiga alohida e'tibor qaratmoq joizdir.

O'quvchilarda ijobiy tasavvur, nutq va tafakkurni o'stirish. Qadim-qadimdan ardoqlanib kelingan kitobga mehr-muhabbatni tarbiyalash, uni e'zozlashga o'rgatish. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrlarini erkin bayon etishga o'rgatish.

O'qish inson hayotida muhim ahamiyatga ega. O'qishni bilmagan odamning ko'zi ojiz kishidan farqi yo'q. O'qish faoliyati boshlang'ich sinflarda barcha fanlarda amalga oshiriladi, lekin o'qishga o'rgatish o'qish darslarining asosiy vazifasidir. Kichik yoshdagi o'quvchini o'qishga o'rgatishda ularning umumiy rivojlanishi, psixologiyasini hisobga olish zarur. O'quv materialining hajmini oshirib yuborish, tinmay bir maromdagi o'qishni tashkil etish bolani o'qish mashg'ulotidan beziradi. O'quvchilarni qiziqarli topshiriqlar, didaktik o'yinlar asosida o'qitish o'qishga o'yin tusini beradi. Bola o'ynab charchamagandek, o'qib charchaganini sezmaydi. Didaktik jarayon uchta bir-biri bilan bog'liq komponentlardan iborat:

Motivlar, O'quvchining o'quv-bilish jarayoni, boshqarish Didaktik jarayonning samarali o'tishida bu komponentlar muhim o'rin tutadi.

1-sinfda o'qish darslari bir qancha vazifalarni bajaradi:

O'quvchilar asar mazmunini to'g'ri idrok etishlari, bilimlarini mukammal egallashlari, hayot haqida ma'lum tasavvurga ega bo'lishlari zarur. Bo'g'in tuzilishi murakkab bo'lmagan so'zlarni bo'g'inlab to'g'ri o'qish. Bolalar hayoti bilan bog'liq bir bo'g'inli, ikki bo'g'inli so'zlarni bir tekis o'qishlariga erishish. Buning uchun o'qituvchi o'qiladigan asar matnini o'rganish jarayonida o'qilishi qiyin o'rinlarni belgilashi va o'qishni differensial usulda tashkil etishi, ya'ni o'qilishi qiyinroq o'rinlarni yaxshiroq o'qiydigan o'quvchilarga, oson o'qiladigan o'rinlarni o'qish malakasi bo'sh o'quvchilarga o'qitishni mo'ljallashi lozim. Bog'in tuzilishi murakkab so'zlarni kartonga solib yoki xattaxtaga bo'g'inlarga bo'lib yozish, jo'r o'qitish usulidan foydalanish, so'z ma'nosini izohlash yo'li bilan to'g'ri o'qishni amalga oshirish kerak.



1-sinflarda o‘qishning ovoz chiqarib, ba’zan shivirlab o‘qish turidan foydalanish talab etiladi. Chunki o‘qituvchi o‘quvchilarning to‘g‘ri o‘qishini hisobga olish va to‘g‘irlash imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘qish darslarida turli janrdagi asarlarni o‘rganishda ham o‘quvchilarning badiiy asarni chuqur o‘zlashtirishlarini, asarni tahlil qila olishlarini ta’minlashi kerakligini hisobga olgan holda metod tanlashga e’tibor qaratildi. O‘qish darslarida izohli o‘qish, ijodiy o‘qish, yarim izlanishli, reproduktiv metodlardan foydalanish mumkin. Izohli o‘qish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshi va saviyasiga mos bo‘lgan, ularning asta-sekin o‘qishini ta’minlaydiga metod ekanligi uzoq yillik tajribalarda sinaldi. Izohli o‘qish ongli, tushunib o‘ylab o‘qishga o‘rgatadi. Izohli o‘qish tamoyillari:

Ijodiy o‘qish asar o‘qib berilgach, o‘quvchilarda hosil bo‘lgan tasavvurni aniqlash maqsadida o‘tkaziladigan suhbatda, hikoyalardagi lavhalarga sarlavha topishda reja tuzishda, asar ustida ijodiy xarakterdagi yozma ish yozishda o‘quvchilarni faollashtiradi.

Reproduktiv metodda asar matni qismlarga bo‘linadi, yozuvchining aytmoqchi bo‘lgan fikriga o‘quvchilar diqqatini tortib, uni aniqlab, yozuvchi voqeani ifodalashda foydalangan so‘z, ibora ifodalarni aniqlab ko‘rsatadi, ularga yuklatilgan ma’noni o‘quvchilar bilan birga aniqlaydi. Bular o‘quvchilar uchun bir ko‘rsatma vazifasini bajaradi. O‘qituvchining yo‘llovchi savollari yordamida bu vazifani o‘quvchilar o‘zlari mustaqil bajaradilar.

Xulosa qilib aytganda, o‘qish fanida bu metod va usullardan foydalanish o‘quvchining o‘qish malakasini takomillashtirib, mustaqil fikrlash va og‘zaki bayon eta olish malakalarini shakllantirib rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarova R.G., Abdullayeva B.S . Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. - Toshkent, 2019.
2. E. Shodmonov, G.Eshturdiyeva 1-sinfi uchun darslik Toshkent — 2017yil.
3. <https://www.pv.uz>



BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM MUTAXASSISLARINI INNOVATSION KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Hamroyeva Nigora Saidqulovna

Surxondaryo v. Sariosiyo t. 9-DMTT tarbiyachi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarini innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, ularni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik amaliyot, ilg'or tajribalar hamda ota-onalar bilan hamkorlik masalalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, innovatsion kasbiy faoliyat, ilg'or tajribalar, kasbiy mahorat, ta'lim-tarbiya

“O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi Farmonda “Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish va ushbu muassasalarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, pedagog va mutaxassislarning malaka darajasini yuksaltirish” kabi yo'nalishlar belgilanib, bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha alohida dastur ishlab chiqish, ushbu tizimni boshqarish infrastrukturasi takomillashtirish vazifasi qo'yilib, ilmiy-metodik ta'minotni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Respublikamiz hukumati maktabgacha ta'lim oldiga qo'yayotgan vazifalarning aksariyati pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahorati va boshqaruvchilik salohiyatiga bog'liq. Maktabgacha ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan maqsadlarga erishish, tarbiyalanuvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o'stirish pedagog-tarbiyachi zimmasiga yuklatiladi.

Shu sababdan maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlarning bevosita davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan maktabgacha ta'lim muassasalari uchun “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi tasdiqlangan. Maktabgacha ta'lim muassasasining mazkur davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjat bo'lib, unda maktabgacha ta'lim muassasasining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. Bu o'z navbatida maktabgacha ta'lim tizimida pedagogik jarayonlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi zarurligini talab etadi.

Bo'lajak pedagog-tarbiyachilarni kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlash uchun ta'lim jarayonida ma'ruzalar, amaliy hamda laboratoriya mashg'ulotlari mazmunini yangi yondashuvlar asosida boyitish, shuningdek, pedagogik amaliyot, ma'naviyat kunlari va soatlarini takomillashgan dasturlar yordamida tashkil etishni taqozo qiladi. Maktabgacha ta'lim samaradorligini ta'minlashda pedagog-tarbiyachidan chuqur pedagogik psixologik tayyorgarlik, har bir tarbiyalanuvchining o'ziga xos jihatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishi hamda shaxsiy reja tuzishda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilishi talab etiladi:



- vujudga keladigan pedagogik muammolarni bashorat qila olishi; buning uchun bo'lajak pedagog-tarbiyachi pedagogik jarayonda vujudga keladigan muammolarni oldindan ko'ra bilish va uni bartaraf etish layoqatiga ega bo'lishi lozim.

- vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish metodlarini o'zlashtirishi;

- vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishning eng qulay usullarini tanlay va qo'llay olishi;

- tarbiyalanuvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatish, ularni qo'llab quvvatlash mahoratiga ega bo'lishi;

Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachining



maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, tarbiyalanuvchi shaxsini pedagogik-psixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda mustahkamlanadi. Bularning barchasi talabalarni tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak.

Bo'lajak maktabgacha ta'lim muassasasi pedagog-tarbiyachilarining kasbiy mahoratlarini hosil qilishda ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy hayot bilan uyg'unligini ta'minlash prinsipiga qat'iy amal qilish kerak. Shu asosda bo'lajak pedagog-tarbiyachilarning tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari, vositalari va metodlarini o'zlashtirishlariga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xasanboeva O.U va boshqalar. «Maktabgacha ta'lim pedagogika». T., «Ilm ziyo» 2006.
2. "O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimini modernizatsiyalash-yuksak ma'naviyatli kelajak avlodni tarbiyalash negizidir" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent - 2009 yil.
3. SHerbakov A.I. Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyadan praktikum. T., 1991



ТА’ЛИМ ТИЗИМИДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ MASALALARI

Jumanova Marhabo Qadambayevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31-son umumiy oʻrta taʼlim maktabi

Texnologiya fani oʻqituvchisi

Sharipova Xolida Yuldashevna

Xorazm viloyati Shovot tumani

30-son umumiy oʻrta taʼlim maktabi

Texnologiya fani oʻqituvchisi

+998941110780 +998914322702

Annotatsiya: maqolada taʼlim tizimida texnologiya fanini rivojlantirishning nazariy masalalari xususida fikrlar berilgan. Shuningdek, texnologiya darslarning samarali tashkil etishda sinfdan tashqari toʻgaraklarning foydali jihatlariga oid maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻzlari: texnologiya, mehnat taʼlim, kompetensiya, DTS.

2017-yil umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining yangi – kompetensiyaviy, yondashuvga asoslangan Davlat taʼlim standarti tasdiqlangach, oʻquv rejalariga oʻzgartirishlar kiritildi, ayrim fanlarning mazmun-mohiyatiga innovatsion yondashildi va nomlari oʻzgartirildi. Shunday fanlardan biri “Mehnat taʼlimi” boʻlib, amalda unga “Texnologiya” deb nom berildi.

Texnologiya fani – oʻqituvchi rahbarligida oʻquvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat boʻlib, yakuniy natijada ularning mehnat qurollari, vositalari va jarayonlari haqidagi bilimlarini hamda maʼlum sohadagi ishlab chiqarish mehnatini bajarish uchun zaruriy amaliy koʻnikma va malakalarini egallashlariga imkon beruvchi oʻquv fanidir.

Umumiy oʻrta taʼlim oʻquvchilari texnologiya darslarida maktab ustaxonasida turli materiallardan buyum yasashni rejalashtirish, loyihalash va yasash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish borasidagi bilim va koʻnikmalarni egallashi kerak.

Taʼlim tizimiga kompetensiyaviy yondashuv joriy etilgach, texnologiya fanida ham quyidagi kompetensiyalar, yaʼni malaka talablari belgilandi:

1. Buyum va mahsulot turlarini, ularni tayyorlash va ishlov berish usullarini bilish, texnologik loyihalash hamda amalga oshirish kompetensiyasi.

2. Psixomotor, funksional hamda amaliy faoliyat turlarini bajarishdagi operatsion kompetensiya.

3. Toʻgʻri va ongli kasb tanlash, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyasi.

Umumiy taʼlim tizimida “Texnologiya” fanining vazifalari oʻquvchilarning mehnat va texnologik madaniyatini, texnologik bilim va koʻnikmalar tizimini shakllantirish va mehnatni tarbiyalashni oʻz ichiga oladi. Uning shaxsiyatining fuqarolik va vatanparvarlik fazilatlarini, mehnat bozori sharoitida ularning ongliylik va erkinlik bilan oʻziga maqul boʻlgan kasbni oʻzi tanlashiga, gumanistik va pragmatik yoʻnaltirilgan dunyoqarashni shakllantirishda yordam beradi. Oʻquvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yoʻnaltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yogʻochga, metallga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi, pazandachilik asoslari, qishloq xoʻjalik asoslari, badiiy mehnat texnologiyasi va mashina elementlari yoʻnalishlari boʻyicha bilim, koʻnikma va malakalarni egallashlari koʻzda tutilgan.

Umumiy oʻrta taʼlim maktablarida tashkil etiladigan mehnat taʼlimi mashgʻulotlari oʻquvchilarning mehnatsevarlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda yetakchi oʻrin egallaydi. Mehnat taʼlimi mazmuni, mohiyati va vazifalariga koʻra koʻpgina ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uygʻunlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tatbiq etishni koʻzda tutadi.

Texnologiya fanining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi anʼanaviy sinf-dars mashgʻulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi tarbiyaviy mahsuldorligi, samaradorligi, boʻlgʻusi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy taʼminlanishida hamda tarixiy qadriyatlarining yanada boyishida ijobiy taʼsir koʻrsatadi. “Ustoz-shogird” tizimi mashgʻulotlarining tashkil etilishini oliy oʻquv yurtlaridagi musiqa taʼlimida talabalar bilan oʻqituvchilarning yakka tartibdagi mashgʻulotlarini oʻtkazish bilan taqqoslash mumkin.

Texnologiyadarslaridaelektronhisoblashtexnikasi,elektrlashtirilganvamexanizatsiyalashtirilgan



qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli boshqarish tizimlari, robot texnika va ishlab chiqarish texnikasining, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda jamiyatimiz uchun har tomonlama rivojlangan, fan – texnika yutuqlarini hayotga tatbiq eta oladigan yetuk kasb egalarini tayyorlash masalasi turibdi. Bu masalani hal etishda sinfdan tashqari to'garaklarning o'rni katta. Umuman texnologiya fani insonlar hayotida muhim o'rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rishda zarur o'rin tutadi.

Texnologiya fanidan to'garaklarni maxsus jihozlangan xonada o'tkaziladi. Texnologiya fanidan o'quvchilarning jinsi, yosh xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Texnologiya fanidan to'quvchilik to'garagi ham qizlarimizga yoqib, ko'proq mavsumiy hisoblanadi. To'qish o'rganish uzoq vaqt talab etmaydigan hunar bo'lib, unchalik katta tajribaga ega bo'lmasdan ham bu ishni uddalasa bo'ladi. To'garakda mashg'ulotlar ham nazariy ham amaliy tarzda olib boriladi. Oddiydan murakkabga, kichik hajmli buyumlardan katta kiyim – kechaklar tikishni o'rganishadi. O'g'il bolalar uchun texnologiya fanidan to'garak tashkil etishda ularning qiziqishlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi. Maktabda to'garak darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil qilishning keng tarqalgan va chuqur tadbiq etilgan shakli hisoblanib, ixtisoslashuvdan qat'iy nazar ularning ko'plab umumiy tomonlari mavjud. Shuning uchun turli to'garaklarning rahbarlari boshqa ixtisosdagi to'garaklar ishidagi ijodiy mehnatga yonaltirishga oid ilg'or tajribalarni chuqur o'rganib, zamon bilan hamnafas bo'lishi, o'z ustida ko'p ishlashi, eng ilg'or tajribalarini chuqur o'rganib, eng yaxshi tomonlarini o'z ishida qo'llashlari yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib shuni aytyshimiz mumkinki, Texnologiya fanini o'rganish jarayonida o'quvchilar xalqimiz yashash tarzini, an'analarni tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining, milliy qadriyatlari, tarixiy yodgorliklari, xalq ustalarining ko'p qirrali boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlarda qo'llash vazifasini hal etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Nurova I.D. Mehnat ta'limi darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalaridan foydalanish metodikasi. – T.: 2014.
2. Bekmurodova S. Texnologiya fanini o'qitishga yangicha yondashuv. Metodik qo'llanma. – T.: 2017
3. Nurmanova D. Linguistic Concept of the Text // Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. 2021/9/18. -P. 65-67. URL: <https://literature.academicjournal.io/index.php/literature/article/view/85>
4. Таджибаева М.А. Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии // Проблемы востоковедения. 2012. 2 (56). - С. 53-58. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsionnye-obrazy-v-uzbekskoy-dzhadidskoy-poezii-1>



BOLA TARBIYASI BORASIDA PSIXOLOGDAN FOYDALI TAVSIYALAR

Kukanova Sevara Pardaboy qizi

Toshkent viloyati Angren shahar 16-umumiy

o'rta ta'lim maktab psixologi

Tel: +99894 604 19 00

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlar tarbiyasi va ularning oiladagi o'rni, tarbiyaning asosi oila ekanligi haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, oila, yaxshi xulq, odob-axloq, iroda, yetuklik.

Maktab ostonasiga oyoq qo'yish har bir inson uchun nihoyatda katta hayotiy burilishdir. Mana shu davrdan boshlab bolalikning eng beg'ubor onlariga bir qadar cheklanishlar kirib keladi. Endi bola oilada nafaqat oilaviy ba'zi burchlarni, balki, o'z shaxsi uchun zarur bo'lgan xususiy vazifalarni bajarishi shart bo'ladi. Bu bilan uning oiladagi roli bir qarashda kamayganday emas, aksincha ko'paygan bo'ladi. Ya'ni u o'z obro'sini endi nafaqat oila a'zolari o'rtasida, aksincha, jamiyat o'rtasida oila obro'sini o'z shaxsiy harakati bilan himoya qilish davri boshlanadi.

Maktab davri. Ruhiy muhiti sog'lom oila a'zosi bo'lgan bolaning birinchi bor maktabga borishi qanchalik hayajonli bo'lmasin bola uchun jiddiy qiyinchiliklar tug'dirmaydi. Chunki maktabda o'qituvchi hamma bolalarga bir ko'z bilan qaraydi. Oilada ham bolaga maktabga borganligi munosabati bilan alohida erkatoyga qarash qilmasdan, maktab uning o'zi uchun kerak bo'lgan burch, sifatida qaragan ma'qul. Chunki, mana shunday qaralgandagina bola uy vazifalariga, maktabda berilgan topshiriqlarga shaxsiy burch sifatida qarashga o'rganib boradi.

O'zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni ham hurmat qilmaydi. O'z burchini sezgan shaxsda esa o'z shaxsiga hurmat tuyg'usi tobora ortib yaxshi shakllanadi. Hammamizga ma'lum tushuncha, ya'ni o'zini hurmat qilmaydigan shaxs boshqalarni hurmat qilishni bilmaydi. Bu o'rinda tarbiyaning, maktab va oila tarbiyasining bola shaxsiyatiga bir yo'nalishda mutanosib olib borilishi jiddiy e'tiborga molik.

Oilada bolani izza qilmang! Oilada bolani hech vaqt uyaltirmaslik va izza qilmaslik lozim. Har qanday inson boshqalar oldida uyalishni, uyalganlikni og'ir his qiladi. Ko'pchilik orasida izza bo'lganligini bir umr esdan chiqarmasligi mumkin. Shunday ekan, oilangizda ruhiy muhit sog'lom bo'lsin desangiz bolangizning hozirgina qilgan noo'rin, xato, adashilgan, anglashilmovchilik yuzasidan, uning tajribasizligidan kelib chiqqan hatti-harakatini qoralab uni jazolab o'tirmang, ayniqsa, voqeani yuziga solib izza qilmang. Shu borada agar bu voqeadan uning biror tanishi voqif bo'lishi xavfi bo'lsa, kechinma yanada kuchliroq tus olishi mumkin.

Bolaning xato qilishi mumkin bo'lgan ishlardan ogohlantirib, tarbiyalab borsangiz, uning oiladagi o'rini kamsitmagan bo'lasiz. Piyola bolangizning qo'lidan tushib ketib singanda emas, bu piyola sinib bo'ldi, undan ko'p vaqt ilgari ish buyurganingizda «ehtiyot bo'l, sinib qolmasin», degan tarbiyaviy so'zlardan boshlang. Bola o'z irodasi bilan kunduz maktabda buyirilgan ishlarni bajarishga o'rgansa, kechqurun ishdan qaytganingizdan keyin siz uni dars tayyorlab o'tirishga majbur qilishingizga o'rin qolmaydi.

O'z burchini bajarishga majbur qilingan oila a'zosining oilada ruhiy o'rni boshqalar bilan barobar bo'lishi mumkin emas. O'z burchini majburan qilib o'rgangan bola mustaqillikka o'rganmaydi. Vaholanki, shunday ekan biz hammamiz o'z bolamizning mustaqil bo'lishini juda-juda kutamiz va mustaqillikka o'rgatib boramiz.

Mustaqil, o'zini o'zi tejab-tergashga o'rganib borgan bolagina o'z hayotini to'liq ta'min qilib boradi. Agarda bolaga doim uning ruhiy va amaliy ishlarini ko'rsatib, ularni bajarishga majbur qilib borsangiz bu holda oilada notenglik yuzaga keladi va oila a'zolari o'rtasida notenglik bo'lgan holda ruhiy muhit sog'lom bo'lmaydi.

Shunday ekan bolangizning biror holda o'z vazifalarini bajarmaganligini ko'rsangiz albatta majbur qilishga shoshilmang. U o'z vazifasini bajarmaganligidan oila a'zolari, o'rtoqlari, sinfdoshlari oldida biror marta xijolat cheksa, uyalsa, ayniqsa o'ziga kerak bo'lgan narsani bilmasdan, o'sha narsaga zarurat sezib uni topolmay qolsa boshqa bunday qilmaslikka o'rganadi. Chunki uyat, insonning o'z oldida o'zining uyalishi yaxshi ma'noda insonni o'zlikka olib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Voxidov.M «Bolalar psixologiyasi». Toshkent. 1992 y.

2.Kapyushen. G «Yo'rgakdan maktabgacha». Toshkent. 1996 y.



O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR PSIXOLOGIYASI VA PSIXOKORREKSIYASI

Kukanova Sevara Pardaboy qizi

Toshkent viloyati Angren shahar 16-umumiy
o‘rta ta’lim maktab psixologi
Tel: +99894 604 19 00

Annotatsiya: ushbu maqolada deviant xulq-atvor psixologiyasi va shakllari kelib chiqish sabablari va uni psixokorreksiyalash usullari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Deviant xulq-atvor, o‘smirlik, og‘ishishlar, psixokorreksiya.

Deviant tushunchasi lotincha «deviation» so‘zidan olingan bo‘lib, og‘ish, chetga chiqish degan ma‘noni bildiradi. Deviant xulq-atvorli kishilarni xulqi og‘ishganlar deb ham ataladi. Hozirgi davrda o‘smirlarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari, qonuniyatlari, imkoniyatlari xatti-harakat motivlarining ifodalanishi va vujudga kelishining murakkab mexanizmlari mavjud.

Shuni alohida ta’kidlash kerakki, o‘smirlarni tarbiyalashda ularning xususiyatlarini to‘la hisobga olgan holda ta’limiy-tarbiyaviy tadbirlarni qo‘llash shaxslararo munosabatda anglashilmovchilikni vujudga keltirmaydi, sinf jamoasi o‘rtasida iliq psixologik iqlimni yaratadi. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham burishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o‘quvchi bilan o‘qituvchining muloqotida, kattalar bilan o‘smirlar muomalasida qat’iy o‘zgarishlar vujudga keladi.

Deviant xulq-atvor — jamiyatda o‘rnatilgan axloq me‘yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo‘lib, yolg‘onchilik, dangasalik, o‘g‘rilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘z joniga qasd qilish va boshqa ko‘plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi. Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko‘rinishlaridan sanaladi:

1. Jinoyatchilik. Muayyan davlatda o‘rnatilgan qonun va me‘yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

2. Ichkilikbozlik. Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: Alkogolni har zamonda iste’mol qilish, alkogolni ko‘p iste’mol qilish spirtli ichimliklarni muntazam, ya’ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o‘rtada tanaffus bilan ko‘p mikkorda (200 ml.dan oshiq). Bu ko‘pincha alkogolizmga olib keladi. Alkogolizm — spirtli ichimliklarga patologik(muttasil) o‘rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

3. Giyohvandlik. Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo‘yish va tibbiy ko‘rsatmalarsiz iste’mol qilish.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, tarbiyasi qiyin, injiq, xulqi salbiy bolalar kelib chiqishining ijtimoiy sabablaridan tashqari, pedagogik va psixologik sabablari ham mavjud. Shaxsning biologik o‘shidagi nuqsonlar, o‘qishga salbiy ta’sir etuvchi oliy nerv faoliyati va temperamentdagi qusurlar, aql-idrokining zaif rivojlanganligi, irodaning bo‘shligi, hissiyotning kuchsizligi, zarur ehtiyoj va qiziqishlarning mavjud emasligi, o‘smirning intilishi bilan mavjud imkoniyat o‘rtasidagi nomutanosiblik va boshqa holatlar harakatni izdan chiqaradi. Shaxsning fazilatlarini tarkib topishidagi nuqsonlar: axloqiy hislarning yetishmasligi, o‘qituvchi, sinf jamoasi, oila a’zolari bilan noto‘g‘ri muloqot, ishyoqmaslik, bo‘sh vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmaslik va boshqalar ham salbiy qiliqlarni vujudga keltiradi.

Keyingi yillarda xalq ta’limi sistemasi va ishlab chiqarishda «inson omili» muammosining ko‘tarilishi, vaqt taqchilligi, ishchanlik imkoniyati, psixologik moslik masalalarining alohida ahamiyat kasb etishi mazkur metodni keng qo‘llashni taqazo etmoqda. Bundan tashqari, tajribada olingan ma’lumotlarning ishonchililigini oshirishda ham qiyoslash metodi qo‘llanadi. Ayniqsa, sinaluvchilardagi o‘zgarishlarni ajratib olib qarash, tadqiqotning bosqichlarini alohida-alohida tahlil qilish, masalan, tajribaning birinchi bosqichi turli yoshdagi va jinsdagi odamlarga qanday ta’sir etganini aniqlash va hokazolar bu metodga diqqat- e’tibor ortib borayotganidan dalolatdir.

Xulosa shuki. deviant xulq-atvor shakllanishi o‘smirning ijtimoiy-psixologik holati va uni atrofidagi referent guruhlarga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kamilova N.G. “Muammoli o‘smir”. Tashxis, tadqiqot metodlari. T. 2006 y.
2. Komilova N. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi” T. 2014



TIL-MILLAT RUHI

Kurbanbayeva Difuza Eralovna

Ohangaron tumani 39-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining

I-toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

Tel: +99890 024 14 15

Annotasiy: Maskur maqolada til bu har bir millatning bebaho boyligi, ota- bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni avaylab, uning taraqqiyoti uchun kurashib kelganliklari va til haqida buyuk mutafakkir bobolarimiz fikrlari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Til madaniyati, adabiy meros, millat, til va taraqqiyot.

Til kishilar orasida aloqa aralashuv vositasidir. Har bir millat o'z hayoti davomida bir tildan foydalanadi. Chunki til millatni millat sifatida namoyish etadigan asosiy quroldir. Ota-bobolarimiz asrlar davomida ona tilimizni avaylab, uning taraqqiyoti uchun kurashib kelganlar. Buyuk mutafakkir bobolarimiz Alisher Navoiy, shoh va sarkarda Z.M.Boburlarning hayot yo'llari, ijodiy faoliyatlari, adabiy meroslari bunga yaqqol misoldir. Til bu har bir millatning bebaho boyligi hisoblanib, uning rivoji taraqqiyoti, ravnaqi uchun har bir fidoyi insonlar bir tan bo'lib kurashadilar.

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. O'zbek tiliga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berilgan. Shu kundan boshlab bu tilga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, shoir va yozuvchilar o'z ijodlarida bu tilning muqaddas va bebaho ne'mat ekanligini tarannum etdilar. Maktabda o'qituvchilar bu tilning yagonaligini, uning muqaddas timsolimiz ekanligini o'quvchilarga keng targ'ib qilmoqdalar. Ma'rifatparvar adibimiz Mahmudxo'ja Behbudiy "Maktab-dunyo imoratlarining eng muqaddasi va qadrlisidir. Chunki maktab ilm o'chog'idir. Maktabda ona tilini o'quv fani sifatida o'qitish tilimizning ahamiyatini oshiradi. Maktabga kelgan bola ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini o'rganayotgan til vositasida yuzaga chiqaradi. U atrofdagilarni, mahalla ahlini, maktabdoshlarini, sinfdosh o'rtoqlarini, ustozlarini, eng muhimi o'zini ana shu til yordamida taniydi. Chunki til kishilarning eng muhim aloqa - aralashuv va fikrlash qurolidir. Til barchaga barobar xizmat qiladi. Ana shu tilni mukammal o'rganib, uning barcha qonuniyatlarini to'g'ri o'zlashtirilsa, jamiyat uchun juda foydalidir. Til orqali butun jamiyat boshqariladi, shuning uchun til inson faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib millatning o'sishi, uning ravnaqi, rivoji uchun ham xizmat qiladi. Til o'rganish orqali inson dunyoga chiqadi. Buning uchun esa tilga oid bilimlarni chuqur o'rganish lozim. Buyuk faylasuf olim Deni Didro aytganidek, odamlar o'qishdan, til o'rganishdan to'xtasalar, fikrlashdan ham to'xtaydilar. Demak:

Kimki o'rganishni uyat, or demas,

Suvdan dur topadi, toshdan la'l, olmos.

(NizomiyGanjaviy).

O'zbek xalqi uzoq tarixga ega bo'lib, tarixiy millat hisoblanadi. Buyuk mutafakkirlarimiz shu tilning taraqqiyoti uchun o'z fidoyiliklarini namoyish etishgan. Xususan, Alisher Navoiy o'zbek tilining so'zga boy ekanligini o'zining asarlari orqali isbotlab bergan. Shuningdek, hozirgi kunga qadar biz o'rganib kelayotgan ijodkorlarimiz yaratgan o'zbek tilidagi asarlari millatimizning sha'ni, g'ururi faxridir. "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon", "Kecha va kunduz", "Yulduzli tunlar" kabi bir qator noyob asarlarning tili, uslubi o'zbek millatining qay darajada buyuk millat ekanini ifodalovchi meros hisoblanadi. Mana shunday qadriyatlarimizni o'quvchilar ongiga singdirish, ularning qalbida vatanga, milliy tilimizga nisbatan mehr va muhabbatni uyg'otish adabiyot o'qituvchilarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va bunday mas'uliyatli vazifani har bir adabiyot o'qituvchisi sidqidildan bajarib kelmoqdalar. O'quvchilarga til o'rgatish, ularni haqiqiy vatanparvar, fidoyi qilib tarbiyalashda ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarining xizmatlari juda katta.

Shunday ekan, ajdodlarimiz merosini chuqur va qunt bilan o'rganishdan charchamaylik. Yosh avlodni ajdodlarimizga munosib farzandlar etib tarbiyalab, tilimizning rivoji uchun o'z hissamizni qo'shaylik. Ularning faoliyatlari biz uchun ibrat bo'lsin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jomolhonov X. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent "Talqin" 2005 yil
2. Ne'matov H. Til va nutq. Toshkent "O'qituvchi" 1993 yil



BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA TA‘LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN O‘YIN TEXNOLOGIYALARI

Matazova Maxfuza Usmonaliyevna

Toshkent viloyati, Angren shahar, 30-umumiy
o‘rta ta’lim maktabining 1-toifali boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi
Telefon raqami: +99899 608 51 33

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda matematika fanini o‘qitish, o‘quvchilar bilimi sifat samaradorligini oshirishda turli o‘yin usullaridan foydalanishning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘yin, pedagogik jarayon, o‘yin texnologiyasi, masala, qoida.

Boshlang‘ich ta’lim umumiy o‘rta ta’limning asosiy poydevori, o‘quvchilarning kelajakda komil inson bo‘lib voyaga yetishini ta’minlovchi muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang‘ich matematika kursi, bolalar tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Shu bilan boshlang‘ich bilimlar yagona majmuini yaratadi, ikkinchi tomondan, zaruriy metodologik tasavvurlarni va fikrlashning mantiqiy tuzilishlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. 7-10 yoshli bolalarning fikrlash qobiliyatlarining shakllanishida mas‘ul davr ekanligini psixologlar isbot qilishgan. Shu sababli boshlang‘ich ta’lim metodikasining, xususan, matematikadan boshlang‘ich ta’lim metodikasining vazifalaridan biri o‘qitishning yetarlicha yuqori rivojlantiruvchi samaradorligini oshirishni ta’minlashda o‘qitishni bolalarning aqliy rivojlanishlariga ta’sirlarini jadallashtirishdan iborat.

Matematikadan boshlang‘ich ta’lim-tarbiyaviy vazifalarini nazariy bilimlar tizimi asosidagina hal etishi mumkin. Bu ilmiy dunyoqarash, psixologiya, didaktika, matematikani o‘qitish nazariyasini (matematik didaktikasini) o‘z ichiga oladi. Biroq birgina nazariy bilimlarning o‘zi yetarli emas. O‘yin an’anaviy o‘qitish shakllari va usullarini to‘liq almashtirmaydi, bu ularni oqilona to‘ldiradi, bu ma’lum bir darsning va butun o‘quv jarayonining maqsad va vazifalariga yanada samarali erishishga imkon beradi.

O‘yin yordamida psixologik charchoqni olib tashlashingiz mumkin, undan o‘quvchilarning aqliy harakatlarini safarbar qilish, ulardagi tashkiliy ko‘nikmalarni rivojlantirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash ko‘nikmalarini shakllantirish, sinfda quvonch muhitini yaratish uchun foydalanish mumkin. O‘yin o‘quvchilar o‘rtasida hissiy kayfiyatni yaratishga yordam beradi, bajarilgan ishlarga ijobiy munosabatni uyg‘otadi, umumiy ish faoliyatini yaxshilaydi, bitta materialni monoton va zerikishsiz takrorlash imkonini beradi.

1. O‘yin ko‘rgazmali qurollardan foydalangan holda muntazam mashq bo‘lmasligi kerak.
2. O‘yin qoidalarini tanlashda bolalarning xususiyatlarini hisobga olish kerak.
3. Asosiy shart - bu o‘yin darsning umumiy maqsadlaridan chetga chiqmasligi va ularni amalga oshirishga hissa qo‘shishi.

4. O‘yin natijalarini sarhisob qilish, ya’ni g‘olibni aniqlash kerak.

„Zinacha“ o‘yini. O‘qituvchi doskaga yoki kartonga zina ko‘rinishida bir necha misol yozadi. Misollar pastdan yuqoriga qarab ishlanadi. Doskaga ikki o‘quvchi chiqadi. Zinani ikki chetidan turib, misollarni yechadilar. Kim zinaning cho‘qqisiga birinchi chiqsa u g‘olib hisoblanadi. „Xato qilma“ o‘yini. Misollar doskaga yozib qo‘yiladi. Bu o‘yinda hamma o‘quvchilar qatnashadilar. O‘quvchilar daftarlariga misollarni faqat javobini yozadilar. Kim xatosiz bajargan bo‘lsa, o‘sha o‘quvchilar qatnashadilar va rag‘batlantiriladi. 1, 2, 3-o‘rinni olgan o‘quvchilar g‘olib deb topiladi. O‘qituvchi ishlash yo‘llarini ko‘rsatadi. O‘quvchilar ovoz chiqarmay daftarga ishlaydilar, so‘ng qo‘l ko‘taradilar. „Kim tezroq“ o‘yini. O‘yin mazmuni: doskaga uchta misol yozilgan bo‘ladi Har qaysi qatordan bittadan o‘quvchi chiqariladi, ular o‘qituvchining ishorasi bilan yig‘indilarni hisoblashga kirishadilar va ularni doskaga yozadilar. Qolganlar esa kuzatib turishadi. Birinchi bo‘lib to‘g‘ri yozgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi.

O‘yin shakllari, faol o‘rganish usullari sifatida, bilish har doim ham zerikarli ish emasligini



isbotlab, bilish jarayoniga zavq bag‘ishlaydi. O‘yin faoliyati jarayonida o‘quvchilar mavzuga qiziqish bildiradilar, passiv-idrok qiluvchi pozitsiyadan o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamkorlik pozitsiyasiga bosqichma-bosqich o‘tishni ta‘minlaydigan, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradigan kognitiv jarayonlar rivojlanadi. Natijada malaka va ko‘nikmalar shakllanadi, darslarda olingan bilimlar mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. N.Sayidahmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2003-y.
2. M.Ochilov. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi. 2000-y.
3. Kovalenko V.G. Дидактические игры на уроках математики. М., 1990 у.
4. cyberleninka.ru



.BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI FANINI O'QITISHDA MUVAFFAQIYATLI OMILLAR

Meliqulova Chinixol

Surxondaryo viloyati Oltinsoy tumani
22-umumiy o'rta ta'lim maktabining
boshlangich sinf oqituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda onatili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim.

Kalit so'zlar: shaxs, ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z, inovatsiya, ijodkorlik, erkin fikrlilik, nutq madaniyati, dars samaradorligi.

O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish lozim. Fikrini o'stirish, fikrlashga o'rgatish, kelajakka sog'lom fikrli bolani tarbiyalash ona tili va o'qish savodxonligining asosiy vazifalaridan biridir. Ayniqsa, bola fikrining kengayishida sodda so'zlardan murakkab so'zlarga o'tib borishi yosh xususiyatlariga moslab davlat ta'lim standartlari asosida joylanganligi o'ta muhimdir. darslarni to'g'ri va samarali tashkil qila olish o'qish samaradorligini oshiradi, ma'naviy ozuqa olishning yana bir yo'li hamdir.

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lim sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lim tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Buning uchun ta'lim sifatini oshirish maqsadida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va

„Davlat ta'lim standarti”ning yo'lga qo'yilishi, boshlang'ich sinflarda ta'lim -tarbiya masalalariga kuchli e'tibor qaratish va bu yo'lda o'qituvchi, pedagoglar oldiga bir qancha talablar qo'yilmoqda. Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek:

„Davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lmish barkamol inson tarbiyasiga ma'sul o'qituvchilar zimmasiga bugungi kunda rivojlanayotgan jamiyatimiz uchun yuksak ongli, mustaqil fikrlay oladigan, xulq -atvori bilan o'zgalarga ibrat bo'ladigan bilimli, irodasi baquvvat, o'z kasbini mukammal biladigan XXI asr kadrlarini tayyorlash mas'uliyatini yuklagan”.

„Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilinishi, ma'nau boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir” Birinchi prezidentimiz I.Karimovning bu so'zlaridan mustaqillikka erishganimizdan buyon yoshlarga qanday e'tibor berilayotganligi qanday imkoniyatlar eshigi ochib berilayotganligini ko'rsak bo'ladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish har bir davrning muhim ijtimoiy vazifasi sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Zardushtiylik dinida ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal uning bosh g'oyasi bo'lsa, islom ta'limoti g'oyalaridan esa bilimli bo'lmoqlikdir. Mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirishda atrof-muhit, o'ta murakkab xususiyatga ega bo'lgan munosabatlarning o'rni katta. Shuningdek, boshlang'ich sinflarda bolaning qanday o'sishi, shakllanishida pedagog mahoratiga bog'liq hisoblanadi. Darsning innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishi dars samaradorligini yanada oshiradi.

2-sinf “Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligida keltirilgan Kamola Sodiqlik qizining “Kimni qo'shni deymiz?” hikoyasini ko'rib chiqamiz:

Bobo: —O'g'lim, qo'shnimizFarida xolanikiga chiqib, uyishlariga yordamlashdingmi?

Temur: —Bobojon, ko'chaboshidagiAbdullohning buvisiniaytyapsizmi? Uylari uzoqda-ku, ularni ham qo'shni deymizmi?

Bobo: —O'g'lim, uyimizning oldi tarafidagi qirq hovli, orqa tarafidagi qirq hovli, chap tarafidagi qirq hovli, o'ng tarafidagi qirq hovlining hammasi bizga qo'shni hisoblanadi.

Temur: —Voybo'o'...

Bobo: —Unutma, hozir ham, katta bo'lganingda ham mahalladoshlaring bilan ahil bo'l. Ularga



yaخشilik qilishdan qochma!

Temur: –Albatta shunday qilaman!

Hikoya birinchi o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi va o‘quvchilarga quyidagi savollar beriladi.

1 Kimlarni qo‘shni deymiz?

2 Temurning bobosi aytgan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

3 Mahalladoshlar bilan ahil bo‘lish uchun nima qilish kerak?

4 Mahallangizdagi odamlarga qanday yaxshilik qilishingiz mumkin? Keyin hikoya o‘qituvchi tomonidan tushuntiriladi, so‘ngra keying topshiriqda aytilganidek:

Partadoshingiz bilan biringiz bobo, biringiz bola bo‘lib dialogni qayta o‘qing. So‘zlarni aniq va to‘g‘ri talaffuz qiling.

O‘quvchilar baholanadi va rag‘batlantiriladi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o‘qitu vchidan ijodkorlikni, erkin fikrlilikni, yangi texnologiyalar asosida ish olib borishlikni talab qiladi. unda pedagogic tajribaning yuqori bo‘lishi, muloqot madaniyati, nutq madaniyatining shakllangan bo‘lishi, o‘z -o‘zini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, bilim, ko‘nikma va malakaning namoyon bo‘lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi. Darsning samaradorligi o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat“ „Tafakkur -Bo‘stoni“ Toshkent -2011, 124-bet

2. Karimov I.A. Barkamol Avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori-Toshkent, Sharq nashriyoti - matbaa konserni 1997



ISSUES ON INFORMATION SECURITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Rakhimova Dilfuza Masharip qizi

Teacher, Uzbek State World Languages University

Abstract: in modern society, the information sphere is a system-forming factor that determines all the processes taking place in the life of society and the behavior of members of society as participants in these processes. The article deals with the issues based on the importance of information security in the educational process.

Key words: society, information security, educational process.

In connection with the intensive introduction of information technologies in all spheres of human activity, including the educational process, the problem of ensuring information security in the relevant application area is being updated. It can be noted that this problem has acquired particular importance in the economic sphere, due to the widespread introduction of corporate information systems of various levels and purposes in modern business.

It is known that one of the most important characteristics of information resources is their potential vulnerability to various kinds of threats to information security. Therefore, the close dependence of economic potential and competitiveness on information infrastructure creates conditions under which threats to information security are currently becoming one of the main factors that undermine the stability of companies' development.

Corporate information systems (CIS) are now becoming an important means of production for modern companies, they allow you to transform traditional forms of business into electronic business. An important feature of the existence of electronic business is information security, which implies the protection of corporate information and the corresponding infrastructure from various destructive influences that can harm the owners and users of information. In this regard, the problem of ensuring information security is relevant both for specialists in the field of computer systems and for various companies operating in the field of electronic business.

Therefore, we can talk about the importance of training economic specialists with the necessary theoretical and practical knowledge in terms of information security, primarily corporate information systems. A situation arises in which it is necessary to train not only a qualified economist, but also a competent specialist in the field of information security. Thus, the educational process of training a specialist in economic profile, due to the intensive informatization of society, is being qualitatively rebuilt in the direction of using modern information technologies.

To master the basics of information security of corporate information systems, students of an economic profile are offered the following sequence of study of educational sections and topics. Consideration of issues of ensuring information security of modern corporate information systems should begin by studying the basic concepts of information security.

The next section is an introduction to the problems of information security of networks, which are an indispensable component of any modern CIS. At this stage of training, the main attention should be paid to the features of network security threat analysis.

The security policy defines the enterprise management strategy in the field of information security. When studying this topic, given its complexity, only general concepts of basic and specialized security policies should be given, without going into the specifics of their development.

An important component of studying the information security of corporate systems is the section related to the technology of protecting corporate data. In this section, we should consider, first of all, the issues of cryptographic protection of information, which is the most effective from the standpoint of its resistance to attacks. The next topic of study is the issues of identification, authentication and access control. The material of this topic belongs to the category of topical, since it touches upon the issues of protection against unauthorized access of violators to protected information. For specialists in economic profile, the topic related to the protection of electronic document management is very important. In this topic, it is necessary to consider, first of all, the concept of electronic document management and the protection of corporate mail document management. The next topic in this section deals with anti-malware and anti-spam issues. In view of the wide spread of virus computer attacks, the material of this topic should be provided with specific recommendations for protection using appropriate software products.



The next section is related to information security management. The main topic of this section is information security management. In this topic, the central issues are auditing and monitoring the security of corporate information systems.

The last section of the studied course examines the existing international information security standards.

References:

1. Shangin V.F. Complex protection of information in corporate systems: textbook. M.: ID "FORUM": INFRA-M, 2010. 592 p.
2. Panasenko S.P., Batura V.P. Fundamentals of cryptography for economists. -M.: Finance and statistics 2005, - 176 p.



GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN UNUMLI FOYDALANISH YO'LLARI

Samatov Elyor Shonazarovich

Mirishkor tumani 1-IDUM informatika fani o'qituvchisi

Omonov Zavqiddin Uchqunovich

Mirishkor tumani 1-IDUM geografiya fani o'qituvchisi

"Kompyuterlashtirish" yoki "Axborotlashtirish" deganda umumta'lim maktablarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari kompyuterlar bilan ta'minlash hamda turli ma'lumotlarni uzatish va olish tushuniladi.

XX asrning 80-yillaridan boshlab har bir maktabda kompyuter xonalari tashkil qilina boshlandi. Kompyuter xonalarida 10 tadan ortiq bo'lgan, ammo ularning sifati ya'ni ko'rsatkichlari past bo'lgan.

Ammo olib borilgan tadqiqot ishlarini umumta'lim maktablarini kompyuterlashtirish natijasida ta'lim-tarbiya jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'lmadi. Mazkur hol quyidagi holatlarda namoyon bo'lgan: a) o'qitishni va mustaqil o'quv faoliyatini texnologiyasini motivatsiyasi o'zgarmadi; b) o'qituvchi faoliyatining motivatsiyasi o'zgarmadi; v) o'quv jarayonini boshqarish texnologiyasi o'zgarmadi; g) bu yerda gap XX asrning 80-yillaridagi ommaviy maktablar haqida ketmoqda. Chuqurlashtirilgan maxsus maktablarda esa ta'lim jarayonida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Keyinchalik amaliy pedagogikada kompyuterlarni qo'llash bo'yicha ustivor yo'nalishlar shakllandi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'rganish;
- ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash;
- axborot texnologiyalari yordamida ta'lim muassasalarini va mintaqaviy ta'lim tizimlarini boshqarish.

Ta'lim jarayonini samaradorligini oshirishda yangi ta'lim texnologiyalari katta samaraga ega. Yangi ta'lim texnologiyalari quyidagilarga imkon beradi: a) har bir maktab o'quvchisida o'zining shaxsiy ta'limlanishi rivojlantiriladi; b) o'quv jarayonini tubdan o'zgartirishga va uning tizimli tafakkurlash tomoniga loyihalashga imkon beradi; v) o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil qilishga imkon beradi. Bunday yondashish kompyuterni bilish vositasiga aylantiradi. Maktablarda kompyuterni o'rni qanday bo'lishi degan savol ta'limni kompyuterlashtirish dastlabki bosqichlardayoq qo'yilgan edi. Ammo kompyuterni o'rganishdan undan foydalanishga o'tish juda qiyinchilik bilan amalga oshmoqda. Ko'p hollarda geografiya va boshqa fanlardan ishlab chiqarilgan kompyuter texnologiyalari talabsiz qolib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri odatiy darslarni davomi bo'lib qolishidadir. Elektron darsliklar ko'p hollarda darsliklarni bir nusxasiga (kopiesiga) aylanib qolmoqda. Shuning uchun ularga talab kamroq bo'lib qolmoqda. Ularni samaradorligi tajribali o'qituvchi samaradorligidan yuqori bo'lmayapti.

Elektron darsliklarni yoki kompyuter texnologiyalaridan foydalanishga talabni kamayib borishining asosiy sabablardan biri o'quvchilarni zamonaviy ta'lim talablari va zamonaviy ta'lim talablari bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashish va va sinf-dars tizimida faollanishiga yo'naltirilgan bir-biriga mos kelmasligidir.

Kompyuterlarni yangi avlodini yaratishi bilan yangi texnologiyalar ishlab chiqariladi, shu bilan birga ta'lim texnologiyalari ham ishlab chiqiladi. Kompyuterda matn, chizma, audeo va video ma'lumotlarni birlashtirilishi o'quv ma'lumotlarini sifatini keskin oshirib yuboradi.

Kompyuterlar industriyasini rivojlantirishi pedagogik jarayonlarda inqilobiy o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Uning asosida esa o'quvchini individual faoliyatini ta'minlaydigan texnologiyalarga o'tish yotadi. Bunday texnologiyalarga o'tish dasturiy vositalarni yaratish bilan bog'liq yaxlit kompyuterlashtirilgan predmetli kurslarda odatiy dasturiy asosnomalarning ayrim qismlari saqlanib qolinadi, ular esa maktab darsliklarini turli darajada qaytarishadi. Shuning uchun mazkur kurslar quyidagicha yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim; a) ixcham (Kompyuter) mavjud bo'lilshi, u o'quvchilarni mustaqilligini yuqori darajada ta'minlashi lozim; b) turli sohadagi bilimlarni yuqori darajadagi integratsiyasi mavjud bo'lgan predmetlarni o'rganishda; maktablarda o'quvchilarni qisman yoki to'la kompyuterlar bilan almashtirish; v) sinf-dars tizimiga asoslanmagan eksperimental ta'limiy texnologiyalarni yaratish; g) o'quv jarayonida



kompyuterlardan foydalanishni yangi yondashuvlarini ishlab chiqish; d) shaxsga yo'naltirilgan dasturiy asoslarni ishlab chiqish.

Ta'lim muassasalarida kompyuterlardan samarali foydalanish qator tashkiliy-pedagogik ishlarni yechish bilan bog'liq.

O'qituvchilarni kompyuterli maktablarda ishlashga tayyorlash muhim muammo bo'lib hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarini maktablarda dastlabki davrlarda kam talab etilishi Oliy ta'limda ushbu soha bo'yicha yetarli bilim berilmaganligidir. Elektron pochta imkoniyatlaridan foydalanishni dars va darsdan tashqari vaqtlarda jahon kommunikatsion tarmog'idan foydalanish maxsus metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Maktablarni zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Geografiya fani va geografiya ta'limida informatsion texnologiyalar keng qo'llanilmoqda.

Geografiya ta'limida informatsion texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta'kidlab o'tish lozim:

- geografiya o'qituvchisi informatsion texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;
- maktab o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;
- maktabda kompyuter sinflari bo'lishi shart.

Geografiya ta'limida informatsion texnologiyalarni qo'llash quyidagi sohalarda olib borilmoqda: elektron darliklardan foydalanish; elektron xaritalardan foydalanish; internet imkoniyatlaridan foydalanish; video filmlardan foydalanish; masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko'p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o'qituvchi yordamida, yoki mustaqil o'rganishi mumkin. Darsni o'qituvchi boshqarib turishi mumkin. Bunda o'qituvchi matnni o'rganishda izoxlar berib boradi. Matndagi chizmalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar alohida tushuntiriladi. Darsni oxirida o'qituvchi kompyuter orqali o'quvchilarga savollar berishi mumkin. O'quvchilar esa kompyuter orqali javob berishadi. Ularning bergan javoblari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Geografiya ta'limida xaritalar asosiy o'quv vositasi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun xaritalar bilan mustaqil ish bajarayotganda elektron xaritalardan foydalanish mumkin. Elektron xaritalar orqali quyidagi ishlarni bajarish mumkin:

1. elektron xaritalar orqali tabiiy va iqtisodiy geografik tavsiyalar tuzish; masalan, iqlim xaritalaridan foydalanib ma'lum bir materik yoki xudud iqlimi tavsifini tuzish, yoki iqtisodiy geografik xaritalardan foydalanib ayrim mamlakatlarga yoki xududlarga iqtisodiy ta'rif berish va h. k.;
2. internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli sohalari bo'yicha yangi-yangi ma'lumotlar olish mumkin. Masalan, kundalik iqlim haqida, aholi haqida, xo'jalik va geosiyosiy sharoit haqida va h.k;
3. geografiya ta'limida video filmlar juda katta ahamiyatga. Video filmlardan quyidagi sohalar bo'yicha foydalanish mumkin: a) boshlang'ich tabiiy geografiya kursida; b) materiklar va okeanlar tabiiy geografiya kursida; v) O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish kursida; g) O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasini o'rganish kursini;

- d) Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish kursida;
- e) fakultativ mashg'ulotlarda;
- j) geografik to'garaklarda va h.k;

- masofaviy o'qitish geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmoqda. Masofaviy o'qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin. Informatsion texnologiyalardan foydalanish geografiya ta'limida katta imkoniyatlarga ega. Geografiya ta'limini axborotlashtirishni to'xtovsiz takomillashtirib bormoq zarur.



ATMOSFERA VA UNI IFLOSLANTIRUVCHI OMILLAR

Sattarova Gulbaxor Baratovna

Toshkent viloyati Angren shahar 30-umumiy
o'rta ta'lim maktabi II-toifali biologiya fani o'qituvchisi
Tel: +99899 820 04 99

Annotatsiya: Atmosfera yerning himoya qatlami hisoblanadi, u barcha tirik organizmlarni zararli kosmik nurlardan, samodan tushadigan meteoritlarning zarrachalaridan himoya qilib turadi. Sayyoramiz yuzasidagi issiqlikni saqlaydi.

Kalit so'zlar: Atmosfera, troposfera, stratosfera, termosfera, ekzosfera, ozon qatlami, kislotali yomg'irlar, dunyo issiqxonasi.

Atmosfera so'zi yunoncha tildan olingan bo'lib, (atm-bug', sfera-qobiq) ya'ni havo qobiq'i biosfera degan ma'noni anglatib, biosferada hayot mavjudligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biridir. Agarda havo qobiq'i bo'lmaganida edi, yer yuzida kunduzi +1000C va kechqurun -1000C harorat kuzatilgan bo'lar edi. Unda bulutlar paydo bo'ladi, yomg'ir, qor yog'adi, shamol hosil bo'ladi, shuningdek yerga namlik berib, tovush o'tkazadi va hayotbaxsh kislorod manbai hisoblanadi.

Atmosfea qobiq'i quyidagi qatlamlarga bo'linadi.

1. Troposfera – yer sirtida 0-15km gacha
2. Strotosfera -15-50km gacha
3. Mezosfera -50-80km gacha
4. Termosfera -80-800km gacha
5. ekzosfera -1000kmdan yuqori

Atmosfera shu qatlamlar bilan bir butun qobiq bo'lib hisoblanadi. Atmosferaning gaz tarkibi deyarli doimiy bo'ladi: asosan azot -78,09 %, kislorod -20,95%, argon-0.93%, karbonad anhidrid -0,03% mavjud. Shu bilan birga yana enert gazlar: geliy, neon, ksenon, vodorod, kripton, metan, ammiak, yod, radon gazlar va havoda doim 3-4% suv bug'lari, changlar bo'ladi. Atmosferani tashkil etgan havo zichlikka ega. Bosim yuqoriga ko'tarilgan sari gazning zichligi kamayib boradi. Havo qobiq'i o'z og'irligi bilan bizni va atmosferadagi barcha narsalarni bosib turadi, yer atmosferasi qobog'ining massasi 5,27*10¹⁵ tonnani tashkil etadi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar: Atmosferada sodir bo'ladigan fizik kimyoviy va biologik o'zgarishlar tirik organizmlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. So'nggi yillarda inson ta'sirining kuchayishi natijasida gazlar muvozanatining o'zgarishi kuzatilmoqda. Atmosferadagi gazlar doimiy miqdorining o'zgarishi sayyoramiz uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlangan. Atmosferaning ifloslanishi deganda havoga zaharli birikmalarning qo'shilishi natijasida uning fizik va kimyoviy xususiyatlarini o'zgarishi tushuniladi. Insoniyatga qolaversa, barcha jonivorlarga hayotbaxsh etadigan atmosfera havosini hozir asosan ikki manba: tabiiy omillar va inson faoliyatining mahsuli- antropogen (sun'iy)manba ifloslantiradi. Masalan: Yaponiyada, AQSHda, Evropada, Toshkent, Farg'ona, CHirchiq, Bekobod, Navoiy, Olmaliq kabi shaharlarni ko'rsatish mumkin. Hozirda yer kurrasida xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda atmosferaga har yili 500 mln tonna oltingugurt gazi sulfat oksidi, azot oksidi, 6.5-7mlrd.tonna karbonad anhidrid chiqarilmoqda.

Shuningdek atmosferaning ifloslanishida va ko'plab kislorodni sarflanishida samolyotning ham roli katta. Birgina reaktiv samolyot 8 soat ichida Amerikadan Yevropaga uchib o'tganda 50-100 tonnagacha kislorod yoqadi, ya'ni buni 100 ming gektar o'rmonzor bir kunda chiqarib beradi, bir kosmik kemanding fazoga chiqishi uchun 16 km radiusida ozon qatlami yemiriladi.

Havoning ifloslanishi natijasida keladigan salbiy holatlar va uning oqibatlari: Havoning kuchli ifloslanishi insonlar salomatligiga, qolaversa barcha jonzorlarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bir kishi sutka davomida o'rtacha 25 kg havo bilan nafas oladi. Havo tarkibidagi zarrali chang qurumlar, zararli gazlar kishi organizmiga yomon ta'sir ko'rsatadi. Oqibatda teri va ko'z kasalliklari, jigar serrozi, qon bosimining ortishi, surunkali bronxit, enfizema, nafas qisilishi va o'pka raki kabi kasalliklarning ko'payishiga sabab bo'ladi. Havoda oltingugurt oksidi ko'p bo'lishi natijasida kishilarda bronxit kasalliklari vujudga keladi. Yer atmosferasi haroratining o'sishi muzliklarning erishiga, suv sathining ko'tarilishiga olib keladi, bu esa ekin maydonlarini kamaytiradi, yog'in-sochin miqdori ko'payib, iqlim o'zgaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baratov P “Tabiatni muhofaza qilish” Toshkent”o'qituvchi”1991yil
2. Biologik xilma-xillikni saqlash milliy strategiya va harakat rejasi. T 1998
3. Tilovov T. “Ekologiyaning dolzarb muommolari “ 2003



BARKAMOL SHAXS SHAKLLANISHIDA ESTETIK TARBIYANING O'RNI

Smaylova Gulmari Yuldashovna

Qoraqalpog'iston Respublikasi XTXQTMO

Hududiy markazi dotsenti

Annotatsiya: Maqola mazmunida estetik tarbiya vazifalari, o'quvchilarga estetik bilimlarni berish, ularda estetik tushunchalarni hosil qilish, o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish va shuningdek, estetik did o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisa ekanligi haqida ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: Estetik tarbiya, estetik bilim, estetik faoliyat, o'quvchi, shaxs

O'zida yuksak fazilat, ma'naviy-axloqiy poklik va insoniy kamolot kabi xislatlarni bir-biri bilan uyg'unlapgiradigan shaxs tarbiyasi ta'lim-tarbiya tizimining bosh masalasi hisoblanadi. Estetik tarbiya bu barkamol avlodning estetik faoliyati va estetik ongi orqali amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma, malaka, estetik ehtiyoj, estetik did va estetik mulohazalar tarbiyalashni o'z ichiga oladi. Estetik faoliyat insonlarning ehtiyoj va talablarini tashkil etadi. Estetik tarbiyaning shakllanishida bevosita ta'sir qiladigan yana bir muhim omil bu ta'lim-tarbiya tizimidir. Estetik tarbiya keng ma'noga ega bo'lib, faqat san'at vositasidagina emas, balki, hayot, mehnat, ijtimoiy munosabatlar, tabiat vositasida go'zallikni his qilishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni o'z ichiga oladi.

Estetik tarbiya (lotincha “estezio” “go'zallikni his qilaman”) o'quvchilarni voqelik, tabiat, ijtimoiy va mehnat munosabatlari, turmush go'zalliklarini anglash, idrok etish va to'g'ri tushunishga o'rgatish, go'zallikka muhabbat uyg'otish, ularning badiiy didini o'stirish, go'zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Estetik tarbiya vazifalari quyidagilardan iboratdir:

-o'quvchilarga estetik bilimlarni berish;

- ularda estetik tushunchalarni hosil qilish.

-o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik ong, estetik did va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik did o'z tabiatiga ko'ra shaxsga xos bo'lgan psixologik hodisadir. Ammo shaxs ijtimoiy munosabatlarning faol ishtirokchisi bo'lganligi uchun u go'zallikni baholash mezonlarini puxta o'zlashtira oladi. Estetik did shaxsning buyum yoki hodisaga nisbatan munosabat bildirish turi, ob'ektiv nafosat o'lchovi bo'lib, go'zallik, xunuklik va tubanlikka baho berishda sub'ektiv yondashuvni ifodalaydi.

Maktab o'quvchilari o'rtasida nafosat tarbiyasini tashkil etishda samarali shakl, metod va vositalardan oqilona foydalanish ijobiy natijalar beradi. Estetik tarbiya shaxsda go'zallikni his qilish tuyg'usini shakllanishiga yordam beradi. Inson doimo o'z hayotini go'zallik asosida qurishga intiladi.

Estetik tarbiya axloqiy, aqliy, huquqiy, ekologik, jismoniy va mehnat tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Tabiat, adabiyot, teatr, musiqa, she'riyat, tasviriy san'at va boshqalarga bo'lgan muhabbat shaxsning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Estetik tarbiya axloqiy tarbiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Estetikadan rohatlanishda faqat san'at asarlarigina emas, balki ezgu ishlar, jamoaga hurmat, sadoqat, vijdonan mehnat qilish muhim o'rin tutadi. Estetik bilimlar tanlovi, viktorina, bayram, ko'rgazma va hokazolarni tashkil etish asosida hosil qilinadi. O'quvchilar o'z qobiliyatlarini turli xil badiiy-ijodiy faoliyatlarda namoyon etadilar. Estetik tarbiya shaxsning estetik ongi, munosabatlari hamda nafosat faoliyatining vujudga kelishi va takomillashuvidan iborat uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, bu jarayon yosh va ijtimoiy omillar bilan belgilanadigan turli bosqich hamda darajalarga ega.

Estetik tarbiyasi shaxsning estetik madaniyatini egallashiga yo'naltirilgan bo'lib, turli shakl va metodlar yordamida amalga oshiriladi. Jamiyatning estetik madaniyati deganda insoniyat butun rivojlanish tarixi jarayonida to'plangan moddiy va ma'naviy qadriyatlari mazmuni tushuniladi. O'quvchi shaxsining estetik madaniyati uning jamiyat madaniy merosini faol, ijodiy o'zlashtirishi natijasida hosil bo'ladi. SHaxsning go'zallik bilan o'zaro munosabati, shuningdek, shaxsning ayrim sifatlarini o'zaro ta'siri natijasida estetik madaniyati doimo o'zgarib turadi. San'at asarlari, xususan, rassomlik namunalari o'quvchilarda estetik his- tuyg'ularni shakllantirishga, badiiy asarlar esa ular tomonidan hayot, uning asl mazmunini anglab etishga xizmat qiladi. [2]

Estetik tarbiya vositalari. Nafosat tarbiyasining vositalari o'quvchilarning go'zallikni sevis



ruhida tarbiyalash maqsadida tevarak atrofda tanlab olingan turmush, tabiat, san'at go'zalligi va bolalarning badiiy faoliyatini tashkil etishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'llaniluvchi omillar sanaladi. Estetik vositalar xilma xildir. Tabiat mehnat, insoniy munosabatlar, san'at estetik tarbiya vositasidir. Tabiat estetik tarbiyaning muhim manbaidir. K.D.Ushinskiy tabiatni yosh avlod estetik tuyg'ularining rivojlanishiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan ajoyib tarbiyachidir, degan edi. Sayohat, sayr, yurish, tabiatga bag'ishlangan san'at asarlarini o'rganish mazkur yo'nalishdagi an'anaviy ishdir. Biroq tabiat ichida bo'lishning o'zi etarli emas.

Oila go'zallikning birinchi maktabidir. Oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, uy-jihozlari, ularning yagona birligi, uyg'unligi, tartibli joylashtirilishi, saranjom-sarishtalik, maktabning bezatilishi, maktabdagi yodgorlik va a'lochilar burchagi kabilarning barchasi bevosita bolalarda go'zallikni tarbiyalashda katta ta'sir ko'rsatadi. Sinfxonalarida tozalik saqlanishi, tabiat burchagining tashkil etilishi, o'quvchilar ijodiy ishlari ko'rgazmasi, a'lochilar taxtasi tizimining yangilatib turish ham muhim ahamiyatga ega. Axloqimizning binosining go'zal va chiroyli bo'lishida tarbiyaning zo'r ta'siri bordir [1]

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, estetik tarbiya yoshlarni go'zallikka intilishga, hayotiy voqealarni to'g'ri tushunishga, ularni his-tuyg'u va intilishlarini shakllantirishga yordam beradi. Insonlarni dunyoda mavjud bo'lgan go'zallikni to'g'ri anglash va hayotda haqiqiy go'zallik uchun kurashishga o'rgatadi.

Adabiyotlar:

1. Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud axloq. – Toshkent, O'qituvchi, 1992.
2. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, D.I.Ro'zieva, M.N.Usmonboeva. Pedagogika Toshkent, 2016



YOZMA NUTQ KISHILARNING ALOQA QILISHIDAGI ENG MUHIM VOSITADIR

To'rayeva Minojatxon

Andijon viloyati Andijon 71- IDUM

boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Telefon : 90 545 95 10

Elektron pochta: To'rayevaminojatxon @gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma nutq kishilarning aloqa qilishida eng muhim vosita va fikrlarimizni qayd etib beruvchi, taraqqiyotni ta'minlovchi omillardan biri ekanligi yoritilib beriladi.

Kalit so'zlar: Yozma nutq, husnixat, hattotlik san'ati.

Chiroyli yoz , yozsang xat ,bu ham bir san'at

Yozma nutq kishilarning aloqa qilishida eng muhim vosita va fikrlarimizni qayd etib beruvchi, taraqqiyotni ta'minlovchi omillardan biridir. Agar yozma nutq bo'lmaganda, biz buyuk olimlarimiz Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Ulug'bek , Z. M. Bobur kabi buyuk mutaffakirlarimizning nodir asarlarini o'qiy olmas edik.

Chiroyli yozuv o'qishga qulay bo'lib, hamma kishiga zavq beradi. Xunuk va noaniq yozilgan xat o'qiyotgan kishi uchun birmuncha qiyinchiliklarni tug'diradi hamda dilni xira qiladi. Xunuk yozilgan xat ba'zan ko'ngilsiz voqealar, masalan: noto'g'ri yozilgan resept, familiya va ismlar, turli hujjatlarni o'qish qiyinchiligi kabilarga sabab bo'lishi mumkin. Ish faoliyatimda ayrim tug'ilganlik guvohnomasini ko'rib ko'nglim xira bo'ladi. Masalan: (Maxsimov-Maksimov). Bu bola ruhiyatiga ta'sir qilishi mumkin.

Ba'zan shahar va qishloq ko'chalarini kezzangizda ayrim do'kon nomlari, reklamalar rus tilida yoki o'zbek tilida yoziladi, ammo xato borligi va sifatsiz yozilganligi ko'rinib turadi. Bu kabi ko'ngilsiz tomonlardan holi bo'lish uchun o'tmishda chiroyli yozuv malakasini egallash odat bo'lgan. Shuning uchun ham o'zbek xalqining uzoq asrlik tarixida hattotlik san'ati alohida o'rin egallab kelgan.

Bugungi kunda ta'limning sifat va samaradorligini oshirish davrida maktab o'qituvchilarimiz oldida o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishni takomillashtirish borasida qator yechilmagan muammolar mavjud. Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarlarga alohida-alohida ko'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa xattaxtda eslab qolgan shakllarni (harf, bo'g'in, so'zlar) o'z daftarlarida to'g'ri aks ettirishdir.

Xattaxtdagi shakllar barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart, o'qituvchi takrorlab turishi muhimdir. Chiroyli yozuvni ko'rganimizda ko'nglimiz yorishib, zavqlanamiz.

Boshlang'ich ta'lim davrida o'quvchilarni savodini chiqarish bilan bir qatorda husnixatda yozishga ham o'rgatiladi. Buning uchun o'qituvchidan doimiy ijodkorlik, jonkuyarlik, shirinso'zlik kabi fazilatlar kerak.

Maktabgacha ta'lim muassasalarining tayyorlov guruhida tajribali tarbiyachi ishlashi kerak deb o'ylayman. Bu davrda bola “1 yildan so'ng maktabga boraman”, “Eng a'lochi o'quvchi bo'layan” istagida ko'p ma'lumotlarni qabul qilishni hohlaydi. Shuning uchun bu davrda o'sib borayotgan bolaning qo'l harakatlari, ruchka ushlashlari muhim ahamiyatga ega.

Fikrlash qobiliyati keng, nutqi ravon, to'g'ri chizish malakasiga ega bolaning o'zlashtirishi tez bo'ladi, chiroyli yozadi.

Husnixatni chiroyli bo'lishga erishning samarali usullaridan biri “Husnixat ko'rigi”ni tashkil etishdir.

O'quvchilar orasida bu tanlov amalga oshirilsa , o'quvchilar yozuvlarini husnixat asosida yozishga harakat qiladi, rag'batlantiriladi hamda sinfdagi tashkil etilgan “Prezident partasi”ga o'tiradi. Qolgan barcha o'quvchilar ham qiziqish bilan bunga harakat qiladi. Buni ota-onalar ham “Sinf o'quvchilari uchun ochilgan telegram kanali”da kuzatib boradilar. O'z fikrlarini bildiradi. Sinfdagi bo'sh o'zlashtiruvchi o'quvchilarga kelsak, ularni ham do'stlariga yetkazish uchun soddadan-murakkabga qarab yuramiz, ya'ni ular uchun qulay, oz so'z, gap va matnlardan foydalanib, yordamlashib boriladi.



Ona tili darslaridan tashqari fanlarda ham husnixat daqiqalari o'tkazilib borilsa yaxshi bo'ladi. Darslarda didaktik o'yinlar ham muhim o'rin tutadi. Bunday o'yinlarni o'qituvchi ijodkorligi bilan yaratishi ham mumkin.

Masalan: “O'ylab top” o'yini. Bu o'yindan 1,2,3,4- sinflarda ham topshiriqlarning murakkablashtirib borgan holda foydalanishlari mumkin.

Chiroyli yozish qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yaqindan yordam beradi. Yozuv qoidalarini qisqa va tushunarli qilib bayon etish lozim. Bu ham o'quvchining o'zlashtirishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'qish darslari 1-sinf o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma Toshkent -2011
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali -2020 yil
3. O.Hasanboeva va boshqalar. «Pedagogika» –T.: «Fan», 2006 y.
- 4 . www.kutubxona.uz



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISH

Vafoyeva Zamira Karimovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31- son umumiy o'rta ta'lim maktabi

Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Alloyorova Maftuna Omonboy qizi

Xorazm viloyat Yangibozor tuman

31-son umumiy o'rta ta'lim maktabi Ingliz tili fani o'qituvchisi

+99893 285 26 72 alloyorovamaftuna@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada ta'lim sohasidagi bugungi kundagi o'zgarishlari hamda ta'limning yanada samarali qilishda qanday usullarga ahamiyat berilishi kerakligiga oid fikr-mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlari: ta'lim tizimi, variativ o'quv reja, kompetensiya, ta'lim standartlari.

Globalashuv jarayonida va raqamli texnologiyalar asrida mamlakatlarning aqliy salohiyatini o'stirishga yordam beruvchi strategiyalar ta'lim manbalari va ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslanishini va shu asosda ishlab chiqilishini talab etmoqda.

Ta'lim sohasidagi siyosatimizning asosiy maqsadi-ta'lim olish teng huquqligini ta'minlashdan iboratdir. Yurtimizda yoshlarning ma'naviy barkamol qilib tarbiyalash, Vatan oldida yuksak fuqarolik mas'uliyatini his qilish, jamiyat hayotini yurg'izuvchi kuch sifatida yashashga muntazam da'vat etish davlat siyosatlaridan biri bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlanganidek, *“Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azm-u shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish - biz uchun eng muhim masaladir”*, - deya alohida e'tibor qaratdilar. Shu asosda umumta'lim maktablarida bir qator islohatlar o'tkazilib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi PF-5712-son Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi **“Xalq ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasiga”** muvofiq O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 15-iyunda “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarni tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiya to'g'risida”gi 144-sonli buyrug'i imzolandi. Ushbu buyruq asnosida Xalq ta'limi tizimidagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalar ixtiyoriy ravishda joriy qilinadi. 2020-2021-o'quv yilida variativ o'quv reja joriy etilgan ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba-sinov ishlari davom ettiriladi. Variativ o'quv rejalar tegishli yo'nalishi bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-9-10-11 sinflarida 2020-2021-o'quv yili davomida tajriba-sinovdan o'tkaziladi.

Ta'lim jarayonida variativ o'quv rejani joriy etishdan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonida o'quvchining manfaatlarini inobatga olish;
- o'quv jarayoni pedagog tomonidan kompetensiyaviy asosda tashkil etilishiga erishish;
- o'quvchining o'zi qiziqqan fanlarni chuqur o'rganishga sharoit yaratish uchun variantiv o'quv rejalarni ishlab chiqish;
- maktab bitiruvchilarining ta'limning keyingi bosqichlarini davom ettirish, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko'rishni ta'minlash, shu bilan birga, ta'lim jarayoni bilan birga kasb ko'nikmasini shakllantirish;
- mamlakatimizda masofaviy mehnat sohaslarini rivojlantirishga ko'maklashish;

2020-2021-o'quv yilida davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida variativ o'quv reja joriy etilgan ayrim fanlar chuqur o'rgatilishi “Yevropa sifati darajasidagi ta'lim” va milliy asoslarga tayangan holda o'quvchi-yoshlarga ta'lim-tarbiya sohasida zamonaviy va oqilona tizim yaratish, o'qitish metodlari, ta'lim standartlari, darslik va mashg'ulotlarni yangicha bosqichga olib chiqish uchun zamin yaratishi shubhasiz.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv reja asosida o'qitiladigan sinfga tanlov fanidan dars berish uchun yetarli malaka va tajribaga ega o'qituvchi bilan ta'minlanish zaruriyatga aylanadi. Shu o'rinda savol tug'iladi: yetarli malaka va tajribaga ega fan o'qituvchisi qanday bo'lishi lozim? Ta'lim jarayonini olib borish davomida har bir o'quvchi qiyofasida noyob shaxsni ko'rish, o'quvchiga ma'qullovchi, xayrixoh vaziyatlar yaratish, ya'ni o'qish unda qoniqish va manfaatlarini



hisobga olish, fanlar kesimida o‘tilayotgan darslar bevosita majburlashga yo‘l qo‘ymaslik, tengdoshlari orasida qoloqlikka va boshqa kamchiliklarga urg‘u bermaslik va o‘quvchilarga o‘z qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va ko‘maklashish kabilar fan o‘qituvchilari tomonidan kompetensiyaviy asosda tashkil etilishini talab etadi. Bularning barchasi tarbiyaviy maqsad mavjud bo‘lgan, insonparvarlik nuqtayi nazaridan turib yondashilgan taqdirdagina amalda o‘z tasdig‘ini topadi.

O‘z kasbining mohir ustasi bo‘lish uchun juda ko‘p ishlash kerak bo‘ladi. Iste’dod o‘qituvchi mehnatdan ozod qilmaydi, katta ijobiy yuksalish va tinimsiz mehnatni, o‘z ustida ishlashni taqazo qiladi. Ta’lim muassasalarida ayrim fanlarni chuqur o‘qitilishida o‘qituvchi tomonidan zarur hollarda o‘quv materiallarini o‘zgartira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq ma’lumotni tushunarli qilib o‘quvchiga yetkazib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim muassasalarida olib boriladigan ta’lim jarayoni ishlarining ko‘lami va mazmuni qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, yoshlar o‘rtasida “ahamiyatli, salohiyatli kasb egalashda ehtiyojmand fanlar” tushunchasi borasida tub o‘zgarishlar ro‘y berayotganligi aniq.

Xulosa o‘rnida shu aytish lozimki, hozirgi kunga kelib davlat siyosati darajasida juda keng imkoniyatlar yaratilgan bo‘lsa, bularning hammasi yosh barkamol avlod sifatida o‘sib kelayotgan, o‘z metin salohiyatiga ega yoshlarning chuqur bilim egallash va zamonaviy kasb egasi bo‘lishlariga qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Golish L.V., Fayzullayeva D.M. Pedagogik texnologiyalarni loyihalashtirish va rejalashtirish. – T.: 2012
2. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari pedagog- o‘qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar). – T.: 2008
3. Muslimov N.A., N.Karimova. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining amaliy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – T.: 2012



O'QUVCHILARNING BIOLOGIK BILIMLARINI MUSTAHKAMLASHDA EKSKURSIYALARNING AHAMIYATI

Xudayberganova Shoir Nurimmatovna
Sodiqova Hilola Baxtiyor qizi

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
31- son umumiy o'rta maktab Biologiya fani o'qituvchilari
+998942338040 sodiqovah5@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada o'quvchilarning biologik bilimlarini mustahkamlashda ekskursiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlari: biologiya, ekskursiya, organism, DTS

O'qitish jarayoni deganda, o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

Didaktika va biologiya o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, didaktik olim Yu.K.Babanskiy fikricha, o'qitishni tashkil etish shakllari ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilar bilan individual yoki yalpi o'qitishning nisbati, o'quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me'yorini belgilaydi.

O'quvchilar tomonidan biologiya o'quv fani dasturlari va DTS bilan me'yorlangan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni tarbiyalash va rivojlantirish jarayoni o'qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqozo etadi. Biologiya o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, uy ishlari, darsdan tashqari ishlar va ixtiyoriy ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar kiradi. Mazkur o'qitish shakllari birgalikda biologiya o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi.

Ekskursiya – biologiyani o'qitishning muhim shakli. Biologik ekskursiyalar – sinf yoki muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv dasturiga muvofiq, o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muhit yoki sun'iy yaratilgan sharoitda ob'ektlarning yashash muhiti va unga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan o'quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi. Ma'lumki, biologiya o'quv fani sifatida o'quvchilarni tabiat, tabiatning anorganik tarkibiy qismlari, ulardagi o'zgarishlar va tirik organizmlarning o'ziga xos hayotiy jarayonlari, yashash muhitiga moslashishi, ekologik jamoalar, ularda modda va energiya almashinuvining xususiyatlari bilan tanishtiradi. O'qituvchi rahbarligida tabiatdagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish, tirik organizmlarning xilma-xilligi, yashash muhitiga moslashishi, ular o'rtasidagi biotik aloqa formalarini o'rganish, o'quvchilarda olamni yaxlit tasavvur qilish, tabiiy jamoalarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqadorlik haqidagi bilimlarni shakllantirish, tabiiy muhitda tirik organizmlarning yashash sharoiti bilan tanishish maqsadida ekskursiyalar tashkil etiladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko'ra bir soatlik, bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin. Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – maktab hovlisida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi. Bir kunga mo'ljallangan ekskursiya tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga, baliqchilik yoki parrandachilik xo'jaligiga uyushtiriladigan ekskursiya rejasi maktab o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari tomonidan tasdiqlanadi. Ko'p kunlik ekskursiya o'quv yilining oxiridagi kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, til adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta'lim fani o'qituvchilari bilan birgalikda o'tkaziladi.

Ekskursiya biologiyani o'qitishning muhim shakli bo'lib, u quyidagi didaktik maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi:

- tirik organizmlarning tuzilishi va organlarning funksiyalaridagi o'ziga xos xususiyatlarni yashash muhitiga bog'liq holda o'rganilishi o'quvchilar tomonidan biologik qonuniyatlarni “tabiat-inson-jamiat” munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganishga imkon yaratadi;

- mavzu mazmuniga bog'liq holda samarali tashkil etilgan ekskursiyalarda o'quvchilarda



biologik ob'ektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayotiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini chuqurroq anglash, ilmiy dunyoqarashni kengaytirish imkonini beradi;

-tirik organizmlarning jamoalari, ularning tarkibi, oziq zanjiri, energiya sarfi, biosferadagi modda va energiya almashinuvini tasavvur qilishga zamin tayyorlaydi;

- alohida organizmlar va hodisalar haqida ilk bor shakllangan tushunchalar kengaytiriladi, boshqa tushunchalar bilan birikib, murakkab tushunchalarning hosil bo'lishiga olib keladi;

- hodisalarini kuzatish olamning moddiyligi, tabiatdagi o'zaro bog'lanish va rivojlanish, tabiiy boyliklarning inson hayoti va xalq xo'jaligida tutgan o'rni, ularni muhofaza qilish tadbirlari bilan tanishtirish orqali Ona Vatan tabiatiga mehr muhabbat uyg'otish, ekologik, estetik, iqtisodiy va gigiyenik tarbiya berish imkoniyati vujudga keladi.

Ekskursiya - o'quvchilarning mo'ljal olish, obyektlarni tanish, hodisalarini kuzatish, ularni taqqoslash, o'xshashlik va farqli tomonlarini aniqlash, umumlashtirish va xulosa chiqarishga o'rgatadi. Qayd etilgan aqliy operatsiyalar ularda mantiqiy fikr yuritish ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bir qatorda, tabiatning ilmiy-tadqiqot metodlarini anglash, zarur hollarda ulardan foydalanishga imkon yaratadi. Ekskursiyaning samaradorligi ko'p jihatdan uning tashkil etilishiga bog'liq.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekskursiya davomida to'plangan materiallar asosida uning mazmunini muammoli savollar yordamida qayta ishlab chiqish mumkin. Maqsad, mazmun va xulosa uyg'unligiga erishish lozim. Ekskursiyani o'tkazishda o'qituvchi o'zining nafaqat kasbiy-pedagogik tayyorgarligiga bog'liq bilim, ko'nikma va malakalari, balki tabiatshunos sifatidagi bilim, ko'nikma va malakalarini namoyon etishi, ya'ni tabiiy obyektlarni tanish, aniqlagichlar bilan ishlash, kolleksiya va gerbariylar tayyorlash va ularni rasmiylashtirish, tabiatdagi tirik organizmlar o'rtasida aloqadorlik, oziq zanjiri tarkibiy qismlarini aniqlashi zarur. Bular o'quvchilarni biologik bilimlarini oshirishda katta imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Raxmatov E U. Biologiya o'qitish metodikasi. – T.: 2019
2. Tolipova J.O., G'ofurov A.T. Biologiya ta'limi texnologiyalari. – T.: 2002
3. Таджибаева М.А. Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии // Проблемы востоковедения. 2012. 2 (56). - С. 53-58. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsionnye-obrazy-v-uzbekskoy-dzhadidskoy-poezii-1>
4. Nabiyeva D.A., Nurmonova S.D. СОВРЕМЕННОЕ ЖАНРОВЕДЕНИЕ ИЛИ ГЕНРИСТИКА: ТЕОРИИ, МЕТОДЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ // Theoretical & Applied Science. 2020/4. -С. 824-827. URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44843224>



KIMYO FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA INTERFAOL USULLAR

Xuddiyeva Dilafrō'z Jumanazarovna

Mirishkor tumani 1-IDUM kimyo fani o'qituvchisi

Email: xuddiyevad@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada kimyo fanini maktab o'quvchilariga o'tish jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan interfaol usullar haqida gap boradi.

Ta'limning barcha bosqichlariga oid umumiy pedagogik va didaktik talab o'quvchining dasturiy bilim, tasavvur va ko'nikmalari asosida mustaqil ishlash samaradorligini takomillashtirish, ilmiy fikrlashga, o'quv faniga qiziqishini kuchaytirish, kasbiy bilimlarini chuqurlashtirish, nazariy va amaliy mashg'ulot mobaynida ularning faolligini oshirishdan iboratdir. Jahon pedagogik tajribasi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarining o'quvchilarni fanlarga qiziqitirishga, ularning mustaqil ishlashda faolliklarini oshirishga imkoniyati cheksiz ekanligini tasdiqlamoqda.

O'zbekiston Respublikasi demokratik, huquqiy va fuqarolik jamiyatini qurish yo'lidan borayotgan bir paytda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi va harakatga keltiruvchi kuchi har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyashdan iboratdir. Bu barobarida darslarda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi samara beradi.

I. Didaktik o'yin texnologiyalari

Didaktika yunoncha “**didaktikos**” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, **o'qitish, o'rganish** ma'nosini bildiradi.

So'ngi paytlarda asosiy didaktik kategoriyalar sirasiga ta'limning didaktik tizimi va ta'lim texnologiyasi kabi tushunchalarni ham kiritish taklifi ilgari surilmoqda. Tadqiqotchilar mavjud didaktik konsepsiya (tizim)larni umumlashtirib quyidagi guruhlarga ajratdilar.

1. An'anaviy 2. Progressiv. 3. Zamonaviy.

Ushbu darslarda o'quvchilarning bilim olish jarayoni o'yin faoliyati orqali uyg'unlashtiriladi. Shu sababli o'quvchilarning ta'lim olish faoliyati o'yin faoliyati bilan uyg'unlashgan darslar, didaktik o'yinli darslar deb ataladi. Inson hayotida o'yin faoliyati orqali quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

- o'yin faoliyati orqali shaxsning o'qishga va mehnatga bo'lgan qiziqishi ortadi.
- o'yin davomida shaxsning muloqatga kirishishi ya'ni komunativ – muloqat madaniyatini egallash uchun yordam beriladi.
- shaxsning o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishiga imkon yaratiladi.
- o'yin jarayonida ijtimoiy normalarga mos xulq – atvorni egallash, kamchiliklarga barham berish imkoniyati yaratiladi.
- shaxsning ijobiy fazilatlarini shakllantirishga zamin tayyorlaydi.

Didaktik o'yinlar texnologiyalari o'quvchi faoliyatining faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchiga ijobiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tatqiq qilish hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash axloq – odob o'rgatish, nutq o'stirish til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'rdam beradi.

Didaktik o'yinlarning asosiy turlari intellektual (aqliy) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bu o'yinlar ishtirokchilarda aqliy – jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.



EGOSENTRIZM XUSUSIYATINING O'SMIR XULQ ATVORIGA TA'SIRINING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tursunova Gulchexra Shoaxrorovna

“Oila va xotin-qizlar ilmiy-tadqiqot instituti”

tayanch doktoranti

Telefon: +998975444556

tursunova_gulchexra@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada egosentrizm hodisasini shaxs xususiyati sifatida namoyon bo'lishiga doir xorij olimlarining ilmiy izlanishlarining tahlillari keltirilgan. Ayniqsa, o'smir taraqqiyotida egosentrizm hodisasini namoyon bo'lishi va uning o'zini o'zi baholash, o'zini o'zi anglash, xulq-atvor namunalari, axloqiy xatti-harakatlari bilan bog'liqlik masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, egosentrizm, o'smirlik davri, rolli o'yinlar, ijtimoiy fikrlash, dunyoqarash, idrok, tafakkur, ratsional fikr.

Hozirgi kunda bolalarda tafakkur va nutq egosentrizmini o'rganishdan tashqari psixologiyada o'smirlar va kattalardagi bilish jarayonlari egosentrizmini tadqiq qilishga doir asarlar ham mavjud. Egosentrik fenomenologiya shaxsni qiyosiy taqqoslanishlarida ham tasvirlangan. Bu asarlarida “egosentrizm” tushunchasi bolalar psixologiyasidan biroz boshqacha ma'noda ishlatilib, insonning xususiyatlari, holati va xulq-atvorini bildiradi. “Egosentrizm” tushunchasi nafaqat shaxsning xususiyatlarini, balki holatini tavsiflash uchun ishlatilganligi sababli, ma'lum hissiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lgan egosentrik hodisalarni ajratib ko'rsatishi mumkin.

Ba'zi mualliflarning fikricha, egosentrizmning axloqiy tomoni shaxsning o'ziga xos xususiyati bo'lib, u boshqa odamlarning axloqiy xulq-atvori va xatti-harakatlarini idrok qila olmasligi bilan bog'liq. Ma'naviy egosentrizm, ma'lum sharoitlarda, xudbinlik va pragmatizmga olib keladi. Shuningdek, pragmatizm faqat o'zlari uchun foydaliligi nuqtai nazaridan odamlarga nisbatan idrok va munosabatdir va inson hayotda uchraydigan har bir narsani baholashdir.

Egosentrizm muammosini o'rganishning shaxs tuzilmalari xususiyatlarining paydo bo'lishidagi rolini aniqlashni talab qiladi: o'zini o'zi qadrlash, talablar darajasi, ambisiyalari va shu bilan bog'liq ijtimoiy va biologik ehtiyojlar, istak va motivlar. Axir, egosentrizm odam ijtimoiy xulq-atvor va umuman shaxs hayotining asosiy regulyatori vazifasini bajaradigan joyda sodir bo'ladi. Shaxslar shaxslararo munosabatlarda hal qiluvchi omil bo'lib, ular bir-biri bilan bo'lgan munosabatlarning barcha turlarida yetakchi o'rinni egallaydi [3]. Shu munosabat bilan, G.M.Andreyeva shaxslararo munosabatlarning o'rni va tabiatini ko'rsatib, bu munosabatlar jamiyatning ijtimoiy-psixologik “to'qimasini” tashkil qilishini isbotlaydi [1].

Egosentrizm shaxsining o'ziga xos xususiyati sifatida o'rganishga kelsak, kattalarda egosentrik fenomenologiyaning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash muhimdir. J.Piaje ayrim kishilarning yakka o'zi monologlarni baland ovozda talaffuz qilish odatiga e'tibor qaratdi. Uning fikricha, o'z-o'zidan gapiradigan odam “bundan zavq va hayajonni boshdan kechiradi, bu esa uni o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish zaruriyatidan chalg'itadi” [3]. J.Piajening fikriga ko'ra, agar normal rivojlangan kattalarda nutqning funksional egosentrik muammosi mavjud bo'lsa, unda bemor, ibtidoiy odam yoki bolaga nisbatan ko'proq bo'lishi mumkin.

O'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillarning xulosalari quyidagicha bo'lishi mumkin.

1. Egosentrizm mulk sifatida ham, shaxs holati sifatida ham o'zini namoyon qilishi mumkin.
2. Egosentrik holat insonning egosentrik xulq-atvorini, uning o'ziga va boshqa odamlarga bo'lgan munosabatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Andreyeva G.M. Sosialnaya psixologiya. - 2-ye izd.-M.: Izd- vo MGU, 1988. 432 s.
2. Assadjioli R. Tipologiya psixosinteza: sem osnovnykh tipov lichnosti. Per s nem. T.Drabkinoy. -M.: Uraniya, 1995. - 124 s.
3. Donaldson M, Мыслительная деятельность детей: Пер. с angl. (Pod red. V.I.Lubovskogo. - M.: Pedagogika, 1985. - 192 s.



РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В ПРОФЕССИИ ВОЕННОГО ЭКОНОМИСТА

Кодиров Шахбоз Умиджон угли,
курсант 1-ого курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Наркулова Индира Рустам кизи,
доктор философии по педагогическим наукам (PhD),
преподаватель кафедры «Изучение языков»
Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: в статье рассматривается роль русского языка как средства международного делового сотрудничества, обосновывается перспективность изучения русского языка в высших военных образовательных учреждениях Республики Узбекистан, описываются отдельные аспекты практики обучения русскому языку курсантов, обучающихся по направлению «Экономическая безопасность» в Университете общественной безопасности Республики Узбекистан.

Ключевые слова: экономист, профессиональный русский язык, языковая компетенция специалиста.

Язык служит средством выражения мысли. В свою очередь, терминология экономической науки является существенным элементом, без которого наука просто не может функционировать как особая форма человеческой деятельности. Говорить и думать на экономическом русском обязывают современные процессы глобализации, компьютеризации и массового использования Интернет в хозяйственных процессах. С первых шагов курсант погружается в атмосферу особенного, характерного только для его специальности профессионального языка. На протяжении всех лет учебы и затем дальнейшей деятельности специалист, черпая новую информацию, обогащает свой профессиональный язык все новыми словами и выражениями.

Не секрет, что в настоящее время, чтобы достичь успеха, специалист должен обладать набором определенных качеств, среди которых можно выделить следующие: владение деловым, официальным стилем речи, коммуникабельность, эрудированность, эмоционально-психическая устойчивость, ответственность, предприимчивость и аккуратность.

Узкая специализация языка экономистов внутри многопрофильной экономической профессии достигла такой высокой степени, что экономист, занимающийся, например, компьютерным экономико-математическим прогнозированием, едва ли поймет все тонкости языка экономиста в области экономики труда или наоборот.

Профессиональный язык экономиста представляет собой систему терминов, понятий, дефиниций, обозначающих предметы, объекты, системы и процессы реальной хозяйственной жизни человека и общества. Профессиональные языки экономической науки можно условно разделить на общеэкономические и специальные. Каждая экономическая специальность помимо общего языка, единого для всех экономистов, имеет и свой специальный и специализированный язык.

Экономические словари, справочники, энциклопедии – это хранилища или тезаурусы профессионального языка. Специальная профессиональная лексика зафиксирована в разного рода словарях по специальностям. Таковыми являются, например, «Экономическая энциклопедия», «Энциклопедический словарь экономиста», терминологические словари и справочники по многим экономическим дисциплинам.

Высококвалифицированного экономиста всегда отличает культура профессиональной речи. Не только грамотное владение литературным языком, но также широкое и глубокое знание терминологии. Поэтому, усвоение и понимание терминологии – это обязательное условие приобретения специального профессионального мастерства для будущего экономиста.

Таким образом, становится очевидным, что одна из тенденций формирования современного профессионального языка экономистов связана с его популяризацией и экспрессивностью – свойствами, нетипичными для специальных языков. Вероятно, косвенными причинами таких



изменений являются необычайно возросшая популярность профессии и, как следствие, ее массовость; сильно помолодевший контингент ее представителей (отсюда явления слэнга, жаргона, экспрессивного лаконизма в формулировках).

Литература:

1. Утенбаева, Гульжазира Мухтаровна ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ ВВОУ РУЗ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ С ЦЕЛЬЮ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИХ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-obucheniya-russkomu-yazyku-kursantov-vvou-ruz-s-ispolzovaniem-innovatsionnyh-pedagogicheskikh-tehnologiy-s-tselyu> (дата обращения: 08.06.2022).
2. Namozova D.B. The role and place of English in international communication / EPRA International Journal of Research and Development (SJIF Impact Factor 7) Volume 5. 2020. P. 141-144.
3. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. Sociolinguistic competence as the main component of intercultural communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.4-6



ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТАЛАБАЛАРИНИ ЎҚИТИШДА ШАХСГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ МОҲИЯТИ

Дилноза Охунова
ФарДУ ўқитувчи
Сарвиноз Хакимова
ФарДУ талаба
Телефон: +998901602032
dilnozaohunova1@gmail.com

Аннотация: Олий таълим талабаларини ўқитишда таълим технологияларидан самарали фойдаланиш талаб этилади. Ушбу мақолада олий таълим талабаларини ўқитишда шахсга йўналтирилган таълим технологиясидан фойдаланишнинг самарали томонлари очиб берилган

Калит сўзлар: ҳамкорлик, эркин тарбиялаш, эркин талабчанлик, қобилият, инсонпарварлик, эркин ўқитиш.

Бугунги шиддат билан ривожланиб бораётган бир даврда олий таълим талабаларини ўқитиш жараёнида таълим технологияларидан самарали фойдаланиш талаб этилмоқда. Ўқитишнинг шахсга йўналтирилган технологияларига қуйидаги асосий принциплар хос бўлади:

- *инсонпарварлик*, яъни инсонга ҳар томонлама ҳурмат ва муҳаббат кўрсатиш, унга ёрдамлашиш, унинг ижодий қобилиятига ишонч билан қараш, зўравонликдан тўла воз кечиш;

- *ҳамкорлик*, яъни педагог ва ўқувчилар муносабатидаги демократизм, тенглик, шериклик; *эркин тарбиялаш*, яъни шахсга унинг ҳаёт фаолиятини кенг ёки тор доирасида танлаб олиш эркинлиги ва мустақилликни бериш, натижаларни ташқи таъсирдан эмас, ички хиссиётлардан келтириб чиқариш.

- Шахсга йўналтирилган технологияларнинг коммуникатив асоси - педагогик жараёнда ўқувчига инсоний-шахсий ёндашув ҳисобланади.

Шахсга янгича қараш қуйидагилардан иборат бўлади:

- педагогик жараёнда шахс объект эмас, субъект ҳисобланади;
- ҳар бир ўқувчи қобилият эгаси, кўпчилиги эса истеъдод эгаси ҳисобланади;
- юқори этик қадриятлар (сахийлик, муҳаббат, меҳнатсеварлик, виждон ва бошқалар) шахснинг устувор хислатлари ҳисобланади.

Муносабатларни демократлаштириш қуйидагиларни ўз ичига олади:

- ўқувчи ва педагог ҳуқуқларини тенглаштириш,
- ўқувчининг эркин танлаб олиш ҳуқуқи;
- хатога йўл қўйиш ҳуқуқи;
- ўз нуқтаи назарига эга бўлиш ҳуқуқи
- педагог ва таҳсил олувчи муносабатининг асоси: таъқиқламаслик; бошқариш эмас, биргаликда бошқариш; мажбурлаш эмас, ишонтириш; буюриш эмас, ташкил этиш; чегаралаш эмас, эркин танлаб олишга имкон бериш.

Муаммо бу ёндашувни мутлақлаштиришда эмас, балки унинг оқилона мезонларини аниқлашдадир. Умуман олганда тарбия жараёнида мажбурлашдан воз кечиш мумкин эмас, аммо жазолаш инсонни камситади, эзади, ривожланишини сусайтиради, унда сўзсиз итоаткорлик хусусиятларини шакллантиради.

Эркин ўқитиш қуйидагилар билан белгиланади:

- ишончга асосланган эркин талабчанлик;
- ўқув материалига қизиқиш уйғотиш, билишга ва фаол ижодий фикрлашга рағбатлантириш;
- ўқувчиларнинг мустақиллиги ва ташаббусига таяниш;
- жамоа орқали билвосита усуллар билан талабларни амалга оширишни таъминлаш.

Янги индивидуал ёндашувнинг моҳияти шундаки, у таълим тизимида ўқув фанидан ўқувчига эмас, ўқувчидан ўқув фани томонга ҳаракатланишни тақозо этади, ўқувчиларнинг мавжуд имкониятларини инобатга олиб, уларни ривожлантириш, такомиллаштириш ва



бойитишга қаратилган бўлади.

Индивидуал ёндашувнинг замонавий янги талқини қуйидагилардан иборат:

- ўртача ўқувчига йўналтиришдан воз кечиш;
- шахснинг яхши хислатларини излаш;
- шахс ривожланишининг индивидуал дастурларини тузиш.

Шахсий ёндашишда биринчи навбатда қуйидагилар зарур бўлади:

- ҳар бир ўқувчи қиёфасида ноёб шахсни кўриш, уни ҳурмат қилиш, тушуниш, қабул қилиш, унга ишониш. Педагогда барча ўқувчилар истеъдодли деган ишонч бўлиши керак.
- шахсга ютуқни маъқулловчи, қўллаб-қувватловчи, хайрихоҳ вазиятлар яратиш, яъни ўқиш қониқиш ва хурсандчиликни олиб келиши керак;
- бевосита мажбурлашга йўл қўймаслик, қолоқликка ва бошқа камчиликларга урғу бермаслик, унинг нафсониятига тегмаслик;
- педагогик жараёнда, ўқувчиларга ўз қобилиятларини рўёбга чиқаришга имконият яратиш ва қўмаклашиш.

Олий, ўрта махсус ва касб-хунар таълими тизими учун ўқитишнинг шахсга йўналтирилган технологияларига қуйидагиларни киритиш мумкин:

муаммоли ўқитиш; табақалаштирилган ўқитиш; дастурлаштирилган ўқитиш; компьютерлаштирилган ўқитиш; ишбилармонлик ўйинлари; модулли ўқитиш.

Шахсга йўналтирилган ўқитиш технологиялари илмий-техникавий тараққиёт жадаллаштирилган даврда ривожланган давлатларда шакллантирилганлигини инобатга олган ҳолда улар чуқур илдизларга эга эканлигини таъкидлаш тўғри бўлар эди.

Хулоса шахсга йўналтирилган технологиялар инсоннинг ақлий қобилиятларини очишига хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. С. Йўлдошева “Олий ва касб-хунар таълимида педагогик технологиялар”.
2. <https://natscience.jspi.uz/index.php/ppmedu/article/view/2982>



ТАЛАБА ҚИЗЛАР ХУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ГЕНДР ХУСУСИЯТЛАРИ.

Дилноза Охунова Қаххоржонова

ФарДУ ўқитувчи

Орзигул Сотволдиева

ФарДУ талаба

Телефон: +998901602032

dilnozaohunova1@gmail.com

Аннотация: Хозир жамиятда гендер тенглиги ва гендер мувозонатига эришиш, иккала жинснинг ҳам эҳтиёж ва манфаатларини ҳисобга олишни талаб этади. Ушбу мақолада талаба қизларни тарбиялашда гендр масалалари очиб берилган

Калит сўзлар: гендр тушунчаси, ҳуқуқий маданият, эркин фикр, эркин талабчанлик, ижтимоий тенглик.

Хозир жамиятда гендер тенглиги ва гендер мувозонатига эришиш, иккала жинснинг ҳам эҳтиёж ва манфаатларини ҳисобга олиш, уларга тенг имкониятларни таъминлаш ҳам хотин-қизлар, ҳам эркакларнинг аҳволи яхшиланиши, самарали иқтисодий ривожланиш, оиланинг мустаҳкамланиши, болаларни жисмоний ва маънавий-ахлокий жихатдан тўғри тарбиялаш имкониятини англатади. Талаба қизларни ҳуқуқий маданиятини ошириш ва уларни касбга тайёрлашда гендр масалаларига катта эътибор қаратмоқ муҳимдир.

Ўзбекистон Республикасининг мустақиллик йилларида шаклланган, сиёсат ва иқтисодиётга оид соҳаларини тартибга солувчи қонунчилиги, яратилган ҳуқуқий ва ташкилий механизмлар жамиятнинг барча соҳаларида тенг гендер имкониятларини таъминлаш сиёсатини танлаганлигидан далолат беради.

Жумладан, 1995 йилнинг 2 мартида илк бор Ўзбекистон Республикаси Президентининг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ривожланиш, оила, оналик ва болаликни ижтимоий ҳимоялашни кучайтириш ҳамда вазирликлар, маҳкамалар ва ҳудудий бошқарув органлари фаолиятини мувофиқлаштириш масалаларини ҳал қилишга хотин-қизларни кенг жалб қилишга қаратилган “Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин-қизларнинг ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги махсус Фармони

қабул қилинди. Унга кўра, республикада Бош вазирнинг хотин-қизлар ишлари буйича ўринбосарлари лавозимлари жорий қилинди. 2004 йил 25 майдаги “Ўзбекистон хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Фармони, 2004 йил 30 июндаги Вазирлар Маҳкамасининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2004 йил 25 майдаги “Ўзбекистон Хотин-қизлар қўмитаси фаолиятини қўллаб-қувватлаш борасидаги қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида” Фармони ижросини таъминлаш чора-тадбирлари дастури тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Вазирлар Маҳкамасида ва жойларда оила, оналик ва болаликни ижтимоий ҳимоя қилиш масалалари буйича котибиятлар ташкил қилиниб, фаолият юритмоқда.

Ўзбекистон Марказий Осиё давлатлари орасидан биринчилардан бўлиб, БМТнинг “Хотин-қизлар ҳуқуқлари камситилишининг барча шаклларида барҳам бериш ҳақидаги конвенция”га қўшилди. 1995 йилда “Тинчлик, тараққиёт ва тенглик” шиори остида Пекин шаҳрида ўтказилган Бутун жаҳон хотин-қизларининг IV конференциясида мамлакатимиз хотин-қизларининг вакиллари иштирок этиб, хотин-қизлар аҳолини яхшилашга қаратилган Пекин декларацияси Платформасига қўшилдилар, шу асосда республика хотин-қизларининг ҳуқуқий ва ижтимоий муҳофазасини кафолатловчи ҳукумат даражасидаги “Ўзбекистон Республикасида Хотин-қизлар масалалари бўйича Концепция ва дастурий ҳужжатлар” ишлаб чиқилди ва 7 йўналиш асосида дастур яратилди. Яъни:

- Қизларни турмушга тайёрлаш дастури;
- Соғлом авлод — соғлом жамият негизи дастури;
- Экология ва аёл дастури;
- Республика Хотин-қизларининг халқаро алоқаларни мустаҳкамлашга қаратилган тадбирлар дастури;
- Хотин-қизлар меҳнатини ижтимоий муҳофаза қилиш дастури;



- Аёл, оила ва маҳалла дастури;
- Маърифат — маънавият, таълим-тарбия дастури.

Бу дастурлар Ўзбекистон Республикасида хотин-қизлар учун муносиб ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий, маънавий ҳаётни қарор топтиришга алоҳида эътибор берилаётганлигидан, уларнинг аҳолини, турмуш шароитини яхшилаш иши давлат сиёсати даражасига кутарилганлигидан далолат беради. Зеро, Ўзбекистоннинг бугунги тараққиётида хотин-қизлар фаол меҳнат ресурсларининг 45,1 фоизни ташкил этиб, ишлаб чиқаришнинг барча соҳаларида етарли мавқега эгадирлар, хатто мудофаа, жамоат тартибини сақлаш каби эркакларнинг анъанавий касблари тармоқларига ҳам кириб бормоқдалар. Жумладан, иш билан банд бўлган аёллар: саноатда — 42,8 фоиз, қишлоқ хўжалигида — 42,4 фоиз, маориф, маданият, фанда — 79,9 фоиз, соғлиқни сақлашда — 75,9 фоизни ташкил қилади. Ҳукумат таркибидаги раҳбарлик вазифаларида ишловчи аёллар — 16 фоизни, Конституцион судда — 20 фоизни, Олий судда — 14,6 фоизни, Олий ҳужалик судида — 15,8 фоизни ташкил этади.

Хулоса хотин-қизларнинг ўз имкониятларини тўлиқ намоён қилишлари учун ижтимоий-маънавий муҳит яратилмоқда.

Фойдаланилган адабиётлар

1. С.Т.Иномова “Эъзозли аёл иқболи”.
2. Г.Ўрозалиева “Гендр ва аёллар ҳуқуқий маданияти”.



БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ МЕТОДЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АҲАМИЯТИ

Хаитова Дилафруз Учқуновна

Тошкент шаҳар Учтепа тумани

283- мактаб бошланғич таълим ўқитувчиси

Аннотация: Ҳозирда инновацион педагогик жараёнлар ва ахборот технологиялари таълим муассасасидаги ўқув фаолиятининг муҳим компонентларидан бирига айланиб бормоқда. Ушбу мақолада бошланғич таълим жараёнида инновацион таълимнинг аҳамияти ҳақидаги фикрлар билдирилган.

Калит сўзлар: таълим-тарбия, ўқув фаолияти, таълим муассасаси, педагогик жараёнлар, таълим, ижодкорлик.

Бугунги кунда илм-фан, техника ва ишлаб чиқариш соҳаларининг жадаллик билан ривожланиб бораётганлиги узлуксиз таълим тизимида таълим- тарбия сифатини мазмун жиҳатидан янги босқичга кўтаришни талаб этмоқда. Янгича фикрлайдиган, назарий билимларини амалиётда қўллай оладиган педагог кадрларни етиштириш ҳозирда барчамизнинг диққат марказимиздир. Бу эса ўқитувчиларга ўз устида ишлаш каби масъулиятни юклайди. Чунки ўқитувчи қанчалик юксак даражадаги маълумотли, маҳорат эгаси бўлса, унинг қўлида таълим олаётган ўқувчилар ҳам шунчалик билимдон ва баркамол шахс бўлиб етишади. Ўзбекистон таълим тизимида янги инновацион технологияларнинг киритилиши педагогика фани олдида таълимнинг мазмуни, тузилиши, ривожланиши ва технологиясини аниқлашдек муҳим вазифаларни қўйди. Айнан янги педагогик жараёнлар ўқитувчи ва ўқувчини интенсив ривожлантириш, уларнинг ўзаро фаолияти ва мулоқотини демократлаштириш, таълим жараёнини инсонпарварлаштириш, ўқувчини ўз- ўзини шакллантиришга йўналтириш, таълимнинг моддий-техника базасини модернизациялаш каби вазифаларни бажаради, педагогларнинг касбий маҳорати ҳамда ижодкорлик фаолиятининг ривожланишида муҳим ўрин тутди.

Таълим-тарбия сифати ва самарадорлигини ҳозирги замон талаби даражасига кўтариш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бирига айлангани бежиз эмас, албатта.

Дарс жараёни қизиқарли ва мазмунли бўлиши учун замонавий педагогик технологияларга асосланиш ва инновацияга интилиш, ўқувчиларни фаоллаштиришга қаратилган турли интерфаол методлардан фойдаланиш, таълим мақсадини самарали амалга оширишга ёрдам беради.

Мутахассислар фикрича, илғор технологиялар ўқувчилар диққатини жамлашга, дарсга қизиқтиришга, мустақил фикр юритишларига, ижодкорлик фаолиятларини янада ривожлантиришга, ахборот олиш, уни қайта ишлаш, умумлаштириш ва хулоса чиқаришга ўргатади. Уларнинг фикрича, талаба ўқитувчининг оғзаки маърузасидан кўра кўргазмали воситалардан, ҳаётий мисоллардан фойдаланиб тушунтиришидан кўпроқ таъсирланар экан ва ҳатто ўзлаштириши паст бўлган ўқувчиларда ҳам қизиқиш уйғотар экан.

Шундай экан, хорижий тилларни ўқитишда илғор технологиялардан, интернет, медиа-таълимдан фойдаланиш фойдадан ҳоли бўлмайди. Мультимедиа воситалари ва технологиялари аудиовизуал ахборотларни замонавий қайта ишлаш усуллари татбиқ қилиш билан таълимни унумдорлигини ошириш ва таълим олувчиларнинг ўқишга бўлган қизиқишини янада орттириш имкониятларини яратади.

Узлуксиз таълим тизимида педагогик технологияларни қўллаш аввалдан лойиҳалаштирилган таълим жараёнини яхлит тизим асосида босқичма-босқич амалга ошириш, аниқ мақсадга эришиш йўлида муайян метод, усул ва воситали тизимини ишлаб чиқиш, улардан самарали фойдаланиш ҳамда таълим жараёнини юқори даражада бошқаришни ифодалайди. Ахборот технологияларидан фойдаланиб олиб бориладиган ўқув машғулотларининг интерфаол усулларда ўтказилиши оддий ўқув машғулоти билан кўйидагилар билан фарқ қилади қўйилган мақсадга аниқ эришиш, янги билим беришда янги усуллардан фойдаланиш, вақтдан самарали фойдаланиш, дастурда кўрсатилган материал асосида қисман четга чиқиш. Ўқитувчининг интеллектуал салоҳияти, касбий ва ижодкорлик маҳорати, амалий ва назарий билимлари ёрдамида ташкил этиладиган дарслар натижа-



сида ижодий билимга эга, жамиятимиз равнақи учун етук мутахассис- кадрлар шаклланиб келаётганлиги қувонарли ҳолдир.

Биз бу натижаларни янада фаоллаштиришимиз, ўқув жараёнини ўқувчиларнинг онгли мустақил фаолиятига асосланиб, миллийликни сақлаб қолган тарзда жаҳон андозаси даражасида ташкил этишга ва илмий-методик тайёргарликни ошириш учун ёрдам берадиган рисолалар, адабиётлар яратишимиз керак. Замонавий илғор технологияларидан фойдаланаётган ўқитувчиларнинг вазифалари ҳам шунга қараб ўзгаради.

Ўқувчиларга ўз қобилиятларини намоён қилишларида ёрдам бериш уларнинг асосий вазифаларидан бирига айланади. Фанлар соҳасининг ахборотлашуви, ўқув фаолиятининг такомиллашуви, замонавий ахборот технологиялари асосида билиш жараёнининг интеграциялашувига, фанлар соҳасининг кенгайишига, чуқурлашувига ва уларнинг мазмунини танлаш мезонларига ўзгартиришлар киритишни тақозо этади.

Адабиётлар

1. Янги педагогик технология: таҳлил, таъриф, мулоҳазалар: Мақолалар тўплами. – Т., 2010.
2. Бекмуратов Т.Ф., Дадабаева Р.А. Информационные системы в образовании



ЖУРНАЛИСТИКА ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ ЁЗМА ДИСКУРС КОМПЕТЕНЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА МАШҚЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

Юлдашова Нилуфар Мухитдиновна

Ўзбекистон журналистика ва оммавий

коммуникациялар университети,

“Хорижий тиллар” кафедраси

катта ўқитувчиси

Телефон: +998973306663

yuldashova-n@mail.ru

Аннотация: Мазкур мақола ғарбда ва шарқнинг айрим мамлакатларида хорижий тилларни ўқитишда фойдаланилиб келинаётган замонавий тил ўқитиш ёндашувларидан бири бўлган Вазифага асосланган тил ўқитиш (TBLT-Task Based Language Teaching) да самарали бўлган машқлар типологияси тадқиқига эътибор қаратган.

Калит сўзлар: Вазифага асосланган тил ўқитиш, машқлар тизими, ахборот бўшлиғи, сабаб бўшлиғи ва фикр бўшлиғи, Жигсо (Jigsaw) вазифалар, аутентик материал.

Чет тилини ўқитишда асосий нарсаси турли хил қоидаларни ёдлаш орқали тил ҳақида назарий билимларни эгаллаш эмас, ёки бир хил нарсани такрорлаш орқали маълум нутқ қобилиятларини шакллантиришда эмас, балки талабаларнинг бошқаларни тушуниши ва ўз фикрларини чет тилида ифода эта олиш қобилиятини ривожлантиришдир. Бунинг учун чет тили дарсларида айнан шундай қобилиятни ривожлантирадиган машқларга асосий вақт ва эътибор қаратилиши керак. [1]

Машқлар тизимини таснифлашда бир қанча ёндашувлар мавжуд; психологик (рецептив, репродуктив ва продуктив машқлар – Г. Пальмер), лингвопсихологик (тил ва нутқ машқлари – И.А.Грузинская, И.В.Рахманов) ва дидактик (информатив, тайёрловчи ва нутқий – И.Ф. Комков), Е.И. Пассов барча машқларни шартли нутқий ва нутқий машқларга ажратади. [2]

М.С. Ильин ўз тадқиқотида машқларни икки турга, яъни тил ва нутқ машқларига ажратади. Унга кўра ўқувчилар аввал тилга оид машқларни бажариб, кейин кўникма ҳосил бўлганда нутқда амалиётда қўллашади. Машқларнинг икки турга бўлинишини бир қанча олимларнинг ишларида кўриш мумкин. А.А.Миролюбов машқларни тайёрловчи ва нутқий машқларга, Э. П. Щубин аналитик ва синтетик, И.Д. Салистра бирламчи ва нутқий, В.Л.Салкин тайёрловчи ва коммуникатив, А.Д. Климентинко тайёрловчи ва шахсий-нутқий машқлар типологиясига ажратган.[2]

Профессор И.В.Рахманов барча машқларни тил ва нутқ машқларига ажратади. Айрим методистлар ўз асарларида иккала термин орасида «нутқача бўлган машқлар» номини ҳам қўллашади. В.А.Бухбиндер машқлар ҳақида тадқиқот олиб бориб, уларни информатив, операцион ва мотивацион машқларга ажратган. Ўзбекистонлик чет тили методистлари бажарган илмий тадқиқотларида чет тил машқлар системасини шакллантирувчи, ривожлантирувчи ва такомиллаштирувчи машқларга бўлишган. [3]

Талабалар коммуникатив компетенциясини оширишда, уларни эркин мулоқотга ўргатишда ўрганилаётган тилнинг шакл ва кўринишини билиш нутқий фаолиятни олиб бориш учун етарли эмас. Шу сабаб, коммуникатив методларнинг ривожланиши ва анъанавий методлар аҳамиятининг сусайиши натижасида ушбу турдаги машқлар таснифи ўз долзарблигини йўқота бошлади.

Яна шуни айтмоқчимизки, юқорида келтириб ўтилган машқлар типологияси РРР (Presentation, Practice and Production) ни ифодалайди, яъни тил материал ўқитувчи томонидан тушунтириб берилади (билим шаклланади), шаклланган билим машқларда қўлланилиб кўникма ривожлантирилади ва кейинги босқичда билим ва кўникма контекстда қўлланилиб малака такомиллаштирилади.

Вазифага асосланган тил ўқитиш (TBLT) ёндашуви тамойилларига юқоридаги машқлар тизими мос келмайди ва TBLT ни ўрганиб тадқиқотлар олиб борган олимлар томонидан берилган машқлар типологиясини кўриб чиқишни лозим топдик.

Бангалор лойиҳасида учта асосий вазифа турлари берилади: *ахборот бўшлиғи* (information



gap), *сабаб бўшлиғи* (reasoning gap) ва *фикр бўшлиғи* (opinion gap). [4] Бу лойиҳа, шунингдек, коммуникацион ўқитиш лойиҳаси деб ҳам номланган бўлиб, 1979 йилдан 1984 йилгача давом этган. Лойиҳа одамлар ҳақиқий ва фойдали тилдан лингвистик бўлмаган мақсадларда фойдаланишга ҳаракат қилсалар улар тилни тезроқ ўрганадилар деган асосий гипотезага асосланган эди. [5]

1. Ахборот бўшлиғи фаолияти маълумотни бир кишидан бошқа кишига, бирон шаклдан бошқа шаклга ёки бирон жойдан бошқа жойга -одатда тилдан ёки тилга маълумотни кодлаш ёки декодлашни талаб этади.

2. Сабаб бўшлиғи фаолияти берилган маълумотдан хулоса чиқариш, амалий фикрлаш, алоқа ёки намуналарни идрок этиш орқали янги маълумот олишни билдиради. Бу турдаги фаолият ахборот бўшлиғи фаолияти каби маълумотни тушуниш ва етказишни ўз ичига олади, лекин фарқли жиҳати шундаки қабул қилинган маълумот етказиладиган маълумот билан бир хил эмас. Уларни бирлаштириб турувчи сабаб бор.

3. Фикр бўшлиғи фаолияти бирон вазиятга шахсий фикрни, ҳиссиётни, муносабатни аниқлаб билдиришни англатади. Бу фаолият фикрини исботлаш учун аниқ маълумотлардан фойдаланиш, далилларни шакллантиришни ўз ичига олсада, лекин натижаларни тўғри ёки нотўғри деб кўрсатадиган объектив тартиб йўқ, шунингдек ҳар хил талабадан ва турли хил вазиятларда бир хил натижани кутишга сабаб ҳам йўқ.

Худди шу давр мобайнида Паттисон бошқа турдаги вазифалар типологиясини бериб, етти хил вазифа ва фаолиятларни кўрсатиб ўтди. [6]

1. Савол ва жавоб
2. Диалог ва сахна кўриниши
3. Мослаштириш вазифалари
4. Алоқа стратегиялари
5. Расм ва расмли ҳикоялар
6. Муаммо ва бош қотирмалар
7. Муҳокама ва қарорлар

Ричардснинг педагогик вазифалар типологияси эса қуйидагича: [7]

Жигсо (Jigsaw) вазифалар. Бу турдаги вазифалар талабалардан бир бутунни ҳосил қилиш учун маълумотнинг турли хил қисмларини бирлаштиришни талаб қилади. Масалан, учта гуруҳ ҳикоянинг учта ҳар хил қисмига эга бўлиб, уни бирлаштиришлари керак.

Ахборот бўшлиғи (алмашиш) вазифаси. Бу вазифада бирон талаба ёки талабалар гуруҳи маълумотнинг бир қисмига эга бўлса, бошқа гуруҳ талабалари уни тўлдирувчи маълумотга эга бўлади. Улар музокара олиб бориб вазифани тугатиш учун бошқа гуруҳнинг маълумотини биладилар.

Муаммони ҳал қилиш вазифаси. Талабаларга муаммо ва бир қанча маълумот берилади ва улар муаммога ечим топишлари керак.

Қарор қабул қилиш вазифаси. Талабаларга бир неча ечими бор муаммо берилади ва улар баҳс мунозара олиб бориб биттасини танлашлари керак бўлади.

Фикр алмашиш вазифаси. Талабалар муҳокамада иштирок этиб фикр алмашадилар, улар бир қарорга келишлари шарт эмас.

Демак, вазифага асосланган тил ўқитиш (TBLT) -бу тилларни ўқитишда фойдаланиладиган дидактик асосдир. Вазифаларга асосланган тилни ўқитиш ҳаётий (аутентик) тилдан фойдаланишга ва талабалардан мақсадли тилдан фойдаланган ҳолда мазмунли вазифаларни бажаришларига қаратилган. Ўқувчилар бажарадиган вазифалар, аввало, лингвистик шаклнинг аниқ ва тўғрилигига эмас, балки вазифанинг натижасига асосланади. Бундай вазифалар савдо суҳбатини келтириб чиқариш учун дўконга ташриф буюриш, шартнома ёки битим бўйича музокаралар олиб бориш, ток-шоу ёки судда иштирок этиш кабиларни ўз ичига олиши мумкин. TBLT нинг асосий ғояси шундаки, талабаларда асосан лингвистик қоидаларга эътибор қаратмасдан чет тилида сўзлашишга ва умумий равишда бўлган ишонч ривожланади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ахмедова М.Х. Типология упражнений для развития речи на неродном языке // Молодой учёный, Международный научный журнал. – Казань, 2016. – №1(105). – С.776. 687-689.
2. Мурадқасимова К.Ш. Инглиз тилини ўқитишда талабаларнинг кўникма ва малака-



рини баҳолаш хусусиятлари. Диссертация 80- бет

3. Жалолов Ж.Ж. Чет тил ўқитиш методикаси; чет тиллар олий ўқув юртлари (факултетлари) талабалари учун дарслик. – Тошкент; Ўқитувчи, 2012. – 14 бет.

4. Prabhu N.S. Second Language Pedagogy: Oxford: Oxford university Press 1987: 46–47 pages

5. Kris Van den Branden, Task-based language teaching. Routledge, 2016. Pp-239

6. Pattison, P. 1987. Developing Communication Skills. Cambridge: Cambridge University Press.

7. Richards, J. C. 2001. Curriculum Development in Language Teaching. Cambridge: Cambridge University Press. page 162



TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Avezmuratova Zumrad Shamurotovna

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi

23-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Tel:90-439-94-60//zumradavezmurotova@gmail.com

Annotatsiya:Ushbu maqolada ta'lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar:reproduktiv, evristik, kreativ va STEAM yondashuv,TSO

Hozirgi kunda interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi talabalarni faqat tayyor bilimlarini egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularning egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, taxlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanish, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi, talaba asosiy figuraga aylanadi. Shuning uchun oliy o'quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o'qitish metodlari interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalarning o'rni va roli benihoya kattadir. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o'quvchi talabalarning bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi. Innovatsiya- (inglizcha innovation)-yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi: -O'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi; -O'quvchi-talabalarning o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi-Pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyati tashkillanishi. pedagogik texnologiyalar masalalari, muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq hamda o'qitish jarayonida qo'llanilishi zaruriyati bo'lgan TSO, kompyuter, masofali o'qish yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Bizning fikrimizcha, pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi bu o'qituvchi va o'quvchi-talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatni tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijobiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlari xulosa qila olsalar, o'zlariga, guruhga, gurug esa ularga baho bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha anashu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-talabaning ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Maqsadni amalga oshishi va kafolatlangan natijaga erishish, ham o'qituvchi, ham o'quvchining hamkorlikdagi faoliyati hamda ular qo'ygan maqsad, tanlangan mazmun, metod, shakl, vositaga, ya'ni texnologiyaga bog'liq. O'qituvchi va o'quvchi talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tamonning asosiy maqsadi aniq: natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi –talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan, natijaga erishish uchun balkim kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'ladi, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq. Shu bilan bir qatorda, o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi



o'quv predmetining o'ziga xos tamoni, joy va sharoitni, TSO ni, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olishi kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, o'quvchi talabani ta'limning markaziga olib chiqishi kerak. O'qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olishi zarur. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olishi katta ahamiyatga egadir. Chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir dars uchun o'qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, o'quvchi talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. O'qituvchi tomonidan o'zi o'qiyotgan fanning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha tuzilgan yuqoridagi kabi texnologik karta unga fani, predmetini yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishga, yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tarqatib, erishiladigan natijasiga ko'ra olishiga yordam beradi. Ayniqsa texnologik kartani o'quvchi talabaning imkoniyati, ehtiyojidan kelib chiqqa holda tuzilishi uni shaxs sifatida ta'limning markaziga olib chiqishga olib keladi. Bu esa o'qitishning samaradorligini oshirishga imkon yaratadi. O'qitish jarayonida o'quvchi talabalarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqod ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan keng foydalanishga, eng asosiysi fanga, pedagogika va o'zi tanlagan kasbiga bo'lgan qiziqishlarni kuchaytiradi. Bunday natijaga erishish o'quv jarayonida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo'llashni taqozo etadi. Foydalanilgan adabiyotlar: 1. PISA – 2015 Science Framework, OECD, 2017.



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ILG‘OR PEDTEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH BO‘YICHA USLUBIY TAVSIYALAR

Bekbenbetova Bayan Risbayevna

Navoiy viloyati Tomdi tumani 3-umumta’lim maktabi boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

*Ilmdan yaxshiroq xazina bo‘lmas,
Qo‘lingdan kelgancha tera olsang bas.
Abdulloh Rudakiy*

Annotatsiya: Boshlang‘ich sinflarda ilg‘or pedtexnologiyalardan foydalanish bo‘yicha interfaol usullar ushbu uslubiy tavsiyada aks etgan.

Kalit so‘zlar: yarimta harf, ma’lumotnoma, axborot uzatish, to‘g‘risini yoz....

Boshlang‘ich sinflarda yangi pedagogik texnologiyalar vositasida o‘quvchilarni hurfikrli, sog‘lom dunyoqarashli, vatanparvar, elim deb, yurtim deb yonib yashovchi komil insonlar qilib tarbiyalash bugun oldimizda turgan muhim vazifadir. Bu vazifani bajarishda ilg‘or pedtexnologiyalardan foydalanishning o‘rni juda katta. Quyida shunday usullardan bir nechtasini taqdim etishni joiz topdim.

”Ekspress savol-javob” usuli.

Bu usulda tezkor savollar beriladi va o‘ylashga vaqt berilmaydi.

Masalan: 1.Bugun haftaning nechanchi kuni?

2.O‘zbekiston Respublikasining milliy davlat ramzlari qaysilar?....

“Ma’lumotnoma” usuli. Bunda o‘quvchilar rasm asosida gap tuzadilar va bog‘lanishiga ko‘ra aytadilar.



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:



- Yashash joyi:
- Yashash tarzi:
- Oziqlanishi:

“Beshinchisi ortiqcha” usuli. O‘quvchilarga quyidagi vazifani bajarish topshiriladi: berilgan tushunchalar ro‘yxatidan mavzuga taalluqli bo‘lmagan tushunchalarni aniqlanib, ularni ro‘yxatdan chiqariladi va nima uchun chiqargani izohlanadi.





“Yarimta harf” usuli. Bir o‘quvchi doskaga biror harfning boshlanish qismini yozib qo‘yadi, harfning qolgan yarim qismi aytilmaydi ham, yozilmaydi ham. Ikkinchi o‘quvchi shu harfning nomini aytib, yozuvni oxiriga yetkazishi kerak. O‘rganilgan bir nechta harflarni ham shu taxlit yozish mumkin. Shu o‘rinda yozish usuli chiziqlar bilan ko‘rsatilishi mumkin. Bu qo‘l harakatining to‘g‘ri yo‘nalishini ta‘minlaydi

“To‘g‘risini topib yoz” usuli. Bitta harf doskaga 3 – 4 xilda yozib qo‘yiladi Shulardan biri husnixat qoidalari asosida yoziladi. Doskadagi o‘quvchi to‘g‘ri yozilgan harfni topib, qayta yozib ko‘rsatishi lozim.

“Axborot uzatish” usuli.

Bu usul o‘quvchilarning xotira, nutq, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish, o‘zaro do‘stona munosabatlar o‘rnatish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun eng qulay didaktik vosita hisoblanadi.

Masalan, bir o‘quvchi muayyan bir buyumning nomini aytib, qo‘lidagi koptokchani yonidagiga uzatadi. U esa qisqa muddat o‘ylab, ikkinchi bir so‘zni aytadi. Bu so‘zlar tematik jihatdan bir guruhga mansub bo‘lishi lozim. Koptokchani olgan navbatdagi o‘quvchi ma‘no jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan ikkita so‘zni aytib, oldingilariga qo‘shishi lozim.

1-o‘quvchi: o‘qituvchi,

2-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor

3-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor, injiner

4-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor, injiner, binokor

5-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi

6-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi, haydovchi

7-o‘quvchi: o‘qituvchi, shifokor, injiner, binokor, tikuvchi, haydovchi, satarosh

“ALOQA” METODI.

Har hafta darsingizda bir passiv o‘quvchini tanlab olasiz va hafta davomida darslaringizda ko‘proq unga e‘tibor qilayotganingizni bildirasiz. O‘quvchida beixtiyor ichki energiya hosil bo‘ladi va yaxshi pozitsiya bilan darsingizda faol bo‘lishni boshlaydi.



Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarimizni yuksak ma‘naviyatli, chuqur bilimli, keng mushohadali, ijodkor va eng asosiysi, savodxon qilib tarbiyalash har birimizning asosiy vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “O‘qituvchi nimalarni bilishi kerak?” (O‘quv-metodik qo‘llanma Toshkent – 2016)
2. Darsliklar bo‘yicha metodik qo‘llanmalar
3. ziyonet.uz



BOSHLANG‘ICH SINIF MATEMATIKA DARSLARIDA KREATIV FIKRLASHGA UNDOVCHI MANTIQUIY MASALALAR

Berdibekova Araylim Salauatovna

Navoiy viloyati Tomdi tuman
3-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida kreativ fikrlashga undovchi mantiqiy masalalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Kreativ, mantiqiy masalalar, kvadrat, doira, uchburchak, ko‘nikma.


Ta’limning asosiy roli o‘quvchilarni jamiyatda muvaffaqiyatga erishishlari uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar bilan ta’minlashdan iborat. Kreativ fikrlash bugungi yoshlarning rivojlanishlari uchun kerakli kompetensiya hisoblanadi. Bu

ularga globallashuv sharoitida jadallik bilan o‘zgarib borayotgan, savodxonlik va raqamlash ilgari surilgan hamda “XX asr” ko‘nikmalariga ega moslashuvchan ishchilarni talab qiladigan dunyoga moslashishga yordam beradi. Kreativ fikrlashni o‘rgatish bugungi kun o‘quvchilari va yoshlariga dolzarb muammolarni yechish uchun yangi texnologiyalardan foydalangan holda hali yaratib ulgurilmagan sektorlarda yoki vazifalarda ishlash, shu bilan birga mashinalar bajara olmaydigan ishlarni osonlikcha amalga oshira olish hamda murakkab mahalliy va global muammolarning yechimini topish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi.

Boshlang‘ich sinflarda mantiqiy fikrlashda qiziqarli masalalarning o‘rni katta. Quyida shunday mantiqiy masalalarni taqdim etmoqchiman:

1-masala. 4 dan 9 gacha bo‘lgan 6 ta sonni bo‘sh doirachalar ichiga shunday joylashtiringki, har bir qator yig‘indisi 17 taga teng bo‘lsin.

Javob:



2-masala. 12 ta shashka donasini uch qator qilib shunday joylashtiringki, har bir qatorda 5 tadan shashka donasi bo‘lsin.

Javob:

3-masala. Qushlar galasi uchub ketmoqda. Oldinda 1 ta qush, uning orqasida 2 ta qush. Orqada 1 ta qush, uning oldida 2 ta qush. O‘rtada 1 ta qush, uning oldida 1 ta qush, orqasida 1 ta qush. Qushlar galasida nechta qush bor?

Javob: 3 ta.

4-masala. 1 dan 9 gacha sonlarni kvadrat kataklariga shunday joylashtiringki, kvadratning har bir qatori va ustuni bo‘yicha sonlar yig‘indisi 15 ga teng bo‘lsin.

Javob:

4	9	2
3	5	7
8	1	6

4		

5-masala: Bobo 56 yoshda, nabirasi 14 yoshda. Necha yildan keyin bobo nabirasidan ikki marta katta bo‘ladi? Tanlash usuli bilan yeching.

Javob: 1) bobo va nabira yoshlarining farqi - $56 - 14 = 42$ (yosh);

2) nabira 42 yosh bo‘lganida boboning yoshi - $42 - 2 = 84$ (yosh);

3) bobo 84 yosh, nabira 42 yosh bo‘lguncha o‘tadigan vaqt - $42 - 14 = 28$ (yil).



6-masala: Palov tayyorlash uchun guruch va sabzi baravar solinadi. Go'sht guruchdan 2 marta kam, yog' guruchdan 4 marta kam, piov esa guruchdan 8 marta kam ishlatiladi. Agar 8 kg guruchdan palov tayyorlanmoqchi bo'linsa, sabzi, go'sht, yog' va piyozning har biridan necha kilogramm sotib olinishi kerak?

Javob: sabzi guruchga teng $8 = 8$ (kg);

go'sht $8:2 = 4$ (kg);

yog' $8:4 = 2$ (kg);

piyoz $8:8 = 1$ (kg).

7-masala: 0 dan 8 gacha sonlarni kvadrat kataklariga shunday joylashtiringki, kvadratning har bir qatori va ustuni bo'yicha sonlar yig'indisi 12 ga teng bo'lsin.

Javob:

7	0	5
2	4	6
3	8	1

	4	

8-masala: Nodir akasidan 6 yosh kichik. Akasi 3 yil avval 8 yoshda edi. Hozir Nodira necha yoshda?

Javob: hozir akasining yoshi $-8 + 3 = 11$ (yosh);



hozir Nodiraning yoshi $- 11 - 6 = 5$ (yosh).

9-masala: Bir odamning 17 ta tuyasi bor edi. U katta o'g'liga tuyalarning yarmini, o'rtanchasi-ga uchdan birini va kenjasiga to'qqizdan birini vasiyat qilib qoldirdi. O'g'illari tuyalarni qanday qilib bo'lib olishni bilmay turganlarida tuya mingan donishmand kelib qoldi. Donishmand tuyalarni o'g'illariga bo'lib berdi. Qanday qilib?

Javob: Donishmand o'z tuyasini ham qo'shgan. Shunda aka-ukalardagi tuyalar 18 ta bo'lgan. Katta o'g'il 18 ta tuyaning yarmisi - 9 ta tuyani, o'rtancha o'g'il 18 ta tuyaning uchdan biri - 6 ta tuyani, kichik o'g'il 18 ta tuyaning to'qqizdan biri - 2 ta tuyani olgan. Ortib qolgan 1 ta tuyaga, ya'ni o'z tuyasiga mi nib, donishmand yo'lini davom ettirgan.

10-masala: 1 dan 9 gacha bo'lgan sonlarni charxpalak doirachalariga shunday joylashtiringki, har bir to'g'ri chiziqli bo'ylab joylashgan 3 ta son yig'indisi 15 ga teng bo'lsin.

Javob:



Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mantiqiy materiallariga oid tushunchalar, so'zlar, ifodalar va vositalar o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Afonina S.L. "Matematika va go'zallik" Toshkent, "O'qituvchi", 1987.

2. A'zamov A., Yusupov A. "O'quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish" Toshkent. 2002-yil



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI HUSNIXATGA O'RGATISH USUL VA VOSITALARI

Eshbayeva Olmos Abdullayevna

Toshkent viloyati Olmaliq shahri

15-umumiy o'rta ta'lim maktabi

Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada husnixat va uning inson hayotida tutgan o'rni va ahamiyati haqida hamda boshlang'ich sinflarda husnixat darslarni tog'ri tashkil etish metodikasi va bu o'rinda o'quvchilarning chiroyli yozuvini shakllantirishda pedagoglarning ishtiroking naqadar muhim omil ekanligi haqida fikr – mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: Ko'chirish metodi, chiziqli metod, genetik metod, daftar tutish gigiyenasi, sharikli ruchka, namunaga qarab yozish, namunaga qarab ko'chirib yozish, nusxa ko'chirish, tasavvur orqali yozish, harflarning shaklini tahlil qilish, yozuv malakasini ongli o'zlashtirish, sanoq-ohang usuli, xatolar ustida ishlash.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu ikki shaklining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib, ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitishtirish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq davrlar mobaynida saqlanadi. Yozuv tufayli kishilar fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Demak, yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega. Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rgatish boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qituvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak.

Husnixatga o'rgatish metodlari: Ko'chirish metodi, chiziqli metod, genetik metod. Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari: namunaga qarab yozish, namunaga qarab ko'chirib yozish, nusxa ko'chirish, tasavvur orqali yozish, harflarning shaklini tahlil qilish, yozuv malakasini ongli o'zlashtirish, sanoq-ohang usuli, xatolar ustida ishlash. Bular o'z navbatida husnixat darslarining asoslarini tashkil etadi.

Husnixat darslarini samarali tashkil etish uchun quyidagi tavsiyalarga amal qilish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Birinchi o'rinda, o'quvchilarni chiroyli yozuv texnikasiga o'rgatish lozim. Buning uchun esa yozuv uchun qulayligi, ingichka, yengilligi ruchkani barmoqlar orasida ushlash, ruchka uchi bilan ko'rsatkich barmoq orasida 1,5-2 sm oraliq qolishi. Ruchkaning pastasi - siyohi binafsha rangda bo'lishi, o'qituvchining tekshiradigan pastasi qizil rangda. Ruchkani penalda yoki partadagi maxsus joyda saqlash. O'qituvchi stolida lozim bo'lgan paytda foydalanish uchun ruchka, sterjenlar bo'lishi lozimligi.

Budan tashqari dars jarayonida o'qituvchiga qo'yiladigan talablar ham mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- sinfda o'quvchilar ish joyini to'g'ri tashkil etish;
- partaga o'tirish gigiyenasi to'g'ri tashkil etish;
- jismoniy mashq lahzalarini tashkil etish;
- yozuv qurollari va ulardan foydalanish talab va qonuniyatlari o'quvchiga o'rgatish;
- sharikli ruchkalardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;
- daftardan to'g'ri foydalanishga o'rgatish;

Boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini tashkil etishda dars jarayoni sinflar kesimida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, 1-sinfda yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlar siyrak bo'lgan 2 chiziqli daftar, 2-4 sinflarda chiziqlar orasi 8 mm bo'lgan 1 chiziqli daftar tutilishi. Kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm, raqamlarning bo'yi harflardan 2 marta qisqa bo'ladi. 1-2-sinfda husnixat uchun maxsus alohida daftar, 3-4-sinfda ona tili daftariga yozadilar. 1-sinfda «Husnixat» predmeti 2-yarim yilidan boshlanadi, daftarga sana, oy yoziladi. Xat boshiga qat'iy amal qilinadi, hoshiya bo'lishi shart. Sarlavha bilan matn orasida



qator qoldirmaslik. O'qituvchi xatolarni to'g'rilash yo'lini o'quvchiga o'rgatishi (xato harflaming ustidan chiziq tortib, ustiga to'g'risini yozishi). Daftarni har uy vazifasidan so'ng yig'ib tekshirishi va baholashi lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. X.G'ulomova, SH.Yo'ldosheva, G.Mamatova, H.Boqiyeva, N.Sobirova. “Husnixat va uni o'qitish metodikasi”. Toshkent, 2008.
2. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A. “Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari” (Metodik qo'llanma). -Toshkent: Turon Zamin Ziyo nashriyoti, 2017.



BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA FANINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Eshonxo'jayeva Zahro Habibullayevna

Toshkent viloyati Zangoita tumani

38 – IDUM boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda matematika fanini o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: maktab ta'limi, pedagogik texnologiyalar, aqliy hujum, zinama – zina, zig-zag, 6 x6 x6 x6, kasbiy mahorat.

Maktab, ta'lim – tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo'lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo'yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo'llab – quvvatlashini talab qiladigan umumiy masaladir. Hozirda har bir maktabda ta'lim – tarbiya saramadorligini oshirish jiddiy vazifa bo'lib turibdi. Buning uchun har bir o'qituvchi o'z fanini o'qitishning eng samarali zamonaviy pedagogik texnologiyalarini puxta bilishi va bu sohadagi yangiliklarni uzluksiz o'rganib borishi orqali o'z kasbiy mahoratini muntazam oshirib borishi talab qilinadi. O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi uch omil bilan belgilanadi:

- A) Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
- B) Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
- C) Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:
a) O'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar tizimini berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida o'quvchilarga yetarli darajada ma'lumot berishi, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarining ishonchli ekanligini tekshirib bilishga o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak. O'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degan so'z o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir. O'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi

Bunday bilim berish orqali o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy fikrlashlari yanada rivojlanadi. Hozirda ta'lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya usullarini joriy qilishdan iboratdir. Barcha fan o'qituvchilari shu jumladan boshlang'ich sinf o'qituvchilari ham dars mashg'ulotlari jarayonida interfaol metodlardan borgan sari keng ko'lamda foydalanmoqdalar.

Boshlang'ich sinflarda qo'llanadigan texnologiyalaridan foydalanishning maqsadi: O'quvchilarda hozir javoblik hissini rivojlantirish, bahs-munozara, erkin fikrlashga asoslangan tafakkur tarzini shakllantirishdan iborat. Hozirda keng qo'llanib kelayotgan interfaol metodlar turlari juda ko'p bo'lib, ularning hammasi ham boshlang'ich ta'limda qo'llash uchun yaroqli emas. Bunga 1-navbatda boshlang'ich sinf o'quvchisining o'qish, yozish tezligining kichikligi va sinfda aksariyat hollarda 30 tadan ortiq o'quvchi o'qishi bo'ladi. Interfaol metodlar nisbatan kichik auditoriyalarga (30 tagacha) va ko'proq uzluksiz ta'lim tizimining o'rta va yuqori bo'g'inlariga mo'ljallangan bo'lib, boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribalari juda kam. Shuning uchun yangi texnologiyalarning faqat boshlang'ich sinf matematika darslarida qo'llash mumkin bo'lganlari haqida so'z yuritamiz. Interfaol metod sinfda o'tiladigan mavzular yuzasidan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli qilishda -Aqliy hujum, -Adashgan zanjirlar, -Savol bering, -Insert, BBB, -Bahs – munozara, -Muammoli savollar, -Kichik guruhlarda ishlash, -Burchaklar metodi-, -Kubiklar metodlari asosida bahs, munozara orqali ularni yechimini topishda yaqindan yordam beradi. “Aqliy hujum”



texnologiyasini qo‘llash bir muammoni hal qilish yo‘lidan turlicha va iloji boricha ko‘proq taklif, fikr – mulohazalarni yig‘ishdan iborat. Avvaliga har qanday takliflar qabul qilinadi. Keyin esa, ularning ichidan eng ma‘qulini tanlab olinadi. Bu metodni qo‘llashda eng nozik tomoni hamma takliflarni -Eslab qolishdir. Shuning uchun ularni yozib borish kerak bo‘ladi. O‘qituvchi ularni shartli belgilar va qisqartirishlar bilan doska yoki vatman qog‘ozga yozib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayidaxmedov N.S. Oliy pedagogik ta'limda integral texnologiyalar.
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar.



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ YOSHIDAGI BOLALARNI BOG'LANISHLI NUTQQA O'RGATISH

G'affarberganova Shohida

Xorazm viloyati Hazorasp tumani

Pedagogika kolleji o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni bog'lanishli nutqqa qanday qilib o'rgatish bo'yicha malasalar ko'rib chiqiladi. Ularga qo'yiladigan talablar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *monologik nutq, dialogik nutq, xulosa chiqarish, muhokama qilish, umumlash-tirish, suhbat.*

Har bir bola bog'chada o'z fikrini mazmunli, grammatik jihatdan to'g'ri, bir-biriga mantiqan bog'langan holda bayon etishga o'rganishi kerak. Bog'langan nutqda bolaning mantiqiy tafakkuri, idrok qilganlari yuzasidan fikrlay olishi va mantiqiy nutqda uni to'g'ri, aniq bayon etishi aks etadi. Bolaning o'z fikrini bayon etishiga qarab, nutqining rivojlanganlik darajasini belgilash mumkin. O'z fikrini aniq, ifodali, izchillik bilan bog'lab bayon eta olishi bolaning estetik rivojlanishida katta ahamiyatga ega. Bog'lanishli nutq deganda, ma'lum bir mazmundagi fikrni mantiqan bir-biriga bog'lab, izchil ravishda, grammatik jihatdan to'g'ri va obrazli qilib bayon qilish tushuniladi. Bolalarda bog'lanishli nutqning rivojlanishi ona tiliga o'rgatishning quyidagi vazifalarini ham hal qiladi:

1) lug'at ishini (keng so'zlar to'plami va undan foydalana olish, fikrni aniq va to'liq ifoda etishga yordam beradi);

2) nutqni grammatik jihatdan to'g'ri shakllantirishni (o'z fikrini sodda va yoyiq, ergashgan va bog'langan qo'shma gaplardan, son, sifat, kelishik qo'shimchalaridan to'g'ri foydalanib bayon etish);

3) nutqning tovush madaniyatini tarbiyalashni (nutqning aniq, ma'noli, burro bo'lishi).

Nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud bo'lib, ularning har qaysisi o'z xususiyatiga ega.

Dialogik nutq shakli (ikki yoki bir necha kishining suhbat, savollar va uning javoblari) bu to'liq bo'lmagan (qisqa) javobdir. Dialogik nutqning asosiy belgilari — toliq bo'lmagan, undov so'zlardan iborat, aniq intonatsion manodorlik (ifodalash), imo-ishora va boshqalardir. Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e'tirozni bildirish, suhbatdoshining javobini tuzatish va to'ldirish, muhokama va munozara qilish, o'z fikrini asoslash va boshqalar juda muhimdir.

Monologik nutq bir kishining nutqi bolib, so'zlovchidan keng, aniq, to'liq bog'langan fikrni talab etadi. Monolog hikoya tushuntirish, so'zlovchidan o'z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-hayajon bilan gapirishni talab etadi. V.Tixeyeva, A.Sh.Usova, A.M.Muxina, L.A.Penevskaya, M.M.Konina, O.I.Solovyova va boshqalarning bog'lanishli nutq sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirishda tarbiyachining rahbarlik roliga katt ahamiyat beradilar. Ular: «agarda bog'lanishli nutqqa qaratilgan mashg'ulotlar uzluksiz (sistemali) tarzda olib borilsa, unga tarbiyachi ongli ravishda rahbarlik qilsa, bolalarda o'z fikrlarini bir-biriga bog'lab gapirish malakasi rivojlanadi», degan fikrni bayon etadilar. Kichik yoshdagi bolalarda nutqni tushunish takomillashadi (so'zli topshiriqlarni, kattalarning ko'rsatmalarini, murakkab bo'lmagan adabiy asar mazniunini tushunadilar). Endi nutq aloqa vositasigina bo'lib qolmay, balki kattalarning so'z orqali tushuntirishlari yordamida bilimlarni egallash manbayiga aylana boshlaydi. Bolaning kattalar, tengdoshlari bilan bo'ladigan ancha murakkab va turli xildagi muomalasi nutqning rivojlanishi uchun qulay sharoitlarni vujudga keltiradi: tasavvurlarini boyitadi, lug'atini kengaytiradi. Ko'p harakatlar qilishi natijasida uning nutqi fe'llar, olmoshlar, ravishlar, old qo'shimchalar bilan boyiydi. Turli so'zlardan va ularning turli tartibidan foydalanib, oddiy gaplar tuza boshlaydi: Behzod cho'miladi; Sayrga chiqaman; Sutni men ichmayman.

Uch yoshli bolalar uchun oddiy shakldagi dialogik nutq (savollarga javob) xosdir. Biroq ular endi o'zlarining fikrlarini bog'lab bayon etishni o'zlashtira boshlaydilar. Ular o'z nutqlarida juda ko'p xatolarga yo'l qo'yadilar: gapni noto'g'ri tuzadilar, buyumlarning harakatini, sifatini noto'g'ri aytadilar. Bolalarni so'zlashuv nutqiga o'rgatish va uni rivojlantirish monologik nutqni shakllan-



tirishning asosi hisoblanadi. O'rta guruh yoshidagi bolalarda bog'lanishli nutqning rivojlanishida ular lug'atida 2,5 mingtagacha so'zlarning bo'lishi va ularni faollashtirish katta ahamiyatga ega. Bu yoshdagi bola kattalar nutqini tushunibgina qolmay, balki o'z nutqida buyumlarning belgilarini, sifatini bildiruvchi so'zlarni, vaqtni va oddiy munosabatlarni aks ettiruvchi ravishlarni ishlata boshlaydi.

4 -5 yoshli bolaning dialogik nutqida savolga to'liq, keng javob berish talab etilsa-da, to'liq bo'lmagan jummalarni ishlatish hollari juda ko'p uchraydi, mustaqil javob berishda qiynaladilar, ko'pincha ular tasdiq shaklidagi savollardan foydalanadilar, savollarni to'g'ri tuza olmaydilar, o'rtoqlarining javobini tuzatish va to'ldirishga qiynaladilar. Ergashgan qo'shma gaplarni ishlatishda asosiy qism (shuning uchun, nima, qachon) tashlab ketiladi. Bolalar sekin-astalik bilan surat va o'yinchoqlar asosida mustaqil ravishda uncha katta bo'lmagan hikoyalar tuza boshlaydilar. Biroq ularning hikoyalari ko'pincha kattalar hikoyasining aynan nusxasi bo'ladi. Ular hali kerakli narsani keraksizdan, muhimni ikkinchi darajalidan ajrata olmaydilar. Katta guruh yoshidagi bolalarda bog'lanishli nutq ancha rivojlangan bo'ladi. Ular umumlashtirish, xulosa chiqarish, muhokama yuritish kabi malakalarga ega bo'lishadi. Dialogik nutqlarga, savollarga aniq, qisqa yoki keng tarzda javob bera oladilar. Savollarni to'g'ri tuza olish malakasi paydo bo'ladi, kerak paytda luqma tashlash, o'rtog'ining javobini to'ldirish va tuzatish kabi xususiyatlar rivojlanadi. Ularda katta kishilarning ta'siri ostida fikr yuritish faoliyati takomillashadi, uning mazmuni va shaklida o'zgarish yuz beradi. Narsa -buyumlardagi yoki hodisalardagi eng muhim belgilarni aytib berish malakasi shakllana boshlaydi. 5-6 yoshli bolalar suhbatda va so'zlashishda faol ishtirok etadilar: tortishadilar, muhokama qiladilar, o'z fikrlarini asosli deb biladilar, o'rtoqlarini bunga ishon tiradilar. Endi ular narsa-buyumlarning, hodisalarning nomlarini aytish bilangina chegaralanmaydilar, balki ularning eng xarakterli belgilarini, sifatlarini aytadilar, narsa- buyumlarni yoki hodisalarni yetarli darajada to'liq tahlil qiladilar. Buyumlar va hodisalar o'rtasidagi ba'zi bir bog'lanishlarni belgilay olish malakasi bolalarning monologik nutqida o'z aksini topadi. Bu yoshga kelib ularning nutqida ergashgan qo'shma gaplar paydo bo'la boshlaydi, to'liq bo'lmagan va oddiy gaplar miqdori kamayadi. Taklif etilgan mavzuda tasviri va voqeiy hikoya tuzish malakasi paydo bo'ladi. Biroq bu yoshda ham bolalar tarbiyachining namunasiga muhtoj bo'ladilar. Ularning hikoyasida tasvirlanayotgan narsa- buyumga yoki hodisaga o'zining emotsional munosabatini bildirish hali yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Bolalarda bog'lanishli nutq mashg'ulotlar va kundalik hayot jarayonida rivojlantiriladi. „ Bolalar bog'chasida ta'lim -tarbiya dasturi“ning kichik guruh bolalarini hikoya qilishga o'rgatish bo'limida bog'lanishli nutqni rivojlantirishga yordam beruvchi tayyorgarlik ishlarini olib borish ko'rsatilgan. Ayniqsa, ushbu guruhda so'zlashuv nutqini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Shuning uchun kichik yoshdagi bolalarning har bir aytgan fikriga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lib, uni qo'llab-quvvatlash kerak. Avval bolalarni so'z yordamidagi topshiriqlarni (o'yinchoqni olib kelish, nimanidir ko'rsatish yoki suratdan kimnidir, nimanidir ko'rsatish) bajarishga, so'ngra tarbiyachining savollariga javob berishga, uni tinglashga, ertakdagi ayrim qahramonlarning ashulalarini tarbiyachi bilan birgalikda takrorlashga o'rgatiladi. Bu yoshdagi bolalarga beriladigan savollar bola uchun aniq va tushunarli bo'lishi kerak. („ Sen qanday o'yinchoqlarni yaxshi ko'rasan? Bu o'yinchoq haqida gapirib ber. Bu suratda nima tasvirlangan? “).

O'rta va katta yoshdagi bolalar monologik nutqning asosiy turi — hikoya va qayta hikoya qilish malakasini egallaydilar. Hikoya va qayta hikoya qilish bog'langan nutqning eng murakkab turidir. Bolalarda bog'lanishli nutqni rivojlantirish ularni hikoya qilishga o'rgatish orqali amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maktabgacha ta'lim Konsepsiyasi. -T., 2011.
2. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T., „Sharq“, 1997- y.
3. Abdullayeva Q. Nutq o'stirish. T. „O'qituvchi“, 1980- y.
4. Asqarova M., Abdullayev K., Omitxonova M. O'zbek tili darsligi (7- sinf). T., „ O'qituvchi“ , 1974- y.
5. Internet manballari va b.



BOSHLANG‘ICH SINIF MATMATIKA DARSLARIDA QO‘LLANADIGAN O‘YINLAR

Jaqsibayeva Janna Manatovna

Navoiy viloyati Tomdi tuman

3-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu tavsiyada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida qo‘llanadigan o‘yinlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Mozaika, so‘z top, sen bo‘shsan, o‘ylab top, xotira mashqi....


Barchamizga ma‘lumki, interfaol usullardan foydalanish, darsda ta‘limiy didaktik o‘yinlarni qo‘llash darsni jonli tashkil etishni ta‘minlaydi. Shu bilan bir qatorda, avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o‘rtasida bog‘lanish hosil qilib, berilgan materialni to‘la tushunishga zamin yaratadi.

Interfaol usuldagi o‘quv jarayonida yakka tartibda, juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyihalar, rolli o‘yinlar, hujjatlar bilan ishlash, ijodiy ishlash kabi metodlardan foydalanish mumkin. Bu, ayniqsa, muayyan iqtidor sohibi bo‘lgan o‘quvchilarning qirralarini yaxshiroq ochishga uning ijodkorligini rivojlantirishga imkon beradi.

Quyida tavsiyada boshlang‘ich sinflarda matematika darslarida qo‘llanadigan o‘yinlar haqida to‘xtalib o‘tishni joiz topdim:


«**Mozaika**» o‘yini. Biror qoida alohida qilib qirgilgan kartochkalarga yoziladi. O‘quvchi ularni to‘g‘ri joylashtirib qoidani o‘qib berishi lozim.

Rasmlar qirqib qoviladi. O‘quvchi rasmni birlashtirib o‘sha rasmda tasvirlangan narsa haqida gapirishi kerak.



Masalan: Uchburchak. To‘rtburchak, aylana, konus. Buxoroning qadimgi yodgorliklari va hokazo rasmlar olinishi mumkin. Bu rasmlar orqasida savollar, masala va boshqa qiziqarli topshiriqlar yozilishi mumkin.

O‘qituvchi ekran orqali so‘z top mashqini o‘quvchilarga namoyish qiladi.



«**O‘ylab top**» o‘yini. Sinf 2 guruhga ajratiladi. Bolalar bir-biriga qarab saflanadi. Birinchi guruhdagi o‘quvchi bitta matematika fanidan termin aytadi. Ikkinchichi guruhdagi birinchi o‘quvchi uning oxirgi harfiga boshqa matematika faniga doir terniin aytadi. Agar aytolmasa o‘yindan chiqadi. O‘yin shunday davom etadi. To oxirgi o‘quvchigacha. O‘yindan chiqqan o‘quvchi o‘yin tugagandan so‘ng o‘z mahoratini ko‘rsatadi. Oxirida o‘yin haqidagi fikrlar so‘raladi.

«**Sen bo‘shsan**» o‘yini. O‘yinda 3 ta bola qatnashadi. Boshqaruvchi tomonidan ketma-ket bolaning ismini aytgan holda savollar beriladi. Ular javob beradilar. Mabodo javob bermasa qolgan o‘tirgan o‘quvchilardan so‘raladi. Har bir bolaga 5 ta dan savol berilgandan so‘ng ular o‘yindan



chiqarish uchun 1 kishining ismini yozadilar. Agar bittadan to'g'ri kelsa, o'sha o'yin davomida g'olib o'quvchi kimni chiqarish uchun ism aytadi. Keyin bola o'yindan chiqadi. Chiqish davomida nimani bilmadi va bilib olganligi haqida so'zlab beradi.

«**Mashina odam**» o'yini. Barcha 6 ta yoki 5. 4 tadan bo'lib o'ttigan bolalarga 3 daqiqa vaqt beriladi. Ular 3 minut davomida biror model, shakl, tushunchani OTtoqlariga namoish qilishni kelishib oladilar. Vaqt o'tgandan so'ng har bir guruhga navbat bilan o'zlarini tayyorlagan ishlarini namoish qiladilar. Qolgan bolalar qaysi model, shakl, tushunca haqida ekanligini aytadilar. Masalan: Bir o'quvchi chiqib, ikki qo'ini

yoyib ktrvsatadi.



Bolalar javoblaridan namunalar keltiramiz. 180 gradusli burchak. Simmetriya, odam boshini koordinata tekisligi deb olsak x-o'qi.

Xotira mashqi: Bunda sonlar aralash holda aytiladi. Bir ozdan so'ng so'ralib, o'quvchilar xotirasi sinalladi.

38	22	46	10	62	65	19
12	28	47	29	31	39	42
67	3	34	20	44	1	60
25	61	26	41	40	51	35
49	21	70	5	68	30	15
37	58	8	43	11	56	66
18	17	36	69	59	63	27

Tushib qolgan sonlarni toping. Javobi: 2,4,6,7,9,13,14,16,23,24,32,33,45,48,50,52,53,54,55,57,64.

“Kim topqir” o'yini.
Ikkita kesma chizib, kvadratni 8 ta bir xil uchburchakka ajratamiz

TOPSHIRIQNI BAJARING VA SIRLI SANDIQ SOVRINIGA EGA GO'LING



Demak ta'lim-tarbiyaning sifati, samaradorligi birinchi navbatda sifatli ta'limga bog'liq. Sifatli ta'lim esa xalqona tilda aytganda yaxshi muallimga, o'qituvchi va tarbiyachiga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Boshlang'ichi ta'lim” jurnali. 2010-yil, 3-son
2. Ma'rifat. “Dars muqaddas” tavsiyasi. 2011-yil, 9-noyabr



О‘QUVCHILARGA SHE’R O‘QITISH METODIKASI

Maxmudova Gulchehra Xoldarovna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani
3-son maktabning Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga she’r o‘qitish, yodlatish va uni tahlil qilish metodikasi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: She’r, tahlil, ohang, nutq, ifodali o‘qish, idrok, tuyg‘u, metod, so‘z.

She’r ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solingan, his-tuyg‘u ifodasi sifatida vujudga kelgan hayajonli ritmik nutqdir. She’riy nutqni ohang jihatidan ma’lum bir tartibga solish vositalari ritm va qofiya hisoblanadi.

She’rni o‘qiganda kichik yoshdagi o‘quvchilar tabiat va jamiyat voqea-hodisalarining poetik tasviridan hayajonlanishlari muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinflarda She’r tarzida yozilgan hikoyalar, ertaklar, ya’ni She’riy asarlar va lirik She’rlar o‘qitiladi. She’riy hikoya, She’riy ertaklarda syujet, ya’ni voqealar tizimi va uning rivoji xarakterlidir. Lirik She’r “biror hayotiy voqea-hodisa ta’sirida insonda tug‘ilgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg‘ular orqali turmushni aks ettiradi”. Lirik She’rning xususiyati “kishining his-tuyg‘uga to‘la hayajonli nutqini ta’sirliroq ifodalashda qo‘l keladi”.

She’rni o‘qish darslarida asosiy ish turi ifodali o‘qish hisoblanadi. O‘quvchi She’rning asosiy mazmunini tushunsagina, uni ifodali o‘qiy oladi. She’riy hikoyani tahlil qilishda asosan, hikoya, ertak, masalni tahlil qilishda qo‘llangan ish turlaridan foydalanish mumkin. Lirik She’rni o‘qish va tahlil qilish o‘qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Holbuki, ko‘p hollarda She’rga oddiy matn nuqtai nazaridan yondashiladi. Bunday holda She’riy san’at hissiyot bilan bog‘liq ekanligi unutiladi, She’r ma’nosining satrlar, so‘zlar zaminida yashirin berilishi anglab yetilmaydi. Buning oqibatida o‘quvchilar She’rdagi obrazlilikning mag‘zini chaqa olmaydilar. Vaholanki, har qanday asar zaminidagi yashirin ma’noni o‘qish mehnattalab ishdur. Busiz hatto adabiy ta’limning maqsadi ham amalga oshmaydi.

She’riy ohangni his qilmaslik, matn so‘zlarini to‘la tushunib yetmaslik She’r yodlashni zerikarli mashg‘ulotga aylantiradi.

Boshlang‘ich sinflarda ko‘rgazmali ta’limning asosiy shakli She’rni ifodali o‘qish hisoblanadi. Lirik She’rni ham o‘quvchilar hayajon bilan yaxlit idrok etishlariga erishish muhim. SHuning uchun She’r birinchi marta o‘qilganda, hech qanday tushuntirish berilmaydi. She’r o‘quvchilarga qanday ta’sir qilganini hisobga olish, bilish zarur. O‘qituvchi She’rni shunday ifodali o‘qishi kerakki, bolalar uning asosiy mazmunini angulasinlar, ularga jonli so‘z kuchliroq ta’sir etsin. So’ngra She’rni mustaqil o‘qish topshiriladi. O‘qish oddiy bo‘lishi kerak. O‘qiyotganda tabiiy zavq-shavq, shodlik, xursandlik, qahr-g‘azab hissini qichqiriq ovoz bilan soxta ifodalashga yo‘l qo‘ymaslik zarur. Bolalar She’rni o‘qiganda, She’riy satrga rioya qilishlari kerak, bu jarayonda ularning She’r ritmini buzmasliklariga erishish kerak. She’r matni ham savollar asosida tahlil qilinadi. Ammo, She’r mazmuni haqida o‘quvchilarga ko‘p savol berish tavsiya etilmaydi. O‘quvchilar She’rning asosiy mazmunini tushunganliklariga ishonch hosil qilishning o‘zi kifoya.

Shuni ham aytish kerakki, bolalar hayoti, ularning o‘ziga xos fikrlari, his-tuyg‘ulari, qiziqishlarini ifodalovchi, shuningdek, zamonamiz qahramonlari, o‘zbek xalqi, Vatan himoyasi, xalqimizning qahramonona ishlari haqidagi She’rlar mazmunini to‘liqroq tahlil qilish talab etiladi. Bunday She’rlarni o‘qishga maxsus tayyorlaniladi: She’r mazmuniga asos bo‘lgan tarixiy voqea haqida qisqacha so‘zlab beriladi yoki suhbat o‘tkaziladi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan ko‘pgina She’rlarni tahlil qilib, ifodali o‘qish mashq qilingach, ifodali yod aytib berish vazifasi topshiriladi. She’riy nutq yengil yodlab olinadi, bolada estetik his-tuyg‘u uyg‘otadi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar saviyasiga mos bolalarbop ravshan til bilan yozilgan sodd ritimli jarangdor She’rlarni bolalar tez va oson yodlab oladilar.

Kichik yoshdagi o‘quvchilarga She’rni qanday yodlash kerakligi o‘rgatiladi. Buning uchun o‘qituvchi o‘quvchilar bilan She’rni teng satrli bir necha qismga bo‘ladi. O‘quvchilarga har bir satr oxirida pauza (to‘xtam) qilish, buning uchun satr oxirida tinish belgisi bo‘lishi shart emasligi, ritmik to‘xtamda ovozni nuqtadagi kabi pasaytirmaslik lozimligi, bu tugallanmagan fikrni davom ettirishga imkon berishi tushuntiriladi va bo‘lingan qismlar navbati bilan yodlatiladi.



Epik (voqeiy) She'rlar yoki She'riy usuldagi adabiy ertaklar kishilar hayotida yuz bergan yoki yuz berishi mumkin bo'lgan biror voqeani umumashtirgan holda ifodalash bilan hikoyalarga o'xshaydi. Voqealarni ifoda etuvchi vositalarning ohang jihatdan tartibga solinishi, kichik bo'laklarning izchil va bir me'yorda takrorlanishi, misralarda ohangdosh so'zlarning qo'llanishi bilan She'riy nutq sanaladi. SHu sababli bunday asarlarni o'rganishda She'r va hikoya ustida ishlash metodikasidan foydalaniladi.

Epik She'rlarni o'qishga o'quvchilar alohida tayyorlanadi, ularda ifoda etilgan voqealar yuz bergan davr haqida tasavvur hosil qilinadi. Bunday She'rlarning mazmuni qay darajada o'zlashtirilganligiga ham alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bunda ta'limiy vositalar-rasmlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Asar matni ustida ishlashda uni qismlarga bo'lish, har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlash, reja tuzish va qayta hikoyalash, qahramonlarga tavsif berish va tarbiyaviy xulosalar chiqarish kabi tahliliy ishlar amalga oshiriladi.

Epik She'rlarning nasriy asarlar kabi tuguni, kulminatsion nuqtasi, yechimi mavjud bo'ladi. Shu sababli asar mazmuni savol-topshiriqlar orqali tahlil qilinadi. Savol-topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ham tuzilishi mumkin. Bunday she'rlarni tahlil qilish asar voqealari jarayonida qahramon holatlarini o'quvchi ko'z oldida yaqqol gavdalandirish imkonini beradi. Bunda ayrim epizodlarga rasmlar ham chizdirish mumkin. Epik She'rlarning badiiy til vositalari ma'nolarini ochish, ohangdosh so'zlarni aniqlash, band va misralar, bo'g'inlar sonini belgilash, ifodali o'qish, ayrim epizodlarni yod oldirish kabi ish turlari qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi
2. U.Masharipova. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma.
3. Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklari.



MUSIQA O'QITISH METODLARI

Maxsudova Dilafruz Namozovna

Buxoro viloyati G'ijduvon tumani

4-makab musiqa fani o'qituvchisi

(+998912413536)

Annotatsiya: Musiqiy tarbiya insonni go'zallikka yetaklovchi bir vosita bo'lib, u insonning estetik va emotsional xususiyatlarini shakllantiradi. Haqiqiy musiqa asarlari zamonning estetik-axloqiy va siyosiy g'oyalarini umumlashtiradi.

Kalit so'zlar: Musiqiy madaniyat, etika, estetika, obrazlilik, metod, didaktika, pedagogik mahorat.

O'qituvchi bilan o'quvchining o'quv vazifalarini hal etishga qaratilgan o'zaro bog'langan faoliyati yo'llari va usullarini o'qitish metodlari deb atash qabul qilingan. Metodlar pedagogning asboblari. U metodlardan foydalanib bilim beradi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarini shakllantiradi hamda rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli hamma o'qitish metodlarini mukammal bilish va ulardan moxirona foydalanish pedagog uchun kasbiy zarurat va ayni vaqtda uning mahorat ko'rsatkichi hisoblanadi. O'quv materialining bitta mazmunining o'zi ta'limning turli vositalari yordamida turli usullar bilan o'zlashtirilishi mumkin. Shu sababli doimo o'qituvchi oldida muvaffaqiyatliroq va samaraliroq o'qitish hamda o'qishga yordam beradigan yo'llarni tanlash muammosi turadi. Musiqa faoliyati turlarini o'zlashtirishning turli shakllarini qidirish musiqa darsining maqsadlari, vazifalarini anglab olishdan boshlanadi. Masalan, qo'shiq aytish qoidasini tushuntirishdan avval u nima maqsadda bolalarni ifodali kuylashga o'rgatish uchunmi yoki ana shu qoida yordamida ularda badiiy didni shakllantirish uchunmi, yohud o'quvchining umumiy nutq madaniyatini oshirish uchunmi, o'rganilayotganini aniq bilishi kerak. Metod o'z tuzilishi jihatidan murakkab bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining ko'pgina jihatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, boshlang'ich sinflarda o'qitish metodlarini tanlash o'quvchining hissiy tajribasi asosida tafakkurning abstrakt shakllarini rivojlantirish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Metodlar o'quvchilar organizmining anatomik-fiziologik xususiyatlariga ham bog'liq bo'lib, musiqa darslari davomida ularning ish qobiliyatini, charchashini, organizmining nerv, tomir, suyakmushak, jinsiy tizimlari xususiyatlarini hisobga oladi. Musiqa o'qitish metodlari pedagogikada, maktabda, o'qituvchilar tajribasida tarkib topgan an'analarga ham bog'liq. Masalan, musiqa o'qituvchisi o'z ishiga individual tus bag'ishlaydigan muayyan metodlardan foydalanishni afzal ko'radi. Unga ko'pincha boshqa mukammalroq ish shakllariga o'tish qiyin bo'ladi. Yoki, aksincha, ish uslubi ilg'or tajribani o'rganish va umumlashtirish uchun asos bo'lib qoladi. Metodlarning klassifikatsiyasi shu tarzda kelib chiqadiki, bu narsa o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv metodlarini egallash shakllaridagi o'xshash va tafovut qiladigan jihatlarini chuqurroq anglab olishda hamda o'z o'qituvchilik faoliyatini muvaffaqiyatliroq tashkil etishda yordam beradi. Hozirgi vaqtda ta'lim nazariyasi va amaliyotida biiim olishning asosiy manbai bo'lgan o'qitishning og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlari keng tarqalgan. Agar o'quvchilar asosiy o'quv axborotini o'qituvchining og'zaki mulohazalari va isbotlari jarayonida yoki qo'shiq matnlari asosida olsalar, bunday metodlar og'zaki tushuntirish, hikoya, suhbat, izoh, sharx va xokazo metodlar jumlasiga kiradi.

Xulosa: Musiqa san'atining axloqiy-estetik tarbiyadagi rolini to'g'ri his etib, uning yosh avlodni tarbiyalashdagi ahamiyatini aslo unutmaslik zarur. Musiqiy go'zallik insonning ma'naviy qiyofasi shakllanishida muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.T.Ortiqov «Musiqa o'qitish metodikasi»
- 2.Internet ma'lumotlari.



KOMIL INSON SHAKLLANISHIDA OILADAGI AXLOQIY TARBIYANING O‘RNI

Otaboyeva Oysha Baxodirovna
Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani
20-son maktab psixologi
Telefon + 998 (94)113 39 49

ANNOTATSIYA: Hozirgi kunda yoshlarda axloqiy tarbiyaning roli alohida ahamiyatni kasb etmoqda. Mazkur maqola oilada axloqiy tarbiyaning ahamiyatini ochib beradi.

KALIT SO‘ZLAR: Axloq, komil inson, tarbiya, avlod.

Barkamol avlodni voyaga yetkazish barcha davrlarda ham o‘z dolzarbligi bilan ajralib turadigan axloqiy tarbiya haqida so‘z yuritilar ekan, avvalombor insoniyat paydo bo‘lishi bilan, hamisha odamiylik sha’niga yarasha xatti-harakat qilishga, o‘zida u yoki bu fazilatlarni mujassamlashtirishga intilib keladi.

Oilada bolalarni kichik yoshdan boshlab axloq me’yorlariga bo‘ysunishini, axloqiy fazilatlarni shakllantirishni asosan ota-ona tashkil qiladi. Axloqiy tarbiya deganda boladagi kamtarlik, xushmuomilalik hurmat o‘zaro insonparvarlik, burchga sadoqat, to‘g‘ri so‘zlik kabi fazilatlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Oilada axloqiy tarbiyani olib borish ota-ona va keksa avlod zimmasidagi vazifa hisoblanadi. Keyinchalik o‘quv maskanlarida axloqiy tarbiya murakkablashib, rejalashtirilgan holda olib boriladi.

Dona xalqimiz insonning baxtli, ko‘rki mehnatda deb bejiz aytishmagan. Kishi baxtiga halol mehnati tufayli erishadi. Bolaning yoshi va imkoniyatlariga to‘g‘ri keladigan har qanday mehnati tufayli erishadi. Bolaning yoshi va imkoniyatlariga to‘g‘ri keladigan har qanday mehnat uni chiniqtiradi, aqlini o‘stiradi hamda keyinchalik qiyinchiliklarni yenga oladigan kuchli, irodali qilib tarbiyalaydi. Shuningdek, axloqiy fazilatlarning kamol topishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bola tarbiyasida axloqiy tarbiya usullaridan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir. Bunda suxbatlashish, tushuntirish, namuna ko‘rsatish, rag‘batlantirish, jazolash kabi usullardir. Oilada ko‘proq ota o‘g‘il bolani, ona esa qiz bolani tarbiyalaydi. Ona o‘z qizini tarbiyalashda unda axloqiy sifatlarni shakllantirishi kerak. Qiz bola hayoli, iboli, pokiza, iffatli, odobli, mehribon bo‘lishi kerak. Otalar esa o‘g‘illarini mard, to‘g‘ri so‘z, bilimdon, epchil, g‘ururli, vatanga sadoqatli, yoru do‘stlarga vafodor qilib tarbiyalashi zarur.

Darhaqiqat, ota-onalarda tarbiyaviy ko‘nikmalar shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, har bir oiladagi ota-ona bola tarbiyasida, avvalo, ming yillardan beri avloddan avlodga o‘tib kelgan udumlarga, odatlarga, an’analarga tayanadi, bu esa ko‘p yillik tajribada isbotlangan to‘g‘ri yo‘ldir. Ota-ona oilada o‘z bolasini tarbiyalar ekan, bunda jamoatchilikning o‘ziga xos ahamiyati borligini inkor qilib bo‘lmaydi. Bola ana shu jamoatchilik yashaydigan muhitdagi umumiy ma’naviy-axloqiy normalar asosida tarbiyalanadi va oilada yetishib chiqqan shaxs bu jamiyat uchun xizmat qiladi.

Ayniqsa, hayotiy tajribaga ega bo‘lgan katta avlod vakillarining bolalarga maslahatlari, nasihatlar, afarizimlar, maqollar, matallar saqlanib qolgan. Ularda axloqiy yo‘l-yo‘riqlar axloq normalari ifodalangan. Noma’qul xatti-harakatlarni qoralashga, to‘g‘rilik, samimiylik va halollikni targ‘ib qilishga doir maqollar katta ma’naviy-tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatgan va bugungi kunda ham ko‘rsatmoqda. Yurtimiz ravnaqi yoshlarni o‘qish, izlanish va mehnatdan qochmaydigan, har qanday qiyinchiliklardan xayiqmaydigan, salbiy illatlarga nafrat bilan qarash ruhida tarbiyalashni talab qiladi.

Shunga ko‘ra bugungi O‘zbekiston zaminida yashayotgan har bir yosh kelgusida shu vatanning gullab-yashnashi haqida qayg‘urish, erishgan yutuqlarni mustaxkamlashi lozim. Axloqiy tarbiya vazifalaridan biri-ongli, intizomli bo‘lishdir.

Barchamizga ma’lumki, onglilik, intizomlilik kishining faoliyatda, xulq-atvorda, kishilar bilan aloqasida, umumiy dunyoqarashida namoyon bo‘ladi. Ongli, intizomli kishining madaniyatli, yaxshilik va yamonlik haqidagi ma’naviy boylik haqida tasavvurlari bilan u yoki bu tarzda bog‘langandir. Ongli, intizomli egasi bo‘lgan kishi o‘z axloqiy burchini to‘g‘ri anglaydi, o‘z xatti-harakatlariga baho beradi, noto‘g‘ri xatti-harakatlarni qoralaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng ta’lim-tarbiya mazmuni va mohiyati, usullari va shakllarida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ta’lim-tarbiyada milliy qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish asosiy o‘rin



egallaydi. Komil inson O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda o‘z e’tiqodi, g‘ayrat shijoati, madaniyati bilimi va ularni tatbiq etish mahorati bilan ajralib turadi. U jamiyatda, jamoada xalqlar va millatlar o‘rtasida do‘stlik, sog‘lom turmush tarzini yaxshilashga qaratilgan muhitni vujudga keltirishga intiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A “Barkamol avlod orzusi” T. “O‘zbekiston”. 1998-y
2. To‘rayeva O. “Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi”.G. “ O‘qituvchi”. 1998-y
3. Hasanboeva O.”Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi” G, “O‘qituvchi” 1998-y



BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUVCHILARGA MASAL O'QITISH METODIKASI

Safarova Gavxar Bozarovna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani

201-son maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada masalning o'quvchi tasavvurini rivojlantirishdagi o'rni, boshlang'ich sinf o'quvchilarga masal o'qitish metodikasi berilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinf, xarakter, masal, satirik, Ezop tili, Gulxaniy, sujet. Masal – axloqiy, satirik va kesatq mazmunni kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar - hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulguli savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan qissa – ibratli xulosa chiqariladi. Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa sujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli tugun kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik pyesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi.

“Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan “yashirincha” tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, “Ezop tili” deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan”. Ezop quldorlik jamiyati sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o'zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo'lgan. Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o'zbek masalchisi Gulxaniy ham “ezop tili”da yozganlar. Fransuz shoiri Lafontenning masallari ham mashhur. A.Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, “SHer bilan Durroj”, “Kabutar” singari masallari yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi. O'zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an'alarini davom ettirganlar, bolalarbop ko'pgina masallar yozganlar.

Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o'qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning “Bahoriyot” (“Hayvonotnoma”) asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o'qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi. Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan chayon”, “Mamun bilan Najjor” masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi.

Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kuni-dan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas, mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoiylik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi. Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, bep-arvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang'ich sinf “O'qish kitobi” darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o'rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi.

Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi.

“Qaysar buzoqcha” (O.Qo'chqorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya'ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan “Bo'linganni bo'ri yer” hikmatida o'z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. SHoir esa bundan juda ustalik bilan foyda-



langan. “*CHumoli va Tipratikan*” masali esa nasriy turga mansub bo’lib, unda CHumoli timsoli orqali bolalar halollikka o’rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo’lishidan qat’iy nazar, so’rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da’vat etiladi. Masalni o’qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o’zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o’rganadilar.

Boshlang’ich sinf darsliklarida berilgan *Qaysar buzoqcha*, *CHumoli va Tipratikan*, *O’jar Toshbaqa*, *CHayondan so’radilar* kabi masallar joy olgan. Bu masallarning qahramonlari ham hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo’shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi. Qaysar buzoqcha ham to’dasidan ajralib, bo’riga duch keladi, ya’ni ko’ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

Masalning allegorik mazmuniga to’xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o’xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinf dan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o’zaro munosabatlari ba’zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko’proq she’riy tarzda bo’lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar. Masallarda yashiringan o’tkir kinoya, voqealarning tez-tez o’rin almashinib turishi uni bir maromda o’qishga xalaqit beradi. SHuning uchun ifodali o’qishga yetarli malaka hosil qilmagan o’quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.Qosimova. Boshlang’ich sinflarda ona tili o’qitish metodikasi
2. U.Masharipova. O’qituvchilar uchun metodik qo’llanma.
3. Boshlang’ich sinf ona tili va o’qish savodxonligi darsliklari.



BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Xalillayeva Matluba Muhammadsharifovna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Kurambayeva Mavluda Egamberganovna

Xorazm viloyat Gurlan tuman

30-umumiy o‘rta ta’lim maktabi

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabdagi ta’lim jarayonida elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Boshlang‘ich ta’lim tizimida yangi pedagogik texnologiyalar, shu jumladan, axborot texnologiyalari yordamida bilim olishni rivojlantirishi haqida qisqacha yoritilgan.

Kalit so‘zlari: ta’lim jarayoni, axborot kommunikatsiya texnologiyalari, multimedia, electron darsliklar, elektron taqdimot.

Boshlang‘ich sinfda ta’lim va tarbiya samaradorligiga erishishda, birinchi navbatda, o‘quvchilarning zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirishiga tayyorgarligi va keyinchalik mustaqil ta’lim olishlarida ular yordamida qo‘lga kiritgan axborotlardan foydalanishga qodirligi nazarda tutiladi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni bilim berish amaliyotida turli xil maqsadli chora tadbirlarni ishlab chiqishi, birinchi navbatda o‘quv -tarbiyaviy jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishi juda muhimdir.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimediyadan foydalanish o‘qituvchiga:

- darsni zamonaviy tarzda modellashtirish;
- bilimlarini chuqurlashtirish uchun qo‘shimcha ma’lumot va axborotlarga ega bo‘lish;
- nazariy va mustaqil ishlashni tayyorlash imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonida multimediyadan foydalanish o‘quvchilarga:

- fanga qiziqish uyg‘otish, o‘z bilimlarini nazorat qilish va mustahkamlash;
- ensiklopedik ko‘rinishdagi axborotlarni tezkor olish;
- mavzuni o‘rganishda o‘zi uchun qulay bo‘lgan tezlik va o‘zlashtirish darajasini tanlash;
- zamonaviy axborot - kommunikatsion texnologiyalarga jalb qilish, uni egallash va unga

doimiy ishlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish imkoniyatlarini beradi.

Ayniqsa, 1-4- sinf o‘quvchilari ko‘rgazmali - obrazli tasavvurga muhtoj bo‘ladi. Shuning uchun ta’lim berishda imkon boricha ko‘proq sifatli illyustrativ materiallardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ularga yangi bilim berish jarayonida nafaqat ko‘z orqali ko‘rish mumkin bo‘lgan, balki eshitish, hissiyot, tasavvur qilishga yordam beradigan vositalardan keng foydalanish lozim.

O‘quv ma’lumotini qabul qilishda o‘quvchilarning qanchalik ko‘p his – tuygulari qatnashsa, shunchalik ozlashtirishi tezlashadi. Bu imkoniyatni multimediali korgazmali ta’lim amalga oshiradi.

Multimediali darslar quyidagi didaktik masalalarni hal qilishga yordam beradi:

- fan boyicha asosiy bilimlarni ozlashtirish;
- ozlashtirilgan bilimlar izchilligini ta’minlash;
- oz – ozini nazorat konikmasini shakllantirish;
- bilim olishga bolgan ehtiyojini rivojlantirish;
- oquvchilarni oquv materiali ustida mustaqil ish olib borishlarida oquv - metodik yordam

korsatish.

O‘quv topshiriqlarini multimediali vositalar yordamida oquvchilarga taqdim etish bir qadar qulayliklar tugdiradi. Chunki multimediali vositalar oquvchilarning mustaqil faoliyat korsatishlarini ta’minlashga xizmat qiladi. Har bir oquvchini oqituvchi hamda sinfdoshlari bilan muloqotga kirishish, hamkorlik qilishga undaydi.

Ilmiy tadqiqotlarda shu narsa ta’kidlanmoqdaki, axborot kommunikatsiya texnologiyalari oquvchilarning nazariy, ijodiy va refleksiya tafakkuri rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Oquvchining xotirasida u yoki bu hodisa, jarayonning obrazli tarzda saqlanishi oquv materialini



boyitib, uning o'zlashtirilishiga yaqindan yordam beradi.

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli bolgan. Oquv faoliyatlari yangi turlarining paydo bolishidir.

Boshlangich sinflarda oquvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, idrok va tasavvur qilish faolligini saqlab qolish va oquvchini bilim olish maqsadida ta'lim jarayoniga kirib borishi uchun yetarli va kerakli sharoit yaratish, uning salomatligini va emosional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Boshlangich ta'limda oquvchilarning barcha xususiyatlarini shakllantirishda axborot - kommunikatsion texnologiyalarining oz orni bor. Axborot - kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish va ular yordamida oquvchilarni har tomonlama bilimini oshirish, jamiyat uchun yetuk insonlar qilib tarbiyalash eng dolzarb mavzulardan biri bolib kelmoqda. Buning uchun har bir sohani organish, izlanish va tajriba orttirish, turli usul va yangi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish kerak boladi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oliy ta'lim tizimigacha yoshlarga bilim berish, tarbiyalash, ularning ijtimoiy, huquqiy savodxonligi va madaniyatini shakllantirishda yangi axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Multimedia - bu obyekt va jarayonlarni an'anaviy matn shaklida emas, balki fotorasm, video, chizma, animatsiya, ovoz yordamida namoyish qilishdir. Boshlangich sinflarda fanlarni multimedia texnologiyalari asosida oqitish katta samara beradi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi boyicha dars ishlanmalari yaratilishi lozim. Ana shu ishlanma asosida barcha mavzularga oid axborot texnologiyalari vositalari yordamida bayon etilishi lozim bolgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot slaydlar tayyorlanib, videoprojektorlar orqali oquvchilarga tushuntirilsa maqsadga muvofiq boladi. Multimediali taqdimot nafaqat matnli va korgazmali balki ovozli, animatsiyali bolishi oquvchilar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega boladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining ta'lim jarayoniga joriy etilishidan asosiy maqsad - aynan zamonaviy axborot muhiti uchun xarakterli. Bo'lgan o'quv faoliyatlarining yangi turlarini yaratishdir.

Xulosa qilib shuni aytish joyizki, ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan isloh qilishdan kozlangan bosh maqsadimiz- barkamol insonni shakllantirish orqali oz kelajagimizni ta'minlashdan iboratdir. Boshlangich sinflarni oqitishda axborot - kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish oquvchilarni kerakli axborotni tanlashni, uni saqlab qolish va taqdimotlar tuzish yoki turli xildagi loyihalarni ishlab chiqish va bajarishda keyingi ishlarida foydalanishni bilib oladilar. Boshlang'ich sinfdanoq oquvchilar faqat daftardagina emas, balki bevosita kompyuterda ham topshiriqlarni bajara oladilar. O'quvchilar kompyuter bilan ishlashda birinchi konikmalarni oladilar, o'zlarining nazariy bilimlarini doimiy chuqurlashtirib va amaliy konikmalarini takomillashtirib boradilar. Darhaqiqat, kelajagimiz egalari bolmish yosh avlodni tarbiyalash, biz o'qituvchilardan ma'suliyat talab qiladi. Ayniqsa, kelajak avlodda mustaqil fikrlash, mantiqiy fikr yuritish kabi konikmalarni hosil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizho'jayev N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. Toshkent. TDPU. 2000
2. M.Allamova. Boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining nazaryasi va o'qitish metodikasi bo'yicha ma'ruza matnlari va amaliy mashg'ulotlar majmuasi.
3. Ф.Усманов. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвوماданий тадқиқи. URL:<http://library.ziyouet.uz/static/lib/reader-pdf/web/viewer.html?file=http://library.ziyouet.uz/uploads/books/251467/5e1c61965017c.pdf>
4. Таджикибаева М.А. Традиционные образы в узбекской джадидской поэзии // Проблемы востоковедения. 2012. 2 (56). - С. 53-58. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/traditsionnye-obrazy-v-uzbekskoy-dzhadidskoy-poezii-1>
5. Nabiyeva D.A., Nurmonova S.D. СОВРЕМЕННОЕ ЖАНРОВЕДЕНИЕ ИЛИ ГЕНИСТИКА: ТЕОРИИ, МЕТОДЫ, ПЕРСПЕКТИВЫ // Theoretical&AppliedScience.2020/4.-С.824-827.URL: <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=44843224>



CHET TILINI O'RGANISHDA "INTERFERENTSIYA" TUSHUNCHASING O'RNI

Xidiraliev Husain Rozmatovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti,
Arab filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishda “interfentsiya” tushunchasining o'rni va ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Jumladan, ushbu tushunchaning asosiy turlari – fonetik, semantik, leksik, grammatik, imlo, uslubiy, lingvistik, madaniy va ijtimoiy alohida to'xtalib, har bir turning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan.

Shuningdek, “interferentsiya” tushunchasini xorijiy tilni o'rganishda naqadar muhim ekanligi, ona tili xorijiy tilarni o'rganishda faqat “yordam” berish lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Turli missolar orqali “interfentsiya” tushunchasi keng yoritilgan.

Tayanch so'zlar: ona tili, chet tili, ta'sir, grammatika, fonetika, so'z boyligi, semantika, stilistika, lingvistika, o'quv jarayoni, natija, samaradorlik.

Hech qanday chet tilini o'rganish jarayoni ona tilisiz amalga oshirilmaydi. Ushbu jarayonni eng samarali tarzda tashkil qilinganda, shundagina ona tili chet tilini o'rganishda yordam beradi va unga xalaqit bermaydi.

Buning uchun talabalarga chet tilini o'rganish jarayonida ona tili bilan bogliq bo'lib, duch keladigan asosiy muammolarni o'rganish va bilish kerak.

Interferentsiya tilshunoslikda bir tilning ikkinchi tilga ta'sirining natijasini anglatadi. Jumladan, bu ona tilining ta'siridan kelib chiqadigan til tizimlarining o'zaro ta'siri, ona tili bo'lmagan tilning me'yordan chetga chiqish tizimidir. Tilshunoslar interferentsiyani lingvistik tizimlarning o'zaro ta'sirini tushunadilar, bunda bir tilning ayrim tuzilmalari yoki elementlarining boshqasiga nazorat qila olmagan holda o'tkazilish holati mavjud bo'lishida aks etadi. Ushbu hodisa og'zaki va yozma nutqda o'zini namoyon qilishi mumkin.

“Interferentsiya (lot. Inter - o'zaro, o'zaro va ferio - teginish, urish) - ikki tilli til sharoitida til tizimlarining o'zaro ta'siri, ona tili ta'siri ostida ikkinchi (chet) tilning normasi va tizimidan chetlanishda ifodalanadi...”

Chet tilni o'rganadigan kishi kamdan-kam hollarda til aralashuvi fenomeni bilan uchrashishdan qochadi. Odatda ona tili chet tiliga ta'sir qiladi. Interferentsiya og'zaki va yozma nutqda, shuningdek, barcha lingvistik darajalarda o'zini namoyon qilishi mumkin.

Olimlar interferentsiyani bir necha turlarga ajratadilar: fonetik, semantik, leksik, grammatik, imlo, uslubiy, lingvistik va madaniy, ijtimoiy-madaniy.

Interferentsiyaning ba'zi turlarining misollarini ko'rib chiqsak.

1. Talaffuzdagi xatolar (fonetik aralashuv). S.I. Bernshteyn xorijiy til talaffuzini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning asosiy sababini «talabalar xorijiy nutqidagi tovushni o'z ona tilining fonetik tizimi prizmasi orqali idrok etishlari bilan aniqladi. O'z ona tilidagi tovushlarni eshitish va talaffuz qilishning ko'nikmalariga ega bo'lib, ular xorijiy nutqdagi g'ayritabiiy tovushlarni o'zlarining til qoliplari va naqshlariga moslashtirib, ifoda etishadilar».

Ta'limning dastlabki bosqichida, ya'ni nutqning fonetik tomoniga e'tibor qaratilganda ham, keyingi o'rganish jarayonida ham chet tilidagi tovushlar o'rniga ona tilidagi tovushlarni tasavvur qilib, ularni ifoda etish osonroqdir.

Bu tilning lingvistik me'yorga himoya funktsiyasi kiritilganligi sababli sodir bo'ladi.

Ikkinchi til fonetikasini o'rganishda yuzaga keladigan muammolarga katta e'tibor bergan, taniqli tilshunos N.S. Trubetskoy: “Birovning nutqini tinglaganda, eshitgan narsalarimizni tahlil qilishda biz beixtiyor bizga yaqin bo'lgan ona tili «fonologik elak»dan foydalanamiz. Va bizning «fonologik elak» chet el tili uchun juda ham to'g'ri kelmasligi sababli, ko'plab xatolar va tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Chet tilidagi tovushlar bizdan noto'g'ri fonologik talqinni(interpretasiyani) oladi”.

Fonetik interferentsiya misollarini chet tilini o'rganishning dastlabki bosqichida deyarli har bir darsda eshitish mumkin. Avvalo, bu ona tili ta'sirida ba'zi bir xorijiy so'zlardagi urg'u joyining o'zgarishida aks etadi.

2. Semantik xatolar. “Tarjimonning yolg'onchi do'stlari”

Dunyo tillarining ko'pchiligining so'z boyligi tarkibida ikki yoki undan ortiq tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlarning ko'pligi mavjud. Umumiy so'zlarning mavjudligi ma'lum tarixiy sabablarga



bog'liq - ba'zi tillarning umumiy kelib chiqishi, turli tillarda gaplashadigan xalqlarning kundalik va madaniy muloqoti natijasidir. Yangi tushunchalarni belgilashda yunon va lotin tillaridan olingan so'zlar keng qo'llanilgan.

Tarjimonning soxta do'stlari - bu ikki tilda yozilishi yoki talaffuzi o'xshash, ko'pincha kelib chiqishi umumiy bo'lgan, ammo ma'no jihatidan farq qiluvchi juft so'zlar.

Semantik interferentsiya so'z ma'nolari darajasida namoyon bo'ladi. So'zlovchiga ma'lum bo'lgan hodisalar chet tilida ona tilidan farqli ravishda aks etishi bilan bog'liqdir:

So'z tallafuzlarining tutashgan holati (ammo ma'no jihatidan farqlanishi):

- Inglizcha "look" (qarash) va ruscha "лук" (piyoz) so'zi
- "elektr" so'zi ingliz tilida "elektr" degan ma'noni anglatadi, rus tilida esa "электрик" (kasb nomi) bilan bir xil talaffuz, ammo ma'nolari xar-xil/
- Francuz tilidan olingan «artist» - so'z, ingliz tilida "rassom", rus tilida "aktyor" degan ma'noni anglatadi.
- arabcha "ءازج" (jazaaun) "mukofot, mukofot" so'zi, o'zbek tilida "jazo" so'z ma'nosini anglatadi.
- arabcha "مفهم" (mafhumun) so'zi "tushunarli, aniq" so'zi, o'zbek tilida "tushunarsiz, tushunarsiz" so'z ma'nosini ifodalaydi.

2. Boshqa tildan olingan so'zning (заимствованное слово) ma'nosini o'zgartirish. So'zlar, odatda, ba'zi yangi tushunchalarga nom berish uchun boshqa tildan olinadi. Ko'pincha bunday so'zlar ma'nosi o'zgaradi. Ingliz *old-timer* so'z (keksa odam, faxriysi) ko'plab tillarda tor ma'noda ishlatiladi – masalan «eski mashina» ма'носида.

3. lingvistik-hududiy xatolar. Shuningdek, lingvistik va madaniy interferentsiyalar mavjud bo'lib, lug'aviy noto'g'ri tushunishdan iboratdir. Haqiqat shundaki, muayyan tilda so'zlashadigan odamlarning ongidagi har bir so'zning orqasida ma'lum bir tasvir yashiringan. Masalan, "the first floor" «birinchi qavat» britaniyalik avtomatik ravishda birinchi qavatning ustida joylashgan qavatni tushunsa, birinchi qavatning o'zini esa odatdagidek "the ground floor", deb nomlaydi. Shunday qilib, tushunchalarni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazmaslik uchun, til o'rganuvchilar odatda so'zlar bilan cheklanib qolmay, har bir so'zlar orqalaridagi tasvirlar bilan tanishishga intilishadi.

Shunday qilib, biz bilganimizki, lingvistik interferentsiya - bu boshqa tilni o'rganishda bir til me'yorlarini o'zlashtirish, bu muammo bo'yicha tadqiqot olib borib, biz til interferentsiya hodisasi tilning deyarli barcha darajalarida namoyon bo'lishini aniqladik. Shuning uchun chet tilini o'rganayotganda ona tilining ta'sirini hisobga olish va undan chetlanishga harakat qilish kerak.

Chet tilni o'rganishda lingvistik interferentsiya ta'sirini kamaytirish juda qiyin vazifa, ammo autentik, audio o'quv materiallari, gazeta, jurnallar, Internetdagi materiallardan foydalanish, shuningdek, maqsadli tilning xususiyatlari bo'yicha ishlarni to'g'ri tashkil etish interferentsiyaning sezilarli darajada pasayishiga olib keladi

Interferentsiya - bu ona tilining himoya funksiyasining namoyon bo'lishining natijasidir. Ushbu hodisaning mohiyatini tushunish sizga tillarning o'zaro ta'sir mexanizmini tushunishga imkon beradi. Bu, o'z navbatida, qiyinchiliklarni engish strategiyasini ishlab chiqishga yordam beradi. Boshida aytilganidek, ona tili chet tilini o'rganishga yordam berishi kerak, xalaqit bermasligi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. V. V. Akulenko "tarjimonning yolg'on do'stlari" haqida
2. Vinogradov, Adabiy tillarning muammolari va ularning shakllanishi va rivojlanish qonunlari // 1990).
3. Vinogradov V.A. Interferentsiya // Lingvistik ensiklopedik lug'at / Ch. tahrir. V.N. Yartseva. M., 1990 yil.
4. Karlinskiy A.E. Nutq interferentsiyasining tipologiyasi // Chet tilshunosligi va adabiyoti. Olma-ota, 1972. son. 2018-04-01 121 2.



О‘QUVCHILARDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLI VAZIYATLARNI BARVAQT ANIQLASH VA KORREKSION ISHLARNI TASHKIL QILISH

Xo‘jayeva Nilufar Quramboyevna

Xorazm viloyati Tuproqqal’a tumani

19-son maktab amaliyotchi psixologi

+ 99 964 59 79

Annotatsiya: Hozirgi kunda o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlar alohida kasb etmoqda. Mazkur maqola o‘quvchilarda yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni karreksiya qilishni ochib beradi.

Kalit so‘zlar: o‘quvchi, o‘smirlik, psixologik zo‘riqish.

Barchaga ma’lumki inson shakllanishi jarayonida bolalik, o‘smirlik, yoshlik davrlarini bosib o‘tadi.

Ularning har birida o‘zlashtirishi va yengib o‘tishi kerak bo‘lgan bir qator vaziyatlarga duch keladi.

Ayni paytda bolalikning ham, o‘smirlik va yoshlik davrining o‘ziga xos murakkab tomonlari mavjud. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng murakkab, krizisli, qarama qarshiliklarga boy bosqich sanaladi. O‘smir katta hajmdagi yechilishi kerak bo‘lgan ham obyektiv, ham subyektiv muammolar ichida yashaydi. Mazkur bosqichda o‘tkir gormonal transformatsiya orqali o‘smirning xulqiga, ichki holatiga, javob reaksiyasida, kayfiyatida, asosan, ”tez jahli chiqish”, ”tutoqish”, qo‘zg‘aluvchanlik, apatiya holatlari vujudga keladi. Bu davrda o‘smirlar o‘rtasidagi asosiy murakkablik o‘zini to‘g‘ri baholay olmaslik, yuqori darajada ta’sirchanlik va qo‘zg‘aluvchanlik, fizik va ruhiy garmonsizlik, o‘zining atrofidagi olamdan qoniqa olmaslik, yolg‘zlik hissi, begonalik, mavhumlik, ortiqcha xavotirlanish, istehzoli kulish kasali, haddan tashqari tashqi ta’sirlarga berilish, o‘z-o‘ziga ishonchsizlik va bedorlik kabilarga bo‘linadi.

Shu bois, ularning har biriga alohida yondashish, psixologik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganish talab etiladi. Aynan shu holat ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganiday ”Har qanday odam ham o‘smirlik chog‘ida, endigina voyaga yetib kelayotgan davrida jamiyatdan munosib o‘rnini topishi kerak. Aks holda bu narsa noxush oqibatlariga, ba’zan esa og‘ir fojialarga, hatto ijtimoiy larzalarga ham sabab bo‘ladi. Yosh yigit qizlarimizning ishda, turmushda, oilada va jamoada o‘z o‘rnini topa olmaslik holatlari ularning jamiyatda o‘z qadrini yo‘qotishga olib keladi. O‘z qadriga, o‘z shaniga ega bo‘lmagan inson hayotda ko‘p to‘siqlarga duchor bo‘ladi, beqaror va salbiy ta’sirlarga beriladi, uning shaxs sifatidagi yemirilishi ham tez kechadi”.

Maktab psixologlari bunday holatlarning oldini olish uchun o‘quvchilar bilan tez tez suhbatlashib, treninglar o‘tkazib, yangi metodikalardan foydalanib ulardagi yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni barvaqt aniqlab, korreksion ishlarni tashkil qilishlari zarurdir.

O‘quvchilardagi agressiya psixologik zo‘riqish, toliqish, xafagarchilik hamda dustriktiv holatlarni bartaraf etishda Loyterapiya metodikasidan foydalanish juda yaxshi natija beradi. Bunda bolalardagi fobiya holatlarining oldini olishni hamda injiqliklarini bartaraf qiladi.

Bugungi kunda yosh o‘quvchi qizlarimizda muammolar ko‘payib borayotganligini va buning oqibatida turli xil jinoyatlar sodir bo‘lmoqda.

Qizlarning inqirozli holatlarga tushishi, fobiyalar va o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligini bartaraf qilish uchun ”Matoterapiya” metodikasi juda yaxshi natija beradi. Bunda qizlardagi epchillik, ijodkorlik, chaqqonlik va irodaviy sifatleri ham shakllanadi. Bu metodikani o‘tkazish davomida o‘quvchi to‘grisida ma’lumot olish, psixologik holatini aniqlash, bola matorikasini bilish, bola shaxsining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash mumkin. Bunda qizlarning nutqiy faoliyati oshadi, emotsiya va his tuyg‘ularini rivojlantiradi, xotira va diqqatining barqarorlashuvi, ijodiy va faol hayotning rivojlanishi yaxshi bo‘ladi.

Shuningdek bu metodikalar bilan bir qatorda ”Raqsterapiya” metodikasi ham bizning mentalitetimizga mos, insonlar tabiatiga xos bo‘lgan kuchli motivatsiya bera oladigan metodikalardan hisoblanadi

Raqsterapiya-bu emotsional nomutanosibliigi mavjud bo‘lgan muomila qilmaslik, o‘zaro muomila muammosi bor o‘quvchilarda olib boriladi. Shaxsning o‘z tanasini sezishi rivojlanishi,



pozitiv obrazlarni yaratish, tadqiq qilish, jismoniy konfakt va shiddatli o‘zaro muomila orqali kuchli hissiyot uyg‘otishi bilan farq qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Nishonova Z.T. “Psixologik xizmat” T: TDPU, 2006 y
2. Adizova T.M.”Psixokarreksiya-T 2005 y
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi” T 1998-y



BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN TABIIY FANLARNI O'QITISH

Yuldasheva Chinora Yuldash qizi

Jumanova Salomat Baltaboyevna

Xorazm viloyati Yangibozor tumani

31 – maktab boshlang'ich sinf o'qituvchilari

Annotatsiya: ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda integratsiyaga asoslangan tabiiy fanlarni o'qitish haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: integratsiyalashgan ta'lim, integratsiyalashuv, steam.

Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, kelajak uchun barkamol avlodni tarbiyalash ishlari Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Ta'limga ushbu yangi yondashuv qanday paydo bo'ldi?

Bu nazariya va amaliyotni birlashtirishning mantiqiy natijasidir. STEAM Amerikada ishlab chiqilgan. Ba'zi maktablar bitiruvchilarning martabalarini e'tiborga olishdi va fan, texnologiya, muhandislik va matematika kabi fanlarni birlashtirishga qaror qilishdi va STEM tizimi shu tarzda shakllandi. (Fan, texnika, muhandislik va matematika). Keyinchalik bu erda Art qo'shildi va endi STEAM oxirigacha shakllandi. O'qituvchilar ushbu mavzular, aniqrog'i ushbu fanlardan bilimlar kelajakda talabalarning yuqori malakali mutaxassis bo'lib etishishiga yordam beradi, deb hisoblashadi. Oxir oqibat, bolalar yaxshi bilim olishga intilishadi va uni darhol amalda qo'llashadi.



Dunyo o'zgarib bormoqda, hatto ta'lim bir joyda turmasa ham.

So'nggi o'n yilliklardagi o'zgarishlar yoqimli, ammo shu bilan birga bizni havotirlantiradi. Ushbu yangi narsalarning ixtiro qilinishi bilan odamlar ilgari duch kelmagan ko'plab yangi muammolar mavjud. Har kuni yangi ish turlari va hattoki butun kasbiy sohalar paydo bo'ladi, shuning uchun zamonaviy o'qituvchilar o'qitadigan bilimlari va mahoratlari vaqt talablariga javob beradimi yoki yo'qmi deb o'ylashlari kerak.

O'zingizning g'oyangizni topishga bilim yordam beradi, ammo haqiqiy ish bu g'oyani haqiqatga aylantiradi.

Agar biz an'anaviy ta'limning asosiy maqsadi bilimlarni o'rgatish va bu bilimlardan fikrlash va ijod qilish uchun foydalanish deb aytsek, STEAM yondashuvi bizni olgan bilimlarni haqiqiy ko'nikmalar bilan birlashtirishga o'rgatadi. Bu maktab o'quvchilariga nafaqat ba'zi bir g'oyalarga ega bo'lish, balki ularni amalda qo'llash va amalga oshirish imkoniyatini beradi. O'sha haqiqatda ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimgina haqiqatan ham qadrli.

STEAM yondashuvining eng mashhur namunasi – Massachusetts Texnologiya Instituti(MIT).



Ushbu dunyo universitetining shiori “**Mens et Manus**” (Aql va qo’l). Massachusetts Texnologiya Instituti bolalarga STEAM tushunchasini oldindan o’rganish va tanishish imkoniyatini berish uchun STEAM kurslarini ishlab chiqdi va hattoki ba’zi ta’lim muassasalarida STEAM o’quv markazlarini yaratdi.

Statistikaga ko’ra, 2011 yildan buyon STEAM-kasblarga bo’lgan talab darajasi 17% ga oshdi, oddiy kasblarga bo’lgan talab esa faqat 9,8% ga oshdi, bu esa butun dunyo bo’ylab ushbu ta’lim tizimiga katta talabni ko’rsatadi.

Lekin bunday yuqori talab nima bilan bog’liq? Ko’pgina mamlakatlarda STEAM-ta’lim ba’zi sabablarga ko’ra ustuvor ahamiyatga ega:

Yaqin kelajakda dunyoda va shuning uchun O’zbekistonda muhandislar, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish mutaxassislariga talab juda yuqori bo’ladi. Uzoq kelajakda biz tabiiy fanlar bilan birgalikda texnologiya va yuqori texnologiyali ishlab chiqarish bilan bog’liq bo’lgan kasblarga ega bo’lamiz, ayniqsa bio va nanotexnologiya mutaxassislariga katta talab bo’ladi. Mutaxassislar texnologiya, tabiiy fanlar va muhandislikning turli sohalaridan keng qamrovli ta’lim va tajribaga muhtoj bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Internet saytlari.

Google.uz

Ziyo.net

Fayllar.org



ТА’ЛИМ ЖАРAYONIDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISH

Yusupova Shahnoza Shonazarovna

Xorazm viloyati Shovot tumani

23-maktab geografiya fani o'qituvchisi

Tel:90-438-72-95//yusupovashahnoza@gmail.com

Normatova Shirin Qadirovna

Xorazm viloyati Shovot tumani

23-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Tel:97-515-78-83/normatovashirin@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, reproduktiv, evristik, kreativ va STEAM yondashuv

Hozirgi kun ta'limining asosiy maqsadlaridan biri dars jarayonida o'quvchilarni faollashtirish orqali ularga bilim olish yo'llarini o'rgatish, ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiya usullarini samarali qo'llashdan iborat. Ona tili darslarida ta'limning interfaol usullaridan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirib, guruhlarda va hamkorlikda ishlashga o'rgatadi. Dars jarayonida ta'limiy o'yinlarni samarali qo'llash orqali o'quvchilarda tezkorlik, topqirlik, sezgirlik, bilim olishga va fanga bo'lgan qiziqishlari yanada oshadi. Bu borada prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday degan: "Hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq. Bugungi kunda maktab tizimidagi ta'lim va tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik bo'lib innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

Innovatsiya (in—likl, novus—yangil) yangilik kiritish, yangilik degan ma'noni anglatadi. Innovatsion ta'lim deganda odatda o'quv jarayoniga yangi (foydali) elementlar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya o'zgartirish bilan bevosita bogliq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining maqsadiga, mazmuniga, metod, texnologiyasiga, tashkil etish shakli va boshqaruv tizimiga, pedagogik faoliyatdagi o'ziga xoslik va o'quv-bilish jarayonini tashkil etishga; ta'lim darajalarini nazorat qilish va baholash tizimiga; o'quv-metodik ta'minotiga; tarbiyaviy ishlar tizimiga; o'quv reja va o'quv dasturlariga; o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bog'liq.

Mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta'lim oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Innovatsiya -amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir. Bu g'oya nazariyasi mohiyatining yaratilishiga nisbatan turli yondashuvlar va fikrlar mavjud bo'lib, uning mohiyati borasida fanda yagona fikr mavjud emas. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlar. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tuq'ilib, ta'lim mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli bo'ladi, shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiya-ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni yechish uchun yangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Ta'lim jarayonidagi innovatsiyaning maqsadi o'quvchilarning eng yuqori natijalarga erishishidan iborat. Boshqa turli-tuman o'z-o'zidan paydo bo'ladigan yangiliklardan farqli o'laroq, innovatsiya boshqariluvchi va nazorat qilinuvchi o'zgarishlar mexanizmini tashkil etadi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. «Innovatsion faoliyatning tuzilishini -ijodiy yondashuv, ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, muomala madaniyati tashkil qiladi. Innovatsion faoliyatning darajalari: reproduktiv, evristik, kreativ bo'lishi mumkin» Ta'lim jarayonidagi innovatsiyalar o'quvchilarda XXI asr ko'nikmalari bo'lgan, kreativlik, tanqidiy fikrlash, mustaqil fikrlash, mediasavodxonlik, axborot savodxonligi, yetakchilik va hamkorlikda ishlashni shakllantirishi kerak. Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan



maqsad-o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalanib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat. «Innovatsion faoliyat o'qituvchining o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi. U o'qituvchi tomonidan u yoki bu pedagogik vazifani hal qilishda qandaydir to'siqqa duch kelinib, uni muvaffaqiyatli hal etishga intilish asosida yuzaga keladi». O'qituvchi innovatsion faoliyatning subyekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, qo'llash hamda ommalashtirishda ishtirok etadi. U fandagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi kerak. Bugungi kunda ona tili va adabiyot ta'limidagi eng so'nggi yangiliklar ta'limdagi STEAM yondashuv va xalqaro baholash dasturlari, xususan, o'qish savodxonligiga tayyorlash jarayoni hisoblanadi..

O'qituvchini innovatsion faoliyatga tayyorlashda bir qator psixologik to'siqlar mavjud. Bularning birinchisi o'qituvchining o'zi ko'nikkan faoliyat chegarasidan tashqariga chiqishi juda qiyinligi, ya'ni o'qituvchilarda ijodkorlikning yetarli emasligi bo'lsa, yana bir sabab yangi va noma'lum narsalar har doim odamlarda cho'chish va xavfsirashni keltirib chiqarishidir. Ta'lim jarayonida har bir mavzuni axborot kommunikatsiya va ilg'or pedagogik texnologiya usullaridan foydalanib o'tish katta ahamiyatga ega. Davlat ta'lim standartlarida o'quvchilarning kommunikativ savodxonligini oshirish bosh maqsad qilib belgilangan. Buning uchun dars jarayonida elektron darslik, qo'llanma, dars ishlanma, o'quv film, videodarslar, slaydlar va ko'rgazmali materiallar bo'lishi lozim. O'quvchi darsni ma'ruza shaklida eshitishdan ko'ra, slaydlar orqali ko'rib, ba'zi mashqlarni bevosita kompyuterda bajarsa, o'zlashtirishi osonlashadi. Xullas, ta'lim jarayonida innovatsiyalardan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb masalasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PISA – 2015 Science Framework, OECD, 2017. www.oecd.org/about/publishing/corrigenda.htm
2. ziyonet.uz, eduportal.uz



TA'LIM JARAYONIDA KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISH

**Yusupova Nazakat Gayibnazarovna,
Atabayeva Chamangul Kurambayevna**

Xorazm viloyati Shovot tumanidagi
23-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari
Tel:99-438-74-87//yusupovanazokat@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada kreativ fikrlash haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, kreativ fikrlash, qolip va stereotiplar, evristik sifatlar

Bugun dunyoda yuz berayotgan yangilanishlarning harakatga keltiruvchi kuchi kreativlikdir. Atrofga boqsangiz, har tomonda inson ijodkorligining beqiyos va hayratlanarli namunalari uchun kelasiz: elektron xizmatlar, virtual reallik, to'rtburchak tarvuzlar, tuproqsiz hosil olish... Bularning barchasi inson tasavvuri, tafakkuri mahsuli. Bugun biz uchun odatiy tuyulgan kitob, musiqa, bino, samolyot, hatto lampalar ham qachonlar orzu va tasavvurda bo'lgan, keyinchalik aql-idrok samarasi o'laroq yaratilgan. Bugungi kunda g'ildirakning kashf etilishidan boshlangan yaratuvchanlik namunalari koinotda kezib yuribdi. Innovatsiyalar kundalik turmushimizda qulayliklar yaratadi, og'irimizni yengil, uzog'imizni yaqin qiladi. Shu tarzda kreativlik taraqqiyotning ajralmas bo'lagiga aylangan. Barcha sohada ijodiy fikrlovchi mutaxassislariga talab katta. Dunyoga mashhur dasturiy mahsulotlar, mobil telefonlar ishlab chiqaruvchi kompaniyalar mutaxassislaridan har kuni yangi g'oya so'raladi. Mehnat bozorida kreativ fikrlovchi mutaxassislariga talab oshib borayotgan ekan, ta'lim jarayonida o'quvchi-talabalarning noodatiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish, rivojlantirish dolzarb vazifadir. Haligacha ta'lim tizimida ko'plab yondashuv va metodlar ijodiy fikrlash emas, talqin va tahlilga, ya'ni berilgan ma'lumotni tushunib, to'g'ri yetkazishga, nari borsa, bir necha axborotni umumiyalashtirib, xulosa chiqara olishga yo'naltirilgan.

Xo'sh, ta'lim oluvchilarni qanday qilib kreativ fikrlashga o'rgatish mumkin?

Innovatsiya yaratish uchun tafakkurda qanday o'zgarishlar kechishi lozim?

Tasavvur bilimdan muhimmi? Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun dastlab bu tushunchaning mazmunini bilish lozim. Kreativlik inglizcha "create" dan olingan bo'lib, yaratish ma'nosini bildiradi. Kreativlik deganda insonning yangilik yaratish, muammolarni yechishga qaratilgan ijodiy qobiliyati tushuniladi. Uning tagzamidagi originallik, amaliylik, noodatiylik va erkinlik yotadi. Shuningdek, kreativ fikrlash muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash, bir nuqtaga turli rakursdan yondashishni anglatadi.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi kategoriya sifatida inson tafakkuri, ma'naviyatining ajralmas qismi hisoblanadi, u shaxs ega bo'lgan bilimlarning ko'pqirrali ekanligida emas, balki yangi g'oyalarga intilish, o'rnatilgan stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirishda, hayotiy muammolarni yechish jarayonida kutilmagan va noodatiy qarorlar chiqarishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, berilgan bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi, ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr, yangi g'oyaning paydo bo'lishi asosiy shartdir. Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatika qoidalarini "suv qilib ichib yuborgan" bo'lsangiz ham, insho yozolmasangiz, barchasi bekor.

Ko'pincha noodatiy fikrlar, yechimlar kutilmaganda inson xayoliga keladi. Buning uchun, avvalo, fikrlash jarayonidagi birxillikka, odatiylikka barham berilishi lozim. Qoliplardan voz kechamiz. Qoliplarning yuzaga kelishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, media mahsulotlarda taqdim etilayotgan shakl va ko'rinishlar ham yetakchi o'rin tutadi. Inson ommadan ajrab qolmaslik nuqtayi nazaridan hammaning fikriga qo'shiladi. Qolaversa, "oqim bo'ylab suzish" mustaqil fikrlashdan ko'ra osontuyuladi. Stereotiplar orqali fikrlaganda muayyan mavzu bo'yicha inson ongiga "so'rov" berilganida odatiy ma'lumot va mulohazalar yuzaga keladi. Kreativ fikrlovchi insonlar odatiy manzaralardan o'zgacharoq tasvirlarni ham tasavvur qilib, hech kim ilg'amagan jihatlarni payqaydi, yangilik yarata oladi. Eng ajablanarli jihati, ta'lim-tarbiya jarayoni ham bolalarni bir xil fikrlashga o'rgatib qo'yarkan. Mashhur ixtirochi va kashfiyotchilarning aynan maktabda ta'lim jarayonidagi bir xillikka ko'nikolmagani, qoliplarga sig'maganini ko'rish mumkin. Masalan, Albert Eynshteynning maktabdan haydalanishi yoki Dmitriy Mendeleyevning kimyo fanidan "uch" olgani bunga misol bo'ladi.

Ken Robinson tomonidan tayyorlangan va YouTube saytida 5 million marta tomosha qilingan "Maktab kreativlikni barbod etyaptimi?" nomli videolavhada ham shu xususida so'z boradi.



Harf o'rganish jarayonidayoq bolalarning belgilangan chiziqlar bo'ylab yozishi, topshiriqlarni bajarishda namunalar orqali ishlashi, darslarda asarni qanday tushunish kerakligi to'g'risida ma'lumotlar berilishi, pedagoglarning yaxshi bajaruvchilarni yaxshi baholashi natijasida bolalar qoliqlar doirasida fikrlay boshlaydi. Oqibatda ko'plab yoshlar topshiriq berilsa, namuna bormi, deb so'raydigan holga kelgan. Bu oldin mavjud bo'lgan modellar asosida ishlashga o'rganib qolish natijasi. Bunday vaziyatni bartaraf etish uchun o'quv jarayonida ijodkorlik sifatlarini tarbiyalashga ahamiyat qaratilishi maqsadga muvofiq. Agar o'quvchi savol tagidagi mohiyatni anglamasa, unda kreativ va evrestik sifatlar past hisoblanadi.

Qolip va stereotiplar asosida fikrlashning bir necha ko'rinishlari bor.

Masalan, qutbli tafakkur — hamma narsani ikki shaklda — yaxshi yoki yomon deb qabul qilish, dunyoni oq va qora rangda ko'rishdir. Aslida, yaxshi yoki yomon narsaning o'zi mavjud emas, uni fikrlarimiz shundayga aylantiradi. Har bir holat va jarayonning ijobiy hamda salbiy jihatlari bor. Bir tomonlama yondashuv, asoslanmagan xulosalar ham stereotiplar asosida fikrlashning ko'rinishlaridir.

Ijodkorlikni yuzaga keltirish uchun stereotiplarning ongosti darajasida ijoddan cheklovchi funksiya, shablonlardagi to'siqni anglash, qoliqlardan voz kechish zarur. Kumir, brend va modaga ergashish mustaqil fikr kushandasi hisoblanadi. Kiyinish, o'zini tutish, kasb tanlash, hatto fikrlashdagi taqlid bunyodkorlik faoliyatidan cheklashi mumkin. Shuning uchun nega aynan shu kiyimni tanladim, nima uchun shu ichimlikni xarid qilyapman, deb OAV, reklama orqali inson ongiga majburan singdirilayotgan ta'sirlardan voz kechish mustaqil qaror qabul qilishga, media qurshovidan chiqishga sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Инновацион таълим технологиялари / Муслимов Н.А. 2015. 81-б.
2. ziyonet.uz , eduportal.uz



Kurbanov E.E

GulDU o'qituvchisi

Telefon: +998938726977

eldorgdu85@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda mustaqillikning dastlabki kundan boshlab davlat siyosatining ustuvor vazifasi etib ta'lim tizimi belgilanganligi ma'lumotlar, raqamlar asosida, farmoyish, qarorlar asosida yoritib berishga xarakat qilingan. Bundan tashqari o'tish davri bo'lishiga qaramasdan davlat byudjetining asosiy parametrlari ta'lim tizimiga qaratilganligi va uning natijalari ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim tizimini rivojlantirishda xalqaro o'rni xam yoritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ta'lim-tarbiya, andoza, “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, DTS, MTM, BMT, YuNESKO, YuSAID, AYREKS, REAKS, Prezident maktablari, ta'limga jaratilgan kapital.

Ta'lim-tarbiya tizimida ustuvor vazifa sifatida avvalambor, uzluksiz ta'lim jarayoniga e'tibor qaratilish kerak. Ma'lumki, xalq ta'limining asosiy bo'g'inini uzluksiz ta'lim tizimi tashkil etadi. Shu sababli bu masalaga alohida diqqat-e'tibor qaratish darkor. Uzluksiz ta'limni davlat ta'lim standartlari va tegishli ta'lim dasturlari bilan ta'minlashda, avvalo, ularning jahon talablari darajasida bo'lishiga, yuksak ma'naviyat zaminida qurilganiga asosiy e'tibor berish kerak [1: 340-b].

Davlatimiz bozor iqtisodiyotiga o'tish munosabati bilan vujudga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, mustaqillikka erishganimizdan buyon biror yil ta'lim muassasalari qurilishi to'xtab qolgani yo'q. Hatto mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizda ham murakkab iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, respublikamizda 183 ming o'ringa ega bo'lgan 433 ta maktab, 41 ming o'rinli 227 ta bolalar bog'chasi qurildi. Jami, 1991-1999 yillar mobaynida yurtimizda salkam 800 ming o'rinli 2010 ta maktab, qariyb 100 ming kichikintoyini o'z bag'riga oladigan 543 ta bolalar bog'chalarida qurilib, ta'mirlanib foydalanishga topshirildi [2: 18-b]. 2018-yil Xalq ta'limi vazirligi ma'lumotlariga qaraganda tizimda umumiy maktablar soni 9691 taga yetgan bo'lib, shulardan boshlang'ich maktab – 16 ta, o'n yillik maktablar soni - 9584 ta, vazirlik xuzuridagi maktablar – 6 ta, maxsus maktablar – 86 ta, umumiy o'quvchilar soni 5821861ga yetgan [3]. Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aholining demografik ko'rsatkichi o'sishi, shaxar va tumanlarning kengayishi natijasida maktab tizimiga bo'lgan extiyoj ortgan sari ortmoqda.

Mamlakatimizda ta'limdagi izchillikni ta'minlash maqsadida maktagacha ta'lim muassasalari (bundan buyon MTM) faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida tarbiyachi-pedagog xodimlarining ish haqi shakli o'zgardi, turli imtiyoz va ustamalar belgilandi. Endi maktabgacha ta'lim ota-onalarning o'z ish faoliyatlarini bajarish davrida ularga qulayliklar yaratib beruvchi muassasadan, bolalarning ilk yoshligidan ta'lim-tarbiya beradigan darajadagi uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'g'iniga aylandi. Respublikada bolalar muassasalarining “oila bog'chasi”, “bog'cha-maktab” majmualari barpo etildi. Shu sifatlarga ko'ra bolalar bog'chalari unda ta'lim-tarbiya oluvchilarni maktabdagi o'quv-tarbiya jarayoniga puxta tayyorlab beradigan maskanga ham aylandi.

Umumta'lim fanlari bo'yicha Respublika olimpiadalarida 1–3-o'rinlarni, xalqaro olimpiadalarda 1-5-o'rinlarni olgan o'rta maxsus o'quv muassasalari bitiruvchilari va umumta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari testlar va qo'shimcha imtihonlarsiz mutaxassisliklari va olimpiadalar fanlari o'rtasidagi muvofiqlik inobatga olgan holda oliy o'quv yurtlariga imtiyozli qabul qilinadi [4].

2003-2004 yillarda AQSh davlat departamenti tamonidan moliyalashtirilgan hamda YuSAID va AYREKS tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan “O'zbekiston maktablariga kompyuter texnikasi” loyihasi doirasida respublikamizning 110 ta o'rta umumta'lim maktabi to'liq jihozlangan kompyuter sinfi bilan ta'minlandi va bularning 60 dan ortig'i internet tarmog'iga ham ulandi. “Tayanch ta'lim tizimini takomillashtirish” (REAKS) loyihasi o'qituvchilarning malakasini oshirish, jamoatchilik e'tiborini ta'lim jarayonini yanada ko'proq qo'llab-quvvatlashga jalb etishga yo'naltirildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 yanvardagi “Uzluksiz ta'lim tizimi uchun davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to'g'risida”, 1998 yil 13



maydagi “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida” qarorlari [5: 2-3-b] DTS va yangi o‘quv dasturlarini joriy etishga, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashga, yangi pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilishga, kasbga yo‘llash va psixologik-pedagogik diagnostikani amalga oshirishga keng imkoniyat ochib berdi.

Maktab bitiruvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish jarayoni uchun hukumatimiz tomonidan adolatli test mezonini ishlab chiqilib 1993 yildan qo‘llanila boshlandi. Davlat Test Markazi respublikamiz o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish natijalarini viloyatlar asosida qiyosiy tahlil etilganda shu ma’lum bo‘ldiki, 1996-2001 yillarda Toshkent shahri va Buxora viloyati o‘quvchilari I va II o‘rinlarni, Xorazm va Samarqand viloyatlari esa III va IV o‘rinlar uchun o‘zaro raqobatlashib kelishgan [6: 45-b].

Ta’limning sifat-samaradorligini oshirish omillaridan biri pedagogik faoliyat jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liqligidan kelib chiqqan holda kompyuterlashtirishga ahamiyat kuchaydi. 2001 yilda faqat 128 (1,3 %) ta maktabgina zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta’minlangan, mavjud kompyuter texnikasi internet tarmoqlariga ulanmagan edi. 2004 yilga kelib Pentium rusumli o‘quv kompyuter sinflari bilan jihozlanishi 2025 komplekt bo‘lib, 2001 yilga nisbatan 15 barobar ko‘paydi. Xuddi shunday, internet tarmog‘iga ulangan maktablar soni 104 tadan 168 tagacha (61 %) ga ko‘paydi, lokal tarmoqdan foydalanuvchi maktablar soni 4199 tani tashkil etdi. XTV tomonidan “Umumiy ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish strategiyasi” ishlab chiqildi [7] hamda 2005 yili 11-12 noyabr kunlari mazkur strategiya muhokamasiga bag‘ishlangan xalqaro konferentsiya o‘tkazilib, asosiy yo‘nalishlar belgilandi. “O‘zbekiston Respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to‘g‘risida” 2005 yil 28 sentyabrdagi PQ–191-son qaroriga asosan dastlab maktab ta’lim tizimini, keyinchalik Oliy va o‘rta ta’lim tizimini qamrab oluvchi Ziyonet axborot ta’lim tarmog‘i yaratildi [8].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentyabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tasarrufidagi texnik ijodiyot, badiiy ijodiyot, o‘lkashunoslik va ekologiya bo‘yicha “Barkamol avlod” bolalar maktabi, “Barkamol avlod” tuman (shahar) bolalar markazlari, Xalq ta’limi boshqarmalari huzuridagi axborot-resurs markazlari negizida “Bolalar kutubxonalari”ni tashkil etish taklifi ishlab chiqildi.

Xulosa qilib, shuni ta’kidlash lozimki umumta’lim maktablarida yangilanish, ta’lim mazmunida zamon talablari asosida yondoshish jarayonida tinimsiz izlanishlar, tadqiqot va tahlillar olib borildi. Ta’limdagi uzluksizlik, izchillik tamoyillari jamiyatimizda ro‘y berayotgan islohatlar ko‘lami bilan uyg‘unlashgan holda ya’ni hayotimizda ro‘y berayotgan voqea-hodisalar rivoji bilan bog‘langan holda olib borilmoqda. Shuni ham ta’kidlash joizki maktab ta’lim tizimini tubdan isloh etish jarayonida o‘tish davrining ma’lum muammolariga ham duch kelindi. Bunga qaramasdan davlat byudjetining katta qismi ta’limga qaratildi. Zero, ta’limga ajratilgan sarmoya – kelajakka qaratilgan ishonchdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida: T.6.-T.: O‘zbekiston, 1998.
2. Jo‘raev G‘.J. Ta’lim yangilanish yo‘lida. –T.: O‘qituvchi, 2000.
3. <https://m.kun.uz/news/2019/02/21/ozbekistonda-qancha-maktab-bor-va-ularda-necha-nafar-oquvchi-talim-oladi>
4. www.norma.uz/uz/bizning_sharhlar/olimpiyada_goliblari_qanday_imtiezlarga_ega_buladi# Xalq so‘zi. 1998, 13 may. Davlat Test Markazi axborotnomasi 2002-yil 2-soni.
5. Umumiy ta’limga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish strategiyasi. Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. T.: 2005. 11-12 noyabr.
6. <https://lex.uz/docs/946856>



ЭКОЛОГИК ТАРБИЯ – МАЪНАВИЙ ТАРБИЯНИНГ МУҲИМ СИФАТЛАРИДАН БИРИ

Қодиров Сардор Бахромович

Қашқадарё вилояти, Яккабоғ тумани

85-сонли мактабнинг биология фани ўқитувчилари

Аннотация. Ушбу мақолада мактабгача таълим, умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчи ёшларнинг экологик саводхонлик даражаси, ҳамда экологик маданияти ва унга эришиш йўллари ифода этилган.

Калит сўзлар. Экологик саводхонлик, экологик маданият, Авесто, миллат, ирк, дин.

Инсон ҳамиша табиат билан узвий алоқадорликда ҳаёт кечиради. Унинг ҳаётини она табиатдан – айрича тасаввур этиш мумкин эмас. Табиатдаги мавжуд нарсалар инсон ҳаётида жамият тараққиёти учун ниҳоятда зарурдир. Она табиат – инсоннинг яшаши учун барча моддий бойликларни бергани каби унинг маънавий дунёси баркамоллигини юксалтиришда ҳам муҳим аҳамият касб этади. “Она заминимиз бойлигимизнинг, мустақиллигимизнинг ва гўзал келажакка ишончимизнинг асосий манбаидир”. Дарҳақиқат, табиатни онага менгзаш ўринлидир. Она фарзандига ҳаёт бахш этгани каби табиат ҳам инсоннинг илк бор дунёни кўрганидан то сўнгги нафасигача унинг яшаши учун ҳаёт ато қилади, ўсиб-улғайиши учун шароит яратади, ўтган кунидан завқланиши учун гўзалликларни кўз ўнгида жилолантиради. Инчунун, табиатга меҳр одамзод аталмиш ҳилқатнинг гўдаклик онларидан қалбига сингга бошлайди ва бу жараён умрбод давом этади.

Азал-азалдан табиатни эъзозлаб, ардоқлаб келган она халқимиз фарзандига ёшлигиданоқ табиатга нисбатан меҳр нурларини сингдириб келганлиги учун қадимий ва гўзал Ватанимиз кўрки бетакрор қиёфа кашф этмоқда.

Аждодларимиз фарзандларига гўдаклик чоғлариданоқ наботот оламини ардоқлашни, мусаффо сувни ифлонлантирмасликни, она заминга ифлос нарсаларни тукмасликни, хайвонот оламини асраб авайлашни ўргатиш билан уларда она табиатга нисбатан меҳр – муҳаббат ҳисларини шакллантириб борганлар. Чунки табиатга меҳри кучли бўлган инсон она заминга ҳам ўзгача кўз билан қарайди, “Авесто”да айтилганидек, “Она табиатни тирик мавжудот сифатида улуғлашга интилади”.

Табиатга нисбатан меҳрли бўлган инсоннинг эл-юртига, миллатига, халқига, қариндош-уруғларига, борингки, тирик жонзотга нисбатан меҳру муҳаббати ҳам юксак бўлади.

Қалбига меҳр – шафқат, раҳмдиллик сингари юксак маънавий-ахлоқий фазилятлар доимо устувор бўлади. Бундай тоифадаги инсонларда маънавият юқори бўлиб, баркамолликка интилиш бекиёс даражада кучли бўлади, меҳнати, ақл-идроки ва тафаккурини эзгу ишларга, саховатпешаликка бахшида этади.

Инсоният тараққиётининг XX асридан бошланган экологик муаммо XXI асрда ўзининг юқори нуқтасига қараб бораётганлиги миллатидан, ирқидан, динидан, катъий назар барча инсонларни ташвишлантираётган оламшумул муаммо сифатида ер шарини қамраб олди.

Минг афсуслар ва надоматлар бўлсинки, ер юзининг жаннатмакон ўлкаси бўлган Она Ўзбекистонимиз ҳам мудҳиш экологик таъсирнинг домига мубтало бўлиб бораётганлиги барчамизда ташвишли ҳисларни ўйғотмоқда. Айниқса Орол денгизининг қуриши бугунги куннинг глобал муаммоси сифатида эътироф этилмоқда. Бу экологик хавфдан ризқ-рўзимиз, ҳаётимиз манбаи бўлган она табиатимизни имкон қадар асрай билиш барчамизнинг муқаддас бурчимиздир. Бунинг учун президентимизнинг пурҳикмат сўзларидан хулосалар чиқариб қуйидаги ишларга эътиборимизни қаратиш устувор вазифа бўлмоғи лозим.

Биринчидан, фарзандларимиз дунёни кўз очиб кўрганидан бошлаб оилада уларга она табиатни эъзозлаш ва ардоқлаш каби меҳр нурларини сингдириб бормоғимиз; **иккинчидан**, мактабгача таълим муассасаларидан гўдақларимизни кўпроқ табиат бағрида (японлар бўлгани сингари) сайр қилдирмоғимиз, улар онгига наботот оламининг сир-асрорларини сингдириб бормоғимиз, табиатга нисбатан меҳр-муҳаббат ҳисларини улғайтирмоғимиз; **учинчидан**, умумтаълим мактабларида ўқув режасидан олиб ташланган экологик дарсларни ўқув жараёнига қайта киритмоғимиз; **тўртинчидан**, ўрта махсус ва олий таълимда таҳсил олаётган ёшларимизга ҳам экологик тарбияни кўпроқ бериб бормоғимиз; **бешинчидан**,



юртимизда яшаётган аҳоли орасида она табиатни, она заминимизни ҳеч бўлмаганда ҳозирги ҳолатда асраб қолиш учун экологик тарбияга оид тарғибот-ташвиқот ишларини кенг суръатда амалга оширмоғимиз; **олтинчидан**, оммавий ахборот воситаларидан телевидение кўрсатувларида она табиатни асраб қолиш йўналишида туркум эшиттиришлар бериб борилиши маълум даражада ўзининг ижодий натижаларини беради.

Ўзимизни ўраб турган табиатни асрамоқ, инсонни асрамоқдир. Дунёга умид кўзи билан қараган инсоннинг умрига умр қўшиш демакдир. Мухтасар фикримизча, ҳозирги замон талабидан келиб чиқиб айтадиган бўлсак, экологик тарбия миллий, умуминсоний аҳамият касб этиб, маънавият, тарбия сифатлари орасидан юқорироқ ўринга кўтарилди. Бу эса балоғат ёшига етган баркамол ёшларни гўзал маскан бўлган Ўзбекистон деб аталмиш бетакрор диёрга бўлган муҳаббат ҳисларини янада юксалтириш, мустақиллик байроғи ҳилпираб турган Ватанимизни асраб-авайлашга ундайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Маънавият юлдузлари..Т.2005.
2. Р.Жумаев.Бошланғич экология. Т.2017.
2. Ишмухамедов.Р.Ж. Инновацион технологиялар ёрдамида таълим самарадорлигини ошириш йўллари. -Т.2004. 3 бет.



**МАКТАБ ИНФОРМАТИКА ВА АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ФАНИДА
О'QUVCHILARDA ALGORITMIK FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH**

Hamdam Toshpulatov

Jizzax Davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Telefon: +998995750207

Email: hamdamtb@gmail.com

Qamarov Nurmuhammad

Jizzax Davlat pedagogika instituti III bosqich talabasi

Telefon: +998930259933

Annotatsiya: Ushbu maqolada algoritmlar, algoritmning tarifi, algoritmlarning bugungi dunyo ilm-fanidagi o'rnini, maktab o'quvchilarida algoritmik fikrlash qobiliyatining rivojlantirishning ahamiyati, uning metodlari va algoritmik fikrlashni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltilgan.

Kalit so'zlar: informatika, axboroto texnologiyalari, algoritm, ijrochi, chiziqli algoritm, takrorlanuvchi algoritm, takrorlanuvchi algoritm, tsikl, old shartli tsikl, keying shartli tsikl.

Mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga algoritmlarni qurish ko'nikmalarini shakllantirish yordam beradi. Shuning uchun informatika kursiga «Algoritmash asoslari» bo'limi kiritilgan. Bo'limning asosiy maqsadi maktab o'quvchilarida algoritmik fikrlash asoslarini shakllantirishdir.

Algoritmik fikrlash qobiliyati deganda kerakli natijaga erishish uchun turli xildagi masalalarni hal qilishning harakatlar rejasini ishlab chiqarib olish qobiliyati tushuniladi.

Maktab o'quvchilarining algoritmik madaniyati deganda, algoritm tushunchasi va uni tasvirlash vositalari bilan bog'liq bo'lgan aniq g'oyalar, ko'nikma va malakalar to'plami tushuniladi.

Demak, algoritm tushunchasi o'quvchilarida axborotni kompyuterda avtomatik qayta ishlash haqidagi tasavvurlarini shakllantirishning birinchi bosqichidir.

Algoritmlar nafaqat hisoblash masalalarini, balki ko'pgina amaliy muammolarni hal qilishda ham qo'llaniladi.

Algoritmlarni tuzishda talabalar tahlil qilishni, taqqoslashni, harakat rejalarini tavsiflashni, xulosa chiqarishni o'rganadilar; o'z fikrlarini qat'iy mantiqiy ketma-ketlikda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Asosiy algoritmik tuzilmalarni o'rganishda vazifalarni tanlashda quyidagi jihatlarni hisobga olish zarur:

Uni hal qilishda qanday aqliy operatsiyalar "ishlaydi";

Masalaning qo'yilishining o'zi o'quvchilar tafakkurini faollashtirishga yordam beradimi;

Ushbu muammoni hal qilish jarayonida tafakkur rivojlanishining qanday mezonlarini qo'llash mumkin.

Muammoni tahlil qilish jarayonida muhokamani to'g'ri yo'nalishga yo'naltirish uchun turtki beruvchi savollardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu savollar ochiq xarakterli bo'lishligi kerak va hech qanday "to'g'ri" javobni anglatmasligi kerak. O'quvchilar shaxsiy fikrlash qobiliyatlariga mos ravishda faol va erkin intellektual izlanish olib boradilar.

Algoritmlarni ishlab chiqishda faqat asosiy konstruksiyalardan foydalanish va ularni standart usulda tasvirlash zarur, bu esa algoritm tuzilishini tushunishni osonlashtiradi, o'quvchilar diqqatini muhim bo'lmagan detallarga chalg'ib qolishlarini oldini olgan holda masalani yechish yo'lini topishga qaratadi.

Blok-sxemadan foydalanish bajarilayotgan jarayonning mohiyatini ajratib ko'rsatish, o'quvchilar tomonidan tushuniladigan, yodlab olinadigan va o'quv faoliyatida qo'llaniladigan tarmoqlanish va takrorlanish buyruqlarini aniqlash imkonini beradi.

Bir qator darsliklarda chiziqli algoritmlardan keyin o'rganilgan birinchi konstruksiya tsikldir, chunki bu algoritmning yozuvini qisqartirish imkonini beradi. Tsikl bu qoida tariqasida "n marta takrorlash" konstruksiyasidir. Buday yondashuv tsikllarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga olib keladi chunki tsikllar chiziqli amllardan sifat jihatidan farq qiladigan, amallarning konstruksiyali tashkilqilingan jamlanmasidir.

Birinchidan, oldingi (while) va keyingi (do while) shartli halqalarning boshqa turlari bir-biridan ajratilgan holda qabul qilinadi va asosiy xususiyat - harakatlarning takrorlanishi - bu vazifani boshqarmaydi.



Ikkinchidan, sikllarni tashkil qilishda zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalar e'tiborsiz qoldiriladi: tsiklni davom ettirish yoki tugatish shartini to'g'ri tanlash, tsikl tanasini to'g'ri tashkil qilish. "n marta takrorlash" tsiklidagi shartni tekshirish amalda ko'rinmaydi va tsiklik algoritm ko'pincha o'quvchilar tomonidan chiziqli, faqat boshqacha tarzda ishlab chiqilgan deb qabul qilinishda davom etadi, bu esa o'quvchilar uchun umuman tsikllarni idrok etishda noto'g'ri stereotipni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. Ashurov, N. Mirzaxmedova, N. Xayrullayeva. Algoritmash va dasturlash tillari. Uslubiy qo'llanma. T: "Bayoz", 2016
2. A. R. Azamatov, B. Boltayev. Algoritmash va dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma. T: "Cho'lpon". 2013 y.
3. <http://ziyonet.uz>



ТАЪЛИМДА МУАММОЛИ ЎҚИТИШ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Азимова Наргиза Турсунпўлатовна

Тошкент шаҳар Учтепа тумани

283-мактабнинг бошланғич синф ўқитувчиси

Аннотация: Муаммоли ўқитиш, ижодий жараёндан ностандарт илмий-ўқув масалаларни ностандарт усуллар билан ечишни тақозо этади. Ўқувчиларга машқ учун бериладиган масалалар, олинган билимларни мустаҳкамлаш ва малакалар ҳосил қилиш учун хизмат қилса, муаммоли масалалар эса фақат янги ечимлар излашга қаратилади. Ушбу мақолада юқоридаги масалалар баён қилинган.

Калит сўзлар: муаммо, муаммоли ўқитиш, ижодий жараён,

Ўқув материаллини муаммоли тақдим этилишининг моҳияти шундаки, унда ўқитувчи билимларни тайёр ҳолда тақдим этмасдан, ўқувчилар олдида муаммоли масалалар қўяди, уларни ечимининг йўллари ва воситаларини излашга ундайди. Муаммо, янги билимлар ва ҳаракат усуллар сари, ўзи йўлга бошлайди.

Шуни қатъиятлик билан таъкидлаш лозимки, бу ерда янги билимлар маълумот учун эмас, балки муаммо ёки муаммоларни ечими учун берилади. Анъанавий педагогик усулдаги – билимлардан муаммога қараб – ўқувчилар мустақил илмий изланиш кўникма ва малакаларини ҳосил қила олмайди, чунки уларга ўзлаштириш учун тайёр натижалар тақдим этилади. Муаммонинг ечими ижодий фикрлашни тақозо этади. Ўзлаштирилган билимлар шаблонларини такрорлаш билан боғлиқ бўлган репродуктив психик жараёнлар, муаммоли вазиятларда ҳеч қандай самара бермайди.

Муаммоли ўқитиш америкалик файласуф, психолог ва педагог Дж.Дьюннинг назарий қоидаларига асосланади ва XX асрнинг 20-30-йилларида тарқала бошлади. Дж.Дьюн ўқитиш учун қуйидагиларни асос қилиб белгилади: ижтимоий, конструкциялаш, бадиий ифодалаш, илмий-тадқиқий. Бу асосларни амалга ошириш учун қуйидагилар тавсия этилади: сўз, санъат асарлари, техник қурилмалар, ўйинлар ва меҳнат.

Бугунги кунда, муаммоли ўқитиш деганда машғулотларда педагог томонидан яратилдиган муаммоли вазиятлар ва уларни ечишга қаратилган ўқувчиларнинг фаол мустақил фаолияти тушунилади. Бунинг натижасида ўқувчилар касбий билимларга, кўникмаларга, малакаларга эга бўладилар ва фикрлаш қобилиятлари ривожланади.

Муаммоли ўқитиш, ўқитишнинг шахсга йўналтирилган технологияларга тааллуқли, чунки бу ерда шахс субъект сифатида қаралади, муаммоли вазиятларнинг мақсади – педагогик жараёнда ўзига хос қизиқиш уйғотишдир.

Агар инсон мунтазам тайёр билим ва кўникмаларни ўзлаштиришга ўргатилган бўлса, унинг табиий ижодий қобилиятини сўндириш ҳам мумкин; у мустақил фикрлашни «эсдан чиқаради» Фикрлаш жараёни муаммоли масалаларни ечишда аъло даражада намоён бўлади ва ривожланади.

Ўқувчи номаълум ечимни топиш учун мустақил ёки ўқитувчи ёрдамида изланади. Муаммони жамоавий ҳал этишда пайдо бўлувчи, субъект-объект-субъект муносабатлари ижодий фикрлашни фаоллаштиришга олиб келади.

Муаммоли ўқитишнинг бош психологик-педагогик мақсадлари қуйидагилардан иборат:

- ўқувчининг фикрлаш доирасини ва қобилиятларини ўстириш, ижодий кўникмаларини ривожлантириш;
- муаммони мустақил ечишда ва фаол изланиш даврида олинган билим ва кўникмаларни ўқувчилар томонидан ўзлаштирилиши, бунинг натижасида ушбу билим ва кўникмалар анъанавий ўқитишдагидан кўра анча мустаҳкам бўлади;
- ностандарт муаммоларни кўра олувчи, қўя олувчи ва еча олувчи ўқувчининг фаол ижодий шахсини тарбиялаш;
- касбий муаммоли фикрлашни ривожлантириш – ҳар бир аниқ фаолиятда ўзининг хусусиятларига эга.

Муаммоли ўқитишнинг асосий белгиси, бу илмий, ўқув ёки барча фаолият турларида пайдо бўладиган зарурий объектив қарама-қаршиликлар акси ҳисобланади. Бу эса барча соҳаларнинг ҳаракатлантирувчи ва ривожлантирувчи манбаидир. Шу сабабли муаммоли



ўқитишни ривожлантирувчи деб аташ мумкин, зеро унинг мақсади – билимларни, фаразларни шакллантириш, уларни ишлаб чиқиш ва ечишдан иборатдир. Муаммоли ўқитишда фикрлаш жараёни фақат муаммоли вазиятни ечиш мақсадида жорий этилади, у ностандарт масалаларни ечиш учун зарур бўлган фикрлашни шакллантиради.

Муаммоли ўқитиш самарадорлигининг тўртта бош шарти мавжуд:

- муаммо мазмунига қараб етарли қизиқиш уйғотишни таъминлаш;
- муаммо ечимидаги ҳар бир босқичда пайдо бўладиган ишларни бажара олиш мумкинлигини таъминлаш (маълум ва номаълумлар нисбатининг мақбуллиги);
- муаммо ечимида олинадиган ахборотни ўқувчилар учун муҳимлиги;
- педагог ва ўқувчи орасидаги муносабат хайрихоҳлик руҳида кечиши, яъни ўқувчилар томонидан билдирилган барча фикр ва фаразлар эътибор ва рағбатсиз қолмаслиги зарур;

Ҳар қандай ўқув материали ҳам муаммоли баён этишга мос келавермайди. Ўқувчиларга фан тарихини ўргатишда муаммоли вазиятларни яратиш осон. Фаразлар, ечимлар фандаги янги маълумотлар такрорий босқичидаги анъанавий тасаввурларнинг инқироzi, муаммога янгича ёндашувларни излаш ва ҳоказолар муаммоли баён этиш учун мос келувчи мавзулар ҳисобланади. Кашфиётлар тарихи орқали изланиш мантиқини эгаллаш – муаммоли фикрлашни шакллантиришнинг асосий истиқболли йўллардан биридир.

Муаммоли вазиятлар киритилиб, анъанавий, баён этиш ўқув материалининг энг оптимал таркиби ҳисобланади. Педагог муаммоли вазият яратади, ўқувчини уни ечишга йўналтиради, ечимни излашни ташкил этади. Муаммоли ўқитишни бошқариш, педагогик маҳоратни талаб этади, чунки муаммоли вазиятнинг пайдо бўлиши индивидуал ҳолат бўлиб, табақалаштирилган ва индивидуаллаштирилган ёндашувни талаб этади.

Адабиётлар:

1. Сайидахмедов Н. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. – Т.: Таълим маркази, 1999. -55 с.
2. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии.- М., Народное образование, 1998. – 130 с.



РОЛЬ РУССКОГО ЯЗЫКА В СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ СТРАН СНГ

Астанов Шахзод Шойимович,
курсант 1-ого курса Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан
Наркулова Индира Рустам кизи,
доктор философии по педагогическим наукам
(PhD), преподаватель кафедры «Изучение языков»
Университета общественной
безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: в статье рассматриваются роль и статус русского языка в социальной жизни стран СНГ.

Ключевые слова: русский язык, статус русского языка, мировой язык.

Неотъемлемой частью культуры каждой страны является ее язык. В свою очередь, язык является инструментом культуры, который формирует личность человека, его видение мира, менталитет, отношение к людям. Русский язык не является исключением. Во второй половине XX века русским языком как родным, неродным или иностранным, владело более 300 млн человек по некоторым подсчетам – до 500 млн человек. На русском как основном государственном языке разговаривали 286 млн человек, его изучали в более чем 100 государствах мира. Русский язык был и продолжает оставаться одним из ведущих мировых языков. Сейчас русский язык занимает в мире третье место после китайского свыше 1 млрд и английского (750 млн). Русский язык – это один из 6 официальных языков ООН, официальный или рабочий язык в большинстве авторитетных международных организаций, таких как МАГАТЭ, ЮНЕСКО. В мире на русском языке говорят более 300 млн человек, в том числе более 140 млн считают его своим родным языком. Русский язык является языком общения более 160 народов и национальностей.

Распад СССР и образование на его территории самостоятельных и независимых государств породили множество труднейших проблем не только в области экономического и государственного строительства, но и в области культуры. Особенно сложная ситуация возникла в такой важной сфере, как положение и роль русского языка и его отношение к языкам титульных наций во всех новых государствах Содружества.

Сегодня русский язык пока еще играет роль языка межнационального общения. Русским языком в ряде стран СНГ продолжают пользоваться в деловых кругах, финансовой и банковской системах, в некоторых госструктурах. Большинство населения этих стран (около 70 %) еще достаточно свободно им владеет.

Необходимо проследить, насколько возможно сохранение соответствующего уровня владения русским языком в отдельных регионах Содружества.

В Центральной Азии наиболее устойчивая ситуация владения русским языком наблюдается в Казахстане, несколько хуже в Киргизии. Впрочем, уже в ближайшее время, из-за уменьшения доли свободно владеющих русским языком в Казахстане, произойдет выравнивание позиций русского языка в этих двух странах. В Таджикистане дела обстоят значительно хуже: взрослое население плохо владеет русским языком, а молодежь – почти не знает.

В Киргизии русский язык имеет статус официального языка в соответствии со статьей 5 Конституции Киргизской Республики 2007 года и законом «об официальном (русском) языке Киргизской Республики» 2000 года русский язык объявлен обязательным в органах государственной власти и местного самоуправления.

В Таджикистане, в соответствии с Конституцией Республики Таджикистан 1994 года государственным языком является таджикский, русский – языком межнационального общения. Перевод с 1998 года делопроизводства в стране на таджикский язык сузил сферу использования русского языка.

В Азербайджане, согласно Конституции Азербайджанской Республики и Закону «О государственном языке», государственным является азербайджанский язык. В республике обеспечивается свободное использование и развитие других языков. Статус русского языка не определен, однако фактически русский язык выполняет функцию языка межнационального



общения.

В Узбекистане в редакции «Закона о государственном языке» до 1995 года русский язык имел статус языка межнационального общения, но по новой редакции «Закона о государственном языке», принятой 21 декабря 1995 года русскому языку отводится роль языка «национального меньшинства».

Во всех странах русский язык востребован как средство общения с русскоязычными гражданами на работе и в быту.

Таким образом, мы можем сказать, что русский язык является очень важным звеном в социальной жизни людей СНГ.

Литература:

1. Namozova D.B. Difficulties cadets face while practicing listening and the ways of eliminating them / EPRA International Journal of Research and Development (SJIF Impact Factor 7) Volume 7. 2021. P.36–38;
2. Rashidova Munavvar Xaydarovna. 2021. Sociolinguistic competence as the main component of intercultural communicative competence. EPRA International Journal of multidisciplinary Research. Volume 7. Issue 3. pp.4-6
3. Утенбаева, Гульжазира Мухтаровна. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ КУРСАНТОВ ВВОУ РУЗ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ С ЦЕЛЬЮ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ИХ СТРАТЕГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ // ORIENSS. 2021. №Special Issue 1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osobennosti-obucheniya-russkomu-yazyku-kursantov-vvou-ruz-s-ispolzovaniem-innovatsionnyh-pedagogicheskikh-tehnologiy-s-tselyu> (дата обращения: 08.06.2022).

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 10-ҚИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусахҳиҳ: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.06.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000